

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**



**NAMANGANMUHANDISLIK- QURILISH INSTITUTI**

**IQTISODIY TA`LIMOTLAR TARIXI  
fanidan**

# **O`QUV –USLUBIY MAJMUUA**



**NAMANGAN 2017**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN  
MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUT**

Ro'yxatga olindi 2017 yil



**KASB TA'LIMI (IQTISODIYOT) KAFEDRASI**

**IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI  
fanidan**

**O'QUV -USLUBIY MAJMUA**

**NAMANGAN 2017**

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidan o'quv-uslubiy majmua 5111000-Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) va 5230200-Menejment ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: kat.o'qit.A.Kamalov (NamMQI)  
ass.I.Xodjiboyeva (NamMQI)

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

(\_\_\_-yig'ilish bayoni, \_\_\_\_\_2017 yil)

Ushbu o'quv-uslubiy majmua institutning ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

(\_\_\_\_\_-yig'ilish bayoni, \_\_\_\_\_2017 yil)

# MUNDARIJA

- I Sillabus
- II Fanni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.
- III Nazariy materiallar.
  - 1 Qadimgi dunyo iqtisodiy goyalari.
  - 2 Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar.
  - 3 O'rta osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar.
  - 4 Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat.
  - 5 Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati.
  - 6 Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz)maktabning shakillanishi.
  - 7 A. Smitning iqtisodiy ta'limoti.
  - 8 Klassik iqtisodiy maktabga muqobil foyalarning mohiyati.
  - 9 Bozor iqtisoditiga muholif – socialistik yunalish mohiyati va uning tarihiy tadbiri.
  - 10 Marjinalizm ta'limoti neoklassik iqtisodiy maktablar.
- IV Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar.
- V Keyslar banki.
- VI Mustaqil ta'lim mavzulari.
- VII Glossary.
- VIII Adabiyotlar ro'yxati.

# I. SILLABUS

<b>O'quv kursining to'liq nomi:</b>	IQTISODIY TA'IMOTLAR TARIXI		
<b>Kursning qisqacha nomi:</b>	ITT	Kod:ITT	
<b>Kafedra:</b>	Kasb ta'limi (Iqtisodiyot)		
<b>O'qituvchi haqida ma'lumot</b>	Kamolov Abduraxmon Axmadjonovich	<a href="mailto:akamolov@umail.uz">akamolov@umail.uz</a>	
<b>Semestr va o'quv kursining davomiyligi</b>	2 semestr (19 hafta)		
<b>O'quv soatlari xajmi:</b>	jami:	40	
	shuningdek:		
	ma'ruza	12	
	seminar	14	
	amaliy	0	
	mustaqil ta'lim	14	
<b>Yo'nalish nomi va shifri</b>	5111000	– Kasb ta'limi (5230100-Iqtisodiyot)	
<b>O'quv kursining statusi</b>	Tanlov (Umumkasbiy fanlar) o'quv kursi		
<b>Dastlabki tayyorgarlik:</b>	Kursni amalda bajarish uchun “Pedagogika.Psixologiya”, “Mutaxassislikka kirish”, “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Kichik biznes va tadbirkorlik” va boshqa iqtisodiy va ijtimoiy fanlardan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.		

Zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani talabalarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, iqtisodiy fikr, g'oya, nazariyalarning kelib chiqish tarixini, ularning mohiyatini, iqtisodiy maktablar, hozirgi zamon iqtisodiy yo'nalishlari, ularning asosiy qoidalarini yaxshi bilish, har bir nazariyaning o'ziga xosligini, uning asosiy tomonlarini, nazariya bilan amaliyotni bir-biriga bog'lab o'rganish zarurligini, har qanday iqtisodiy xulosa, yakun universal bo'lmasligini, shu bois ularning amal qilish xususiyatlarini to'g'ri tushinish uchun muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanni o'rganayotgan talabalardan o'z mutaxassisliklari bo'yicha chuqur iqtisodiy bilimga, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy fikrlash ko'nikmalariga, iqtisodiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, to'g'ri xulosa chiqarish mahoratiga ega bo'lishi talab qilinadi.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «... Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlari qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini

ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta. 2012 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi»<sup>1</sup>.

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari.**

**Fanni o'qitishdan maqsad** - "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining asosiy maqsadi- talabalar ongida turli davrlarda paydo bo'lgan va rivojlangan iqtisodiy g'oya va nazariyalar to'g'risida tushunchalar shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - Fanning vazifasi iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi g'oya va nazariyalarning mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyatini tahlil etish va baholash ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha bilim berishdan iborat.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, kunikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi o'quv fanini o'zlashtirish jaraynida amalgam oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr : Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, uning maqsad va vazifalari, kundalik haytda va asosiy atamalar tushunchalar haqida **bilishi kerak;**

Fanni o'kitishda ilgor pedagogik xamda axborot texnologiyalaridan usullaridan Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani mamlakatimizda fuqarolik jamiyati barpo etish hamda jahon moliyaviy inqirozi ta'sirini bartaraf etish sharoitida xo'jalik hayotining barcha sohalarida mashg'ul bo'lgan mutaxassislardan, shu jumladan iqtisodchilardan, modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda puxta ilmiy fikrlash, shu asosda amaliy hayotda tegishli tajriba orttirib samarali tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish talab qilinadi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy ahborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonabiy usullaridan foydalanish, yngi informasion-pedagogik tehnologiyalarni tadbiq qilish muhim ayamiyga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qullanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, electron materiallar, birtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi. Maruza, amaliy va laboratoriy darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogic tehnologiyalardan foydalaniladi.

"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fanining asosiy maqsadi- talabalar ongida turli davrlarda paydo bo'lgan va rivojlangan iqtisodiy g'oya va nazariyalar to'g'risida tushunchalar shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi g'oya va nazariyalarning mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyatini tahlil etish va baholash ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha bilim

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.

berishdan iborat. Fanni o`kitishda ilgor pedagogik xamda axborot texnologiyalaridan usullaridan foydalaniladi.

## **2. ASOSIY QISM**

### **MA`RUZA MASHG`ULOTLARI**

#### **1-mavzu. Qadimgi dunyo iqtisodiy goyalari.**

##### **O`quv modul birliklari**

1. Qadimgi Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar.
2. Qadimgi Yunonistondagi iqtisodiy ta'limotlar
3. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy g'oyalar

##### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilgandan so`ng:**

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va uslubi. Qadimgi sharqdagi ilk iqtisodiy fikrlar. Ko`hna Vaviloniya iqtisodiy fikrlari. "Avesto"dagi iqtisodiy fikrlar o`rganadi ..

Qadimgi xitoydagi iqtisodiy fikrlar. Konfutsiy ta'limotining o`ziga xosligi. "Guan-tszi" iqtisodiy g'oyalari. Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy g'oyalar. "Artxashastra" da ilgari surilgan iqtisodiy g'oyalar o`rganadi .

Qadimgi Gretsiyadagi iqtisodiy ta'limotlar. Ksenofontning mehnat taqsimoti, mamlakatning iqtisodiy holatini yaxshilash to`g`risidagi g'oyalari. Platonning ideal davlat to`g`risidagi g'oyalari. Aristotelning sotsial-iqtisodiy qarashlari o`rganadi.

##### **Tayanch so`z va iboralar**

Xammaurapi qonunlari, Konfusiylilik, Boylik taqsimoti, Legistlar, Daosizm, Manu qonunlari, Artxashastra, Buyumning qiymati, Islom, Ribo, Kitob ul ibar, Domostroy, Utopiya, Avesto, Hidoya asari, Zakot, Ehson, Ehtiyoj, Boylik mulk, Iqtisodiyotni boshqarish (Devoni buzruk va devon), Vazirlar vakolati yer egaligining 5 ko`rnishi, Ulufa (oziq ovqat, maosh), Soliqqa tortish tartibi, Ulug`bek islohotlari Tamg`a bojidagi o`zgarishlar.

#### **2-mavzu. Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar.**

##### **O`quv modul birliklari**

1. Arab mamlakatlaridagi dastlabki iqtisodiy g'oyalar. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldun.
2. G`arbiy Evropadagi iqtisodiy g'oyalarga qisqacha xarakteristika
3. O`rta asr utopiyalari

##### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilgandan so`ng:**

O`rta asrdagi iqtisodiy qarashlar va ularning o`ziga xos xususiyatlari. Arab mamlakatlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Qur`oni Karimdagi iqtisodiy ko`rsatmalar bilan tanishadi.



Ibn Xaldun va uning iqtisodiy g'oyalari. O'rta Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar. Abu Nosir Forobiyning ehtiyojlar, mulkchilik, taqsimot to'g'risidagi g'oyalari. Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy ishlab chiqarish, ehtiyojlarni qondirishda mehnatning roli to'g'risidagi g'oyalari. Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy qarashlari. Amir Temurning iqtisodiy qarashlari. Soliq tizimi, baho, qishloq xo'jaligini rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalari. Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari o'rganadi.

G'arbiy Evropadagi iqtisodiy g'oyalar. Kanonistlarning iqtisodiy qarashlari. Foma Akvinskiyning sotsial-iqtisodiy g'oyalari. Merkantilizmning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va mohiyati. Merkantilizm birinchi iqtisodiy maktab bilan tanishadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

“Avesto”, “Hidoya” asari, zakot, halol mehnat, halol luqma, ehson, ehtiyoj, boylik, mulk, davlat, iqtisodiyotni boshqarish (Devoni buzruk va devon), vazirlar vakolati, yer egaligining 5 ko'rnishi, ulufa (oziq-ovqat, maosh), soliqqa tortish tartibi, tanho, Ulug'bek islohotlari, “Fulusiy adliya”, tashqi savdoga etibor, tang`a bojidagi o'zgarishlar, A.Navoini vaqfiya (1482).

## **3-mavzu. O'rta osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar**

### **O'quv modul birliklari**

1. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni.
2. Markaziy Osiyo donishmandlari asarlarida islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalarning bayon etilishi.
3. Xalq og'zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar.
4. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar mohiyati.

### **Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabanning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o'zlashtirilgandan so'ng:**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret yen (Frantsiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi k'yrinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Frantsiya-kol bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri bilan tanishadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Merkantilizm, monaterizm, manafaktura, savdo kapitalining asosiy tamoyili, kolbertizm, kameralistika, proteksionizm, siyosiy iqtisod, aktiv savdo balansi.

## **4-mavzu. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat.**

### **O'quv modul birliklari**

1. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar.
2. Shoxruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar
3. Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarning mohiyati
4. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalar

### **Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o'zlashtirilgandan so'ng:**

XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. "Temur tuzuklari", undagi iqtisodiy g'oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoyishtalik; me'yoridagi soliqlar; davlat roli. Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul islohotining ahamiyati. Oltin va kumush tangalar o'rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar.

Dehqon, hunarmand mehnatining ulug'lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, hukmdorning roli.

Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin" va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil hisobi, yagona uzunlik va og'irlik o'lchovlarining kiritilishi.

Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.

### **Tayanch so'z va iboralar**

A.Temur iqtisodiy maktab, mehnat boylik manbai, tabiiy va siyosiy baholar, pulning miqdori, (iste'mol va almashinuv), Temuriylarning savdo, qishloq xo'jaligi, boylik va qashshoqlik nazariyalari.

## **5-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati.**

### **O'quv modul birliklari**

1. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari
2. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati
3. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining tarixiy taqdiri
4. Merkantilizm va hozirgi zamon

### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaniing vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilgandan so`ng:**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g`oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret yen (Frantsiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi k`yinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Frantsiya-kol bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

### **Tayanch so`z va iboralar**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g`oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret yen (Frantsiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi k`yinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Frantsiya-kol bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

## **6-Mavzu. Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz)maktabning shakillanishi**

### **O'quv modul birliklari**

1. Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va uning xarakteristikasi
2. Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari

### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaniing vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilganidan so`ng.**

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Vil yam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi), xususiyatlari qiymatning talqini. Iste`mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniklash. Ish haqi, yer rentasi, yer baxosi va foiz (protsentning) tahlili. P yer Buagil bering

qiymat talqini, iste`mol va ayirboshlash qiymati, pulga munosabat. Fiziokratizm iqtisodiy ta`limotining mazmuni va ahamiyati.

Fiziokratizm iqtisodiy ta`limotining vujudga kelishi (Frantsiya). Uning umumiy xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» kontseptsiyasi. «Sof maxsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish haqidagi g`oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. A. Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. Uning qiymat, kapital, ish haqi va sinflar to`g`risidagi g`oyalarining ahamiyati.

Fiziokratizm iqtisodiy ta`limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

### **Tayanch so`z va iboralar**

Iqtisodiy romantizm, mayda ishlab chiqarish, yirik sanoat, doktrina, sentiminital, liberal, yekletik, reoksion, liberal narodnik, konsentratsiya, uchinchi shaxslar, halq banki, ishchi puli, anarxizm.

## **7-Mavzu. A. Smitning iqtisodiy ta'limoti.**

### **O`quv modul birliklari**

1. Klassik maktab g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi
2. A. Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi...» asaridagi iqtisodiy qarashlar

### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilgandan so`ng:**

A.Smit asarlarida klassik maktab g`oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to`g`risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi.

A.Smit va fiziokratlar. A.Smit uslubi (metodi). Uning mehnat taqsimoti, ayirboshlash va pul haqidagi ta`limotlari. A.Smitning qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirishga qo`shgan hissasi.

Qiymatni talqin kilishdagi ziddiyatlar. Daromadlar nazariyasi, ish haqi, foyda, yer rentasining turli xil talqinlari. Foydaning ishchilar mehnatidan chegaralanganligi haqidagi ta`limot. Ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil kilishdagi ziddiyatlar (Smit dogmasi). Unumli va unumsiz mehnat talqini. Igor iqtisodiy dasturning asoslab berilishi. A.Smit va hozirgi zamon. Bozor iqtisodiyoti to`g`risidagi ta`limotlar.

### **Tayanch so`z va iboralar**

A.Smit asarlarida klassik maktab g`oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to`g`risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi.

## **8-Mavzu. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil foyalarning mohiyati.**

### **O'quv modul birliklari**

1. XIX asrning birinchi yarimida islohotchilik ilmiy konsepsiyalarining shakillanishi
2. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari, uning mayda ishlab chiqarish nazariyasi
3. P.J.Prudonning iqtisodiy konsepsiyasi.
4. K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari

### **Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o`zlashtirilgandan so`ng:**

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bulishining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Maltusning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish. T.Mal tusning realizatsiya nazariyasi.

J.Mill (otasi) D. Mak-Kullox va boshqalarning asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.S.Mill (o`g`li)ning tadqiqot predmeti va ijtimoiy islohot dasturi.

F.Bastia (Frantsiya), G.Keri (AQSh)ning kontsepsiyalari. Xizmat ko`rsatish nazariyasi. N.Seniorning «tiyilish» va «so`nggi soat» nazariyalari.

J.B.Sey. Uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch omili (kapital, yer, mehnat) va kapitalning qiymati unumdorligi haqidagi uylar. «Sey qonuni», umumiy ortikcha ishlab chiqarish ehtimolining rad etilishi.

Mayda tovar ishlab chiqaruvchilar g'oyalarining mohiyati XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy axvol, mayda ishlab chiqarish imkoniyatlari, yollanma mehnat kengayishi nazariyalarning rivojlanishi. Sismondi, Prudon va Rodbertus qarashlaridagi umumiylik, xususiylik. Sismondining iqtisodiy qarashlari. Sismondi (1773-1842) mayda ishlab chiqarishga munosabat; mehnat, qiymat va pul, ijtimoiy fanning ikki qismi: oliy siyosat va siyosiy iqtisod. Sismondi uslubiyati. Kapitalizmga munosabat, milliy daromad va kapital muammosi, uchinchi shaxslar nazariyasi. Prudon va Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari. Prudon (1809-1865) kapitalizmni isloh kilish kontsepsiyasi, qiymatning abadiy g'oyasi, belgilangan qiymat. Rodbertus (1805-1875)- qo`shimcha qiymat va taqsimot nazariyalari

Iqtisodiyotda matematik uslublar A.O.Kurno. «Talab qonuni», talabning elastikligi. I.G.Fon Tyunen. Iqtisodiy model . Optimallashtirish. Ekonometrikaga asos solinishi. Dastlabki marjinalistik g'oyalar (chegaraviy miqdorlar).

### **Tayanch so'z va iboralar**

Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish kontsepsiyasi, Sh. Tur yening iqtisodiy qarashlari, Sh.Tur ye qaysi davrda yashadi va ijod etdi, R. Ouen iqtisodiy qarashlarining o`ziga xos xususiyatlari, sotsialist-rikardochilarning namoyandalari yashagan davrning ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlari, iqtisodiy ta`limotlari tarixida sotsialist rikardochilarning tutgan o`rni.

## **9-Mavzu. Bozor iqtisoditiga muholif – socialistik yunalish mohiyati va uning tarixiy tadbiri**

### **O'quv modul birliklari**

1. XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sosializmning o'ziga xos xususiyatlari
2. A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouen iqtisodiy qarashlari
3. Sosialist-rikardochilarning (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari
4. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari
5. K.Marksning iqtisodiy ta'limoti
6. Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri

### **Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o'zlashtirilgandan so'ng:**

XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart-sharoitlari va uning umumiy xarakteristikasi.

A.Sen-Simon. Uning tarixiy kontsepsiyasi. Burjua jamiyatining tanqidi. Yangi industrial tizim loyihasi. Sen-Simonizm evolyutsiyasi. Sh.Furyening tarixiy rivojlanish kontsepsiyasi. Fure kapitalizm tanqidchisi sifatida. Bulajak uyushma (assotsiatsiya) haqidagi ta'limot. R.Ouen. Uning amaliy faoliyati, kapitalizm tanqidi. Jamiyatni sotsialistik o'zgartirish rejalari. «Mehnat pullari» va «adolatli ayirboshlash» loyihasi.

Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, mulk shakllarining tadqiqoti. K.Marksning «Kapital» asari, undagi asosiy g'oyalar. «Qo'shimcha qiymat nazariyasi». Xususiy mulkka munosabat. F.Engelsning «Anti-Dyuring», «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» va boshqa asarlarida sotsialistik jamiyat iqtisodiy asoslari ta'limotining rivoji.

V.I.Leninning «Rossiyada kapitalizmning taraqqiyoti», «Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi» va boshqa asarlardagi iqtisodiy g'oyalar. «Harbiy kommunizm» iqtisodiy siyosatiga berilgan baho. Yangi iqtisodiy siyosat. «Oziq-ovqat solig'i to'g'risida», «Kooperatsiya to'g'risida»gi asarlari.

Marks, Engels, Lenin iqtisodiy g'oyalarining tarixiy taqdiri va davr sinovidan o'tmaganligi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm, A.Sen-Simonning tarixiy kontsepsiyasi, burjua jamiyatining tanqidi, Sen-Simonizm evolyutsiyasi, Sh.Furyening tarixiy rivojlanish kontsepsiyasi, Fure kapitalizm tanqidchisi sifatida, Bo'lajak uyushma (assotsiatsiya) haqidagi ta'limot, R.Ouenning amaliy faoliyati, kapitalizm tanqidi, marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, mulk shakllarining tadqiqoti, K.Marksning «Kapital» asari, undagi asosiy g'oyalar. «Qo'shimcha qiymat nazariyasi», Xususiy mulkka munosabat. F.Engel sning «Anti-Dyuring», «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chikishi» va boshqa asarlarida sotsialistik jamiyat iqtisodiy asoslari ta'limotining rivoji.

## **10-Mavzu. Marjinalizm ta'limoti neoklassik iqtisodiy maktablar.**

### **O'quv modul birliklari**

1. Marjinalizmning umumiy ta'rifi va rivojlanish bosqichlari
2. Avstriya maktabi. Sub'ektiv - psixologik yo'nalish
3. U.Jevons va L.Valrasning marjinalistik g'oyalari

### **Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabanning vazifalari) talaba ushbu mavzuni o'zlashtirilgandan so'ng:**

Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Marjinalizmning umumiy ta'rifi. Rivojlanish bosqichlari.

Avstriya maktabi. K.Menger, ye.Byom-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmeti va metodlarining sub'ektiv-psixologik nuqtai-nazardan talqin qilinishi. «Sub'ektiv» va «ob'ektiv» boyliklar nazariyasi, protsent (foiz) va foyda manbaining psixologik nuqtai nazardan tushuntirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Valras.

Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'nalish. A.Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasi, neoklassik mikroiqtisodiyotning asosi, qisqa va uzoq davrlar, narxlar va ularni shakllantirish omillari to'g'risidagi ta'limot. «Elastiklik koeffitsenti uslubi».

J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning «Boylik falsafasi» va «Boylik taqsimoti» asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. «Ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdorligi to'g'risidagi qonuni».

Iqtisodiy jarayonlarda vakt ahamiyatini hisobga olish. J.B.Klarkning iqtisodiy qarashlari. «Statika» va «dinamika»ning uslubiy (metodologik) kontseptsiyasi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori unumdorligi nazariyasi.

Lozanna maktabi. Eng yuqori naf va eng yuqori unumdorlik nazariyasining matematik jihatdan tahlili. L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modeli. Ekonometrika. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat kontseptsiyasi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Marjinalizm. Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Marjinalizmning umumiy ta'rifi. Rivojlanish bosqichlari. Avstriya maktabi. K.Menger, ye.Byom-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmeti va metodlarining sub'ektiv-psixologik nuqtai-nazardan talqin qilinishi. «Sub'ektiv» va «ob'ektiv» boyliklar nazariyasi, protsent (foiz) va foyda manbaining psixologik nuqtai nazardan tushuntirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Valras. Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'nalish. A.Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasi, neoklassik mikroiqtisodiyotning asosi, qisqa va uzoq davrlar, narxlar va ularni shakllantirish omillari to'g'risidagi ta'limot. «Elastiklik koeffitsenti uslubi». J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning «Boylik falsafasi» va «Boylik taqsimoti» asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. «Ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdorligi to'g'risidagi qonuni». Lozanna maktabi. Eng yuqori naf va eng yuqori unumdorlik nazariyasining matematik jihatdan tahlili. L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modeli. Ekonometrika. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat kontseptsiyasi.

## SEMINAR MASHG`ULOTLARINING MAVZULARI VA SOATLARI

<b>№</b>	<b>Mavzularning nomi</b>	<b>Jami soatlar</b>
1.	Qadimgi dunyo iqtisodiy goyalari	1
2.	Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar	1
3.	O'rta osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar	2
4.	Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat	2
5.	Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati	1
6.	Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz)maktabning shakillanishi	1
7.	A. Smitning iqtisodiy ta'limoti	1
8.	Klassik iqtisodiy maktabga muqobil foyalarning mohiyati	1
9.	Bozor iqtisoditiga muholif – socialistik yunalish mohiyati va uning tarihiy tadbiri	2
10.	Marjinalizm ta'limoti neoklassik iqtisodiy maktablar	2
	<b>Jami</b>	<b>14</b>



## **MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAVZULARI**

Talabalar mustaqil ta'lim o'quv jarayoninig muhim shakllaridan biri hisoblanib, u ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulot darslarida va o'qishdan tashqari vaqtlarida amalgam oshiriladi. Fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ta'lim shakllari va mazmuni quydagilardan tashkil topadi;

- ma'ruza darslariga va mustaqil ish topshiriqlariga tayyorgarlik ko'rish;
- amaliy mashg'ulot darslarining mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;
- amaliyot mavzularini mustaqil bajarish;
- fanning alohida mavzulari ustida ishlash;
- reyting nazoratini barcha turlariga tayyorgarlik ko'rish.
- talabalarga tavsiya etilayotgan mavzulardan birini tanlab, referat, prezentatsiya, konspekt tayyorlash orqali amalgam oshiriladi.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqilta'limning mavzulari I-joriy nazorat mavzulari**

1. "Avesto"dagi iqtisodiy fikrlar va ularning zamonaviy talqini.
2. "Artxashastra"dagi iqtisodiy g'oyalari va ularning hozirgi kundagi ahamiyati.
3. Forobiyning moddiy ehtiyojlar, mulkchilik to'g'risidagi g'oyalari va ularning o'ziga xosligi.
4. F.Akvinskiyning "Odil narx" nazariyasi.

### **II-joriy nazorat mavzulari**

5. Merkantilizm iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan birinchi iqtisodiy qarash.
6. Merkantilizmning iqtisodiy ta'limotlar tarixida tutgan o'rnini.
7. J.S. Millning qiymat nazariyasi
8. K.Marksning "Kapital" asari mazmuni.
9. A.Smitning qiymatning mehnat nazariyasi.

### **I-oraliq nazorat mavzulari**

10. T.Maltusning "Nufuz qonunining o'ziga xos xususiyatlari"
11. K. Mengerning marjinal g'oyalari.
12. A. Marshal-zamonaviy baho nazariyasi asoschisi.
13. Monetarizm-zamonaviy nufuzli nazariya.
14. Monetar retseptlar va O'zbekiston iqtisodiyoti.

### **II-oraliq nazorat mavzulari**

15. Keyns zamonaviy makroiqtisodiy tahlil asoschisidir.
16. Multiplikator, akselerator nazariyalari.
17. Neoliberalizm va iqtisodiyotni tartiblash muammosi.
18. Ijtimoiy bozor xo'jaligida davlatning roli.
19. Iqtisodiy fanda sotsial-iqtisodiy institutsionalizmning paydo bo'lishi.
20. XX asr 40-70y. institutsionalizm.

### **Dasturning informasion-uslubiy ta`minoti**

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari, pedagogik va ahborot-kommunikasiy texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan.

- fanni bulimlariga tegishli ma`ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

- Iqtisodiy ta`limotlar tarixi mavzularida o`tkaziladigan mashg`ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

amaliy mashg`ulotlar mavzusi va mazmuni, bozor iqtisodiga asoslangan jamiyatqurish hamda xalqlar va davlatlarning birdan - bir va muqarrar yo`li bo`lib har bir talaba mustaqil davlatning iqtisodiy siyosatini, bozor iqtisodiyotiga o`tishning o`z modelini, uning shakllanish jarayonini hamda rivojlangan davlatlar bilan o`zaro iqtisodiy aloqalarini olib borishni kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash, pedagogik texnologiyalarni qullash nazarda tutiladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash

**Iqtisodiy ta`limotlar tarixi fani bo`yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari tartibi O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligining 2010 yil 29 avgustdagi 333-sonli OTM larida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risidagi Nizomga o`zgartirishlar qo`shimchalar kiritish haqidagi buyrug`i asosida ishlab chiqildi**

№	Mashg`ulot turi	Baholash shakllari va ballari						yakuniy-30 ball
		Joriy baholash-40 ball			Oraliq baholash-30 ball			
		20 I-jn	20 II-jn	40 jami	15 I-on	15 II-on	30 jami	
1	Ma`ruza	42	-	-	10 ball	10 ball	20 ball	30 ball (yozma)
2	Amaliy mashg`ulot	№ 1-3 15 ball	№ 4-5 15 ball	30	-	-	-	-
3	Mustaqil ta`lim	5 ball	5 ball	10		5 ball	5 ball	
	Hammasi			40			25	

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro`yhati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q"-T.: "Sharq", 1998
2. Karimov I.A. "O`zbekiston buyuk kelajak sari" -T.: "O`zbekiston", 1999
3. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so`zi. 23 yanvar 2011 y.
4. Karimov I. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O`zbekiston, 2012 y.

5. Karimov I. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 y.
6. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so'zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.
7. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" -T.: "O'zbekiston", 2009
8. Karimov I.A Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdirG' Toshkent : O'zbekistonn 2010
9. Bartenev S.A. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: Magistr, 2007
- 10.Menger K. Osnovaniya politicheskoy ekonomii. (Avstriyskaya shkola v politicheskoy ekonomii) - M: Ekonomika, 1992.
- 11.Marshall A. Printsipo' ekonomicheskoy nauki. - M.: Progress, 1993.
- 12.Oyken V. Ekonomicheskije sistemo'. - M.: 1993.
- 13.Samuel eon P. Ekonomika. - M.: Algon, 1992
- 14.Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. - M.: Ekonov,
- 15.Fridmen M. Kapitalizm i svoboda. – N yu-York, 1982
- 16.Fridmen M. Kolichestvennaya teoriya deneg. - M.: Elf-Press, 1996
- 17.Xayek F.A. Doroga k rabstvu. - M.: Ekonomika, 1992
- 18.Yuldoshev Q., Muftaydinov Q., Abdurahmonov V. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi T.: Iqtisod-moliya, 2006
- 19.Razzaqov A., Toshmatov Sh., Urmanov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi - T.: Moliya, 2002.
- 20.Yadgarov Ya.B. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: INFRA-M, :, 2006.
- 21.Egamov E., Allaberganov Z.G. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (ma'ruzalar matni) Toshkent-2010
- 22.20.Egamov E., Djumanov D. Zamonaviy iqtisodiy ta'limotlar (ma'ruzalar matni) Toshkent-2010.
- 23.**Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2011.**

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Boboev X., Xasanov S, Dustjanov T. Avesto - Sharq xalqlarining bebaxo yodgorligi. Toshkent Moliya instituta, 2004.
2. Bartenev S.A. Ekonomicheskije teorii i shkolo'. - M.: Bek, 1996,
3. Blaug M. Ekonomicheskaya mo'sl v retrospektive. - M.: Delo Ltd, 1994.
4. Vsemirnaya istoriya ekonomicheskoy mo'sli. - M.: Mo'sl , 1997.
5. Ibragimov A. Biz kim o'zbeklar. - T.: Shark. 1999
6. Islamov A., Egamov E. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Ma'ruzalar matni. T.: Iqtisod-Moliya. 2007.
7. Islomov A. , Egamov E.. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. - G.: Iqtisod-Moliya, 2005. 9. Kostyuk V.N. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: TSentr, 1998.
8. Mayburd Ye.M. Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy mo'sli. Ot prorokov do professorov. - M., Delo, Viga Press. 1996.
9. Muftaydinov K,- , Yuldashev K, Shark Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. - T.:A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

- 10.Surin A.I. Istoriya ekonomicheskix ucheniy M.: «Finanso' i statistika», 2002.  
 11.Yusupov Yu.K. Stanovlenie i razvitie ekonomicheskoy nauki. - T.: A.O. Uchkun, 1999.  
 12.Ro'jov I.V. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: «Perspektiva», 2004.

### Internet saytlari

1. [www.lib.ua-ru.net/content](http://www.lib.ua-ru.net/content)
2. [www.educate.co.ua/book](http://www.educate.co.ua/book)
3. [www.gumer.info/bibliotek\\_books.ekonom](http://www.gumer.info/bibliotek_books.ekonom)
4. [www.colibre.ru](http://www.colibre.ru)
5. [www.refine.org.ua](http://www.refine.org.ua)
6. [www.magelir.com/ebooks/text](http://www.magelir.com/ebooks/text)

### Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidan Axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalar haqida.

№	Adabiyot nomi,muallifi	Nashriyot nomi,yili	Soni	UDK raqami
1	Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.	Darslik ( <i>lotin yozuvida</i> ). - Toshkent.- "Iqtisod-moliya"- 2007 y.		
2	Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.	TDIU, G'Dasturchi U. Muslimov 2005.		
3	Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi.	Darslik.- T. "Iqtisod-moliya", 2010. – ...b. uyi		
4	Suto'rin S.F, i dr. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Ucheb. pos.	– M.: Eksmo, 2010.		
5	I.Karimov "asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir"	Toshkent O'zbekiston- 2010 y	660	66.3(5U)

**“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanidan texnologik xarita**

№	Mavzularning nomlari	Aud. soati (12 soat ma`ruza 14 soat amal.mashg)					KI, ki	Must. ta`lim	Tarqatma materiallar	Elektron materiallar	Tavsiya etilayotgan adabiyotlar raqamlari	Izo h
		ma`ruza	Amaliy mashg`ulot	Laboratoriya	Seminar	mashg`ulot						
1	Qadimgi dunyo iqtisodiy goyalari	1						Fan bo`yicha ma`ruza matni, test topshiriqlari, misol va masalalar, plakatlal	Iqtisodiy ta`limotlar tarixi fanidan elektron ma`ruza matni	1,2, 5.		
2	Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar	1					1,2, 4,5.					
3	O`rta osiyodagi temuriylar davrigacha bo`lgan iqtisodiy g`oyalar	2					1,2, 4					
4	Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g`oyalar va iqtisodiy siyosat	2					1,2, 3, 4,5					
5	Merkantilizm iqtisodiy ta`limotining mohiyati va ahamiyati	1					1,2, 3, 5.					
6	Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz)maktabning shakillanishi	1					1,2, 4, 5.					
7	A. Smitning iqtisodiy ta`limoti	1					1,3,6,7,9,12					
8	Klassik iqtisodiy maktabga muqobil foyalarning mohiyati	1					1,2, 3, 4.					
9	Bozor iqtisoditiga muholif – socialistik yunalish mohiyati va uning tarihiy tadbiri	1					1,2, 4,10,16					
10	Marjinalizm ta`limoti neoklassik iqtisodiy maktablar	1					1,2, 4.					
	<b>Ma`ruza mahg`ulotlari jami</b>	<b>12</b>										
<b>Amaliy mashg`ulot mavzulari</b>												
1	Qadimgi dunyo iqtisodiy goyalari		1				1	Amaliy mashg`ulotlarni bajarish bo`yicha		1,2, 4, 5.		
2	Feodal jamiyati va uning emirilishi davridagi iqtisodiy qarashlar		1				1		1,2, 3, 4.			
3	O`rta osiyodagi temuriylar davrigacha bo`lgan iqtisodiy g`oyalar		2				2		2, 3, 6, 7			

4	Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat		2				2			1,2, 3, 4.	
5	Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati		1				1			1,2, 4.	
6	Angliya va Fransiyada klassik (mumtoz)maktabning shakillanishi		1				1			1,2, 4.	
7	A. Smitning iqtisodiy ta'limoti		1				1			1,2, 3, 4.	
8	Klassik iqtisodiy maktabga muqobil foyalarning mohiyati		1				1			2, 5, 8	
9	Bozor iqtisoditiga muholif – socialistik yunalish mohiyati va uning tarixiy tadbiri		2				2			1, 2, 4, 7	
10	Marjinalizm ta'limoti neoklassik iqtisodiy maktablar		2				2			2, 3, 6, 7	
	<b>Amaliy mashg`ulotlar jami</b>		<b>14</b>				<b>14</b>				

## II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### 1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARNING TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI

Ma'ruza mashg'uloti – OO'Yuda o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo'naltirilgan.

Ma'ruzani asosiy belgilanishi – o'qitishni nazariy asosini ta'minlab berish, o'quv faoliyatga va aniq o'quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o'quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

#### ***Ma'ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar***

Ma'ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko'p emasligi.

Ma'ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun yetarli bo'lishi kerak.

#### **Ma'ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlar**

<b>O'quv mashg'ulotning maqsadi</b>	<b>Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari</b>
<b><i>Kirish ma'ruzasi</i></b>	
<p>Fan doirasida o'quv axborotini o'zlashtirish bo'yicha talabalar harakatining yo'naltiruvchi asosini ta'minlash.</p>	<p>Ta'lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o'quv fani mazmuni, uning o'quv jarayonidagi o'rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to'g'risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo'naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.</p>
<b><i>Axborotli ma'ruza</i></b>	

<b>O'quv mashg'ulotning maqsadi</b>	<b>Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari</b>
O'quv mavzu bo'yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an'anaviy ma'ruza turi: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<b><i>Muammoli ma'ruza</i></b>	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<b><i>Ko'rgazma ma'ruza</i></b>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<b><i>Binar ma'ruza</i></b>	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini



<b>O'quv mashg'ulotning maqsadi</b>	<b>Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari</b>
namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	o'zida namoyon etadi.
<b><i>Anjuman-ma'ruza</i></b>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<b><i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i></b>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
<b><i>Maslahatli-ma'ruza</i></b>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo'yicha o'tishi mumkin.  1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi.

<b>O'quv mashg'ulotning maqsadi</b>	<b>Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari</b>
	2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<b><i>Yakuniy ma'ruza</i></b>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

## **2. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI**

Amaliy mashg'ulot:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

- **Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar**

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

### **Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari**

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
<p><i>Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/tuzilmaga keltirish/mustahkamlash/kengaytirish:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish.</li> <li>- tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish.</li> <li>- kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.</li> </ul>	<p style="text-align: center;"><b><i>Keng ko'lamli suhbat</i></b></p> <p>Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>Ma'ruza va referatlar muhokamas</i></b></p> <p>Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmuni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>Press-konferentsiya</i></b></p> <p>Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. SHundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval</p>

ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi.

#### ***O'zaro o'qish***

Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi.

#### ***Yumoloq (yozma /og'zaki) stol***

O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar.

Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi.

2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

#### ***Spetsseminar***

Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi.

Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi.

Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi,

<p><i>Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i></p>	<p>qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.</p>
<p><b>Maxsus (kasbiy) va umumo'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish:</b>  - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakterlar algoritmini</p>	<p><b>Ta'limiy o'yin</b>  O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shallantiradi; vyrabatывaet dinamiku rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab</p>

<p>aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.</p>	<p>berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin roli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>Amaliy topshiriqlarni bajarish</i></b></p> <p>Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>Masalalar yechish bo'yicha mashq</i></b></p> <p>Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish.</p> <p><b><i>Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish.</i></b></p> <p>Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keyslarni) yechish</i></b></p> <p>Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.</p> <p>Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>→ muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish,</li> <li>→ yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish,</li> <li>→ guruh ishini taqdimoti,</li> <li>→ muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash.</li> </ul> <p>Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boyluklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga</p>
---	---

	<p>ko'maklashadi.</p> <p><b><i>O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i></b></p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish.</p> <p>Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida).</p> <p>O'qituvchi guruhlarning o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.</p>
<p><b><i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i></b></p>	<p><b><i>Kollokvium</i></b></p> <p>O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun.</p> <p>Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin.</p> <p><b><i>Yozma (nazorat) ish</i></b></p> <p>Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.</p>

### **3. MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

#### **AQLIY HUJUM METODI**

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.


Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar

bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;
  - ko'p har xil ma'nodagi yechim variantlariga ega bo'lishi kerak.
- O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



### INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktive- interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun **E**ffective – samarali **R**eading – o'qish and- va **T**hinking – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(-) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

### PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:



1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

## KEYS–STADI METODI

**KEYS** – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi *o'qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilgan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

**Keys–stadi** (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimethodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:
  - savolli ( savollar keysdan keyin keltiriladi)
  - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

## O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

## GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

**KLASTER** (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

### **Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UCHUN?» **SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash

bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib, tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.


2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

**«BALIQ SKELETI» CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

**O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:**

**1.«Baliq skeletini” chizing:**



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

**«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI** - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

*Maslahat va tavsiyalar:*

Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo'nikmalarini shakllantiradi.

**«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma**

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O'zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o'z navbatida to'qqizta kichik kvadratdan iborat;

B	Z	C
	B	Z
D	A	F
	G	Y
	H	
G		Y


2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g'oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g'oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o'tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o'tkazing. SHunday qilib, ular har biri, o'z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

## MUQADDIMA

"**Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q**" degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti, akademik I.A.Karimov. Har qanday tarixni o'rganish avvalo hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatlidir. Taniqli yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy aytganidek: "**Moziyga qarab ish tutish xayrlidir**". Shu sababli iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganish katta nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarixi (xalq xo'jaligi tarixi) va iqtisodiy ta'limotlar tarixi iqtisodiyot fanining faktologiya va metodologiya asoslarini ta'minlovchi va yaratuvchi asos sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli bu fanlar iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir. Iqtisodiy fanlarning o'zaro aloqadorligi

### Iqtisodiy fanlarning o'zaro aloqadorligi



Manba: Obhaya ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Uchebnik M.Promo-media.1995,s.30.

Ayniqsa hozirgi davrda iqtisodiyot har bir inson hayotiga jo'shqinlik bilan kirib bormoqda va odamlar iqtisodiyot to'g'risida imkoni boricha ko'proq bilishga intilmoqdalar. Xo'sh, ummon kabi keng iqtisodiyot fanini o'rganishda nimadan boshlamoq kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Iqtisodiyotning asosan bir nechta nozik «kasalliklari» bor. Bular asosan aholining ishsizligi, pulning inflyatsiyasi, davlatning byudjet kamomadi.

Bizningcha, bu ishni, shifokor davolanuvchini tuzatishni uning kasallik tarixidan boshlagani kabi, tarixdan boshlash zarur. Albatta, bugungi va ertangi kun muammolarini to'la hal etishda o'tgan asr iqtisodchilaridan barcha savollarga tayyor javob topish qiyinligi aniq, ammo o'tgan donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirgi va kelajak to'g'risida to'g'ri qisqacha xulosalar chiqarish uchun yaxshi imkoniyat beradi. aniqrog'i, **velosipedni qayta kashf qilishga** hojat qolmaydi, tarixiy tajriba shunisi bilan ham qimmatlidir.

Ammo shunday bo'ldiki, oxirgi 25-30 yil davomida bu fanlarga kam e'tibor berildi, hatto "**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi**" katag'onga uchradi, faqat mustaqillik yillari bu fanni oliy o'quv yurtlarida qaytadan o'qitish boshlandi. Bu o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, albatta.

Sovetlar tuzumi davrida ko'pgina fanlar, shu jumladan, iqtisodiyot fani sinfiylik, partiyaviylik mafkurasi asosida o'rganildi, marksizm-leninizm g'oyalari birdan-bir to'g'ri ta'limot deb qabul qilindi va barcha masalalar yechilgan, tarixga, uzoq o'tmishga hech qanday hojat yo'q, degan umumiy qayfiyat yuzaga keldi. Sotsialistik va kommunistik jamiyat qurishda dasturilamal bo'lgan mafkuraga muqobil bo'lgan barcha fikrlar tanqidga uchradi; asosiy e'tibor markscha-lenincha iqtisodiy ta'limotni o'rganishga, kapitalizm, bozor munosabatlarining kelajagi yo'qligini zo'rma-zo'raki "isbotlash"ga qaratildi.

Ammo bu yo'l tarix sinovidan o'tmadi. Iqtisodiyotda sinfiy, mafkuraviy tamoyillar ertaklardagi qum saroylari kabi vayron bo'la boshladi. Tabiatning yomon ob-havosi bo'lmaganidek, tarix ham bo'lib o'tgan yaxshi yoki yomon voqealar uchun hech kim oldida tavba-tazarru' qilmaydi.


Hozirgi davr olimlari avvalgi mualliflardan ko'ra ko'proq biladilar, bu ob'ektiv jarayon, ammo shunisi ham ayni haqiqatki, biz ular tufayli ham shu narsalarni bilamiz.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, sobiq SSSR davrida qaysi fanni o'qish, qanday dastur va darslik asosida o'qitish "markaz"ning to'la ixtiyorida bo'lgan. Tarjima qilish ham shu yo'sinda olib borilgan. Oxir-oqibat o'zbek tilida biror jiddiy asar yaratishga yo'l berilmagan. Ayniqsa, Sharq, xususan o'rta osiyolik olimlar, donishmandlar va allomalarning iqtisodiyot va boshqa fanlarga qo'shgan hissasi doimo kamsitib kelingan.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan O'zbekistonlik olimlar oldida, ko'pgina fanlar kabi, iqtisodiyot fani borasida ham katta ishlarni amalga oshirish vazifasi turibdi. Yangi dastur, o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish eng muhimdir. Iqtisodiyot insoniyat tarixi kabi qadimiydir. Iqtisodiyotga oid fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlar ham ko'p ming yillik tarixga ega. Lekin ularning asosiy qismi yozuv paydo bo'lganidan so'ng, yozma manbalardan bizgacha yetib kelgan. Bu manbalar, ulardagi g'oyalar avvalo insoniyatning muqaddas mulkidir, uni topish, o'rganish va kelajak uchun saqlash savobli bo'lsa, ulardagi nodir fikrlarni hayotga tadbiiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot baynalmilal hodisa bo'lib, uning oldida turgan vazifalar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xil, ammo ular rivojlanish davomida turlicha natijalarga erishganlar. Hozirgi davrda ham bozor iqtisodiyotining prinsiplari hamma uchun bir xil bo'lishiga qaramasdan natijalar turlichadir. XVIII asr oxirida klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va David Rikardo ob'ektiv, ya'ni inson xohishiga bog'liq bo'lmagan, ammo ular tomonidan o'rganilishi mumkin bo'lgan qonunlar asosida amal qiluvchi xo'jalik tizimi to'g'risidagi ta'limotni yaratdilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati bu qonunlarga xilof bo'lmay, aksincha bu qonunlarga suyanishi kerak, ana shunda iqtisodiyot ravnaq topadi va aksincha. Demak, bu qonun va qonuniyatlarni bilish, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanish hayot talabi bo'lib bormoqda. Uzoq o'tmishdagi ko'pgina o'gitlar, hayotiy tajribalar, allomalarning fikri va g'oyalari hozirgi kunda asqotmoqda, ularni o'rganish va eng muhimi hayotga tadbiiq etish zarur.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi deyarli to'rt ming yillik rivoji davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Ularning turli yo'nalishlari va maktablari mavjud



**1-chizma. Iqtisodiyoning turli yo'nalishlari va maktablari**

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasidagi 60 dan ortiq oliy O'quv yurtlarining ko'pchiligida, iqtisodiyot universiteti, instituti, ayrim fakul'tet va guruhlarida "**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi**" iqtisodiy zarur fan sifatida o'qitilmoqda. Ayrim akademiya, kollej, iqtisodiy yo'nalishdagi litsey, o'rta maktablarda "Iqtisodiyot tarixi" va "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" ham maxsus fan sifatida o'qitilmoqda. Ammo bu fanlarni o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan uslubiy ishlar aslini olganda bir kafedrada olib borilmoqda.

1963 yili, o'sha davrda **Toshkent Xalq xo'jaligi instituti**, hozirgi **iqtisodiyot universitetida** taniqli iqtisodchi olim **SAIDAHMAD FULOMOVICH FULOMOV** (1910-1994) tashabbusi bilan tashkil etilgan, hozircha O'zbekistondagi, xatto Markaziy Osiyodagi yagona "**Iqtisodiy tarix**" kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan baholi qudrat dastur, o'quv qo'llanmalari va boshqa materiallar tayyorlanmoqda va nashr etilgan. Kafedra rasman bo'lmasa ham amalda uslubiy markazga aylangan. Ammo yaratilgan materiallar sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish vazifasi turibdi. 1992 yili kam tirajda chop etilgan ma'ruzalar matni, 1997 yili chiqqan o'quv qo'llanma allaqachon tarqalib, yangi darslik yaratish zarur bo'lib qoldi.

Avvalgi o'quv qo'llanmamiz 1997 yilda nashr etilgan bo'lib, ma'lum ma'noda davr sinovidan o'tdi. Bu fanni o'qitish, o'rganish, o'quv-uslubiy materiallar yaratish davomida qo'llanmani yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar va mulohazalar bildirildi. Shulardan biri, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari ancha kengaytirish ahamiyatlidir. Shunisi diqqatga sazovarki, keyingi paytda bu sohada ancha ishlar qilindi. Taniqli iqtisodchilar i.f.d., professorlar H.Sobirov, Q.Yo'ldoshev, N.Yo'ldoshev, A.Razzoqovlar tomonidan mamlakatimiz hududida yashab ijod etgan donishmandlarning iqtisodiy merosi to'g'risida bir qancha ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanma chop etildi. 2000 yili TDIU da "Iqtisodiy meros va jahon tajribasi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi va uning materiallari (2001 yil, 9.75 b.t.) nashr qilindi, konferensiya tavsiyalarida ham shu va boshqa masalalar ko'tarilgan edi.

Shularni hisobga olib, darslikka alohida ikki bob kiritildi, unda Markaziy Osiyo mutaffakirlarining iqtisodiy g'oyalari keltirildi. Keyingi davrda boshqa regionlardagi chiqarilgan adabiyotlarning tajribasidan foydalanildi.

Umuman, respublikamizda **"Xalq xo'jaligi va iqtisodiy ta'limotlar tarixi"** (08.00.02) fani bilan u yoki bu darajada shug'ullanayotgan barcha kuchlarni birlashtirish, dastur, o'quv qo'llanma, darslik tayyorlash, malakasini oshirish, ilmiy daraja olishga imkon beruvchi ixtisoslashgan kengash ochish, birgalikda konferensiya va boshqa anjumanlarni o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish vaqti yetildi deb hisoblaymiz.

Ushbu darslik Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti **"Iqtisodiyot nazariyasi"** kafedrasida a'zolari professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi **A.A. Razzoqov** va dotsentlar **Sh.H. Toshmatov (11-14-boblar)** hamda **N. O'rmonov (3-4,22-boblarlar)** tomonidan yozilgan. Har bob oxirida qisqacha xulosalar, asosiy tushuncha va iboralar, nazorat va muloqaza qilish uchun savollar keltiriladi.

Mualliflar, darslikni nashrga tayyorlashda qimmatli fikr-mulohazalarini bildirgan iqtisod fanlari doktori professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi Sh.Sh. Shodmonov, iqtisod fanlari doktorlari Sh.R. Holmo'minov, B.Yu. Xodiev, dotsent **Turg'un Ziyaevga** hamda internet materiallarini ta'minlashda "Talabamarkaz" yetakchi mutahassisi **Ozod Munavvarovga**, darslikni lotin grafikasiga o'tkazishda ishtirok etgan **U. Muslimov va L. Kurbanovga** o'z minnatdorliklarini izxor etadilar.



## KIRISH

«**Iqtisodiy ta'limotlar tarixi**» kursi iqtisodiy fanlar tizimida muhim o'rinni egallaydi.

Insoniyat o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida katta iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har bir davrda u yoki bu mamlakatda ayrim shaxslar (olim yoki hokimlar) tomonidan shunday iqtisodiy ahamiyatga molik fikr, g'oya, nazariya, konseptsiyalar ilgari surilgan va amalga oshirilganki, bir holda shular tufayli davlat va xalqlar ravnaq topgan, ba'zida tushkunlikka uchragan. Ana shu iqtisodiy g'oyalarni har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil etish, ular orasidan umumbashariy ahamiyatlilarini ajratib olib, hozirgi davrga, ya'ni hayotga tadbqiq etish nihoyatda ham amaliy, ham nazariy foydalidir, chunki ularda ko'p yillik tajriba mujassamlashgan bo'ladi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanining **predmeti bo'lib**, ma'lum davrlardagi u yoki ijtimoiy qatlamlar, insonlar manfaatini ifoda etuvchi iqtisodiy g'oyalar va ijtimoiy konseptsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashinuvining tarixiy jarayoni hisoblanadi.

Bu g'oyalar ayrim iqtisodchi olimlar, nazariy maktablar, oqimlar va yo'nalishlarga tegishlidir. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi mustaqil fan sifatida eng qadimgi davrdan boshlab to hozirgi zamongacha vujudga kelgan asosiy iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

**Uslubiy jihatdan** bu fan iqtisodiy tahlilning ilg'or metodlari yig'indisidan iborat bo'lib, tarixiy, induksiya, mantiqiy abstraksiya va boshqa usullardan keng foydalanadi.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani «Iqtisodiy nazariya» fani bilan chambarchas bog'liq, lekin undan katta farq qiladi. «Iqtisodiy nazariya» fanida eng muhim iqtisodiy kategoriyalarning so'nggi davr uchun tahlili beriladi, ammo bu nazariyalar har doim ham turg'un bo'lmaydi va vaqt davomida, ayniqsa keskin o'zgarishlar davrida evolyutsiyada bo'ladi. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fanida ayrim olimlar, davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan g'oya, qarash, nazariya, qonun, ta'limot, konseptsiyalar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi ijtimoiy qatlamlar, sinflar va boshqa guruhlarining manfaatlari nuqtai nazaridan tarixiy rivojlanishi tadqiq etiladi.

Iqtisodiy tafakkur tarixi fanining amaliy xo'jalik ob'ekti bilan chambarchas bog'liqligini namoyon etadi. «Eskirgan nazariyalarni ular faqat inkor etilganligi sababli prinsipda ilmiy emas deyish mumkin emas» deb yozadi taniqli iqtisodchi T.Kun. Chunki keyingi, nisbatan yangi qarashlar avvalgilar asosida, ularni qabul qilish, rivojlantirish yoki inkor etish natijasida paydo bo'lgan. Ba'zi mutaxassislar faqat yangi nazariyalarnigina o'rganishni taklif etishadi, ammo bu so'nggi nazariya avvalgi ko'p yillik ilmiy, amaliy tadqiqotlarning yakuniy qisqacha xulosalari sifatida namoyon bo'ladi yoki bugun biz «yangi» degan fikr ma'lum vaqtdan keyin o'zgarishi mumkin.

Bu fan boshqa iqtisodiy va tarixiy, ayniqsa iqtisodiyot nazariyasi fani bilan bevosita bog'liq. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi ancha keng davrni qamrab olgan va mustaqil xarakterga ega. Bu fanni o'rganish orqali ekonomiks, xalq xo'jaligi tarixi, iqtisodiy tarix va iqtisodiy konseptsiyalar hamda aniq iqtisodiy predmetlarni

o'zlashtirish osonlashadi, u yoki bu iqtisodiy o'zgarishning shart-sharoitlari va oqibatlarini tahlil etishga katta ko'mak beradi.

Masalan, bizga bugun yangidek tuyulgan bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi fikrlar *Adam Smit* tomonidan 1776 yili chop etilgan «**Xalqlar boyligi**» asarida asosan to'la tahlil etib berilgan. Ba'zi iqtisodiy g'oyalar esa qadimdan ma'lum. Ularni o'rganish va eng muhimi hayotga tadbiq etish yaxshi samara beradi, ko'p hollarda **Amerikani yangidan kashf etishga** hojat qolmaydi.

Hozirgi paytda dunyodagi ilg'or g'oyalarni o'rganish davomida hurfikrlilikka (plyuralizmga) keng o'rin berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakligi aniq bo'lib qoldi.

Bu fanni chuqurroq o'rganish tufayli bir qancha echimini kutayotgan nazariy masalalarga oydinlik kiritish imkoni tug'iladi. Masalan, bozor munosabatlarining ibtidosi hanuzgacha aniq echimga ega emas. Ayrim olimlar bu jarayonni xususiy mulk, sinfiy jamiyat yuzaga kelishi bilan bog'lasalar, ayrimlari (R.Xeylbroner, L.Turou) uni kapitalizm bilan, aniqrog'i, «ishlab chiqarish omillari» paydo bo'lishi bilan izohlaydilar (mehnat, er va kapital tovarga aylangach, bozor tizimi yuzaga kelgan ekan). Keyingi fikr bo'yicha bozorning ibtidosi XVIII asrda Angliyada boshlandi.

O'z davrida ilg'or Sharqning ortda qolish, Farbning ilgarilab ketish sabablari, kelajak to'g'risidagi prognozlar ham muammo bo'lib turibdi.

Darslikda shu masallarni hal etishga oid fikr mulohazalar beriladi.

**Iqtisodiy ta'limotlar tarixini** o'rganishda ma'lum davrlash tizimidan foydalaniladi.

Taniqli iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt: «Amalda iqtisodiy g'oyalar o'z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo'lib, ular bilan chambarchas bog'langandir; bu g'oyalarni ular tushuntirib berayotgan dunyodan mustaqil ravishda ajratib qarash mumkin emas; bu dunyo esa doimo o'zgarishda bo'ladi, agar bu g'oyalar o'z maqsadlariga to'la javob berishni ko'zlasalar, doimo shunga mos ravishda o'zgarib turishlari kerak», deb yozgan edi.

Kapitalizm davrida xo'jalik va ijtimoiy hayotda baynalmilallik (internatsionalizm) ko'chayganligi tufayli, iqtisodiy fikrning rivojlanishi ham yagona jahon jarayoniga aylana boshladi. Oqibatda, klassik iqtisodiy maktab asoschilari A.Smit va D.Rikardoning qarashlari qisqa vaqt ichida butun jahonga ma'lum bo'ldi, vaholanki undan avvalgi ko'pgina nazariyalar ayrim mamlakatlarda ko'pchilikka ma'lum bo'lmasdan «o'lik mol» sifatida yotgan.

Farb mamlakatlarida yuzaga kelgan «Ekonomiks» va boshqa tadqiqotlar barchaning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda.

Qadimdan to hozirgi davrgacha minglab turli-tuman iqtisodiy g'oya, qarash, konceptsiya, nazariya, ta'limotlar vujudga kelganligi aniq. Ularning barchasini to'la o'rganish alohida mavzu, maxsus muammo. Shu maqsadda yangi-yangi tadqiqotlar olib borish, tahlil etish va umumlashtirib e'lon qilish zarur, bu yaqin kelajak vazifasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ammo hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g'oyalarni ma'lum sistemaga solish va shu asosda o'rganish maqbuldir. Ammo o'tgan davr hodisalari va g'oyalarni hozirgi zamon qarashlari «qolipi»ga zo'rma-zo'raki kelishtirish,

moslashtirish mumkin emas. Bu tarixni vulgar zamonaviylashtirishga, o'rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkor etishga olib keladi.

Bu fan doim rivojlanishda bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi evolyuion (mavjud g'oyalarning yanada chuqurroq takomillashuvi) va inqilobiy (butunlay yangicha konseptiyalar vujudga kelishi) yo'llari mavjud. Inqilobiy o'zgarishga misol sifatida A.Smit va uning izdoshlari g'oyalari, marjinalistik to'ntarish, yangi klassik yo'nalish (A.Marshall), J.M.Keynsning iqtisodiy qarashlarini keltirish mumkin. O'tish davri iqtisodiyoti bo'yicha g'oyalar hozirgi davrning muhim qarashlari majmuasiga kiradi va nihoyatda dolzarbdir, bu masala O'zbekiston misolida qarab chiqildi.

Taniqli davlat arbobi Uinston Cherrchill (1874-1965) «Qaerga borishimizni bilish uchun, qaerdan chiqqan ekanligimizni bilishimiz kerak», deb aytgan edi. Bu g'oya nihoyatda ahamiyatli bo'lib, bosib o'tilgan yo'lni to'g'ri baholash va kelajak istiqbolni ko'zlash haqida gap boradi.

Iqtisodchilarning tadqiqotlaridagi asosiy bosh g'oya - jamiyat, insoniyat, ayrim shaxslarning boyligi masalasidir. Maqsad bir, lekin unga eltadigan yo'llar nihoyatda xilma-xil ekanligini ko'ramiz. Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) bo'lgan iqtisodiy g'oyalardagi umumiylik shuki, barcha donishmandlar va ularning yozgan asarlarida mehnat va er boyligining asosiy vositasi ekanligi turli yo'llar bilan talqin etiladi, ularda ishlab chiqarish sohasi asosiy deb hisoblangan.

XV-XVII asrlarda (qisman XVIII asr boshlarida) yangi iqtisodiy ta'limot - **merkantilizm** vujudga keldi. Merkantilizm to'g'risida qisqa ma'lumot beradigan bo'lsak, uning mohiyati iqtisodiy siyosatda mamlakatda va davlat xazinasida nodir metallarni ko'proq to'plash, ta'limotda esa muomala (savdo, pul oboroti) sohasidagi iqtisodiy qonuniyatlarni izlashdir, ya'ni avvalgi davrdagi g'oyalardan keskin farq qiladi.

Keyingi muhim o'zgarish, bu klassik iqtisodiy maktabning yuzaga kelishidir (XVIII asr). Bu iqtisodiy ta'limot ichida **fiziokratizm** ham vujudga keldiki, uning umri uncha uzoq bo'lmadi. Klassik maktab g'oyalari hozirgi davrda ham turli shakllarda qayta namoyon bo'lmoqda (neoklassik, liberal, neoliberal...). Marks nomi bilan bog'liq bo'lgan marksizm ta'limoti (nobo'zor iqtisodiyot) ham tarixda muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda bu ta'limot to'g'risida imkoni boricha gapirmaslikka va ayniqsa yozmaslikka harakat kuchayib bormoqda, ko'proq uning faqat salbiy tomonlarini tilga olish «moda»ga kirgan. Bunda «jon» bor albatta, chuni 1917 yili Rossiyada boshlangan marksizmi hayotga tadbiiq etish jarayoni samarasiz tugadi. Keyinchalik shu yo'lga o'tgan bir qancha mamlakatlarda ham eksperiment samarasiz yakunlandi. Lekin tarix uchun insoniyatga bu saboq juda muhim, shu sababli uni chetlab o'tish adolatdan emas, deb hisoblaymiz. Darslikda xayoliy so'qialistlar va markschilarning iqtisodiy g'oyalari ham o'rin olgan, uning tarixiy taqdiri berilgan.

XIX asr 2-yarmida avvalgi g'oyalarga marksizmga muqobil ravishda vujudga kelgan va umumlashtirilgan holda marjinalizm deb ataladigan ta'limot hozirgi zamonning asosiy iqtisodiy g'oyasi hisoblanadi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, biror ta'limot doimo sof holda amalda deyarli qo'llanilmaydi. Har bir ta'limotning ko'plab turli oqim va yo'nalishlari mavjud. Odatda sof erkin bozor

munosabatlari deyarli uchramaydi. Bozor munosabatlarining unsurlari, ular o'rtasidagi nisbat ham doimo o'zgarib turadi. Demak, iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining muhim xususiyatlaridan biri, bu uning doimo harakatda, o'zgarish, rivojlanishda ekanligidir. Bir mamlakat chegarasida iqtisodiy ta'limot ta'siri ostida iqtisodiy siyosat har doim rivojlanishda bo'lishi kerak.

90-yillarda tarixiy jarayonlarda yana bir holat qayd etilmoqda. Bu «soʻialistik» deb atalgan va iqtisodiyoti ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan («rejali iqtisodiyot» ham deyiladi) mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish davri amalga oshmoqda («**o'tish iqtisodiyoti**» deb ham nomlanadi). Bu tarixda birinchi marta ro'y bermoqda, oxirgi o'n yillik tajriba bor. Ammo bu holat ko'p munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Darslikda O'zbekiston misolida bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyoti konceptsiyasi xususiyatlari bayon etiladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining boshqa fanlardan farqli yana bir muhim xususiyati shuki, har bir g'oya, ta'limot uni yaratgan bir yoki bir guruh insonlar, olimlar, davlat rahbarlarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda beriladi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Milton Fridmenning fikricha, fanni o'rganishda olimlarning «avtobiografiya va biografiyalariga murojaat qilish, shu yo'l bilan olimlarni aforizm va misollar yordamida rag'batlantirish kerak, faqat sillogizm (deduktiv fikrlash) va teoremlar bilan cheklanmaslik zarur».

Sharq, xususan Markaziy Osiyo donishmandlarining iqtisodiy g'oyalarini o'rganish, aslini olganda, endi boshlandi, shu sababli kitobning bu bo'limi yangi materiallar bilan to'lib borishiga ishonchimiz komil.

Etakchi mamlakatlar taraqqiyotining asosiy omillaridan biri, bu davlatlar iqtisodiyotining bo'layotgan o'zgarishlarga tez adaptatsiyasidir, ya'ni moslashuvdir.

AQSh davlati tarixida qisqa vaqt davomida iqtisodiy siyosat bir necha bor almashdi va iqtisodiy ravnaq saqlab qolindi. Buyuk depressiya (1929-1933 yy.)dan keyingi davrda AQSh prezidenti **D.Ruzvelt** «yangi yo'l» kursi bilan J.M.Keynsning iqtisodiy g'oyalarini amalda qo'lladi (davlatning iqtisodiyotdagi roli keskin oshdi, vaholanki undan avvalgi yillari xususiy mulk (99 foiz) asosiy va etakchi bo'lgan). Keyinroq prezident R.Reygan davrida davlatning iqtisodiyotdagi roli ancha kamaytirilib, liberal (erkin) iqtisodiyotga keng yo'l ochib berildi (**reyganomika**), oqibatda bu prezident davrida qo'shimcha 14 million kishi tadbirkorligiga yo'l ochib berildi, yangi-yangi millionerlar vujudga keldi. Xuddi shunday holat B.Klinton davrida ham qayd etildi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida ham buni ko'rish mumkin (**tetcherizm**). Iqtisodiy siyosat va iqtisodiy g'oyalarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini isbotlovchi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ayniqsa, «soʻialistik» deb atalgan rivojlanish yo'lidan voz kechmagan Xitoy va Vetnam davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ham diqqatga sazovordir. Bozor iqtisodiyoti unsurlarining keng rivojlanishiga imkon beruvchi iqtisodiy islohotlar tufayli katta yutuqlarga erishildi.

Ikkinchi jahon urushi tufayli ikkiga ajratilgan GFR va GDRlarning bu davlatlar qayta birlashgandan keyingi iqtisodiy rivoji ham juda ibratlidir. «Soʻialistik» lager vakillari ichida etakchi bo'lgan GDRning to'la erkin bozor munosabatlariga o'tishi uchun xiyla katta mablag' va vaqt talab etilishi aniq bo'lib

qoldi. Vaholanki, Rossiyaning taniqli iqtisodchi olimlari bozor iqtisodiyotiga o'tishning «500 kunlik», hatto «100 kunlik» dasturlarini taklif etdilar (Shatalin, Yavlinskiy...). Bu yo'l o'zini oqlamadi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixiga, balki boshqa fanlarga ham xos bo'lgan yana bir xususiyat shuki, iqtisodiy g'oyalar doimo dialektik rivojlanishda bo'lib, ularning tahliliga so'nggi nuqta qo'yish qiyin. Bundan bir necha yuz yil avval yuzaga kelgan fikr va g'oyalarning ma'nosi ustida tortishuv va baxslar hali ham davom etib kelmoqda. Masalan, hanuzgacha K.Marksning qiymat (ruscha - «stoimost») to'g'risidagi fikri aslida qimmat (ruscha - «uennost») bo'lgan, degan fikr mavjud. Marks asarlarini nemis tilidan tarjimada yo'l qo'yilgan xato tufayli jiddiy tushunmovchilik yuzaga kelgan, deyilgan (Blaug M. Ekonomicheskaya mysl v retrospektive.M. ,1994).

Bu fan tarixi shuni aniq isbotlamoqdaki, ko'pgina iqtisodiy g'oyalar ob'ektiv xo'jalik amaliyoti bilan chambarchas bog'liq. Ko'pgina olimlar avvallari (hozir ham uchrab turadi) o'z qarashlarini mutloq universal bekami-ko'st deb ko'rsatishga uringanlar. Albatta, «abadiy» qonuniyatlar ham mavjud bo'lib, ularni istalgan tizimda kuzatish mumkin, ammo ko'p hollarda olimlar bugungi haqiqatning tarixiyiligini ilg'ab olishga har doim qodir emas.

Yana bir muhim masala ustida to'xtab o'tish kerakki, avval yuzaga kelgan iqtisodiy g'oyalarga shu kungi o'lchovlar bilan baho beriladi va odatda ilgarigi g'oyadagi «xato» va «kamchilik»lar aniqlanib, yangi g'oyaning undan afzalligi «isbotlanadi».

Bunda dialektik mantiq bor albatta, lekin yuqorida ta'kidlanganidek, avvalgi g'oyalar tufayli odatda yangi g'oyalar yuzaga keladi, shuning uchun bu g'oya «yaxshi», unisi «yomon» kabi baholash adolatdan bo'lmaydi. A.Smitning mashhur asarida o'zidan avvalgi davrda yuzaga kelgan antik dunyo, merkantilizm, fiziokratizm ta'limotlari tahlil etilgan, Evropaning iqtisodiy tarixi sinchiklab o'rganilgan.

Etakchi g'arb olimlari ko'p hollarda uch buyuk shaxsning g'oyalariga alohida urg'u berishadi: bu **Smit, Marks, A.Marshall** va **Keyns**dir.

Bu olimlarning iqtisodiy g'oyalarida mavjud ta'limotlarning ko'pchiligi o'z in'ikosini topgan va ular jahon iqtisodiy g'oyalari rivojiga alohida hissa qo'shgan shaxslardir.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fani bo'yicha yaratilgan adabiyotlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu masala o'zbek o'quvchilari uchun eng nozik masala deyish mumkin.

1997 yili «Fan» nashriyoti tomonidan e'lon qilingan o'quv qo'llanmadan (2000 nusha) so'ng, 2001 yilda Toshkent moliya instituti tomonidan ham qo'llanma (300 nusha) bosilib chiqqan.

2001 y. Q.Yo'ldoshev va Q. Muftoydinlilar tomonidan «Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan» nomli qo'llanmada Sharq iqtisodiy g'oyalari tahlil etiladi. Yu.B.Yusupovning rus tilida (1999) chop etilgan ma'ruzalar matni diqqatga sazovardir.

2000 yildan boshlab TDIU magistraturasida «Iqtisodiy nazariyasi» mutaxassisliklari uchun «O'rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g'oyalari» maxsus kursi o'qitila boshlandi, shunga mos namunaviy dastur, ma'ruzalar matni va boshqa me'yoriy xujjatlar tayyorlanib, amalda qo'llanilmoqda.

Xorijda esa (jumladan, Rossiyada) bu sohada ancha ish qilinganini qayd etib o'tish kerak. Taniqli g'arb iqtisodchisi **Mark Blaugning** (1927 y. tug'ilgan) «**Экономическая мысль в ретроспективе**» asarining to'rtinchi nashri (1984y.) rus tiliga tarjima qilingan (1994 y.) bo'lib, bu kitobda iqtisodiy g'oyalar tarixi bo'yicha dastlabki adabiyotlar Britaniya ensiklopediyasida chop etilgan J.Mak-Kulloxning maqolasi bilan boshlanishi qayd etiladi. M.Blaug (birinchi nashri 1961 y.) kitobida iqtisodiy g'oyalar tarixi bo'yicha boy bibliografiya berilgan. Adabiyotlar ikki qismga bo'linishi mumkin: ular asosan tarixiy va mantiqiy tamoyillar asosida yozilgan. Ayniqsa, Germaniyadagi tarixiy maktab ta'siri ostida ko'p adabiyot shu asosda beriladi. M.Blaug asari mantiqiy tamoyil asosida tuzilgan, asosiy e'tibor g'oya mualliflariga, ularning tarjimai holi, o'sha davr tarixiy shart-sharoitiga emas, balki ular yaratgan iqtisodiy ta'limotning mazmuni va boshqalardan farqiga bag'ishlangan.

Rus tilida chop etilgan va biz o'qib kelayotgan asosiy adabiyotlar tarixiy tamoyil asosida chop etilgan va sinfiy, partiyaviy nuqtai nazardan berilgan, asosiy mezon markscha-lenincha ta'limotdir. Shuning uchun deyarli barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, 6 tomli «**Istoriya vsemirnoy ekonomicheskoy myсли**» (4 tomi chiqqan) kitoblari ma'naviy jihatdan eskirdi. Bu kitobning 3-4 tomlari marksizm-leninizm g'oyalariga bag'ishlangan. 1994 yilda e'lon qilingan «**Istoriya ekonomicheskix ucheniy, chast II**» va undan keyin e'lon qilingan kitoblarigina hozirgi davr talablariga javob bera oladi (adabiyotlar ro'yxatiga qarang).

Yana bir qiziqarli holat shuki, biz uchun iqtisodchi bo'lgan shaxslarning ko'pchiligi kasb-kori, mutaxassisligi bo'yicha boshqa soha sohiblari yoki davlat arboblari bo'lganlar. Masalan, klassik maktab asoschisi V.Petti vrach-shifokor, P.Buagilber huquqshunos-sudya, fiziokrat F.Kene jarroh, B.Mandevil va A.Smitlar faylasuf bo'lishgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, ammo biz ularni asosan iqtisodchilar deb bilamiz. Shu sababli kitobda iqtisodchilarning tarjimai holidan ayrim qiziqarli voqealar ham keltiriladi.

# 1-MAVZU. QADIMGI DUNYO IQTISODIY GOYALARI.

## 1.1. *Qadimgi Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar.*

Iqtisodiy fan manbalarini avvalo jahon tsivilizatsiyasining beshigi bo'lgan qadimgi Sharqdan izlamoq mantiqan to'g'ridir.

Iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan boshlangan. Ammo hozirgi paytda qo'lyozmalarda aks ettirilgan g'oyalargina tahlil qilingan. Shu sababli iqtisodiy ta'limotlar tarixi quldorlik jamiyati, aniqrog'i, xususiy mulk paydo bo'lishi bilan boshlanadi, deyish o'rinlidir.

Dastlab quldorlik jamiyati Sharqda sinfiy ajralish boshlangan joylarda, Mesopotamiya (Tigr va Efrat daryolari oralig'ida) va Misrda eramizdan avvalgi IV ming yillikda yuzaga keladi. Bunga asosiy sabab shuki, bu erda texnologik inqilob ro'y berdi, metall qurollar ishlatila boshlandi, qishloq xo'jaligida intensiv, ko'p hollarda sug'orma dehqonchilikka o'tildi, shu asosda nisbatan turg'un qo'shimcha mahsulot olish imkoni tug'ilgan. Oqibatda jamiyatda mehnat taqsimotini rivojlantirishga, ko'pgina hunarmandchilik sohalarining ajralib chiqishiga, sinfiy tabaqalanishga turtki bo'ldi.

Bu davrda qo'shimcha mahsulot olishning asosiy usuli jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan renta - soliq olish (Osiyoda) bo'lsa, qullarni (davlat yoki xususiy) beayov ishlatish bilan ham (Evropada) katta boylik orttirilgan. Sharqda davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasiga qarab, ayrim «erkin» aholining ahvoli qullarnikidan deyarli farq qilmagan (umuman, Sharq mamlakatlarida qulchilik masalasi hali uzil-kesil hal etilgan emas. Akademik V.V.Struve uni tan oladi. Lekin ko'pgina olimlarning fikricha, Sharqda quldorlik klassik shaklda rivoj topmagan, patriarxal, ya'ni uy xo'jaligida ustun bo'lgan (Qarang: Istoriya Drevnego Vostoka.M.,MGU,1991).

Sharq, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi xo'jalik faoliyatida nisbatan erkin odamlar ishtirok etgan. Masalan, dehqonchilik, hunarmandchilik, qurilish sohasida qullar mehnatidan foydalanilmagan. Antik dunyo (Farbiy Evropa)dagi ayrim regionlarda xalqaro savdoni olib borish bilan bog'liq ravishda tovar-pul munosabatlari ham anchagina rivojlangan (masalan, Gretsiyaning ayrim shaharlari). Shu asosda qulchilikka asoslangan xususiy mulkchilik rivoj topdi. O'z mahsulotini sotishga mo'ljallab ishlab chiqargan qulchilik xo'jaliklari ekspluatatsiyani kuchaytirishni talab etgan. Oqibatda klassik yoki antik qulchilik yuzaga keldi (Gretsiya va Italiya).

Bizgacha etib kelgan eng qadimgi qo'lyozmada (Qadimgi Misr, eramizdan avvalgi XXII asr) noib va aholi o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida fikr yuritiladi. Bu davrda sinfiy ajralish to'la shakllanmagan bo'lib, boshqaruv ishiga ishbilarmonlarni taklif etish (yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo'lishidan qat'i nazar) kerak deyilgan.

Qadimgi Misrdan farqli ravishda Mesopotamiyada xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlarining nisbatan tez rivojlanishi xarakterlidir. Inson shaxsi ozodligining kafolati yo'q bo'lgan o'sha sharoitda qarzdor qulchilik xo'jalik rivojiga olib kelar edi. Bunday jarayonlar soliq to'lovchilar va harbiylardan ajralib qolishi mumkin bo'lgan davlatning kuchsizlanishiga olib kelgan. Saklanib qolgan

yodgorliklarda, yozma qonunlarda iqtisodiy g'oyalar ham mavjud, unda mustaqil ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini himoya qilish, tartibga solish bo'yicha muhim fikrlar berilgan. Eramizdan avvalgi XVIII asrda *Bobil (Vavilon)* da (m.a.1792-1750 yy.) podsholik qilgan **Xammurapi** (ba'zi manbalarda *Xammurabi*) qonun to'plamlari (jami 282 ta) diqqatga sazovor (m.a.1760 y.). Bu to'plam 1901-1902 yy. Suza shahri qoldiqlarini arxeologik qazish paytida topilgan (Frantsiya poytaxti Parijdagi mashhur muzey - Luvrda saqlanyapti). Nushasini BMT binosidagi muzeyda ham ko'rish mumkin. Toshga uyib yozilgan muhim va qadimiy, tarixiy hujjatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud davlat sinfiy va sotsial jihatdan ancha mukammal ajralgan. Biz uchun ayniqsa mulkchilik va unga egalik shakllari muhimdir. Qonunda «*kuchlilar zaifroqlarni cheklamasligi kerak*» degan qoida bor. Masalan, qarzdorligi uchun podsho jangchilari va boshqa aholining erlarini sotish yoki tortib olish man' etilgan. Sudxo'rlik faoliyati cheklangan, uning miqdori pulda 20, mahsulotda 33 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Asosiy maqsad ishlab chiqarishni, birinchi navbatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'lgan, ya'ni mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashilgan. Qarzni qarz hisobiga uch yildan ortiq ushlab turish mumkin bo'lmagan. Umuman, xususiy mulkchilik, shu jumladan erga ham tan olingan. Birovning xususiy mulkiga ko'z olaytirgan, unga zarar etkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolangan. Bu qonunlar to'plami davlatning mamlakatni iqtisodiy boshqarish sohasidagi dastlabki tajribasini ko'rsatadi. Oqibatda shu davrda mamlakat ham siyosiy jipslashdi, ham iqtisodiy ravnaq topdi.

Qadimgi Hindistonning «**Manu qonunlari**»da (m.a. IV-III asrlar) ijtimoiy mehnat taqsimotining, hukmronlik va bo'ysunish institutlarining mavjudligi aytiladi.

Hindistondagi iqtisodiy g'oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik «**Artxashastra**» (m.a. IV-III asrlar oralig'ida)dir (tom ma'nosi bo'yicha ifoda, amaliy hayot to'g'risidagi fan, bu asar m.a. III-II asrlarda to'ldirilgan). Bu qadimiy va muhim tarixiy yodgorlikdir (u **Chandragupta I** podsholigi davrida podsho maslahatchisi **Kautila Bishnugupta** tomonidan yozilgan degan fikr bor). Unda qulchilikni mustahkamlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Qulchilik eng past tabaqalarga xos narsa deb sanaladi. Bu asarda «*buyumning qiymati*» muammosi ko'tarilgan, qiymat miqdori «ish kunlari» bilan belgilangan, rag'batlantirish esa mehnat natijalariga mos ravishda belgilanishi kerak, deyilgan.

Bu asarda davlatni boshqarish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham ilgari surilgan. Masalan, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan. Tovarga bo'lgan ehtiyoj ortganda, uning bahosi qiymatdan oshib ketishi mumkin, deyilgan. Savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilgan bo'lib, foyda masalasi ko'tarilgan, foydaning miqdori tovar bahosiga (boshqa harajatlar qatorida) qo'shilib, mahalliy mahsulot uchun 5, chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz (import o'sha davrda ham afzal) qilib belgilangan.

Davlatning iqtisodiy ishlarga aralashuvi qo'llab-quvvatlangan. Qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berilgan, bo'sh erlar xalqqa bo'lib berilishi va soliq to'lash zarurligi, sug'orish inshootlari qurishga e'tibor haqida so'z yuritiladi.



Umuman, davlat mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishi kerak, degan g'oya markaziy o'rinni egallaydi. (Hozirgi davrdagi J.M.Keyns va institutsionalizm tarafdorlari fikri bilan solishtiring.)

Moliya sohasida daromad solig'iga katta e'tibor berilgan. Davlat ba'zi ishlarni rivojlantirishi uchun moddiy va ma'naviy yordam berishi kerak, deyilgan. Mahsulotga baho belgilash, davlatning boyishini ta'minlash (foydani oshirib, sarf-harajatni kamaytirish), hisob-kitobni tartibga solish, har xil o'g'irliklarga qarshi kurashish kerakligi belgilangan. Shu tamoyillarni amalga oshirish tufayli jamiyatdagi norozilik, tengsizlik yo'qoladi, deyilgan.



Qadimgi Hindistonda yaratilgan «Veda»larda ham bir qancha muhim iqtisodiy g'oyalar keltirilgan. Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, *zardushtiylilik* (*zoroastrizm*) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto» ya'ni «hayot yo'riqnomasi» (asli «*Ovasta*») da ham muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan.

Jumladan, sun'iy sug'orish asosida dehqonchilik yuritish, ona tabiatni e'zozlash, hayvonlarni asrash, noo'rin so'ymaslik, unga zug'um qilmaslik, tuproq sharoitini yaxshilash masalalari yoritilgan. Bu kitob eramizdan avvalni

II ming yillik oxiri - I

**Avesto** ming yillik boshlaridagi voqealarni aks ettiradi va juda qadimiy yodgorlikdir (2700 yilligi bayram qilindi).

Bu dinning ta'sir doirasi juda keng bo'lib, hozirgi Eron, Markaziy Osiyo, Kavkazorti yurtlari (ayniqsa Ozarbayjon) va boshqa joylarda tarqalgan. M.a. II ming yillik oxiri - I ming yillik boshida paydo bo'lgan «Avesto»ning to'liq asl nusxasi saqlanmagan, uning ayrim qismlari topilgan, u qadimiy parfyon, oromiy yozuvida bitilgan, hozirgi davrda rus va o'zbek tillariga tarjima etilgan, ayrim bo'laklari «San'at», «O'zbek tili», «Fan va turmush» jurnallarida e'lon qilindi.

Zoroastrizmning asosiy g'oyasi dualizmga, ya'ni bir tomondan Yaxshilik va rug'lik (xudosi Axura Mazda), ikkinchi tomondan vuzlik va Qorong'ilik (xudosi Anxra Manu) kuchlari o'rtasidagi kurashdir.

Inson xo'jalik faoliyatida tabiiy muhit bilan chambarchas bog'liq deb uqtiliradi, ammo insonga alohida e'tibor beriladi. Insonga tanlash huquqi berilgan bo'lib, u Yaxshilik yoki monlik tomonlarni olishi va shunga mos harakat qilishi kerakligi aytiladi.

Yaxshilik odamining faoliyati yaxshi g'oya, yaxshi so'z va yaxshi ishlar bilan bog'langan bo'lishi kerak. Moddiy boyliklarni ko'paytirish erug dunyodagi yaxshi ishlarning asosiysi hisoblangan. Shu sababli «Avesto» matnlarida natural-xo'jalik faoliyati keng targ'ib etilishi va amaliy maslahatlar berilishi tasodif emas.

Avestoda «O'z hayoti davomida go'zallik va yaxshilik, nur va quvonch yo'lida xizmat qilgan odam parso va hakgo'y, pok va adolatli bo'lib, mehmonlarni beg'araz kutgan. Xotinini sevib erni mollarni parvarish qilgan, odamlarning molu mulkiga ko'z olaytirmagan, tabiatni asrab-avaylab undan zavq olgani uchun uning joni ham bitmas-tuganmas rohat va farog'atga burkanadi» deb yoziladi.

Ko'chmanchi xalqlarning asosiy boyligi bo'lgan mollar sonini saqlash qo'llanilib, ularni bekordan-bekorga qurbon qilaverish qoralanadi. Bu g'oya

ayniqsa ilk zoroastrizmda kuchli. Hayvonot dunyosini asrash, uning sonini oshirish, sifatini yaxshilash (ayniqsa semirtirish) ga alohida urg'u berilgan. Buning uchun esa yaxshi yaylov, kerakli qarov, em-xashak bilan ta'minlash eng yaxshi faoliyat deb baholanadi. Yaxshi ishlarni amalga oshirish kuchli hokimiyat bilan bo'lishi qayd etiladi. Kitobda yozilishicha, hayvonlarni o'g'irlash yoki tortib olish, turar joylarni xonavayron qilishdan asrashga intilish Yaxshilik g'alabasiga olib keladi. Ana shu qoidalarga amal qilganlarga yaylovlar bo'ylab erkin harakat qilishga va'da beriladi, chunki tabiiy yaylovlar cheklangan sharoitda bu «erkin harakat» ta'minoti muhimdir, aks holda o'zaro to'qnashuv va urushlar ro'y bergan.

Ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunish kuchli hokimiyat va mo'tadillik bilan bog'liq edi. O'zaro shartnomalarga bekamu-ko'st amal qilish zarurligi, ayniqsa o'zaro moddiy yordam berish kerakligi targ'ib etiladi.

Avesto ma'lumotlariga qarab shu davrdagi jamiyatning ijtimoiy ahvolini bilib olish mumkin. Bu davrda urug' jamoasi emirilib, dastlabki sinf (kasta)lar paydo bo'lganligi ayondir, ular kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlar, demak, ilk sinfiy jamiyat yuzaga kelayotgan davr bo'lgan. Aholi ko'proq yarim ko'chmanchilik asosida kun kechirgan. Ekstensiv chorvachilik etakchi edi.

Ideal hayot tarzi quyidagicha talqin etilgan bo'lib, uningcha erdan shunday joyni topish yoki yaratish kerakki, u erda ko'p ovqat pishirilishi, doim katta bo'lak go'sht tegishi, otlar pishqirib turishi, ot-arava g'ildiraklari jarangi chiqishi, qamchilar doim ko'tarilib, ovozi chiqib turishi, odamlar jag'i tinmaydigan (ovqat eyishda), ziravorlar etarlicha yashirib qo'yilgan, xushbuy hidlar arimaydigan, yaxshi hayot uchun kerakli barcha narsalarni istakka qarab ko'p miqdorda saqlanadigan omborlar bor joy tushunilgan.

«Avesto» bo'yicha turli tabiiy ofatlarga qarshi zahira oziq-ovqatlar barpo qilish qo'llab-quvvatlanadi (Konfutsiylik va boshqa ta'limotlarda ham bu g'oya katta o'rinni tutadi).

«Avesto»ning yozilishi jihatidan keyingi davrga mansub fikrlarda, masalan, chorvadorlar hamkori *Yim* to'g'risidagi afsonada «oltin asr»dagi mol-qo'ylarning mo'l-ko'lligi haqida so'z yuritiladi. Yimning xizmati ulug'lanib, kuchli sovuq, kor va suv to'fonidan hayvonlar va odamlarni qutqarish uchun «varu» (qo'rg'on) qurdirib, unga suv o'tkazadi, mayda va yirik mollar, odamlar, it, qush, barcha o'simliklar urug'i va yonib porlab turgan olovni keltiradi (**Nuh** payg'ambar bilan solishtiring). Odamlar uchun turar joy, hayvonlar uchun molxonalar qurilgani aytiladi.

«Avesto»ning 3-bobi (fargard) «*Vandidot*» bo'lib, nisbatan keyingi davr voqealarini aks ettiradi, unda asosan dehqonchilik va dehqon mehnati ulug'lanadi (avvalgi boblarda chorva etakchi edi). Endilikda ko'proq ekin ekiladigan, don, o't, mevali ekinlar o'stiriladigan, suvsiz joylarni sug'oradigan, suvi ortiqcha erlar quritiladigan (sug'orish bilan birga zax qochirish) joylar maqtaladi, hatto erlarga ko'p go'ng solinishi, buning uchun esa ko'proq kichik va katta qoramollar boqish tavsiya etiladi. Bunda juda katta tabiiy mantiq borligi aniq ko'rinib turibdi.

Kitobning bu bobida dehqonchilik va ayniqsa don ekish, g'allakorlik ulug'lanadi. Aholini qunt bilan don etishtirishga undaladi, hatto g'allakorlar e'tiqodni olg'a suruvchilar deb talqin etiladi. «*Dehqonchiliksiz mo'l-ko'lchilik yo'q*», degan aqida ilgari suriladi (fiziokratizm ta'limoti bilan solishtiring). «Kimda-kim

zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go'zal va pokiza qizga o'xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o'z to'shagidan halol yostiqdoshiga farzandlar tug'ib beradi. Zamin ham mo'l-ko'l mevalarini in'om etadi», deyilgan, bunda erni tobora madaniylashtirish va undan ko'proq naf olishi haqida gap boradi.

Xo'jalikning barcha tarmoqlari orasida g'allakorlikka eng yuksak baho beriladi. Zoroastrizm qashshoqlikni yo'qotish yoki unga yo'liqmaslik uchun ziroatchilikni rivojlantirish, yangi erlarni ochish bo'yicha faol siyosat olib borish kerakligini uqtiradi. Ammo *inson erni tashlasa, unga qaramay qo'ysa, unday odam o'zgalar eshigi oldida turgan doimiy gadoyga aylanadi*, deyilgan bu kitobda (hozirgi davr ta'limotlari bilan solishtiring).

Asketizm to'g'ridan-to'g'ri qoralanadi, chunki bu odat monlik bilan kurashda insonning kuch-qudratini susaytiradi. Ovqatni kam iste'mol qilgan odam na din, na xo'jalik (qishloq xo'jaligi) ishlari, na farzand (ayniqsa o'g'il bolalar) ko'paytirish faoliyati bilan kerakli darajada shug'ullana olmaydi; insonlar sonini ko'paytirish ham muhim vazifa deb belgilangan, chunki farzandlar oila boyligini ko'paytiradi, Yaxshilik g'alabasiga ko'maklashadilar. Bu g'oyalarning ahamiyati hozirgi kunda ham juda muhimdir.

Bu din hozirgi Markaziy Osiyo, ayniqsa Qadimgi Eronda keng tarqaldi, davlat diniga aylandi. M.a. VI-V asrlarda Dariy I podsholigi yillarida Eronda, keyinchalik boshqa davlatlarda tarqaldi. Islom dinigacha bo'lgan davrda respublikamiz aholisining asosiy qismi bu dinga e'tiqod qilgan, uning ayrim qoldiqlari hali ham qayd etilib turadi (kelin-kuyovlarni olov atrofida aylantirish, vafot etganlarga chiroq yoqish va boshqalar).

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar m.a. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari e.a. II ming yillikda paydo bo'lgan. *Konfutsiylik* g'oyasi muhimdir. Uning muallifi **Konfutsiy** yoki *Kun-TSzi* (m.a. 551-478 yy.) «**Lun yuy**» to'plamida («*Suhbatlar va mulohazalar*») o'z g'oyalarini jamlagan. Olim kelajak rivojini o'tmishdan izlaydi. Shu davrda obro'si pasaygan zodagonlarning manfaatini himoya qiladi (bu g'oyalar keyinchalik Ken-TSzi (m.a.312-289 yy.), Syun-TSzi (313-278 yy.) va boshqalar tomonidan davom ettirilgan). shlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiqmaslik g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu katta oila, podsho esa «xalqlar otasi»dir, boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorida saqlash, er ishlarini yaxshi bajarish, hammani o'z vazifalarini bajonidil ato etishi zarur deyiladi («Xalqlar otasi» tushunchasining ibtidosiga e'tibor bering).

Bu g'oyalar Xitoydagi muhim iqtisodiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi. Temir qurollar tufayli dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topdi, tovar-pul munosabatlari o'sdi, savdo-sotiq kuchaydi. Sinfy munosabatlar keskinlashdi. Shu sharoitda konfutsiylik ijtimoiy, ahloq va huquq doirasida tabiiy huquq nazariyasini ilgari surdi. Mamlakatdagi aristokratiya va xalq o'rtasida vujudga kelgan quldorlik va xususiy mulk himoya qilinadi. Konfutsiy «*buyuk jamoa mulki*» (dehqonlar jamoasi) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, so'nggisini ko'proq qo'llaydi. Jamiyatning turli qatlamlari xudo tomonidan belgilanganligini ta'kidlaydi va uni tabiiy hol, deydi. Boylikning manbai mehnat bo'lib, hokimlar boyligi xalq

boyiligiga asoslanadi. U xalq hisobiga quldorlar boyligi ortishi tarafdori edi, xalqni ko'proq ishlab, kamroq iste'mol qilishga chaqirdi.

Syun-TSzi davlatning iqtisodiy jihatdan kuchayishi tarafdori edi, odamlarning boylikka intilishini qoralamagan (ular qonun asosida ish yuritishsa bas). Ammo inson bir vaqtning o'zida ko'p kasb egasi bo'la olmaydi, degan fikr paydo bo'ldi, ya'ni olim mehnat taqsimoti zarurligi g'oyasini ilgari suradi (bu juda muhimdir). Davlatning iqtisodiy siyosati uchta asosiy tamoyilga asoslanishi kerak:

1. Harajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash;
2. Xalq to'qligini ta'minlash;
3. Ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarurligi.

Etarlicha ta'minot tamoyili insonning jamiyatdagi o'rniga bog'liq holda belgilangan (ya'ni sinfiylik tamoyili mavjud). Eksploatatsiya qo'llab-quvvatlanadi, jamiyatda hammaning o'z aniq joyi bo'lishi kerak, deyilgan, ya'ni hukmdor, tobe', ota, o'g'il. Boshqarish ma'lum qonun asosida emas, balki oddiy odat bo'yicha bo'lishi, og'ir soliq va majburiyatlar bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Miloddan avvalgi VI-III asrlarda *legistlar* (qonuniy degani) oqimi paydo bo'ldi, ular boshqarishni aniq qonunlar asosida (oddiy odatlarga qarshi) olib borish tarafdori edilar (namoyandalari TSzi-Chap, Li-Kuy), markaziy davlat kuchli, mamlakat esa yagona birlashgan bo'lishini qo'llab-quvvatlashgan. Legistlar (Shan Yan) ayniqsa qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, donchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan. Don masalasini hal etish bosh masala deb bilingan. Shan Yanning fikricha, davlat ravnaqi uchun ikki masalani hal etish zarur: don va urush (atrofdagi erlarni bosib olish). Dehqonlar ro'yxatini o'tkazish, qonun yo'li bilan yig'ilgan don miqdoriga bog'liq yagona soliq tizimini kiritish taklif etiladi. Qonun yo'li bilan turli «ishyoqmaslar»ni «erga qaytarish», ya'ni dehqonchilik bilan shug'ullanishga, ya'ni mehnat qilishga majbur etish siyosatini qo'llash kerak deganlar (Xitoydagi 1960 yillar davomida ro'y bergan madaniy inqilob davrida shu siyosat amalga oshirildi). Undan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qilishni qat'iy cheklash ham talab qilingan (go'yoki savdogarlar bundan katta foyda olishlari mumkin). Savdogarlar savdoni tashlab, dehqonchilikka intilishlari kerak. Erkin sohibkorlik taqiqlangan, umumiy er egaligi va javobgarlik joriy etilgan (m.a. 351 y.)

«**Guan-TSzi**» (m.a. IV a.) asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solishning tizimlari ancha mukammal bayon etilgan. Bunda legistlardan farqli, tovar-pul munosabatlarini cheklashga intilmasdan, bu munosabatlarni o'rganib, undan xo'jalikni barqarorlashtirishda ma'lum mexanizm sifatida foydalanish taklif etiladi. Xalq xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish g'oyasi ilgari suriladi. Davlat hokimi non, pul, metallni tartibga solish yo'lini qo'lida saqlasa, mamlakat rivoji nisbatan tekis boradi, deyilgan. Bu asarda ham agrar soha, ayniqsa donchilikka alohida urg'u berilgan. Agar legistlar hunarmandchilik, ayniqsa savdoni befoyda soha deb hisoblagan bo'lsalar, bu asarda esa o'sha sohalarga ham ijobiy baho berilgan. «Erni boshqarish» uchun davlat erning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Er maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarur, dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (er unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Bu erda gap Er kadastrini tuzish to'g'risida boradi, ya'ni bu ishda hisob-

kitob bo'lishi qayd etiladi. Asarda er va suv (tog' va dengiz) larni davlat ixtiyoriga o'tkazish va ulardan daromad yo'lida foydalanish, baholarni tartibga solish yo'li va boshqa ko'pgina iqtisodiy g'oyalar ilgari suriladi. Bu g'oyalar amalda ham qo'llanildi va yaxshi samara berdi.

Qadimgi Xitoy ijtimoiy hayotida daosizm (aynan - yo'l) g'oyalari alohida o'rinni egallaydi, uning asoschisi **Lyao-TSzi** bo'lib, Konfutsiy davrida yashab, ijod etgan (e.a. IV-III asrlar). U taqiqlovchi qonunlarga amal qilmaslikni taklif etdi, qonunlar ko'pligi tufayli «*xalq kambag'allashmoqda*», degan edi u. Daosizm g'oyalari konfutsiylikka qarama-qarshi bo'lib, insoniyat avvalgi majburiyatlaridan voz kechishi, oddiy tabiiy hayotga qaytishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g'oyaga ko'ra inson ibtidoiy davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi kerak. Ko'rinib turibdiki, unda reaksionlik elementlari bor, ammo bu g'oyada xalq ommasining noroziligi ham aks etgan, chunki tsivilizatsiya yutuqlari ekspluatatsiya manfaatlariga ham xizmat qilayotgan edi. Bunda kurashdan voz kechish, davlatning xalq hayotiga aralashuvini inkor etish fikrlari ustun kelgan.

## 1.2. Qadimgi Yunonistondagi iqtisodiy ta'limotlar

Yuqorida qayd etilganidek, antik dunyo mamlakatlarida quldorlik klassik shaklda rivoj topdi, m.a. II-I ming yilliklar davrida shakllandi. Qadimgi Gresiya (Yunoniston) da ijtimoiy-iqtisodiy hayotning hamma jabhalarida quldorlik bevosita ishlab chiqaruvchilarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakliga aylangan edi. Ishlab chiqarish asosan quldorlik munosabatlariga asoslanib olib borildi, qul asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan (Sharq bilan solishtiring). Dastlabki iqtisodiy g'oyalar **Gomerning** «*Iliada*» va «*Odissey*a» poemalarida aks ettirilgan bo'lib, iqtisodiyotning natural xo'jalik konsepsiyasi ilgari surilgan. Yunon shoiri **Gesiad** (m.a.8-7 asrlar) ning «**Mehnat va qonunlar**» asarida boylikning kuchi, hokimiyati aks ettirilgan. U dehqonchilikni ulug'laydi, bu sohada qisman qullar mehnati ham ishlatilgan. U davrda oddiy xalq orasida mehnat ancha qadrlangan. Qulchilik ofatining bosib kelayotganligidan xavfsiragan shoir go'yoki ilgari hukm surgan «oltin asr», ijtimoiy jabr va og'ir jismoniy mehnatga ehtiyoj bo'lmagan davrni ham yoritgan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda polis (shahar) sistemasi shakllanib bo'lgach, qulchilik keng tus oladi, urug'chilik mulki xususiy mulkchilik tomonidan siqib chiqariladi, savdo, sudxo'rlik tez rivojlanadi. **Solon** (m.a. 640/635-559 yy.) islohotlari pul xo'jaligining afzalligini ko'rsatib berdi (m.a. 594 y.). Islohot tufayli kulni qarzga berish taqiqlandi. Afinada **Perikl** (m.a. 444/443-429 yy.) tomonidan olib borilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Qurilish, hunarmandchilik, savdo o'sdi. Shu davrda fuqarolar va fuqaro bo'lmagan aholini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadigan qonunlar qabul qilindi. Bu ishlar qullarni hunarmandchilik va savdo sohalarida beayov ekspluatatsiya qilish, savdo va pul xo'jaligini rivojlantirish hisobiga amalga oshirildi.

Qulchilik o'z tabiatiga ko'ra insonga yot, u majburiylikni talab etgan, oqibatda ma'lum davrdan inqirozga uchray boshlagan. Shu davrda iqtisodiy g'oyalar tobora reaksionlashib, davlatni, aristokratiyani himoya qilish, natural xo'jalikni yoqlash

yo'lini tanlaydi, ya'ni sinfiy xarakterga ega bo'la boradi. Bu yo'nalish **Ksenofont** (taxminan m.a. 430-354 yy.), **Platon (Aflotun)**, taxminan m.a. 427-347 yy.), Aristotel (Arastu, m.a. 384-322 yy.)larning iqtisodiy qarashlarida yaqqol namoyon bo'ldi.


«**Ekonomiya**» so'zi («oykonomiya»: - «oykos» - uy, xo'jalik va «nomos» - qonun, qoida) tom ma'noda uy xo'jaligi to'g'risida qoida mazmuniga ega bo'lib, Ksenofontning maxsus asarining sarlavhasi bo'lgan.

Ksenofont quldorlar mafkurasining himoyachisi hisoblanadi, qulchilikni tabiiy, ob'ektiv jarayon deb baholaydi, qul mehnatiga asoslangan natural xo'jalikni ulug'laydi. U ayniqsa qishloq xo'jaligi, dehqonchilikni farovonlik manbai deb bilgan. Dehqonchilik tufayli odamlar o'zlariga hayot uchun kerakli hamma narsani oladilar. Dalada ishlash sog'liq uchun ham foydali (toza havo), ham iqtisodiy naf keltiradi.

U rahbarlar va ijrochilar mehnatini farqlaydi. Uningcha ijrochilar jismoniy mehnat bilan shug'ullanadilar. Rahbarlar mehnati bilan erkin odamlar, jismoniy mehnat bilan esa qullar band bo'lishlari kerak. Xo'jalik faoliyati davomida foydali buyumlar, ya'ni iste'mol qiymatlari yaratiladi. Qadimgi yunon olimlari ichida birinchi bo'lib, mehnat taqsimotining ahamiyatini tushundi, ko'proq, ortiqcha foyda olish, «xo'jalikni boyitish» uchun qullar talabini imkon boricha kamroq qondirishni tavsiya etgan. Mehnat taqsimoti bilan bozor kattaligi, mahsulotning almashuv qiymati orasida uzviy bog'lanish borligiga e'tibor bergan. Pulning muomala vositasidan tashqari, kapital sifatida jamg'arish funksiyasini ham tan olgan (pulning boshqa funksiyalari inkor etiladi).

**Platon (Aflotun)** «**Davlat**» va «**Qonunlar**» asarlarida ideal davlat qanday bo'lishi kerakligini ochib bermoqchi bo'ldi. Uningcha bu davrda xususiy mulk va erkin xo'jalik tashabbusiga o'rin yo'q. U aholini uch toifaga ajratgan:

1. *Faylasuflar* - davlatni boshqaruvchilar;




2. *Harbiylar* - davlatni boshqarish apparatining bir qismi bo'lib, ular biror mulk egasi bo'lish huquqiga ega emas, iste'mol qilish esa ijtimoiy xarakterga ega bo'lishi kerak.

3. «*Qora*» toifa - dehqon, hunarmand va savdogarlardan bo'lib, ular mulk egasi bo'lishi kerak.

Bu olimning mehnat taqsimoti, tovar, pul va savdogarlarning ajralib chiqishi o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risidagi fikrini o'sha davr uchun buyuk kashfiyot deb baholash mumkin. Ammo Aflotun qulchilikka asoslangan natural xo'jalikni himoya qildi, **Platon**

pul funksiyasini muomala doirasidagina deb bilishga harakat qildi, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bildi; u sudxo'rlik operatsiyalarini inkor etdi va baholarni me'yorda saqlash yo'li bilan savdogarlarning foydasini chegaralashni talab qildi. Aflotun qullarni fuqarolar deb tan olmadi va ularni biror toifaga kiritmadi (demak, ular mulk egasi ham bo'lishi mumkin emas). Qullar mayda ishlab chiqaruvchilar va savdogarlar bilan birga 2-toifa ahlining cheklanmagan talab-ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirishlari kerak edi. Shunday qilib, Aflotun o'zining ideal, ya'ni bekamu-ko'st davlatini barpo etar ekan, qulchilikni

abadiy saqlash tarafdori edi. **Aristotel** (Arastu) Aristotel qadimgi Gresiyadagi quldorlarning eng yirik mafkurachisi edi. Uni jahongir *Iskandar Zulqarnaynning* tarbiyachisi va o'qituvchisi ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Avval Makedoniyada yashagan olim, keyin Afinaga ko'chib o'tgan. Olimning iqtisodiy g'oyalari «**Nikomaxov ahloqi**» va «**Siyosat**» kitoblarida mavjud. U «*Qul - tirik qurol, qandaydir tirik mulk*» degan edi. Uning fikricha, jamiyatning quldor va qullarga bo'linishi - bu tabiiy va qonuniy ahvol bo'lib, odamlarning tabiatan turli-tumanligidir. U «haqiqiy boylik» (tabiiy) ni tan olgan, uni iste'mol qiymatlarining yig'indisi deb bilgan va bu bilan bog'liq faoliyatni iqtisodiyotga tegishli soha deb bilgan. Quldorlik xo'jaligini mustahkamlash uchun o'rtacha ta'minlangan quldorlar sinfini yuksaltirish kerak, buning uchun davlat tomonidan odil almashuvni ta'minlash zarur. Olim masalani ahloqiy ravishda hal etishga urinsa-da, birinchi marta almashuv qiymatini tahlil etdi va qiymatning mehnat nazariyasi kurtaklarini yaratdi. Tovarlarning almashuv qiymati tovar bahosining yaratilish shakli ekanligini tushunib etdi. K.Marksning formulalarini qo'llaydigan bo'lsak, T-T munosabati T-P-T ga aylanadi va 5 ta «loja» 1 uyga yoki ma'lum miqdordagi pulga tenglashtirilishi mumkin. Platonga nisbatan Aristotel pulning mohiyatini kengroq va chuqurroq anglab etdi. Ammo u tovar ishlab chiqarishining rivojlanmaganligi va qiymatni to'la tushunmaganligi tufayli tovarlar pul tufayli bir-biri bilan solishtirilishi mumkin degan xato qisqacha xulosalarga keldi. Natural xo'jalik tarafdori bo'lgan olim muomalaning T-P-T shaklinigina tan olgan (talabni qondirishga mo'ljallangan holat), savdo va sudxo'rlik tabiatga zid bo'lib, bularni pul qilish san'atiga xos narsa deb bilgan va uni xrematistikaga tegishli degan.



Aristotel uchun ideal (bekamu-ko'st) xo'jalik - bu uncha katta bo'lmagan dehqonchilik xo'jaligi (unda albatta qullar ishlagan) bo'lib, u deyarli kerakli barcha mahsulotni yaratuvchi (natural xo'jalik) bo'lishi shart edi. Ayrim etishmagan narsalarni esa qo'shnilardan «odil almashuv» asosida olish kerak. Bu **Aristotel** olimning xizmati shundaki, u birinchilardan iqtisodiyotning ayrim kategoriyalarini berdi va ma'lum darajada ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqladi. Aristotelning iqtisodiy tizimi bilan A.Smitning «Xalqlar boyligi» asaridagi fikrlar hamohangligini ko'rish, qiymat qonunining hosil bo'lishi mexanizmini tushunish mumkin.

*Qiymat (qimmat)* iqtisodiyotning asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Tarixan uni talqin etishda ikki yo'nalish bor. Birinchi yo'nalishda tovar qiymati ob'ektiv bo'lib, uning manbai shu tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalishda qiymat tushunchasi sub'ektiv narsa bo'lib, odamlar tomonidan tovarning foydaliligi boshqa biron foydalilik bilan solishtirish tufayli yuzaga keladi.

Aristotelning g'oyalarida ikkala yo'nalish kurtaklari mavjud. U qiymat qonuni muammosini qo'yadi, lekin unga to'la javob topa olmaydi. U almashuvda tovar qiymatlari tenglashtirilishini ko'radi. «Nikomaxov ahloqi» asarida u shunday fikr yuritadi: «*Jamiyat ikki vrachdan tashkil bo'lmaydi, balki vrach va dehqondan, umuman bir xil va teng bo'lmaganlardan tashkil topadi. Ana shunday odamlarni bir-biriga tenglashtirish zarur. Shuning uchun almashuvga uchraydigan barcha*

*narsalarni tenglashtirish, solishtirish zarur. Xullas, hamma narsa biror narsa bilan o'lchanishi kerak. Etikdo'z mahsulotining dehqon mahsulotiga, dehqon mahsulotining etikdo'z mahsulotiga bo'lgan to'g'ri munosabati, to'g'ri tenglamasi topilishi kerak».* Lekin o'sha narsa nima ekanligi aytilmaydi. Savolga javob izlab u o'z fikrini shunday davom ettiradi: *«biz nima uchun almashamiz, chunki menga sening tovaring, senga esa mening tovarim kerak»*, degan oddiy qisqacha xulosalarga keladi. Tovarlarning tengligi pul tufayli amalga oshadi, deydi u. Hamma narsa biron narsa bilan o'lchanishi kerak. Bu avvalo ehtiyoj, u barcha narsani bog'lovchi asos. Ehtiyojni almashtirish uchun (odamlar kelishuvi bilan) pul - chaqa paydo bo'ldi. Aristotelning bu fikrida hozirgi zamon marjinalizm g'oyalari yotadi, ya'ni tovarlarning foydaliligi asosiy o'ringa chiqadi.

Bu olimning iqtisodiyot (ekonomika) ni xrematistikaga qarama-qarshi qo'yishi xarakterlidir. U o'ylab topgan **«xrematistika»** matni «xrema» so'zidan olingan bo'lib, mulk, egalik mazmuniga ega. Aristotel iqtisodiyot (ekonomika) deganda hayot uchun zarur bo'lgan mahsulotlar (iste'mol qiymatlari) ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy xo'jalik faoliyatini tushunadi (dehqonchilik, hunarmandchilik va mayda savdo). Bu almashuvni ham o'z ichiga oladi, ammo zarur shaxsiy talab-ehtiyojlarni qondirish chegarasidan chiqmasligi kerak. Bu faoliyat chegaralari ham tabiiy soha bo'lib, insonning ongli shaxsiy iste'moli doirasida bo'lishi kerak.

Xrematistika esa (amaliyotda kam qo'llaniladi) *«mulk orttirish san'ati»*, ya'ni ayniqsa pul shaklida foyda orttirish, boylik (pul) to'plashga yo'naltirilgan faoliyatdir. Boshqacha aytganda, xrematistika - bu kapital qo'yish, sudxo'rlik va jamg'arish «san'ati»dir.

Antik davrda hali sanoat kapitali mavjud emas edi, ammo savdo va sudxo'rlik (pul) kapitali sezilarli rolni o'ynagan. Shularni hisobga olib, olim savdo bilan bog'liq bo'lgan mol-mulk orttirish san'atida maqsadga erishish borasida hech qachon chegara bo'lmaydi, chunki cheksiz boylik va pulga egalik asosiy maqsaddir, deydi. Pul oboroti bilan shug'ullanuvchilarning hammasi o'z kapitalini cheksiz o'stirishga intiladilar (notabiiy soha).

Aristotel bularni notabiiy deb hisoblagan, ammo sof «ekonomika» ham bo'lmasligini etarli tushungan, ming afsuslar bo'lsinki, ekonomikadan doimo xrematistika o'sib chiqadi va bu asta-sekin tabiiy holatga aylangan. Aristotelning bu g'oyasi tarix sinovidan o'tmadi. Olimlar qanchalik urinmasinlar (bu harakat o'rta asrda ham bo'lgan), xrematistikani qanchalik notabiiy deb hisoblamasinlar, kapitalizm munosabatlari rivoji bilan u «tabiiy huquq»ka aylana boshladi. Hatto XVII-XVIII asrlarda iqtisodiy odam etishib chiqdi, uning barcha hatti-harakatlari faqat boyish bilan bog'liq edi.

*«Ekonomiya»* so'zi dastlab uy xo'jaligini yuritish san'ati sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, keyingi davrda u ko'proq va asosan «ekonomika» ma'nosida qo'llaniladi va odatda harajatlarni qisqartirish, ma'lum resurslarni sarflashda tejamkorlikni anglatadi. Hozirgi davrda bu matn ko'proq quyidagilarni anglatadi:

1. Tuman, hudud, mamlakat, mamlakatlar guruhi yoki jahon xo'jaligi (masalan, jahon iqtisodiyoti, O'zbekiston iqtisodiyoti va boshqalar);

2. Xalq xo'jaligining, to'la ishlab chiqarishning ayrim shart-sharoitlari va elementlari (aholi, mehnat, boshqarish va boshqalar), ayrim tarmoqlar (sanoat,



mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, ta'lim va boshqalar) ni tadqiq etadigan ilmiy soha;

3. Ma'lum iqtisodiy tizimni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv, iste'mol jarayonidan tashkil topuvchi odamlar o'rtasidagi ma'lum tarixiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

### *1.3. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy g'oyalari*

M.a. III asrda Qadimgi Rim (hozirgi Italiya) da quldorlik munosabatlari o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Rimning boshqa erlarni bosib olish uchun olib borgan urushlari tufayli yirik imperiya yuzaga keldi, ko'plab qabila va xalqlar qullikka mahkum etildi. Asosan asirlardan iborat bo'lgan qullarning ahvoli Gresiya qullarinikidan og'irroq bo'lgan. Yana bir o'ziga xos xususiyat shundaki, agar Gresiyada qullar ko'proq hunarmandchilik va savdoda ezilgan bo'lsa, Rimda qullar asosan qishloq xo'jaligida ekspluatatsiya qilingan. Ishlab chiqarishning quldorlik usulidagi qarama-qarshiliklar shu erda eng keskin tus oldi va oxir-oqibatda kolonatning paydo bo'lishiga olib keldi. Aholining kambag'al tabaqalari asrlar davomida erga egalik qilish uchun keskin kurash olib bordilar. Bu holat Rimdagi iqtisodiy g'oyalarga ta'sir etmay qolmadi, qullikka asoslangan yirik latifundiyalar bilan birga quldorlik xo'jaliklari - *villalardan* samarali foydalanish muammolari bosh masala edi.

Shu davrdagi olim va mutaxassislarning asarlarida bir qancha yangi iqtisodiy g'oyalari ilgari surildi. Bu g'oyalarning rivojiga e'tibor berilsa, quldorlik tizimining emirilishi bilan unga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. **Katon Starshiy** (m.a. 234-149 yy.) yirik er egasi bo'lgan, «**Dehqonchilik**» nomli asarida u qullikka asoslangan natural xo'jalikni himoya qildi. Katon o'z talablarini o'zi ta'minlovchi yoki asosan iste'mol qiymati ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarni tan olar edi (natural xo'jalik himoya qilinadi). U faqat ortiqcha mahsulotnigina sotish kerak, xo'jalikda ishlab chiqarish mumkin bo'lmagan narsalarnigina sotib olish zarur, degan g'oyani qo'llaydi. U qul mehnati asosida xo'jalikni yuritishning yangi uslublarini ham ishlab chiqdi. Uning fikricha, qullar yoshligidan sotib olinish kerak, shunda qullarni tarbiyalash, ishga o'rgatish oson bo'ladi (yoshi kattalarda bu ish qiyin kechadi), qullar orasida adovat urug'i sepilsa, ularda egasiga nisbatan ig'volar yo'qoladi. Qullar qattiq intizom asosida ishlatilishi, arzimas gunoh uchun jazolanishi, ishga qarab boqilishi va kiyintirilishi taklif etiladi.

Bu davrda natural xo'jalik bilan birga bozor munosabatlari ham rivojlanayotgan edi. Bozorni qo'llagan Katon shu bilan birga yollanma mehnatga dushman bo'lgan. U qul mehnatini to'g'ri tashkil etishga alohida ahamiyat beradi. Bayram kunlari ish hayvonlariga dam berilgan holda, qullar ishlashga majbur etilgan. Kasallangan ho'kiz davolangan, qulni esa «eski arava» sifatida sotib yuborish tavsiya etilgan.

Dehqonchilikda qul mehnati tobora kam samarali bo'layotganligini ko'rgan Katon yaylov xo'jaligini, keyinchalik savdo va sudxo'rlikni qo'llab-quvvatlagan. Qiymatdan ortiq mahsulotni foyda deb bilgan va uni to'la ravishda ishlab chiqarish harajatlariga qo'shgan (xato fikr). «*Yuqori foyda olish uchun yuqori baholar kuni kelishini bamaylixotir kutish kerak*», deydi u.

Dehqonlar qo'lidagi erlar tortib olinib, yirik latifundiyalar vujudga kela boshladi, erkin Rim aholisi, dehqonlar va armiya soldatlari ersizlandi. Bu holat yirik er egalari - *patrisiylar* va dehqon-plebeylar o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oxir-oqibatda aka-uka **Grakxlarning** agrar islohotiga sabab bo'ldi. Ular ersiz yoki kam erli dehqonlarning yirik er egalari qarshi kurashini himoya qildilar. Ammo bu ishni quldorlik tuzumini saqlagan holda va yirik er egalari cheklash yo'li bilan hal etmoqchi bo'ldilar. Er egalari qo'lidagi erning bir qismini kesib va davlat fondidagi erdan foydalanib kam erli dehqonlardan ozod dehqonlar tabaqasi barpo etish ko'zda tutilgan, eng muhimi bu toifa quldorlarning ishonchli tayanchi bo'lishi kerak edi.

Aka-uka Tiberiy va Gay Grakxlarning agrar islohoti bo'yicha, davlat eridan foydalanuvchilarning har biri 500 yuger (125 gektar), har o'g'li uchun 250 yuger, ammo bir oila uchun 1000 yugerdan ortiqcha er olish taqiqlangan. Undan ortiq erlar musodara qilingan va 30 yugerdan bo'linib, kambag'al fuqarolarga berilgan, lekin bu erni birovga sotish man etilgan. Bu qonun qabul qilindi, ammo uni amalga oshirishga yirik er egalari va senat qarshilik qildi. Tiberiy Grakx m.a. 132 yilda ataylab o'ldirildi, Gay (ukasi) Grakx m.a. 123-122 yy.da bu islohotni amalga oshirish uchun ishni davom ettirdi, bir qancha demokratik o'zgarishlarni amalga oshirdi (Rimda arzon non sotish), oqibatda 80 ming fuqaro er uchastkasi oldi. Islohot vaqtincha muvaffaqiyat keltirdi, m.a. 111 y. davlat erlarini sotishga yo'l berildi, erlar xususiy mulkka aylandi (m.a. 121 y.da Gay ham jangda halok bo'lgan).

Quldorlik tuzumi inqirozga uchragan va tushkunlikka tushgan davrda rimlik agronomlar **Varron** (m.a. 116-27 yy.) va **Lyusiy Kolumella** (I asr) lar quldorlik xo'jaligini rasionallashtirish muammolarini ishlab chiqdilar. Shu bilan birga olim va arxeolog bo'lgan Varron «*Qishloq xo'jaligi to'g'risida*» degan kitobida bu sohaning ahamiyatiga katta o'rin beradi, qishloqdan shaharga intilganlarni qoralaydi. U dehqonchilik bilan chorvachilikni birga rivojlantirishni ma'qul deb biladi. Varron ular o'rtasidagi «*buyuk ittifoq*» tarafdori edi. Buning asosiy sababi shundaki, Italiyada don nisbatan arzon edi, chorvachilikning foydasi esa ancha yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, Varronning fikricha, har bir xo'jalik o'z-o'zini ta'minlashi kerak, u bozor munosabatlariga kam e'tibor qilgan, qullar ekspluatatsiyasi tarafdori bo'lgan va ularni «*gapiruvchi qurollar*» deb bilgan. U qullarning siyosiy jihatdan xavfli ekanligini tushungan va imeniylarda bir millatga tegishli qullarni ko'p saqlamaslik kerak deb tavsiya etgan (chunki birlashib harakat qilishlari oson).

Kolumella o'zining qishloq xo'jaligiga oid yirik asarida qullar mehnatining samarasi pastligini ta'kidlaydi (birovga ishlaydi-da!). Uning fikricha, qullar erni yaxshi ishlamaydilar, er yuqori hosil berishi uchun kayg'urmaydilar. U erkin mayda ishlab chiqaruvchilarning mehnati qullarnikidan yuqori bo'lishini isbotlab berdi, yirik quldorlik latifundiyalariga nisbatan mayda dehqonchilikni afzal deb hisobladi. Bu davrda yirik latifundiyalarning inqirozi aniq bo'lib qoldi, rivojlanish faqat ekstensiv yo'l bilan bordi, ya'ni hosil qo'shimcha er hisobigagina oshdi. Qullar imkoni boricha erni ishlamaslikka intilgan. Kolumella bunday erlarni erkin kolonlarga bo'lib berish yaxshiroq samara beradi, degan to'g'ri qisqacha

xulosalarga keldi, uningcha mayda ishlab chiqarishga o'tish kerak edi (hozirgi davrga solishtirib ko'ring).

**Siseron Mark Tulliy** (m.a. 106-43 yy.) taniqli davlat arbobi va mashhur notik bo'lgan. U yashagan davrda davlat ancha markazlashgan bo'lib, savdo-sotiq ancha o'sdi, sudxo'rlik boyish manbaiga aylandi. U qishloq xo'jaligini qo'llagan holda (chunki bu soha bozor uchun ham mahsulot etkazar edi), yirik savdo va sudxo'rlikni boyish manbai deb hisobladi. Demak, Siseron boshqalardan farqli ravishda quldorlar bilan birga savdogar va sudxo'rlarning manfaatini ham himoya qildi.

Quldorlik tuzumining ichki qarama-qarshiligi tobora o'sdi, qullar qo'zg'oloni ro'y berdi. Tarixda **Spartak** boshchiligidagi (m.a. 73-71 yy.) qullar qo'zg'oloni katta ahamiyatga ega, u beayov bostirilgan bo'lsa ham, tuzum zaminiga jiddiy zarba bo'ldi. **Lusiy Sergey Katalina** m.a. 63-62 yy. kambag'al aholi yordamida hokimiyatni egallamoqchi, qulchilikni yo'q qilmoqchi va boyimoqchi bo'ldi, ammo uning harakatlari ham zoe ketdi.

Yangi eramizning I-II asrlarida Rim imperiyasida nisbatan barqarorlik davri bo'ldi, lekin quldorlik ekspluatasiyasining samarasizligi tobora ayon bo'lib qoldi, kolonat o'sdi. Aristotel g'oyalari qulchilik tabiiy zarurat deyilgan bo'lsa, endilikda bunga sharoit taqozosi tufayli kelingan, degan fikrlar yuzaga chiqa boshladi.

**Lusiy Anney Seneka** (m.a.3-mil.65 yy.) qulchilikning siyosiy xavfini tushundi va qullar bilan yumshoqroq munosabatda bo'lishni taklif etdi, ular ham tabiatan ozod odam ekanligini tan oldilar.

Shu davrda kolonatga, krepostnoylikka o'tish kuchaydi. Ana shunday bir paytda milodning I asrida (2-yarmida) yangi diniy mafkura - *xristianlik* vujudga keldi. Uning asosiy aqidalari Injilda keltirilgan. Bu muqaddas kitobda bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham berilgan. Oddiy xo'jalik faoliyati (mehnat) zarur va ulug' ish deb qaraladi. Dastlab og'ir qullar haq-huquqini himoya qilgan bu din, bu ahvoldan qutulish yo'li yuqoridan, xudodan deb bilgan. O'sha davrda bu dinning boshqa dinlardan afzalligi shu bo'ldiki, xalqlar o'rtasidagi etnik va sosial tafovutlar inkor etildi, din oldida hamma barobar deb e'lon qilindi. Keyinchalik bu din boshqa toifalar orasida ham tarqaldi. Dastlab xristianlik mulki umumiy bo'lib, ekspluatasiya inkor etilgan, odatda sadaka hisobiga kun ko'rilgan. Birinchi xristianlar ta'qib ostiga olingan, ammo 325 yili Nikey Soborida xristianlikka Rim imperiyasining davlat dini maqomi berildi, oqibatda quldorlik va bo'lajak feodal jamiyatining mafkurasiga aylandi.

Milodiy yilning boshida ilk xristianlikning iqtisodiy g'oyalari **Avreliy Avgustin Blajenniy** (353-430) asarlarida ham berilgan. U hammaning mehnat qilishi zarurligini, «ishlamagan tishlamaydi» (apostol **Pavelning** fikri) g'oyasini ilgari surdi (sotsializmning asosiy tamoyilini eslang), dehqonchilik eng faxriy kasb ekanligini aytdi, savdoni esa faqat foyda, naf olish uchun qilinadigan ish deb qoraladi. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat kabi baholash muhim edi. Ammo Avgustin qullarni ozod qilishni qat'iy talab etgan emas, u dinning bosh vazifasi aholining ahloqiy takomillashuviga yordam berish, degan qisqacha xulosalar chiqargan. Bu dinda odil baho tamoyili, mahsulotlarni shaxsiy emas, balki ijtimoiy baholash, mulk, boylik va boshqa ko'pgina iqtisodiy muammolarga tegib o'tilgan.

Avgustin Blajenniy «*Faflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun avvalo uning tarixini uyg'otish zarur*», degan buyuk fikrni ifoda etgan.

## **QISQACHA XULOSALAR**

Dastlabki iqtisodiy g'oyalar insoniyatning paydo bo'lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha etib kelganlari m.a. 2-ming yillikka to'g'ri kelib, ko'proq qadimiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Antik dunyoga ma'lum darajada amaliyotni nazariy umumlashtirish, abstraksiyalash oqibatida birinchi iqtisodiy mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar shakllana boshladi.

Qullikka asoslangan natural xo'jalik, ayniqsa qishloq xo'jaligi qo'llab-quvvatlangan, boylikning asosiy manbai mehnat deb hisoblangan Hindistonda «buyumning qiymati»ni «ish kunlari» bilan belgilash, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq aytilgan, foyda masalasi ko'tarilib, uning miqdori cheklangan. Davlatning iqtisodga aralashuvi qo'llab-quvvatlangan.

Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar ancha rivojlangan bo'lib, tabiiy huquq nazariyasi ilgari suriladi, ularda mehnat taqsimoti, davlatning roli, xalq boyligi va hukmdorlar mulki o'rtasidagi bog'lanish, iqtisod va qonun masalalariga tegib o'tiladi.

Agar Osiyoda quldorlik ko'proq patriarxal shaklda bo'lsa, antik dunyoda u klassik ravishda ro'y bergan, natural hunarmandchilik, dehqonchilik xo'jaligi qo'llangan, ammo bu davr oxirida savdo, sudxo'rlik ham qo'llab-quvvatlangan. Pulning asosan almashuv (Ksenofont jamg'arish) funksiyasi tan olingan. Mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish, boylik jamg'arish zararli deb hisoblangan. «Ekonomika», «Xrematistika» tushunchalari kiritilgan, ular bir-biriga qarshi qo'yilgan, qiymat (qimmat) kategoriyasi, tovarlarning almashuv tamoyillari (ilk yo'nalish) keltirilgan, ammo buning mezoni (mehnat miqdori, foydalilik) aniq berilmagan.

Rimda quldorlik eng yuksaldi, lekin tanazzulga ham uchray boshladi (Osiyoda feodalizm munosabatlari oldinroq ro'y bergan). Qulchilikka munosabat o'zgardi, erkin sohibkorlik ustunligi oydin bo'lib qoldi, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo va sudxo'rlik faoliyati qo'llandi (Siseron). Mayda ishlab chiqarishga o'tish jarayoni, islohotlar (Grakxlar) yo'li boshlandi.

Katon tomonidan foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni xato ravishda qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan.

Zoroastrizmning muqaddas kitobi Avesto va xristianlik kitoblari Bibliya, Injilda ham muhim iqtisodiy g'oyalar mavjud, masalan sosializmning bosh tamoyili bo'lgan «ishlamagan tishlamaydi» g'oyasi eramiz boshida ma'lum edi.

Qisqacha qisqacha xulosalar qilib shuni aytish mumkinki, bu davrdagi iqtisodiy g'oyalarda natural xo'jalik (nobo'zor) konsepsiyalari asosiy hisoblanadi.

## 2-MAVZU. FEODAL JAMIYATI VA UNING EMIRILISHI DAVRIDAGI IQTISODIY QARASHLAR

Yangi era - milodning III asridan boshlab Osiyoda, milodning V asridan G'arbiy Evropada quldorlik tuzumi yangi feodal ishlab chiqarish usuli bilan almashdi.

Ammo quldorlik tuzumining qoldiqlari feodalizm va hatto kapitalizm davrida saqlanib qoldi. Masalan, eng rivojlangan AQShda quldorlik, qullar mehnatidan foydalanish 1861-1865 yillardagi fuqarolik urushidan keyin to'la tugatildi. Markaziy Osiyo, xususan Turkistondagi qullik davri ham shu davrda, ya'ni o'lka Rossiya tomonidan bosib olingach, qonun yo'li bilan taqiqlandi. Ayrim tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko'ra Evropaning asosiy qismida, jumladan Rossiyada qulchilik ishlab chiqarish usuli darajasiga etmadi, feodalizmga o'tildi. Tuzumda erga xususiy mulkchilik mavjud bo'lib, bevosita ishlab chiqaruvchilar bo'lgan, rasman ozod dehqonlarni ekspluatasiya qilishga asoslangan. Er egalari - feodallar yoki davlat dehqonlardan *barshchina* (ishlab berish), *natural* (mahsulot) yoki *pul obrogi* (soliq) sifatida er rentasini olish imkoniga ega edilar. Shunday qilib, feodalistik jamiyat yirik er egalari va mayda ishlab chiqaruvchilar - dehqonlarning hamkorligiga asoslangan.

Qulga nisbatan erkin dehqon ishlab chiqarishdan xiyla manfaatdor bo'lgan, o'zining oilasi, ayrim ishlab chiqarish vositalariga, xo'jalik mustaqilligiga ega edi, shu sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish kuchlari ancha o'sdi. Feodalizm shu jihatdan avvalgi ibtidoiy jamoa va quldorlikdan tarixan progressiv jamiyat edi. Ammo bu davrda hali ham qoloq texnika mavjud bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji sekin borgan. G'arbiy Evropada feodal ishlab chiqarish usuli V asr oxiri (Rim imperiyasining qulashi) dan burjua inqiloblari (XVII-XVIII asrlar), aniqrog'i sanoat to'ntarilishi davrigacha yashadi. Ko'pgina mamlakatlarda (masalan, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda) bu davr undan ham uzoq vaqtni o'z ichiga oladi (III-XX asrlar).

Bu jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qarashlar keng qamrovli bo'lib, erga egalikning qonuniy ekanligini ko'rsatish, tovar-pul munosabatlari muammolariga munosabatning kuchayishini belgilashga qaratilgan. O'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarda tovar-pul munosabatlari (sudxo'rlikdan tashqari) qo'llab-quvvatlanadi va shu bilan birga feodal jamiyatning tabiiyligi, uni saqlab qolish zarurligi qayd etiladi.

Bizgacha etib kelgan yozma manbalarga ko'ra, o'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarda diniy-ahloqiy yo'nalish kuchli bo'lgan. Bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq fikrlarda ikki tomonlama qarash mavjud (tovar ishlab chiqarish, sudxurlik va b.). Davlat va dinning iqtisodiyotdagi roli yuqori qo'yiladi. O'rta asrlar oxirida, er egaligi tuzumi emirilishi bilan yangi iqtisodiy g'oyalar vujudga keldi.

### ***2.1. Arab mamlakatlaridagi dastlabki iqtisodiy g'oyalar. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldun.***

Sharq mamlakatlarida feodal munosabatlar III-VIII asrlarda shakllana boshladi. Bu erlarda pul, mehnat munosabatlari biroz engillashdi. Davlat xususiy

egalik va foydalanish uchun er ajrata boshladi. Xususiy er egaligining turli shakllari saqlangani holda davlat asosiy va unumdor erning egasi sifatida, zarur paytda xususiy xo'jaliklarning barcha ishlariga bemalol aralashish, er solig'ini yig'ish huquqini yo'qotgan emas. Shu sababli Sharqda «davlat feodalizmi»ning turli shakllari saqlandi va iqtisodiy qarashlarda ham o'z aksini topdi. Iqlim va turarjoy sharoiti tufayli, bu erlarda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish asosidagina olib borilishi mumkin edi (G'arbiy Evropa bilan solishtiring). Ba'zi olimlarning fikricha, Sharqda erga xususiy mulkchilikning yo'qligi va buning asosiy sababi sun'iy sug'orish ekanligini aytadi. Er bor bo'lgani bilan sug'orishsiz hosil olish mumkin emas edi. Sug'orish inshootlari qurish, ta'mirlash jamoa ixtiyorida bo'lgan, qishloq jamoasi saqlangan. Sharqda erga xususiy mulkchilik bo'lganmi, degan muammo hanuzgacha hal etilmagan. Bizningcha, ko'proq erdan foydalanish huquqi bo'lgan. Bu mintaqada erni suvdan ajratib bo'lmaydi.

Ilk feodal munosabatlar va shu davrdagi iqtisodiy g'oyalarning asosi Qur'oni karimda (arabcha qiroat, ya'ni o'qish) aks etgan (VII-VIII asrlar). VI asrning oxiri-VII asrning boshlarida Arabistonda feodal munosabatlarning shakllanishi tufayli yagona davlat barpo etishga da'vat kuchaydi. Bu harakat so'nggi din - **Islom**da o'z aksini topdi. Islom ta'limoti payg'ambarimiz **Muhammad alayhissalomga** Alloh taolo tomonidan nozil qilingan *Qur'oni karimda* mujassamlangan. Yagona to'g'ri din bo'lgan Islomdagi yo'l-yo'riqlar hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, shu jumladan iqtisodiyotga doir masalalarga ham keng o'rin berilgan. Qur'oni karimdagi asosiy g'oyalardan biri barcha musulmonlarning qardoshligi bo'lib, arab qabilalari shu bayroq atrofida birlashdi. Halol mehnat, dehqon, hunarmandlar mehnati ulug'landi, barcha boylik shu asosda paydo bo'lishi uqtirildi. Bu muqaddas kitobda Alloh taolo savdoga katta ahamiyat bergan, sudxo'rlikni, ya'ni *ribo'* (sudxo'rlik foizi) ni harom qilgan, mulkning muqaddasligini, birovning mulkiga xiyonat va hatto hasad qilishni katta gunoh degan. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to'g'rilikka buyuriladi va yolg'on ishlatish, o'g'rilik va mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Alloh taoloning Qur'oni karimda qarz olish va berish, merosni taqsimlash (*4-sura, 8-oyat*), etim-esirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish (*3-sura, 128-oyat*) haqidagi oyati karimalaridan kelib chiqadigan g'oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi. Etimlar haqiga xiyonat qilish eng katta gunohlardan deb e'lon qilingan. Shuningdek, o'zaro yordam ham (*5-sura, 3-oyat*) zarur, lekin yomon ishlarda va dushmanlikda emas deyiladi. Oyati karima va hadisi shariflarda turli kasblarni egallash, ayniqsa dehqonchilik, qo'ychilik bilan shug'ullanish, mehnat qilish zarurligi marhamat qilingan.

Islom aqidasi isrofgarchilikka qarshi kurash Qur'oni karimdagi «**Englar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar**» degan oyatlar asosida olib boriladi (bu hozirgi davrda eng aktual masalaga aylangan). «*Daryo bo'yida tahorat qilsalaringiz ham suvni isrof qilmanglar*» kabi qoidalar aynan hozirgi zamon iqtisodiyoti va ekologiyasi uchun nihoyatda ahamiyatli.

Islom huquqshunosligida foyda miqdori 10 foiz qilib belgilangan (buni boshqa fikrlar bilan solishtiring).

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida arab mutafakkiri **Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zayd** (1332-1406)ning hissasi benihoya katta (*Tunisda*

*tug'ilgan, Fes sultonida xattot-kotib bo'lgan*). 1382 yili Kohiraga kelib mudarrislik qilgan, keyinroq qozi bo'lgan. Asosiy asari «**Kitob-ul-ibar**» («*Ibratli misollar kitobi*»-1370y.). U birinchilardan bo'lib tarixiy ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritdi, g'arb olimlari Makiavelli, Monteskega katta ta'sir ko'rsatdi.

Olimning konsepsiyasi «ijtimoiy tabiat» ga yaqin, jamiyat rivoji (evolyasiyasi) oddiylikdan sivilizasiya saridir.

Ibn Xaldunning bu asaridan tarjima «Ijtimoiy fikr» jurnalining 1998 yil 1-sonida (158-165-betlar) keltiriladi. Asarning «Kitobi avval» qismida «inson jamoasining farqli tomonlarini: shohlik hokimiyati, odamlarning daromadlari.» ni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Olim: «Insonga xos bo'lgan jihatlarga yashash uchun mablag', narsa topishga intilish, bu uchun mehnat qilish zaruriyati ham kiradi», deb yozadi. Davlatning yashash davr va bosqichlari keltiriladi, u beshga bo'linadi va nihoyatda ibratlidir. Mehnat qilinmasa «bozor munosabati ham barham topadi».

«Davlatning kuchi va qudrati, aholining soni boylik va farovonlikka bog'liqdir», deb yozadi olim. Soliqlar zarurligi uqtiriladi, soliqlar yana aholining o'ziga qaytib keladi. «Aholining boylik manbaini bozor va savdo munosabatlari tashkil etadi», deganda olim xuddi bugungi iqtisodiy g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. Merkantilistik g'oya klassik maktab fikrlari bilan to'ldiriladi. «Savdogar moliga narx qo'yishda barcha sarf-xarajatlarni hisoblab narx yozadi». Olimning bexosiyat, mevasiz daraxtlar ekishdan chetlanish haqidagi fikri ham qimmatlidir.

Soliqlarni faqat davlat, ayrim hukmdorlar foydasiga yig'ish jamiyat tanazzumiga olib kelishi aytiladi.

Ibn Xaldun dastlab birgalikda «ishlab chiqarish» faoliyatiga katta e'tibor berdi, jamiyat moddiy qiymatlar «ishlab chiqaruvchilar» jamoasidan iborat deydi. U «*Odarning kelib chiqishida mehnatning o'rni*»ni ochib berishga harakat qilgan. Hunarmandchilik, fan va san'atning rivoji bevosita «*mehnat unumdorligining o'sishi*» bilan bog'liq deydi. «Oddiy» va «murakkab» mehnat farqlangan, mehnat bo'lmasa, buyum ham bo'lmas edi, degan muhim qisqacha xulosalar chiqariladi. Olim fikrlarida «zaruriy» va «qo'shimcha mahsulot», «zaruriy va qo'shimcha mehnat» tushunchalari farqlanadi. U «tovarning iste'mol qiymati» va «qiymat» tushunchalarini ta'rifladi. Zamon va makonda o'z zamondoshlaridan ancha ilgari bu g'oyalarni berdi. «*Oldi-sotdi bitimi asosida teng ayirboshlash qoidasiga amal qilinishi kerak, bunda sarflangan mehnatning teng yarmi ayirboshlanadi*», «*agar bu hunarmandchilik mahsuli bo'lsa - unga sarflangan mehnatiga teng*», «*daromad qiymati esa sarflangan mehnat ushbu buyumning boshqa buyumlar ichida tutgan o'rni va uning odamlarga zarurligi bilan belgilanadi*». Bunda tovarlarni tenglashtirish mehnatni tenglashtirish shaklida yuzaga chiqadi, ya'ni mehnatning roli va tovarning foydaliligi ham hisobga olinmoqda, bu juda muhim.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan birga savdoni hayot uchun tabiiy zarurat deb bilgan va fiziokratlardan ilgarilab ketgan.

Tovar qiymatiga xomashyo qiymati, mehnat vositalari, oraliq tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining qiymati kiradi. U aytadiki, ayrim hunarlar boshqa hunarlarni o'z ichiga oladi: masalan, duradgor yog'ochdan ishlangan buyumlarni, to'quvchi yigirilgan ipni ishlatadi va hokazo, ya'ni ishlab chiqarishning ijtimoiyligi

isbotlab beriladi. Tovar-pul munosabatlari tahlil etilgan, narxlar bozorga olib chiqilgan tovarlar massasi (talab-taklif)ga bog'liqligi aytilgan. Nonga baholarni mo'tadil ushlab turish, farovanlik manbai ekanligi ko'rsatiladi. Soliq tizimini tartibga solish kerakligi qayd etiladi; uningcha soliq pasayishi ijtimoiy hayotni yuksaltiradi.

Bundan deyarli 600 yil avval bozor tushunchasiga izoh beriladi. Ibn Xaldun fikricha: «Bozor - bu hunarmandchilikni mukammallashtirish va mehnat unumdorligini oshirishning garovidir».

*Shunisi diqqatga sazovorki*, Ibn Xaldun (asli arab) tarix taqozosi bilan Amir Temur bilan Damashqda uchrashgan (asir tushgan) va u bilan suhbat qurgan. Ko'p sohalarda, jumladan iqtisodiyotga oid asarlar muallifi, katta domla ekanligini bilib qolgan Amir Temur Ibn Xaldunni asirlikdan qutqarib, o'z vataniga qaytishga va ijodiy ishini davom ettirishga imkon bergan. Bu olijanoblik ilmga bo'lgan hurmat ramzidir.

## **2.2. G'arbiy Evropadagi iqtisodiy g'oyalarga qisqacha xarakteristika**

G'arbiy Evropada feodalizm jamiyati uch bosqichni bosib o'tdi: ilk feodalizm (V-X asrlar), rivojlangan feodalizm (X-XV asrlar) va feodalizmning emirilish davri (XVI-XVIII asrlar).

Dastlabki davrda dehqonchilik xo'jalikning asosi edi, aholi o'rtasida keskin tabaqalanish ham mavjud emas edi. Yuzaga kelgan buyuk Frank davlatida ibtidoiy jamoa tuzumi emirilib, feodalizm munosabatlari shakllanishi (quldorlik formasiya shaklida tarkib topmadi - «Sali haqiqati», 481-614) qonunlar to'plamida aks etgan. Bunda eski jamoa munosabatlari himoya qilinadi (umumiy mulkchilik), ammo ayrim xo'jaliklarning mustaqilligi ham, xususiy mulkchilik ham qo'llab-quvvatlanadi, sinfiy ajralish asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Olimlar feodalizmdan oldingi Frank kishlog'ining o'ziga xos bo'lganligini qayd qilib, erkin Frank dehqoni Rim koloni (qul) bilan yangi krepostnoy o'rtasidagi figura ekanligini, ya'ni krepostnoylik munosabatlari endigina shakllana boshlaganligini qayd etgan edi. «*Sali haqiqati*» sinfiy differensiasiyani ko'rsatdi.

Natural xo'jalik va dehqonlarning krepostnoylik ekspluatatsiyasiga oid dastlabki «*Villalar to'g'risidagi kapitulyariy*» pomestelar to'g'risidagi qonun bo'lib (IX asr boshi), unda feodal er egaligi va krepostnoylik himoya etiladi. Unda endi jamoa, jamoa mulki to'g'risida gap yo'q. Bu hujjatda votchinaning yagona egasi va votchina aholisining majburiyatlari to'g'risida gapiriladi. Natural xo'jalikka asoslanganligi tufayli obrokning mahsulot shaklida to'lanishi, zahira ham natura shaklida bo'lishi, turli kasbdagi hunarmandlar kerakligi gapiriladi. Sotuvchi faqat ortiqcha mahsulotni chiqarish, ya'ni realizasiya qilishi kerak edi. Demak, o'z-o'zini ta'minlash birinchi o'ringa qo'yilgan.

Krepostnoylikning yuzaga kelish masalasi ko'p olimlarni qiziqtiradi. Erga monopoliya egaligi va dehqonlarni majbur qilish apparatining paydo bo'lishi hal qiluvchi rolni o'ynagan. Axir inson tug'ilgandan ozod bo'ladi-ku! Natural xo'jalik etakchi bo'lsa ham, tovar ishlab chiqarish ham mavjud edi. Shaharlarda hunarmandchilik sexlari, savdo rastalari doimo ishlab turgan. Ishlab chiqarish almashuv va sotish uchun amalga oshirilgan. Sex nizomlarida ishlab chiqarishni



uyushtirish, xalfa yollash, o'quvchilar olish tizimlari belgilangan edi. Master-usta bo'lish uchun ancha yuqori mulk senzi qo'yilgan.

Umuman, uy hunarmandchiligiga nisbatan sex ancha ustunlikka ega edi, avvalo keng mehnat taqsimoti bo'lgan (bu ishning tez va sifatli bajarilishiga olib kelgan), raqobat bor edi. Bunda masalan, uy qurilsa, g'ishtni alohida sex ko'targan, suvoqchi, tom yopuvchi va hokazolar alohida ish yuritgan, ishning sifati nazorat qilingan (raqobat bor), agar ish sifatsiz bo'lsa, keyingi buyurtma boshqa sexga berilgan (umuman, sanoat rivoji muhim uch bosqichni bosib o'tadi: uy hunarmandchiligi, sex-manufaktura, fabrika).

Klassik o'rta asr davridagi iqtisodiy g'oyalar kanonik, ya'ni qonuniy doktrinalar asosida rivoj topdi. Bu sohada cherkov, ruhoniylar katta faoliyat ko'rsatdilar. XII asrning o'rtalarida boloniyalik monax-rohib **Grosian «Kanonik huquqlar to'plami»**ni tuzdi, unda bir qancha iqtisodiy g'oyalar ham berilgan. Ular umumiy mulkchilikni ideal deb baholab (e'tibor bering, xususiy mulk emas), xususiy mulkchilik xudo tomonidan odamlarning gunohlari uchun vujudga keltirilgan, degan g'oyani ilgari surdilar. Boylar xayr-sadaka berishga chaqiriladi. Xudoga ma'qul bo'lgan faoliyatlarga faqat dehqonchilik va hunarmandchilik kiritilib, sudxo'rlik, ayniqsa, foyda olish uchun savdo qoralanadi (Islom dinidagi g'oya bilan solishtiring).

Kanonistlarning bosh iqtisodiy g'oyasi asosida xudo tomonidan belgilangan «adolatli baho» to'g'risidagi ta'limot yotadi.

Italiyalik rohib **Foma Akvinskiy** (1225-1274) ta'limotida iqtisodiy g'oyalar ma'lum tartibga solingan. U o'zining asarlarida qullik va krepostnoylikni oqlaydi, bunda u Aristotel va muqaddas kitoblarga asoslanadi. U xudoni barcha boyliklar egasi deb e'lon qiladi, lekin xususiy mulkchilik ham himoya qilinadi, chunki bunda insonning o'z toifasi, tabaqasiga mos ravishda yashashiga imkoniyat yaratiladi. Davr taqozosiga mos (natural xo'jalik hukmron) ravishda davlat o'z-o'zini ta'minlash g'oyasini qo'llaydi, natura shaklidagi boylikka asosiy e'tiborni qaratadi, oltin va kumushlarni sun'iy boylik deb biladi. Mehnatsiz yaratilgan boylik (savdo, sudxo'rlik) harom deb hisoblangan.

Asosiy va xudo tomonidan belgilangan bu narsa «adolatli baho» masalasi edi. Kanonistlar amalda bahoni mehnat sarflarining yig'indisidan iborat deb tan olganlar. Agar proporsional tenglik saqlanmasa jamiyat emirilishi mumkin, degan to'g'ri qisqacha xulosalar chiqariladi. Savdo foydasi va foiz olish «adolatli baho» bo'yicha almashuvni buzadi, shu sababdan yirik savdo va sudxo'rlikni taqiqlash talab etiladi. Foma Akvinskiy «adolatli baho» masalasini foydalar, to'g'rirog'i naf, manfaatlar tengligi asosida hal etdi va uni sub'ektiv vaqt deb baholadi. U aytadiki, agar narsa biror odam foydasiga, lekin boshqa odam ziyoni hisobiga o'tsa, bu holda buyumni o'zining haqiqiy bahosidan yuqoriroq sotish huquqi paydo bo'ladi. Shu bilan birga bu buyum baribir haqiqiy egasidaligidan qimmatroq sotilmaydi, chunki qo'shimcha baho, shu buyumdan xoli bo'lgan ziyonni qoplaydi. F.Akvinskiy yuqori tabaqa aholisini mehnatkashlar manfaatini himoya qiluvchilar qilib ko'rsatadi. Shu sababli bu tabaqaga buyumlarni o'z haqiqiy bahosidan qimmatroq sotishga ruxsat beradi. Prosent (foiz)ni tavakkalchilik to'lovi yoki qarz oluvchiga beriladigan «*beg'araz sovg'a*» deb tushuntiradi. U rentaning ekspluatatorlik mohiyatini bo'yab ko'rsatadi va renta er egasiga o'z qo'l ostidagilarni boshqarishdagi mehnati uchun

to'lanadigan haq deb baholaydi. Bu bilan cherkov (eri bor) va feodallarning manfaatlarini himoya qiladi.

Bunday iqtisodiy g'oyalar Fransiyada (*Nikola Orem*), Angliyada (*Djon Boll*) ham vujudga keldi. Shuni alohida qayd etish zarurki, bu iqtisodiy qarashlar sinfiy xarakterga ega bo'lgan, yuqori tabaqalarning faoliyatini ma'qullagan. Ikkinchi tomondan norozi dehqonlar harakati ham kuchaygan. Angliyada **Uat Tayler** (1381), Germaniyada **Tomas Myunser** (1524-1525) rahbarligida dehqonlar qo'zg'oloni bo'lgan, ular krepostnoylikni, boshqa majburiyatlarni bekor qilishni talab etganlar.

Shu davrda cherkov boyligi ham keskin oshgan. Tenglik to'g'risidagi g'oya buzilganligini ko'rgan xalqning bir qismi ruhoniylarning shohona hayot kechirayotganiga qarshi chiqdi. Shu davrda feodalizm yo'lidan borayotgan Rossiyada ham iqtisodiy g'oyalar vujudga keldi. IX asrda tashkil topgan Qadimgi Rus davlati - Kiev Rusida chop etilgan «**Russkaya pravda**» qonunlar to'plamida dastlabki yozma fikrlar berilgan. Unda jamiyatning sinfiy differensiasiyasi, er egalari, savdogarlar manfaati himoya qilinadi, knyazlik manfaati uchun savdogarlar, sudxo'rlar, qarzdorlarni noo'rin sarf-harajatlardan tiyish zarurligi haqida gapiriladi.

Ma'lumki, XII-XIV asrlarda Rossiyada feodal tarqoqlik ro'y berdi (13 ga yaqin alohida knyazlik). Bu davrda cherkov er egaligi atrofida diniy shaklda kurash bordi. XVI asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy kurash publisistik tus oldi. O'shanday publisistlardan biri Ermolay edi, monax - rohibligida Erazm nomini olgan. **Ermolay Erazm** o'z asarlarida dvoryanlikni himoya qildi va yirik savdo hamda sudxo'rlikka qarshi chiqdi. U boyarlarni boshqalar hisobiga doim bayramdagidek hayotini tanqid qildi, erni esa faqat davlatga xizmat qilayotgan (ya'ni dvoryan) odamlarga berish kerak, degan to'g'ri g'oyani ilgari surdi (boyarlar markazlashgan davlatga bo'ysunishni istamagan va votchina egasi, tarqoqlikning asosiy sababchisi edilar). Haqiqatda ham **Ivan Grozny**, hatto **Petr I** davrida ham votchinani (ya'ni boyarlarni) yo'q qilish uchun kurash bordi, oxir-oqibatda dvoryanlik va pomeschchiklik yutib chiqdi va Rossiya yagona davlatga aylandi.

Ermolay Erazmning iqtisodiy qarashlarida dehqon mehnati boylik manbai degan qoida yotadi. Shu sababli u davlatda dehqonlar toifasini birinchi o'ringa qo'yadi va ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash zarur deb hisoblaydi. Ammo u dehqonlar ekspluatatsiyasining asosi pul majburiyatlarida deb bilgan, shu sababli bu majburiyatlar natural renta holida bo'lishi va hosilning beshdan bir qismi (20 foizi) bilan cheklash, yom (pochta) majburiyatlarini esa savdogarlar zimmasiga yuklashni taklif etdi. U mehnat unumdorligini oshirish to'g'risida qayg'ursa-da, tovar munosabatlari rivojiga qarshi bo'lgan, ya'ni o'zi o'ziga qarshi edi, chunki u erkin boy savdogarlar savdosi tarafdori edi. E.Erazm natural majburiyatlarni cheklash sinfiy kurashga chek qo'yadi, degan noto'g'ri fikrda bo'lgan.

XVI asrning o'rtalarida yaratilgan «Domostroy» asarida shaharliklarning faoliyatiga oid qonun-qoidalar majmuasi berilgan. Unda hokimiyat va cherkov, oila, xizmatkorlarga munosabat qoidalari keltiriladi. Ko'pgina maslahatlar ichida xo'jalik yuritish, savdo, soliq to'lash qoidalari bor. Asarda ruy bergan sosial-iqtisodiy o'zgarishlar, boy shaharlik psixologiyasi o'z aksini topgan.

Bozor bilan yaqin munosabat (savdo-soliq)lar qatori, mahsulotlarni ko'plab zahira qilish (zapas) kerakligi (natural xo'jalik belgisi) uqtiriladi. Hunar va savdoni o'rganish, xo'jalikni boshqarish, mehnat va shaxsiy tashabbus rag'batlantiriladi.

Rossiyada XVII-XVIII asrning boshlarida yirik o'zgarishlar ro'y berdi, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'la boshladi. G'arbiy Evropadagi merkantilistlardan (quyida ko'riladi) farqli ravishda rus iqtisodchilari muomala sohasigakam e'tibor qiladilar, pul - boylik degan fikrga qo'shilmadilar. Ular mamlakat ichida tovar almashuvini kuchaytirish tarafdori edilar, tashqi savdoni esa asosan sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish quroli deb qaraganlar. Bu g'oyalar **A.A.Ordin-Nashchokin** (taxm. 1605-1680), **Yu.Krijanich** (1617-1683), **I.T.Pososhkov** (1652-1726) asarlarida bayon etilgan.

### 2.3. O'rta asr utopiyalari

Kapitalistik munosabatlarning shakllanish davrini manufaktura ishlab chiqarishi va dastlabki kapital jamg'arilishi bilan bog'lash mumkin, bu davr XIV-XV asrlarni o'z ichiga oladi, ya'ni er egaligi susayishi bilan bog'liq.

Kapitalistik munosabatlarning shakllanishi *dastlabki kapitalning jamg'arilishi* jarayoni bilan bog'liq. Adam Smitning fikricha, ko'p sonli ishlab chiqarish tarmoqlarining o'zaro bog'lanish yo'li bilan rivojida mehnat unumdorligi o'sishining sharti dastlabki kapital jamg'arilishidir. Bu jarayon ob'ektiv, oddiy bir voqea sifatida ta'riflanadi. To'g'ri, bu jarayon real tarixiy voqeadir, ammo u amalda beshafqat sinfiy kurash, aholining bir qismini iqtisodiy va ijtimoiy ezish, zo'rlik va aldov bilan bog'liq bo'ldi. Bu jarayon davomida ob'ektiv tarixiy qonuniyat o'ziga yo'l ochdi, natijada ishlab chiqarish nisbatan o'sdi, sanoat va savdo shaharlari ko'paydi, fan va texnika rivoj topdi. Bu uyg'onish davri bo'lib, ming yillik turg'unlikdan so'ng iqtisodiyot madaniyat va san'atning ravnaqiga olib keldi.

Eski feodal munosabatlar emirilib, yangi burjua-kapitalistik munosabatlar tug'ila boshladi, bu esa osonlik bilan bo'lmadi. Ayniqsa, dehqonlarning o'z erlaridan siqib chiqarilishi, mustamlakachilik, iqtisodiy ekspansiya, urushlar oddiy xalqqa katta ofat keltirdi. Oqibatda kapitalizmning shakllanishi bilan uni tanqid qilish ham boshlanadi, buni ilk sosial-utopistlar **Tomas Mor** (1478-1535) va **Tommaso Kampanella** (1568-1639) amalga oshirdi.



Ideal (fozil) jamiyat to'g'risidagi avvalgi g'oyalar dastlabki socialistik konsepsiyalar bilan davom ettiriladi.

T. Mor «**Utopiya**» (lot. yo'q joy) (1516) asarida

**Tomas Mor** Angliyada dastlabki kapitalning jamg'arilishi jarayonida dehqonlarning ommaviy qashshoqlanishi jarayonini aks ettirgan. T.Mor gumanist, davlat arbobi va yozuvchi bo'lgan (1529-32 yillarda Angliya kansleri). U Uyg'onish davrining atoqli arbobi **Erazm Rotterdamskiy**ning do'sti edi. Katolik bo'lgan. Qirolni ingliz cherkovining Oliy boshlig'i deb qasamyod qilmaganligi uchun T.Mor davlat xoini sifatida hisoblanib, qatl etilgan. Katolik cherkovi tomonidan muqaddaslashtirilgan (1535). U «**qo'ylar odamlarni eb qo'ydi**» iborasining muallifidir. Shu davrda dehqonlarni cheklash, ya'ni erdan siqib chiqarish siyosati amalga oshirildi. Bu jarayon manufaktura, keyinroq esa fabrika

rivoji bilan bog'liq edi. Mato to'qish, jun, ayniqsa qo'y juniga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Dastlab botqoq, chakalakzor erlar o'rab olindi va qo'y boqish uchun yaylovga aylantirildi, keyinchalik dehqonchilik qilinayotgan erlar ham tortib olinib, dehqonlar - yomenlar sinf sifatida tugatildi. Ular erdan mahrum qilindi va ko'chaga haydaldi. Bu o'ziga xos agrar inqilob - sanoat to'ntarilishi uchun sabab bo'ldi, lekin millionlab aholi qashshoqlikka mahkum etildi. Shu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan T.Mor qaerdaki xususiy mulk hukmron bo'lsa, asosiy boylik bir quchoq odamlar qo'lga to'planadi, degan qisqacha xulosalarga keldi. Yana sosial ofatning asosi puldir, degan edi u. Xayoliy «utopiya» mamlakatida ijtimoiy mulkchilik (xususiy mulk bo'lmagan), umumiy mehnat bo'lgan, qishloq va shahar o'rtasidagi tafovut yo'q edi, ishlab chiqarish tartibga solingan, ish kuni olti soat bilan cheklangan, pul yo'q qilingan, taqsimot tekis va bosqinchilik urushlari yo'q edi. T.Mor shunday jamiyatni qurish mumkin deb o'ylagan.

**T.Kampanella** Neapol (Italiya) mehnatkashlarining qashshoqligini ko'rgan. U o'zining «**Oftob shahri**» (1602 y. yozilgan, 1623 yilda chop etilgan) kitobida zolimlarning shohona hayotini tanqid qiladi, u ham T.Mor kabi, bu tengsizlikning asosiy sababi xususiy mulkchilik, deydi. U kelajak jamiyat to'g'risidagi o'z tasavvurini ham beradi, ular T.Morga o'xshash: ijtimoiy mulkchilik mavjud, hammaning mehnat qilishi zarur, mashina mehnati tufayli ish kunlari cheklangan (4 soat), aqliy mehnat jismoniy mehnat bilan almashtirib turiladi, bunda hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan nisbatan tekis shug'ullanish shart qilib qo'yiladi, tekis, pulsiz taqsimot amalga oshiriladi. U faylasuf, shoir, siyosiy arbob bo'lgan, keyinchalik esa (1582) rohib bo'lgan. Ispaniya bosqinchilariga qarshi isyon uyushtirgani uchun kamoqqa olingan, 27 yil kamoqda yotib, falsafa, falakiyot, siyosat, medisinaga oid o'nlab asarlar yozgan. Uning «Oftob shahri» asari dengizchining hikoyasi shaklida berilgan. Yangi jamiyatda olim kohinlar tabaqasi tomonidan boshqariluvchi ideal jamoa bo'ladi, xususiy mulk va oila bo'lmaydi, bolalar davlat tomonidan tarbiyalanadi, fan va maorif taraqqiy etadi (Galileyni himoya qilgan).



Faylasuflarning bergan bahosiga ko'ra, bu olimlarning jamiyati «*xomaki ishlangan*» «*qo'pol kommunizm*»dir. Ular asosan hunarmandchilik va dehqonchilikka asoslangan tenglashtirish xususiyatiga ega. Ammo shunisiga e'tibor beringki, bu kishilar har jihatdan ta'minlangan, bilimli davlat arbobi bo'lganlar, kommunistik jamiyat g'oyasi K.Marks va F.Engelslarninggina g'oyasi emasligini ham eslatib o'tish zarur. Xayoliy sosializm to'g'risidagi dastlabki g'oyalalar

**T. Kampanyella** Osiyoda **Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy** (870-950, 2-muallim), Germaniyada **Tomas Myunser** (1420-1525)lar tomonidan ham ilgari surilgan. Injil va Qur'oni karimda ham uning elementlari bor. Markaziy Osiyodagi *sarbadorlar* (boshini dorga tikkanlar) davlati ham shu tamoyillarga asoslangan (Samarqandda Abu Bakr Kalaviy, Mavlnozoda, Xurdaki Buxoriy va boshqalar).

Keyinchalik Abduraxmon Jomiy va A.Navoiy, Xurdaki Buxoriy asarlarida ham bunday g'oyalalar bor.

## QISQACHA XULOSALAR

Feodal er egaligi davrida natural xo'jalik, ayniqsa qishloq xo'jaligi asosiy edi, ammo shu bilan birga bu paytda shaharlar soni o'sdi, tovar-pul munosabatlari ham ancha rivojlandi, nisbatan erkin va samarali ishlab chiqarish usuli bo'lgan krepostnoylikka o'tildi. Avvalgi davrdagi natural xo'jalik ishlab chiqarishi (T-T) asta-sekin T-P-T munosabatlari bilan almasha bordi (agrar yo'nalish hal qiluvchi), iste'mol qiymatlarini yaratish baribir asosiy maqsad bo'lgan va shu g'oya himoya etilgan, mehnat qurollari takomillashmagan davrda bu tabiiy bir hol edi.

Feodal munosabatlar Sharkda nisbatan erta tarkib topdi va uzoqroq davom etdi. Arab mamlakatlarining iqtisodiyotiga islom aqidalari faol ijobiy ta'sir etdi. Kur'oni karim va hadislarda keltirilgan iqtisodiyotga aloqador qonun-qoidalar «Hidoya» va shu kabi boshqa fiqh kitoblarida keng o'rganilib, amalga oshirildi, natijada muhim iqtisodiy g'oyalari ilgari surildi. Mehnat, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo qo'llab-quvvatlandi. Isrofgarchilik, mehnatsiz daromad, ayniqsa sudxo'rlik harom deb e'lon qilindi.

Bu davr uchun Ibn Xalduinning iqtisodiy g'oyalari nihoyatda muhimdir, u o'z asarlarida ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, oddiy va murakkab mehnat, zaruriy va qo'shimcha mahsulot, tovarning iste'mol qiymati va umuman qiymatning farqini ta'riflab berdi, ayirboshlash tamoyilini (sarflangan mehnatning yarmi) to'g'ri talqin etdi, sarflangan mehnat bilan birga shu tovarning odamlarga zarurligi ham muhimligini ta'kidladi. Uning asarlarida mehnat taqsimoti, tovar-pul munosabatlari, savdoning boylik yaratishdagi roli, soliq tizimining xalq farovonligiga ta'siri asosan to'g'ri tahlil etib berilgan.

G'arbiy Evropadagi feodal munosabatlar nisbatan kech tarkib topgan bo'lsa ham, uning rivoji tezroq bo'ldi. Dehqonchilik, umuman, qishloq xo'jaligi ustun bo'lishiga qaramay, hunarmandchilikda sex tizimi, keyinroq manufaktura vujudga keldi, mehnat taqsimoti, unumdorlik va sifat masalalari (ayniqsa sexlarda), raqobat tamoyillari tarkib topdi. Bu davrda g'arbda natural xo'jalik (iste'mol qiymati ishlab chiqarish) qo'llangan, oltin va kumush, zeb-ziynat sun'iy boylik deb qaralgan, «adolatli baho» masalasi ko'tarilgan. Bu erda ham din va din ahli tomonidan iqtisodiyotda muhim fikrlar ilgari surilgan. Masalan, F.Akvinskiy «adolatli baho» masalasini naf va manfaatlar tengligi asosida hal etadi. Prosent (foiz)ni oqlaydi, uni qo'llaydi va tavakkalchilik to'lovi deydi. U shuningdek rentani ham qo'llaydi, uning ekspluatatorlik mohiyatini inkor etadi.

XIV-XV asrlarda G'arbiy Evropada feodalizmning emirilishi va ilk kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi. Bu jarayon kapitalning dastlabki jamg'arilishi jarayoni bilan bog'liq bo'ldi va ko'p hollarda og'ir shaklda amalga oshdi. Ayniqsa dehqonlarni erdan mahrum etish og'ir oqibatlariga, dehqonlarning katta qismining xonavayron bo'lishiga olib keldi. Yangi munosabatlar yangi sinfning - burjuaziyaning manfaatiga mos edi, ammo bu jarayon boshqalar hisobiga ro'y berdi.

### **3-MAVZU. O'RTA OSIYODAGI TEMURIYLAR DAVRIGACHA BO'LGAN IQTISODIY G'OYALAR**

#### **3.1. «Buyuk ipak yo'li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni.**

Xitoyning Tinch okeani bilan Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Evropa davlatlarini bog'lovchi qadimgi savdo yo'li - Buyuk ipak yo'lidir. Bu yo'l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yo'li» nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo'l m.a. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yo'llari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O'rta Er dengiz mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o'ynagan.

Manbalarga qaraganda, Sariq dengiz qirg'oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo'l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u erda ikkiga ajralib ,biri shimoli-g'arbga ikkinchisi janubi-sharqqa yo'nalgan. Karvon yo'lining umumiy uzunligi 12 ming chaqirim atrofida bo'lgan. Nemis muarrix K.Rixtgofen 1887 yil ushbu yo'nalishga ilk bor «Buyuk ipak yo'li» degan nisbat beradi va bu ibora muammola (istofoda) ga kiritiladi.

Shimoliy yo'l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu erdan qashg'ar, Dovon (Farg'ona vodiysi) ga borgan. U erdan So'g'dning markazi Samarqand va Marg'iyona (Marv) ga yo'nalgan. Ipak yo'li Farg'ona vodiysida yana juft tarmoqqa bo'lingan. Janubiy qismi O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Axxi (Andijon) va Qamchiq dovonidan o'tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga engan. Demak, qamchiq tarixiy yo'lning uzviy bo'lagi hisoblangan. Bu yo'l mohiyat-e'tibori bilan Sharq va Farbni turli jabhalarda bog'lovchi yo'l (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar).

Shu karvon yo'l orqali Xitoydan ipak, xitoyga esa har xil gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan. Baqtriya va Dovon (Farg'ona ) dan ot va tuyalar olib borilgan. XV-XVI asrlardan bu yo'lning ahamiyati ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvi tufayli, bu yo'lni yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tug'ildi. Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya, Qora dengizga chiquvchi undan Evropa (Parij, Rotterdam) ga etkazuvchi yo'l loyixa ishlab chiqildi va amalga oshirilmogda, bu yo'lning kelajagi porloq.

Endi esa, moziyga qaytib, O'rta Osiyoning Buyuk ipak yo'li o'rni va eksport potensialiga e'tiborni qaratsak. Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga qiziqish avvaldan ma'lum va bu har tomonlama (siyosiy, iqtisodiy jihatdan) ahamiyatli bo'lgan. Tarixiy va hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, bu hudud, er, suv, iqlim, tabiati, geografik o'rni, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, bunyodkorligi, kasb-hunarga mehr qo'yganligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega.

Hudud zaminida turli-tuman boyliklar, ayniqsa oltin, kumush, boshqa rangli metallar va javohirlarning mavjudligi va seroblighi shu soha hunarmandchilighi

rivojida hal qiluvchidir. Ayniqsa oltin ajnabiylarni magnit (oxangrabo) kabi tortganligi aniq.

Bu o'lka eksport potensialida oltin, kumush va undan qilingan zebu-ziynatlar, zargarlik buyumlari, sifatli po'lat olish va undan yasalgan asbob-uskunalar, ayniqsa, qilich, qalqon va boshqa harbiy asbob-anjomlar, ipakdan to'qilgan xon atlas va boshqa nafis matolar, ajoyib ko'rinishli qorako'l terisi va undan tikilgan buyumlar xaridorgir bo'lgan.

Markaziy Osiyo donishmandlarining kitoblari, diniy va ilmiy asarlar hammani qiziqtirgan. Kitob yozish (hattotlar) san'ati ham yuqori bo'lgan. Miniatyura san'ati yuqori darajada edi.

Shu sababli bilim, ilm makoni bo'lgan kitob savdo-sotig'i etakchi o'rinni egallagan. Hozirgi davrda ko'plab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorij davlat va shaxsiy kutubxonalaridan topilmoqda va o'z vatani, O'zbekistonga qaytarilmoqda. Bu fakt shundan dalolat beradiki, z davrida kitob savdosi Buyuk ipak yo'lining asosiy faoliyatidan biri bo'lgan, demak, bu erdan chetga ko'plab ilm va san'at asarlari chiqarilgan.

Mamlakatimizda dunyodagi eng yaxshi ot zotlari bo'lganligi ma'lum, xalq eposida uchqur, ziyrak tulporlar haqidagi rivoyatlar haqiqatga juda yaqin. Masalan, Xitoy elchisidan uni qanday tuhfa qiziqtirishini so'ralganda, ot olishni afzal ko'rgan. Otlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, harbiy xizmatda, transport vositasi sifatida, uloq chopish, chovgan o'ynash, zeb-ziynat sifatida nihoyatda qadrlangan. Shu sababli otlar eksportda etakchi o'rinni egallagan.

Qishloq xo'jaligida paxta etishtirish va paxtadan olinadigan mahsulot asosiy o'rinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bog'dorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak etishtirish Xitoydan kirib kelgan bo'lsa, xitoyliklar bizdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda etishtirishni o'rganishgan.

Vatanimiz hududida qorako'l teri beradigan qo'ylar parvarishi muhimdir. Ularning terisi bilan savdo qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi davrda ham bu sohaga e'tiborni kuchaytirish O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun zarur vosita hisoblanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, bir karvonda 500-1000 tagacha odam, ot, tuya, boshqa ulovlar , savdogarlar bilan birga diplomatlar, elchilar, xajga boruvchilar, harbiy qo'riqchilar bo'lgan. Butun yo'l boshidan-oxirigacha 120-150 kun davomida bosib o'tilgan.

### **3.2. Markaziy Osiyo donishmandlari asarlarida islom ta'limotidagi iqtisodiy g'oyalarning bayon etilishi.**

Muqaddas kitob - Qur'oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar muhim o'rin tutadi. Chunki iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe'l-atvorlari namoyon bo'ladi. Qur'oni Karim ahkomlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida zamindagi barcha insonlarning bir ota-ona Odam alayxissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opa-singal ekanligiga asoslanadi. Jumladan, «Hujurot» surasining 13-oyatida «Ey insonlar, biz sizlarni bir ota (Odam alayxissalom) va bir ona (Momo Havo) dan yaratib er yuzi bo'ylab har xil xalq qabila va elatlar tarzida taratib qo'ydik, toki sizlar bir-birlaringiz bilan tanishib, mehr-muxabbat hosil qilgaysizlar. Albatta

sizlarning Ollah nazdida eng hurmatltrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir. Albatta Ollah bilguvchi va hamma narsadan ogoh zotdir». Islomda «taqvo» deganda - solih, hayrli ishlarni ado etib, munkar, man qilingan, insoniyatni zavolga boshlaydigan ishlarni qilmaslik tushuniladi. Demak, taqvo insonlarning bir-biridan afzalligini belgilashdagi asosiy o'lchovlardan biri hisoblanadi. Bu afzallik ma'naviy va ruhiy tarbiyalash bilan o'zgalarni yashash va turmush kechirish huquqlarini e'tirof etish bilan shakllanadi.

Qur'oni Karimdagi iqtisodiy g'oyalarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri eng avvalo halol mehnat, xususan dehqon, chorvador, hunarmandlar mehnati ulug'lanadi, peshona teri bilan halollik asosida hayot kechirishga da'vat etiladi, barcha boylikning asosida mehnat yotishi uqtiriladi.

*Ikkinchi guruh g'oyalar* - tijorat, ya'ni kengroq ma'noda esa bozor munosabatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, Niso surasida (29-oyat) «Mollaringizni o'rtalarinigizga nohaq (ya'ni o'g'rilik, qaroqchilik, sudxo'rlik, poraxo'rlik, qimor kabi) yo'llar bilan emangiz! Balki o'zaro rizolik bilan bo'lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo qilingiz», deyiladi. Biroq sudxo'rlik, poraxo'rlik kabi illatlar shar'iy jihatdan xarom ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi.

*Uchinchi guruh* iqtisodiy g'oyalar esa, mulk va meros masalalariga qaratilgan. Mulkning muqaddasligi, bironing mulkiga xiyonat (ayniqsa omonatga xiyonat) qoralanadi, xatto biron odamning mol-mulkiga hasad qilish ham katta gunox deb hisoblanadi.

Erga mulkchilik munosabati to'g'risida ham alohida fikrlar lo'nda bayon etilgan. Masalan Moida surasining 40-oyatida erdan unumli foydalanib olingan narsalargina insonga tegishli ekanligi ta'kidlangan.

Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to'g'rilikka buyuriladi, yolg'on ishlatish, o'g'rilik, mehnatsiz daromad topish man etiladi. Bu xatoga yo'l qo'yganligi uchun qattiq jazo choralari belgilanadi (Moida surasi, 38-oyat), «*ammo kim bunday jabru-zulmdan keyin tavba qilib, o'zini tuzatsa, albatta olloh tavbasini qabul qilar*» (39-oyat).

Alloh Taoloning Qur'oni Karimda qarz olish va berish, meros, uni taqsimlash (4-sura, 8-oyat), etim-esirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish haqidagi oyat karimalaridan kelib chiqadigan g'oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi. Etim-esirlar haqiga hiyonat qilish eng katta gunohlardan deb e'lon qilingan. Shuningdek, o'zaro yordam ham zarur, lekin yomon ishlarda va dushmanlikda emas, deyiladi.

Islom ta'limotini chuqurroq tushunishda Qur'oni Karimdan keyingi xujjat payg'ambarimiz Muhammad Alayhis-Salomning Hadisi Shariflari hisoblanadi. Hadisi Shariflardan quyidagi namunalarni keltiramiz:

- Munofiqlik belgisi uchtadir: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilish.

- Amirning sovg'a olishi xarom va qozining pora olishi dindan chiqishdir. • Boylarning uyiga kamroq kiringlar, aks holda Tangrining sizlarga bergan ne'matlarini pisand qilmagan bo'lasizlar.

- Tilanchilik quyidagi uch toifadan birigagina joizdir:

1. Xun to'lovchiga;

2. Og'ir qarzdorga;



### 3. Miskin qashshoq kishiga.

- Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yavering.
- Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.
- Pora beruvchi ham uni oluvchi ham do'zahga maxkumdir.
- Ilmga nisbatan go'yo go'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qilguvchi bo'lmanglar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Markaziy Osiyo donishmandlaridan al-Termiziy, al-Buxoriylarning to'plagan Hadisi Shariflari islom olamida eng ishonchli hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari islom ta'limotidagi fikhning tarkibiy qismini tashkil etadi. Vatandoshimiz Marg'inoniyning «Hidoya» asari shular jumlasidandir. Buyuk olim Burhoniddin al-Marg'inoniyning to'liq ismi Ali Ibn Bakr Ibn Abdul Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'iloniy bo'lib, ul zot 1123 yil 23 sentyabrda tug'ulgan. Ul zot Qur'onni, Hadis ilmlarini mukammal egallab fikh - islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bo'lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli, Burhoniddin valmilla (Islom dinining dalili) va Burhoniddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashhurdir. Olim dastlabki ta'limni Marg'ilonda olib keyinchalik Movaraunnaxrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandga ko'chib borgan va umrining ohirigacha o'sha erda yashagan. O'z asarlarini yaratishda Islom dinidagi sun'iyning to'rt mashabi asoschilarning asarlarini o'rgangan. Bizgacha uning o'nga yaqin asari etib kelgan. «Alxidoya» asari esa 1178 yili Samarqandda yozilgan. Bu asar Xanafiya mashabining fikh masalalari bo'yicha asosiy qo'llanmaga aylangan. Keyinchalik esa butun musulmon olamiga mashhur bo'lib, musulmon huquqi fikh bo'yicha eng aniq izchil mukammal asar sifatida tan olingan. Asarda keltirilgan jumalarning har biri puxta, sermazzmun va qisqa so'zlar tarkibidan iborat. «Al-Hidoya»ning birinchi kitobi to'rt jildan iborat bo'lib, har biri alohida muammolarni tahlil etadi. Bu kitob 1994 yildan professor A.X.Saidovning izohi bilan nashr etilgan. Kitobning tarkibi quyidagicha:

1-jild - tahorat, namoz, ro'za, zakot va haj kabi farz amallarning ibodat masalalariga bag'ishlangan.

2-jild - oila huquqi, qullar muammolari, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalarni yoritgan.

3-jild - oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiylik, bosqinchilik hususidagi masalalar yoritilgan;

4-jild - shafe'lik, meros taqsimlash, dehqonchilik va bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlik qilish to'g'risida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq va qo'riq erlarni o'zlashtirish xususida, ovchilik, garovga qo'yish, jinoyatlar xususida, hun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalarga bag'ishlangan.

Ushbu asarda yoritilgan masalalar tarkibidan ko'rinadiki, u juda boy tarixiy tajribani o'zida mujassamlashtirgan. Chunonchi kishilar o'rtasidagi munosabatlarda insonparvarlik, adolat barqaror bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa,

tijorat ishlarida adolat, to'g'rilik, halollik, insonparvarlik qoidalariga rioya qilish nihoyatda zarur ekanligi qayd qilinadi. Birovning haqiga hiyonat qilish, kishilarni aldash gunohi kabir sifatida ta'riflanadi. Demak, «Al-Hidoya» sakkiz asrdan buyon Islom dunyosi mamlakatlari uchun eng ishonarli manbalardan biri sifatida mo'tabar qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda.

Asarda keltirilgan shariat hukmlarini bajarish yuksak ma'naviy, insoniy fazilatlarni shakllanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Islom ahkomlariga mos ravishda paydo bo'lgan taffakkur taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri tasavvuf, ya'ni so'fiylik ta'limoti hisoblanadi. Bu ta'limotlar VIII-IX asrlarda arab dunyosida vujudga kelib, X-XI asrlarda Movaraunnaxr tuprog'iga etib keldi. Bu ta'limot insoniyatni ma'rifatga, insof va adolatga undashni, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashni targ'ib qiladi. Nafs, xirs, boylik barcha yomon hislatlarga qarshi kurash tasavvufning mag'zi hisoblanadi. Uning maqsadi esa komil insonni tarbiyalashdan iborat. So'fiylik ta'limoti nafs deganda, inson fe'l-atvorida uning sha'nini bulg'aydigan illatlarni, jumladan, johillik, manmanlik, dunyoparstlik, poraho'rlik, o'g'rilik, ta'magirlik, xasislik, bahillik kabilarni tushunadi. Nafsni engish uchun inson imtihon qilinadi, buning uchun u o'zlikni anglashi kerak bo'ladi. Insondagi o'zlik ruhiy va jismoniy o'zlikdan iborat bo'ladi. Ruhiy o'zlik ilohiy makonda yaratilgan bo'lib, bu dunyoga imtihon va poklanish uchun yuborilgan. Mana shu ruhiy o'zlik nafs orqali imtihon qilinadi va ishq orqali poklanadi. Mana shu ikkita qarama-qarshi kuch doimo o'zaro kurashadi. Inson o'z nafsiga tobe bo'lgan sari ezgulikdan uzoqlashadi, ruhiy ifloslanib, o'zi esa tubanlashadi. Bu ta'limot vakillari jumlasiga Axmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oniy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandlar kiradi. Ularning boy merosi bugungi kunda vatan, millat va komil inson tushunchalarini to'liq anglab etishda katta xizmat qiladi.

**Burhoniddin Al-Marg'inoniy.** Mustaqillik sharofati ila allomaning boy ma'naviy merosi xalqqa qaytarildi. O'zining o'lmas asarlari bilan islom qonunchiligiga asos solgan Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujamil Farg'ona viloyatining Rishton qishlog'ida tavallud topib, u hijriy 511-593 (milodiy 1115-1197) yillari yashab ijod etdi. Bo'lajak olim ilk ta'limni Rishton, Marg'ilonda olgan bo'lsa, keyinchalik Samarqand, Buxoro va Movarounnahrning yirik shaharlarida bilimni oshirdi. U fikhga oid «Bidoyat al-mubtait», «Nashr al-Masxad», «Kitob at-tajnis», «Al-madad» kabi noyob asarlar yaratdi. Eng mashhur asari «Hidoya fi furi' al-fiqh» («Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma»). Bu asar islomda sunniylikning hanafiylar mashabida keng tarqalgan shariat qo'llanmasi, ya'ni kodeksi hisoblanadi.

Fiqh sohasida kitob yozish harakati ilgari ham bo'lgan. 1048 yilda vafot etgan Abul Hasan al-Quduriy islom qonunchiligi borasida ilk qo'llanmani yozgan, ammo Burxoniddin al-Marg'inoniy yaratgan «Hidoya» o'z davrida hanafiylar mazhabi tarqalgan mamlakatlarda, xususan, Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz va Volga bo'yi musulmonlari orasida asosiy qo'llanma sifatida shuhrat topgan. Bu asar 4 jild, 56 bobdan iborat. Unda Qur'oni karim oyatlaridan kelib chiqib, shariat masalalarida muallifning fikr va qisqacha xulosalari beriladi. Hanafiylar mazhabining barcha imom ismlari, shuningdek, boshqa mazhab vakillarining mulohazalari ham asarda keng talqin etilgan. Kitobda oila-nikoh masalalari bilan

bog'liq nomalar (nikoh, ajralish) batafsil yoritiladi, ularni bajarish bilan bog'liq huquqiy qonun-qoida va jazo choralari belgilangan.

Agarda islom nuqtai-nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy masalalar: mulkiy va moliyaviy munosabatlar, ayniqsa meros, uni bo'lish yo'llari, jinoyat va jazo, fuqorolik huquqlari ham ko'rsatib berilgan. Shuningdek, faqat islomga xos bo'lgan bir qancha masalalar, xususan, jihod, o'lja olish va uni taqsimlash, turmush faoliyatidagi ayrim ta'qiblar, ijozatlar qayd etilgan.

Burxoniddin al-Marg'inoniy nihoyatda keng bilim egasi bo'lish bilan birga haqsevar, adolatli qonunshunos, hadis ilmining donishmandlaridan biri edi. U Qur'onni yoddan bilgan, uni izohlay olgan, shoir, adabiyotchi bo'lgan. Tarixiy qo'lyozmalarda qayd etilishicha, olim avlod-ajdodi ham musulmonlar qonunchiligini yaxshi bilgan insonlar bo'lishgan.

«Hidoya» asari musulmon qonunchiligining barcha qirralarini o'z ichiga oladi va nihoyatda keng tadqiqot manbai bo'lib hisoblanadi. Asarda, ayniqsa, zakot masalasiga katta e'tibor berilgan, unga maxsus bir bob ajratilgan. Chorva mollari, shaxsiy mulk shakllaridan olinadigan to'lovlar yuzasidan aytilgan fikrlar bag'oyat muhimdir.

Asarning yozilish uslubi shundayki, unda hammaga yaxshi ma'lum masalalar bilan birga, kam uchraydigan holatlar, u yoki bu masalaning nozik tomonlari ikir-chikirigacha izohlab beriladi. Hozirgi davr tili bilan aytadigan bo'lsak, chiqarilgan asosiy qonunga to'la-to'kis sharhga o'xshaydi. Kitobda kimlar va qancha zakot to'lashi kerakligi haqida qiziq ma'lumotlar keltiriladi. Odatda daromadning qirqdan bir hissasi (2,5 foizi) hisobidan zakot to'lanishi kerak. Chorvachilikda 40 echkidan bittasi zakot hisobida beriladi, mol soni kam bo'lsa, olinmaydi. Zakot to'lashda bir yoshdan kichik qo'zilar hisobga kiritilmaydi.

Otlarda esa boshqacha hisob-kitob qilinadi, ya'ni har otdan bir dinor yoki ot bahosining 9 foizi miqdorida zakot to'lanishi kerak. Ammo eshak, xachir va boshqa ishchi hayvonlar (xo'kiz, tuya) dan to'lov olinmaydi. Agar ular oldi-sotdi muomalasida bo'lsa, ahvol o'zgaradi va zakot beriladi. Bir yoshga to'lmagan echki, buzoq va bo'taloqlar ham umumiy hisobga kiritilmaydi, ammo 25 ta tuyadan bittasi, 66 tadan boshlab ikkita, 145 tadan ortig'idan uchta tuya zakot hisobiga berilishi kerak. Shu erda muhim bir fikr borki, agar mol egasi shu molning (natura) o'rniga uning bahosiga teng zakotni pul shaklida to'lashi ham mumkin, deyiladi.

Yana muhim bir ko'rsatma diqqatga sazovorki, zakot yig'uvchi eng yaxshi (sara) molni emas, o'rtacha bahodagi molni olishi talab etiladi. Undan tashqari, zakotni oldindan ham to'lash mumkinligi ko'rsatiladi.

Kumush narsalardan olinadigan zakotda o'rtacha nisob (soliq olinishi mumkin bo'lgan miqdori) 200 dirham deb belgilangan, bundan 2,5 foiz (ya'ni 5 dirham) zakot olinadi. Agar kumush miqdori 200 dirhamdan ortiq bo'lsa, har qo'shimcha 40 dirhamdan yana zakot beriladi va hokazo.

Oltindan olinadigan zakot miqdori o'ziga xosdir. 20 misqol-gacha zakot olinmaydi (bir misqol o'rtacha 4,5 gramm), 20 misqoldan yarim misqol (2,5 foiz) zakot to'lanadi. 20 misqoldan ortiq har 4 misqoldan 2 karat, (ya'ni 12 dan 1 unsiya) zakot berish kerak.

Shaxsiy, xususiy mulk hisob-kitobi kumush yoki ekvivalentiga qarab belgilanadi. Xatto kumush va oltin ham umumiy baho asosida yagona qiymatga keltirilishi mumkin.

Topilgan kon xazina uchun beshdan bir (20 foiz) zakot olinishi lozim. Masalan, biror erdan yoki ekilayotgan joydan xazina topilsa, shu usuldan foydalaniladi. Qimmatbaho toshlardan zakot to'lanmaydi, chunki toshlar zakotdan mustasnodir.

Tabiiy (yomg'ir, qor suvi bilan) sug'oriladigan erlardagi hosilning o'ndan biri (10 foizi) ushr shaklida olinadi. Ammo o'rmon, yaylov, chalakalakzor zakotdan ozod etilgan. Sun'iy sug'oriladigan erlar isobidan ushrning yarmi (50 foizi) miqdorida soliq to'lanadi.

Burhoniddin al-Marg'inoniy o'z asarida zakotni taqsimlash qonun-qoidalarini ham bayon etadi. Aholining ayrim toifa vakillari: faqir, miskin, zakot yig'uvchilar, qarzdorlar yig'ilgan zakotdan foydalanish imkoniyatlari egaligi haqida ham qimmatli fikrlar bildirilgan.

O'ylaymizki, bobokolonimizning bu asari nihoyatda boy va qimmatli manba sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi zarur. Hozircha bu asarning ruscha tarjimasini mavjud. Asarning birinchi va qolgan jildlarini o'zbek tiliga o'girish kerak. Shunday qilinsa, ayni muddao bo'lur edi. Chunki u yoshlarimiz qalbida insof va diyonat, adolat va haqiqat tuyg'ularini uyg'otishda bebaho xazina bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

### **3.3. Xalq og'zaki ijodidagi iqtisodiy qarashlar.**

O'zbek xalqi iqtisodiy taffakkurining rivojlanishida muhim manbalardan biri - xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblanadi. Bu namunalar jumlasiga dostonlar, xalq maqollari va qo'shiqlar kiradi. Tarixiy merosimizning noyob yodgorliklaridan biri Alpomish dostonidir. Bu doston shakllanganiga ming yildan ortiqroq bo'lganligini dalillar tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham Alpomish dostonining ming yilligi Respublikamizda 2000 yilda keng nishonlandi. Asarning badiiy ahamiyatidan tashqari iqtisodiy qarashlar ham muhim o'rin tutadi. Alpomish dostonidagi iqtisodiy munosabatlar tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Islom ta'limoti asosidagi iqtisodiy munosabatlar. Bu munosabatlarni negizini zakot va juzya to'lovlari bilan bog'liq masalalar tashkil etadi. Ya'ni, Qo'ng'iro't elida xukmronlik qilgan Alpomishning otasi Boybo'ri bilan uning akasi Boysaribiyning zakot to'lovi bo'yicha nizolardir.

2. Mehnat taqsimotining rivojlanganlik darajasi. Dostondan ko'rinadiki o'sha davrga kelib chorvachilik tarmog'i Qo'ng'iro't elining ixtisoslashuvining ko'rsatkichidir.

3. Tovar-pul va moliya tizimi munosabatlari. Dostonda keltirilishicha Qo'ng'iro'tliliklarning tovar-pul munosabatlarida natura to'lovlari ustuvorligi namoyon bo'ladi. Qalmiqlar davlatida esa daromad va harajatlarni tartibga solish muxrdor lavozimi orqali yuritiladi. Muxrdor daromad va harajatlar bo'yicha hisob kitoblar qilishda oqsoqollar tomonidan yig'ib topshiriladigan soliq va yig'implarga tayanadi. Bu mamlakatda 500 ta oqsoqollik lavozimi joriy etilgan. Ularning maoshi to'plangan soliqlardan bir qismini tashkil etadi. Sipohiyalar uchun esa 500

pul birligi miqdorida maosh tayinlangan. Muomila uchun ishlatiladigan pul birliklari qo'shni mamlakatlardagi zarb qilingan oltin va kumushlar ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Soliqlarning manbai bir tomondan er solig'i bo'lsa, ikkinchi tomondan esa savdo karvonlari va ichki bozordan olinadigan yig'imlar hisoblanadi.

Umuman olganda xalq og'zaki ijodidagi asarlar millat tarixidagi iqtisodiy munosabatlarni bayon etishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining maqollari ham iqtisodiy aqidalarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Demak, milliy iqtisodiy taffakkurning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlashda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

### 3.4. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar mohiyati.

X-XII asrlarga kelib O'rta Osiyo ilg'or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda feodal davlat markazlashgan va eng rivojlangan pallaga kirdi. O'rta Osiyo Evropani Osiyo bilan bog'lovchi yirik moddiy, madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi.

Bu davrda butun dunyoga tanilgan **Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizom-ul-mulk** va boshqa ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida iqtisodiy g'oyalar ham o'z aksini topgan. Sharq renessansi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik hunari sirlarini bayon etganlar. Ularning asarlaridagi umumbashariy iqtisodiy taffakkur bugungi kunda ham dolzarbligi bilan muhim o'rin tutadi.

**Ibn Sino** (980-1037)ning fikricha: *«Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak».*



Yusuf Xos Hojib *«odamga foydasi tegmaydigan odam - o'lik, essiz o'tgan umr emas, essiz sarflangan mehnat»*, deydi (1069 y. «Qutadg'u bilik» asarini yaratgan).

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilg'or ijtimoiy tafakkurning Sharqdagi yirik markazlardan biriga aylandi. Bu davrda mazkur hududdagi davlat markazlashgan va eng rivojlangan pallaga kirdi. Buyuk ipak yo'li, Tinch okeani

**Ibn Sino** atrofidagi mamlakatlar (Yaponiya, Xitoy, Koreya) ni Vizantiya va Farbiy Evropa bilan chambarchas bog'lar edi. Bu esa karvon yo'li orqali minglab odamlar, ot-ulovlar, turli-tuman

tovarlarning qarama qarshi harakatini, almashuvini vujudga keltirdi. O'rta Osiyo Evropani Osiyo bilan bog'lovchi yirik moddiy-madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. Axir, Osiyodagi va Evropadagi

tovarlarga bo'lgan talab va taklifni (bozorning asosiy unsurlarini) yaxshi bilmay turib, uzoq va xatarli yo'lga chiqish mumkinmide, katta karvonlarni tog'u toshlardan , qum cho'llardan olib o'tish osonmide, buning uchun ma'lum qoidalarga, amallarga tayanib ish ko'rish kerak bo'ldi. Evropaga qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u erdan nima olib qaytish, karvon yo'lidagi davlatlar, xalqlar talab-etiyojini yaxshi bilish talab etilgan. Oqibatda turli bilim sohalari, matematika (al-jabr), geometriya (xandasa), astronomiya (falakiyot ) va boshqa ko'pgina fanlar rivojlandi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Xorazmiy , Farg'oniy, Ibn Sino, Ibn Ro'shd, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqa ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida muhim iqtisodiy g'oyalar ham o'z aksini topgan. Sharq uyg'onishi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning ko'plari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ana shundan kelib chiqib dastlab 873-950 yillarda yashab ijod etgan Abu Nosir Ibn Muhammad Forobiy haqida fikr yuritamiz.

Bo'lajak buyuk olim Aris daryosi Sirdaryoga qo'yiladigan joyda Shosh-hozirgi Toshkentdan 200-260 km. shimoli-Farbda joylashgan Forob (O'tror) degan joyda tug'ilgan. U Forobda o'qigan, Shoshda bo'lgan, Buxoro va Samarqandda ta'lim olgan. Arab xalifaligining markazi-Bog'dodda o'qishi davom ettirgan, umrining oxirgi yillarida Xalabda, so'ngra Damashqda yashagan va shu erda vafot etgan.

Forobiy O'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning Qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi 160 dan ortiq risola yaratgan Qomusiy olim sifatida tan olinadi. Uning Sharq olamidagi shuhrati shu darajaga etdiki, uni Aristotel (Arastu)dan keyingi yirik mutafakkir- «Muallimas -Soni» - «Ikkinchi muallim» deb atay boshladilar.

Olimning ayniqsa «Fozil odamlar shahri» asari diqqatga sazovar bo'lib, unda mamlakatni boshqarish, hokimlar faoliyati, iqtisodiyotni olib borish bilan bog'liq



bo'lgan muhim g'oyalar keltiriladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Forobiy o'z ustozlari Arastu g'oyalarini har tomonlama talqin etadi va uni to'ldirishga harakat qiladi, jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarning ahamiyati haqidagi ta'limotni yaratdi, iqtisodiyot fanida muhim blgan

«Ehtiyoj» ni ta'riflab berdi. U moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollari o'rnini aniqlab berdi. Ayniqsa, «mehnat taqsimoti» masalalari mutafakkir asarlarida yaxshi yoritib berilgan. Mehnat taqsimoti tufayli ishlab chiqarish rivojlanadi, chunki vaqtdan yutiladi, ishlovchilarning kasb-mahorati ortadi, texnik moslamalar

**Farg'oniy** kiritish uchun asos yuzaga keladi, ya'ni o'z davrida hamma ishni bir odam (usta) bajarishi mumkin bo'lgan holatdan, har bir operatsiyani maxsus kishilarga bo'lib berish afzalligi ko'rsatiladi («Qushni so'ysa ham, qassob so'ysin»). Mehnat taqsimoti to'g'risidagi g'oya taniqli iqtisodchi Adam Smit ta'limotining (XVIII asr) asosidir.

Forobiyning fozil (ideal) davlat, hokimlar to'g'risidagi g'oyalari nihoyatda ahamiyatlidir, o'zaro yordam va do'stlikning zarurligi ko'rsatiladi. Masalan, shahar

tartibotida eng asosiy narsa mulk, noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlash ekanligi qayd etilgan. Arastu g'oyalari rivojlantirilib, avvalo er va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rinlari, so'ngra nihoyatda zarur hisoblanuvchi oziq-ovqat, ekin ekiladigan erlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi kerakligi ko'rsatiladi.

Fozillar shahri hokimining fazilatlari haqidagi fikrlar nihoyatda qimmatlidir. Forobiy tadqiqotlarining yana bir muhim jihati shuki, u ko'p (yunon, arab va b. ) tillarni bilgan, boshqa olim asarlarini tahlil etgan, sharhlagan va izolagan.

Tarixda shunday voqea bo'lib o'tganligi qayd etiladi. Qomusiy olim Ibn Sino Arastuning «Metafizika» asarini 40 marta o'qib ham tushuna olmagan ekan. U surunkali mutaoladan charchagan , bozor aylanishni ixtiyor etadi. Baxtli tasodifni qarangi, bozordan xarid qilgan kitobi Forobiyning Arastu asariga yozgan sharxlari ekan. Ibn Sino kitobni bir marta o'qib chiqishdayoq Arastuning «Metafizika» asari mohiyatiga to'la tushunib etadi.

Donishmand hikmatlarida insonning kasb-unar, san'atdagi fazilatlari har doim ham tug'ma bo'lavermasligi, ko'pincha ular mehnat mashaqqati va iroda yo'li bilan ro'yobga chiqishi qayd etiladi. Shubhasiz, bu ikki qobiliyat o'zaro uyg'unlashganda rivojlanish bo'ladi.

Forobiy fikricha , baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-biriga yordam berishsa, butun er yuzi fazilatli bo'ladi. O'ylashimizcha, yangi asr bo'sag'asida turgan deyarli barcha davlatlar ham shu to'xtamga kelmoqdalar.


«Kim rahbar bo'la oladi?»degan savol bundan ming yillar avval ham buyuk donishmandlarni qiziqtirgan ekan. Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asarida bo'lajak rahbarlarning asosiy fazilatlari to'g'risida oqilona mushohada yuritgan.

Bu fikrlar hozirgi davrda ham nihoyatda dolzarbligi tufayli ularni keng ommaga etkazishimiz o'rinli bo'ladi. Ana shu fazilatlarining mantiqiy ketma-ketligi ham diqqatga sazovardir. Birinchi navbatda rahbar «avvalo to'rt muchasi sog'-salomat bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim, aksincha, u salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim». Naqadar to'g'ri fikr. Darhaqiqat, nosog'lom odamdan samarali ish kutish amri maxol. Keyingi fazilatlar ham nihoyatda qimmatlidir. Rahbar «tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, ish sohasida umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur». Uchinchidan «u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur». To'rtinchidan, rahbarning «zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur». Beshinchidan, «u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur». Gap bu erda tilni yaxshi bilish, notiqlik san'ati haqida bormoqda. Keyingi muhim fazilat shuki, rahbar «ustozlardan ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur». Ayniqsa, hozirgi zamon rahbari uchun nihoyatda kerakli fazilat, chunki kelajak ilm-fan rivoji bilan chambarchas bog'liq. Endigi davrda chalasavod rahbarlar mamlakatni xarob qilishi

aniq. Keyingi fazilat iymon, ahloq odob, to'g'rilik bilan bog'liq. «Taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur» degan nihoyatda muhim fikr beriladi. Sir emaski, keyingi paytlarda bunday illatlar keng tarqalmoqda.

Rahbarning oldiga qo'yiladigan muhim shart shuki, «u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur». Bunda ko'pgina rahbarlarga tekkan kasallaganbordorlik, ko'zbqo'yamachilik illat-larining oldi olinadi. Har bir rahbar «o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur». Ayniqsa «bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur». Bu fazilatga ega bo'lish ancha mushkul, chunki respublikamizda rahbar bo'lib olgach, osmono'par dang'illama binolar qurish, minglab odamlarni to'plab bir necha kun to'y berish, qo'sha-qo'sha mashina, xotin olish faktlari namoyon bo'lmoqda, muhimi bu topilgan dunyo odatda xarom yo'llar bilan blganligi aniqlanadi. Bunday rahbarlarni hokimiyat ostonasiga yaqinlashtirmaslik kerak.

Haqiqiy rahbar, albatta, «tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur». Naqadar qimmatli fazilatlar shodasi! Hozirgi rahbar bu fikrlarga amal qilgandagina unga bildirilgan ishonchni oqlay oladi. Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy tomonidan rahbar oldiga qo'yiladigan navbatdagi fazilatda «o'zi zarur deb



hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, savodli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'yimasligi zarur» deb ko'rsatiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan 12 fazilatning barchasi bir odamda jamlanishi qiyin ekanligi ta'kidlanadi, «zero, bunda tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir». Bunday hollarda aytilgan hislatlardan 6tasi yoki 5tasi kamol topsa ham, «u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozilllar shahriga rahbarlik qila oladi».

Yaxshi rahbar u yoki bu sababga ko'ra ishdan ketsa (kasallik, o'lim...), uning o'rniga kelgan inson yana 6ta fazilatga ega bo'lishi kerak. Bular donishmandlik, avvalgi o'rnatilgan odil

**Forobiy** qonunlar va tartiblarni xotirada yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilish uchun quvvai hofizaga ega bo'lishi kerak. Agar shunday qonunlar qolmagan bo'lsa, « bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod,ixtiyor qilish quvvatiga ega bo'lishi kerak. Amaldagi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida ro'y beradigan, avvalgi rahbarlar ko'zda tutmagan voqealarni ko'ra bilishi uchun



bashoratgo'ylik hislatiga ega bo'lish talab etiladi. Bu hislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo'lida kerak bo'ladi».

Hozirgi davr tili bilan aytganda, iqtisodiyotda prognoz, istiqbolni ko'ra bilish xaqida gap bormoqda. Avvalgi rahbarlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvvalgilardan o'rnak, isbot olib o'zi to'qib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg'in so'zlash- notiqlik hislatiga ega bo'lish kerakligi ko'rsatiladi.

Zarur hollarda harbiy ishlarga mohirona rahbarlik qilish uchun etarli jismoniy quvvatga ega bo'lish talab etiladi. Ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jangu jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san'atni yaxshi bilish kerakligi uqtiriladi.

Mabodo, shu hislatlarning barchasini o'zida jamlagan odam topilmasa, lekin 2 kishi birgalashib, shu hislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni bir donishmand, 2-qolgan hislatlar sohibi bo'lsa), shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo'yish zarur. Demak, olim tomonidan amalda uchraydigan barcha holatlar e'tiborga olingan holda rahbar tanlash yo'l-yo'riqlari berilgan.

Albatta, bo'lajak rahbar shu hislatlarga egami-yo'qmi ekanligi qanday aniqlanadi, degan savol tug'iladi. Buni har bir insonning umr-hayoti, avvalgi yillardagi faoliyati, xalq hukmiga havola etilayotgan dasturi, yaqin kishilarning bergan tafsilotlari orqali bilib olish va eng maqbul nomzodni qo'llab-quvvatlash kerak. Ibn Sino talqinidagi iqtisodiy karashlar.

Ibn Sino (980-1037) tomonidan nioyatda katta ilmiy meros qoldirilgan, u yozgan asarlarning soni 280 dan ortiq. Shulardan 40 tadan ortig'i tibbiyotga oid, 30 ga yaqin risola turli tabiiy fanlarga, 3 risola musiqaga, 185 risola falsafaga, mantiq, psixologiya, teologiya, ahloq, boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Lekin bizgacha uning faqat 160 ga yaqin asari etib kelgan. Olimni hurmatlab «Shayx ur-ra'is» deb ataganlar.

Olimning tibbiyotga oid asarlarida iqtisodiyot bilan bog'liq muhim g'oyalar ilgari suriladi. Inson sog'lig'ining ichki va tashqi muhitga bevosita bog'liqligi, ayniqsa ovqatlanish, turmush sharoiti katta ahamiyat kasb etishi ko'rsatiladi. Iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan kategoriya «etiyoj» ni ta'riflab, moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollarinining o'rnini aniqlab beradi. Uning asarlarida «mehnat taqsimoti»ga katta e'tibor qaratiladi, taqsimot tufayli unumdorlik oshuvi va mahsulot sifati yaxshilanishi isbotlab berilgan. Farbiy Evropada faqat 1776 yilda Adam Smit bu masalaga alohida diqqatni jalb etadi.

Ibn Sinoning fikricha: «Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlari-ni o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, turar joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va unarmand-chilik bilan shug'ullanishi kerak».

Olim asarlarida fozil davlat to'g'risidagi g'oyalar rivojlantirilib, o'zaro yordam do'stlik va hamkorlikka katta o'rin beriladi. Olim nazariy va amaliy ilmlarni ajratib ko'rsatadi, nazariy ishlarni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan narsalar to'g'risidagi haqiqiy ilmlar deb ta'riflaydi.

Amaliy ilmlarning ob'ekti inson faoliyatidir. Nazariy ilmlarning haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar esa yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Bunda insonning ahloqiy fazilatlarini muhim o'rinni egallaydi. U insonlarning kundalik foydali amaliy ishlarini ulug'laydi, ahloqiy munosabatlarda kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik,

ayniqsa to'g'rilik, sofdillik kabi hulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi. Bu xususiyatlar iqtisodiyotda inson omili to'g'risidagi g'oyaga mos keladi. Iqtisodiyot rivojlanishining ob'ektiv qonun-qoidalarga amal qilib, inson o'z baxtini o'zi yarata oladi. Yaxshi xulq va iqtisodiyot o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini «Uy-joy tutish tadbiri» asarida ko'rsatib beradi. Bu risolada u ayollarning o'n etti hislatini sanab ko'rsatadi. Bularga dastlab ayol oqil va e'tiqodli, yoqimtoy, o'z eriga mehru-muhabbat qo'ygan, farzand ko'ra oladigan, ezma bo'lmagan, itoatkor, dili pok, bexarxasha, pokiza, vazmin va o'zini tutib olgan jiddiy va ulug'vor, har bir xatti-harakatida o'zining yaxshi hislatlari bilan ajralib turadigan va eng muhimi, erining birini ikki qiladigan-tejamkor, og'ir damlarda unga malham bo'la oladigan mushfiq mehribon bo'lishi kerak.

Ibn Sino oddiy musulmon sifatida xudo borligiga to'la ishonadi, lekin dunyoda odamlarning ishi faqat toat-ibodat qilish, ro'za tutish, Qur'on o'qishdangina iborat emas, balki ularning fan, ma'rifat bayrog'ini ko'tarib, foydali (savobli) ishlar qilishlari ulug'lanadi. U bilimlarni egallasa, o'shandagina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb ta'kidlaydi.

Mustaqillik sharofati tufayli biz bobimizni yana qaytadin kashf qilmoqdamiz, uning ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilmoqda va keng xalq ommasiga etkazilyapti.

Musulmon huquqshunosligida tovarning iste'mol qiymati tan olingan, tovarning qiymati bilan so'ralayotgan baho (bozor narxi) farqlangan. Yirik din peshvosi Bahouddin Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor», ya'ni «dil yor (Alloh) bilan, qo'l ish bilan (band bo'lsin)» degan tezisi o'sha davr uchun muhim edi, chunki ilgari xudoga faqat e'tiqod qilishning o'zi kig'oya deb bilingan. Nizomulmulk (1018-1092) «Siyosatnoma» asarida hukmdorlar, amirlar,



amaldorlar va qozilarning mansabni suiiste'mol qilishini, soliqlarning og'irligi, davlat mablag'larini saqlash va sarflashda hisob-kitob zarurligini qayd etgan. Saljuqiylar davlati arbobi sifatida iqto'ni tanqid qilgan. Iqto' - o'rta asrlarda O'rta Sharq, shu jumladan O'rta Osiyoda hukmdor tomonidan ayrim shaxslarga katta xizmatlari evaziga in'om qilingan chek er (Temuriylar davlatida suyurg'ol).

XIII asrning boshidan XIV asrning 70-yillarigacha bo'lgan davr bu mo'g'ullar istilosi davri bo'lib, ko'p sohalarda orqaga qaytish (regress) bo'ldi. Ammo bosqinchilar mahalliy xalq urf-odati, madaniyati, tili, dinini, xo'jalik tarzini qabul qilishga va ular bilan aralashib ketishga majbur bo'ldilar. Shu davrda boj, bojxona, bojxona solig'i yuzaga keldi. Hozirgi ruscha «tamojnya» so'zi aslida mo'g'ulcha, keyinchalik turkchadagi «tamg'a» so'zidan olinganligi ma'lum.

**Beruniy** Beruniyning iqtisodiy g'oyalari. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, ularda mehnat boyligining asosi ekanligi to'g'risidagi g'oya asosiydir. Uning ko'pgina fikr va qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Olim yashagan davrdagi munosabatlar, ishlab chiqarishning yuksalganligi, savdo-sotiqning rivojlanishi, sug'orish inshootlari-ning ishga tushirilishi ana shu davr uchun xos edi.

Shu asosda Beruniyda kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari uyg'unlashib ketadi. Uning fikriga ko'ra, kishilar o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. Ehtiyojlar turli-tuman va ko'p bo'lganligi uchun insonlar birlashgan holda turar joy va shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo'lishini ham ehtiyoj tufayli deb o'ylagan. Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmatini uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. Har bir davrning urf-odatlarini o'ziga xos bladi va inson ahli ularga rioya qilmog'i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi, deb uqtiradi buyuk donishmand.

Olimning fikrlariga tayanib shunday muhim qisqacha xulosalar chiqarish mumkinki, inson erdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Inson avvalo halol mehnati bilan ulug'lanadi, kishilik jamiyatining asl ibtidosi ham mehnatdandir.

Beruniy qayd etishicha, bilimlarni egallamoq va hunar o'rganmoq uchun mehnat qilish zarur, bu esa doim davom etadigan va takomillashib boradigan jarayondir. U mehnatni turlarga ajratib, ularning har qaysisi alohida talab va ehtiyojlar asosida vujudga kelishini ko'rsatib berdi. Binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini og'ir mehnat deb biladi. Ilm, ma'rifat zag'matkashlari mehnatiga ta'rif berish, ilm olish, o'qish eng kerakli mehnat ekanligini isbotlaydi. Shunga ko'ra olimlarning mehnatini qadrlash turli ilmlar ko'payishiga olib keladi. Olim jamiyatning asosini moddiy ne'matlar uchun bo'lgan harakatlarda, mehnatda deb biladi.

Qul mehnati, majburiy mehnatdan erkin kishilarning faoliyati usutunligi isbotlab beriladi (erkin bozor munosabatlarining asosi). Mehnatkashlarning xohish-irodasiga qarshi, ularni majburlab ishlatishga qarshi bo'lgan, chunki bunday mehnat samarasi pastdir. Meros bo'lib avloddan avlodga o'tib keladigan hunarlar yuqori baholangan.

Beruniy og'ir jismoniy mehnat qiluvchilar, ya'ni konda ishlovchilar, er ostida gavhar qidiruvchilar, dehqonlar to'g'risida, ularga berilishi kerak bo'lgan imtiyozlar va ish haqi haqida «Minerologiya» asarida keng muloaza yuritadi. Ayniqsa ochiq va er ostidagi kon ishlariga alohida e'tibor beriladi, er osti konlarini mustahkamlash (falokat oldini olish uchun), er osti suvlarini chiqarib tashlash, olingan rudani yuqoriga olib chiqish uchun maxsus moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kon atrofida konchilar qishlog'ini barpo etish zarurligi ko'rsatiladi.

Er osti boyliklarini qazib olish ishlari katta jismoniy mehnat, ixtirochilik, aqliy mehnat va bilim sarflashni talab etadi. Bu murakkab va og'ir ishlarni bajarish maxsus maktab, ularda ta'lim-tarbiya berish asosida yo'lga qo'yilmog'i kerak, deydi olim. Xuddi shu o'rinda Beruniy ilm ahllari, olimlar, tarbiyachilarning mehnati jamiyat uchun naqadar kerakli va zarurligini alohida uqtiradi. Beruniy ustalarning avoli, shogirdlarning faoliyati, ish haqlari borasida ham qimmatli g'oyalarni ilgari suradi, ish haqi miqdori samaradorlik bilan bevosita bog'lanadi.

Olimning yozishicha: «Basrada billurdan idish-tovor va boshqa narsalar yasaydilar. Ish joyida belgilab-o'lchab beruvchi usta bo'lib, uning oldida billurning mayda va katta bo'lakchalari to'plangan. U ana shulardan chiroyli va keraklisini olib, undan eng chiroyli va yaxshi buyum yasashni o'ylab o'lchab belgilab chiqadi. Shundan keyin uni yasovchi hunarmandga beradi, bu birinchi usta aytganidek qilib buyumlarni yasay boshlaydi.

Olim shu erda mehnat taqsimoti va uning ahamiyatini ko'rsatadi. Olim va mutaxassislar mehnatini mamlakat boshqaruvchilari tomonidan rag'banlantirib turish foydali ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bu aslini olganda manfaatdorlik tamoyilining xuddi o'zidir. Uningcha, ayniqsa, erga ishlov berib, rizq-ro'z yaratuvchilarga mehribon bo'lish kerakligi ko'rsatiladi. Ana shu g'amxo'rlik oqibatida erga yaxshi ishlov beriladi va er hosildor bo'ladi, moddiy ne'matlar yaratiladi, ishlovchi va jamiyat manfaatlari bab-baravar himoya qilinadi (bu fikr XVIII asrda Adam Smit tomonidan to'laroq isbotlab berilgan). Moddiy ne'matlar esa tiriklik asosi. Ana shunday qilinganda hokimiyat ham mustahkam bo'ladi, deydi olim (bu erda davlatning iqtisodiyot bilan munosabati masalasi ko'tariladi).

Agar kishilar to'q bo'lsa, davlat ham kuchlidir. Hukmdorlarning vazifasi yuqori tabaqalar bilan quyi tabaqalar o'rtasida haqiqatni, kuchli bilan kuchsiz o'rtasida tenglikni o'rnatishdan iboratdir, deb uqtiradi olim. Mehnatning ixtiriyiligi, ozodligi, erkinligi kishilar o'rtasida hulq-atvor, hurmat-e'tibor uchun muhim va zarurdir. Bozor iqtisodiyotining eng zarur tamoyillaridan biri- bu tanlash va tadbirkorlik erkinligi masalasi ilgari surilgan.

**Yusuf Xos Hojib.** Atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis Yusuf Xos Hojib 1020 yili Qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Bolasog'unda tug'ildi (olamdan o'tgan yili noma'lum). Bo'lajak mutafakkir o'z davridagi barcha bilimlarni, arab va forsiy tillar hamda undagi adabiyotlarni puxta egallaydi.

U 1069-1070 yillar orasida «Qutadg'u bilig» (Qutga, ya'ni baxt saodatga erishtiruvchi bilim) asarini turk tilida yozib, Qoraxoniylar hukmdori Tabg'ochxon Bug'roxonga taqdim etadi. Xon Yusufga «Xos Hojib» (eshik og'asi) degan martabani in'om etadi. Bu falsafiy didaktik asarda markazlashgan davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adolatga barham berish kabi ma'muriy- xo'jalik hamda ma'rifat, obodonchilik, moddiy-ma'naviy va boshqa adolatli hukmron, davlatni tadbir bilan boshqarish ishini o'rganish, kasb-hunar egallash, xalq g'amini eyish haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Bizgacha donishmandning faqat bir asari etib kelgan, ammo bu asarda shunday durdonalar to'planganki, ularga qoyil qolmay iloj yo'q. Asar 13 ming misra (nasriy va nazmiy muqaddimadan tashqari)-73 bobdan iborat. Unda inson tafakkurining barcha jabalari bo'yicha so'z yuritiladi va nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Kitobda berilgan bu g'oyalar o'z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham nihoyatda qadrlidir. Ayniqsa iqtisodiyot masalalari bo'yicha davlat va raiyat munosabatlari sinchiklab o'rganilgan. Asar 18 oy- bir yarim yilda yozib tugallangan (Bolasog'unda boshlangan va Qashqarda nioyalangan) bo'lsa ham, uni yaratish uchun juda uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rilgan.

Donishmand fikricha, ezgu orzularga faqat toat- ibodat bilangina etishib bo'lmaydi. Buning uchun talay ezgu ishlar qilish, foydali faoliyat ko'rsatish kerak, degan fikrni ilgari suradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'qnashib, odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan echilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli

osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi. Bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi.

Taniqli iqtisodchi Adam Smitning iqtisodiy ta'limotga ko'ra (XVIII asr), mamlakatni iqtisodiy bo'hronidan chiqarish uchun 3 narsa:

1. Tinchlik-osoyishtalik;

2. Me'yoridagi soliqlar;

3. Iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkoni talab etiladi. Ana shu g'oya aslida bizning mutafakkir tomonidan etti asr avval bayon etilgan.

Xalq, raiyat (soliq to'lovchilar) mamlakat hukmdoridan uch narsani kutadi, deb uqtiradi Yusuf Xos Hojib, bular: 1) pulning qadrini ko'tarish yoki (ushlab turish); 2) xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlarni joriy etish va 3) yo'llarni o'g'ri-qaroqchilardan muhofaza qilish. Shoh esa fuqarolardan soliqni vaqtida to'lashni (hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb), chiqargan farmon qonunlarini bajarish hamda do'stiga do'st, dushmanga dushman bo'lishni talab qiladi, deb yozadi. Ko'rinib turibdiki, bunda jamiyat va siyosiy hokimiyat o'zaro mutanosib bo'lishi zarurligi g'oyasi aniq ifoda etiladi.

Pulning qadrlil bo'lishi haqidagi g'oya, aslini olganda inflyasiya muammosi bilan chambarchas bog'liq, baholarning m'tadilligi ham ta'min etiladi. U o'z navbatida inqirozsiz iqtisodiyot, erkin muomaladagi valyuta masalalariga borib taqaladi.

Xususiy mulk huquqini ta'minlash bozor munosabatlarining bosh unsuridir, mulkka egallik hissi taraqqiyot omili sifatida butun jaon rivoji asosida isbotlangan va hozirgi davrda respublikamizda ham jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Davlat, umumxalq mulkiga ommoviy o'tishning salbiy oqibatlarini sobiq sho'rolar davrida boshimizdan kechirganmiz.

Yo'llarni o'g'rilardan muhofaza qilish ichki va ayniqsa tashqi savdo (eksport-import)ni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning o'zginasidir. Bu erda savdoning xalq xo'jaligi uchun ustuvor ahamiyati to'g'risida gap yuritiladi.

Hozirgi davrda bu g'oyalar mustaqil O'zbekiston iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi. Bu g'oyalarning amaliy ahamiyati ayniqsa Sohibqiron Amir Temur faoliyatida yorqin namoyon bo'lgan.

Yusuf Xos Hojib barcha imtiyozlardan mahrum kambag'al tabaqalar ahvoliga achinish hissini izhor qiladi. Donishmand hokimlarni quyi tabaqa vakillarini ularga nisbatan mehr shafqatli, insof-adolatli, marhamatli bo'lishiga, ayni paytda raiyatni hokimlarga bo'ysunuvchi, sadoqatli bo'lishiga chaqiradi. Mana shunday kelishtirish yo'li bilan osoyishta hayotga erishishga umid bildiriladi (bu esa iqtisodiy rivoj uchun ham zaruriy shartdir).

Kitobdagi g'oyalar dunyodagi hamma ishlarda qo'l keladi. Unda mulk tutishning siru-asrorlari, mamlakatni idora qilish tartibi, sharti, shuningdek, molu-mulk, el-yurtning mangu qolishi, gullab- yashnashi va uning xarob blish belgilari berilgan. Mutafakkir ayniqsa kasb-hunar ahlining faoliyatini yuqori baholaydi. «Bir yigitga qirq hunar oz» bobi xuddi shu masalaga bag'ishlangan. Vazir, qo'mondon, elchi va boshqa hukmdorlarning faoliyat mezonlari diqqatga sazovordir.

Masalan, «Vazir ko'zining to'q bo'lishi uni har xil mol-mulk oldida suqlanishdan asraydi. Ko'zi och odam bor olamni esa ham tymaydi», deydi olim.

Dehqon, savdogar, chorvador, oddiy mehnatkash ahli to'g'risida nodir fikrlar bildiriladi. «Bular bilan yaqin bo'lg'in hamisha, to tomoq tashvishin bilmasdan yasha», deb aytiladi.

Ayniqsa bilim va aql-idrokka, shu soha sohiblariga katta e'tibor beriladi. «Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni echishga qodir», deb yozadi alloma.

Aql-idrok egalarining nafi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa elda aziz bo'ladi, hurmat qozonadi. Butun ishlar o'quv-idrok bilan amalga oshadi. Barcha murakkab ishlar bilish bilan hal etiladi. Ko'rinib turibdiki, yurtimizda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tanlangan o'z yo'nalishimizda ham yoshlarning bilim olishiga, jahon xalqlari tajribasini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilayotir. Bu tanlangan yo'limizning to'g'riligidan dalolat beradi.

## **QISQACHA XULOSALAR**

Milliy iqtisodiy tafakkurning shakllanishida Markaziy Osiyodagi donishmandlarning hamda, xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati shubhasiz muhim o'rin tutadi. Bunday g'oyalar shakllanishining asosini «Avesto» dagi tarixiy boy manba tashkil etadi. Keyingi bosqichni esa islom ta'limotining O'rta Osiyoga yoyilishi bilan bog'lash mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyodagi iqtisodiy g'oyalarning ravnaq topishida Burhoniddin al-Marg'inoniyning «Xidoya» asaridagi iqtisodiy fikrlardir. Keyingi bosqichda esa, 9-10-asrdagi iqtisodiy g'oyalar rivojida muhim hissa qo'shgan qomusiy allomalar Farobiy, Ibn Sino, Beruniy hamda Yusuf Xos Hojibning fikr va qarashlari muhim hisoblanadi. Umuman olganda o'sha davrdagi iqtisodiy g'oyalarning hususiyatlariga quyidagilar kiritish mumkin:

1. Iqtisodiy qarashlar fikrlar va g'oyalar asosan faylasuflar, diniy arboblardan tomonidan bayon etilgan.

2. Nazariy tadqiqotlar esa cheklangan tor, sodda yondashuvlar asosida umumlashtirilgan. 3. Takror ishlab chiqarish jarayonida natural xo'jalik munosabatlarining ustunligi egallagan.

4. Ekstensiv takror ishlab chiqarishning ustunvorligi davom etgan.

5. Qo'shimcha maxsulot yaratishning vosita usul va shakllarini ijtimoiy hayotga tadbiiq etish ta'mirlangan.

Xalq og'zaki ijodida esa mehnat taqsimotining o'rni mol-mulkning ko'payishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan. Donishmandlarning iqtisodiy g'oyalarida esa, zamonaviy dunyoqarashning umumbashariy mezonlari qayd etilgan. Shuningdek, mulkdorlikning yuksak ma'naviyat bilan uyg'unlashishi zarurligi bayon etilgan. Xayotga, mehnatga, mulkka hamda erga bo'lgan munosabatning umumbashariy mezonlarga asoslanishiga undaydi. Xar bir shaxs va oila farovonligi jamiyat va davlat kuchli va qudratli bo'lishiga zamin yaratishi asoslanadi.

## 4-MAVZU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G'OYALAR VA IQTISODIY SIYOSAT

### 4.1. Amir Temur davridagi iqtisodiy g'oyalar.

Amir Temur va uning avlodlari davrida markazlashgan davlat barpo etildi, iqtisodiyotning barcha sohalarida (hunarmandchilik, qurilish, qishloq xo'jaligi, ayniqsa savdoda) muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunga to'g'ri tanlab olingan iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy siyosat yordam berdi.

**Amir Temur** (1336-1405) davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratgandi. Sohibqiron davlatida *devoni buzurg* (*bosh vazir*) dan tashqari har bir viloyatda Devon deyiluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatning butkul ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilardi.



Xalqning hulq-ahloqi kuzatib turilardi. Uning xodimlari vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirish, taftish va tergov ishlarini olib borishardi. Ayniqsa, toshu-tarozi to'g'riligi, odil baho tekshirilgan, qallob va tovlamachilar qat'iy jazolangan, eng muhimi bu ish to'ppa-to'g'ri bozorda, xalq oldida amalga oshirilgan. Savdogarlarga olib kelingan mol ustiga 10 foiz narx qo'yish mumkin bo'lgan. Temur saltanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko'rsatgan. Shunday vazirlardan birinchisiga er soliqlari, boj, o'lpon-soliq undirish hamda mirshablik yumushlarini boshqarish yuklatilgan. Bu vazir

**Amir Temur** mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni hal qilgan, raiyat ahvolini kuzatgan, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o'lponlarni taqsimlagan.

Ikkinchi vazir sipoh vaziri hisoblanib, sipohiylarning maoshlari va tanho (bu erda - toju-taxt uchun qilgan xizmatlari evaziga beriladigan in'om ma'nosida)larni boshqargan.

Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotganlar, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvasini boshqarib, bularning barchasida to'plangan daromadlarni omonat tarzida saqlagan. Agar g'oyib bo'lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo'lsa, ularni o'z merosxo'rlariga topshirgan.

To'rtinchi vazir saltanat ishlarini yurituvchi vazir bo'lib, u saltanatdagi jami idoralarning kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan harajat, hatto otxona va saroydagi boshqa jonzotlarga qilingan harajatlardan ogoh bo'lib borgan. Vazirlar Devonbegiga bo'ysungan.

Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday degan edilar: «*Amr qildimki, sadrlar sadri (sadr, vaqf erlar va vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdor) sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg'ol tariqasida berilgan erlar va vaqflarning ahvolini, ularning vazifalarini qay darajada ado etayotganliklarini tekshirib, menga arz qilib tursin... Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik harajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin*».

Sohibqiron davrida erga egalikning beshta asosiy ko'rinishi bo'lgan:

1. Suyurg'ol erlar. Katta hajmdagi bu erlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi markaziy xazinaga to'lanadigan soliqdan ozod qilingan. Bunday er egalari dehqonlarni ishlatib, er solig'i - xiroj olganlar.

2. Tarxon erlar. Bu erlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

3. Ushr erlar. Sayyid va xo'jalarga mansub erlardir. Bundan olingan hosilning undan biri davlatga berilgan.

4. Vaqf erlar, masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir erlardir. Vaqfda er, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in'om etilardi. Masalan, Amir Temurning Axmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ahamiyatga ega. **Ahmad Yassaviy** va boshqa avliyolar, din peshvolarining maqbaralari uchun vaqfdan mablag' ajratilgan.

5. Askarlarga, askarlarning rahbarlariga beriladigan erlar.

Kimdakim biron sahroni obod qilsa yoki qoriz (er osti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biron bog' ko'kartirsa yohud birorta xarob bo'lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmaganlar. Ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olgan. Uchinchi yildagina soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilgan.

Amir Temur kattayu kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilishni, faqiru miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'rib o'tadigan, kambag'al etim-esirlarga ovqat beriladigan joy), g'aribxona qurishni, kasallar uchun shifoxona bunyod etishni va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlashni buyurgan edi.

Amir Temur Angliya va Farangiston qirollariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirdi. Markaziy Osiyo orqali o'tadigan Buyuk ipak yo'lida karvonlarning xavfsizligini ta'minladi. Mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli ravotlar, karvonsaroylar, savdo rastalari qurdirdi.

Sohibqiron 1365-1366 yilning qishida Qarshi shahrining atrofini, 1370 yili Samarqandni devor bilan o'rab, qo'rg'on bunyod ettirgan. 1380 yilda Shahrisabzda Oqsaroyni qurishga kirishib, shahar atrofini devor bilan o'ragan. Bu misollar aytib turibdiki, devor va qo'rg'onlar bekorga barpo bo'lmagan. Ular chegara vazifasini o'tab, shahar aholisini do'st-dushmanidan, bordi-keldidan muhofaza qilgan. Qarshi so'zi ichkari va tashqari degan ma'nolarga egadir. Ma'lumki, Amir Temur saltanatining chegarasi harbiy yurishlar vaqtida beqaror edi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, uning yurtidan biron-bir narsa tashqariga so'roqsiz olib chiqib ketilmagan. Jahongir bu haqda: *«Mamlakatni himoya qilib, dushmani yo'latmagan navkarni yuqori martabaga ko'tarib, hurmatlasinlar. O'g'ri va qarochilarni jazolasinlar, fasodchi, buzuqi, nafi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqadigan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar qo'shni podsholar, ularning gaplari, ishlari uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimda yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni (xabarnavislar) rostlik, to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Xabarlarni kunmakun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga etkazib tursinlar»*, degan edi.



Mazkur vazifalarni bajarmoq uchun har bir shahar va qishloqda qutvol (qal'a boshlig'i) tayinlanib, ular sipoh va raiyatga soqchilik qilganlar va yana yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobit (idora etuvchi, boshqaruvchi, qo'shin boshlig'i)lar tayinlanib, ular yo'llarni qo'riqlab, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga etkazib qo'yganlar. Yo'l ustida bironta odamning biror narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, buning uchun javob berish ularning zimmasida bo'lgan.

Buyuk jahongirning mana bu so'zlari yanada qimmatliroqdir: *«Har mamlakat va diyor sayohatchilari musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakat va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qaerga borishmasin: Xitoy, Xo'tan, Chinu Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston (Ovrupa), u erlarning nafis matolari va munosib tuxfalaridan keltirishsin. O'sha mamlakatda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar, har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomala-yu munosabatda ekanligini aniqlasinlar»*.

Amir Temur davrida ulufa (ozuq-ovqat, maosh, soliq turi) berish quyidagicha edi. Amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va sipohiylarga ushbu tartibda maosh berilgan: oddiy sipohiyga o'z vazifasini o'rinlatib bajarish sharti bilan maoshi mingan otining bahosiga teng bo'lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayinlangan. O'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiylarnikidan o'n barobar ortiq bo'lgan. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarnikiga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda edi. *Chorpilchor* (urush vaqtida) xatoga yo'l qo'ygan sipohiylarning maoshi o'ndan birga kamaytirilgan. O'nboshi yuzboshi tasdig'i bilan, yuzboshi mingboshining tasdig'i bilan, mingboshi bosh amir tasdig'i bilan ulufa olganlar. *Bosh amir - amir-ul-umaroning* maoshi qo'l ostidagilardan o'n barobar, devonbegi va vazirlarning maoshlari amirlarnikidan o'n barobar ortiq bo'lgan. Yasovul (xonlarning kichik xizmatchisi, qo'riqchi), *chopovul* (chopqunchi, asosan tunda o'tkaziladigan bosqin qatnashchisi), kalakchi (aholidan yig'ilgan hosildan xiroj miqdorini belgilovchi mansabdor)larning maoshi xizmatiga yarasha, mingdan o'n ming tangagacha bo'lgan. Sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlarning o'z hollariga qarab suyurg'ol, vazifa va maosh belgilangan. Xizmatchilar, farrosh (bu erda palos to'shovchi ma'nosida)larga yuzdan ming tangagacha maosh berilardi.

Umuman, davlat tomonidan beriladigan maoshlarning to'liq ma'lumotlarini Devonbegi va vazirlar Amir Temurga bildirib, so'ngra *tanho* (bu erda saroy xizmatchilari, lashkarboshilar va askarlar uchun maxsus xazinadan beriladigan maosh. Ba'zida alohida xizmat ko'rsatgan beklarga tanho sifatida er-suv berilgan) berganlar.

Sohibqiron vasiyatiga ko'ra uning to'ng'ich o'g'li **Muhammad Jahongir Mirzo** valiahd va viloyat hokimi bo'lib, o'n ikki ming otlik askarga ulufa olib, bir viloyat olgandi. Uchinchi ug'li **Mironshoh Mirzo** to'qqiz ming otlik askarga teng ulufa olgan va bir viloyatni tasarruf qilgan. To'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzo etti ming otlik askarga ulufa olgan va bir viloyat egasi bo'lgan. Nabiralari ham uch mingdan etti minggacha otliqqa ulufa va bir viloyat oladilar.

Amir Temur davrida piyodalar, kalakchilar, yasovullar, chopovullarning bir yillik maoshlarini hisoblab, belgilangan mablag'ni devonxonaga keltirib, shu erda ularga tarqatilgan. Sipohiyalar va bahodirlarning yarim yillik maoshlari ham hisoblanib, tanho xazinasidan olib berilgan.

O'nboshi, yuzboshilarga maosh shahar aholisidan olinadigan soliqlardan yig'ilgan xazinadan va podsholiq mulki daromadidan naqd pul hisobida olingan. Mingboshilarga viloyat ichidagi erlardan tiyul (xiroj va soliq yig'ib olish haqi bilan in'om etiladigan er-mulk)lardan berilgan. Amirlar va amir-ul-umarolarga viloyatlardan biri tiyul etib belgilangan. Temur viloyatlardan tushgan daromadlarni taqsimlash haqida shunday degan edi: *«Viloyatlar va mamlakatlardan olingan jami daromadni taqsimlab, maosh berish erliklariga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. So'ng erliklar devonxonaga keltirilsin. Amirlar, mingboshilar shu erliklardan birini chiqarib olsin»*.

Amirlar, mingboshilar raiyatdan molu jihot (naqd pul va mahsulot bilan to'lanadigan soliq) yiqqanlarida, xirojdan ortiqcha sovariy (podsho va xonlar o'z viloyatlaridan o'tayotganlarida xalqdan talab qilinadigan tortiqlar), qo'nalg'a (choparlar va elchilarga qo'noq berish solig'i) va shilon (podshohlar va amirlarning ovqati uchun yig'iladigan soliq) talab qilinmagan. Tiyul qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlagan. Ularning birinchisi viloyatdan yig'ilgan mollarni yozib raiyat ahvolini tekshirib turib, tiyul egasi (*jog'irdor*) ning fuqarolarga zulm etkazmasligi uchun ularning holidan xabardor bo'lib turgan, yig'ilgan butun mol-mulklarni kirim daftariga yozgan. Ikkinchisi daromadning xarj etilgan qismini chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollardan sipohiyalarning maoshiga taqsim qilingan.

Amir Temur bu ishlar haqida yana quyidagilarni yozgan: *«Qaysi amirga tiyul berilar ekan, uni uch yilgacha o'z holiga qo'ysinlar. Uch yil o'tgandan so'ng uni tekshirib ko'rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan, shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo'lsa, ul viloyat holisa (davlat ixtiyoridagi barcha soliqlardan ozod etilgan er-suv)ga o'tkazilib, uch yilgacha o'sha jog'irdorga ulufa berilmasin»*.

Sohibqiron mamlakatlarni fath etish bilan birga, to'plangan mol-dunyoni, olinadigan boj soliqlarini xayrli maqsadlar uchun sarf qilgan: *«To'plangan xazinadagi naqd pul va qimmatbaho buyumlarni sipohlarga taqsimlab berdim. Qo'shinga etarli darajada ozuka berdim»*, degan edi. Piri Amir Shamsiddin Kulol haqida: *«Ular menga Xorazmga borishimni maslahat berdilar. Agar g'alaba qozonsam, Samarqandning bir yillik xirojini ularga nazr qilishga qaror qildim»*, - deydi.

Ma'lumki, xiroj er solig'i uchun va umuman daromad solig'i uchun qo'llanilgan. Xiroj ayrim hollarda daromadning uchdan birini tashkil etgan. Shuningdek, xirojni «mol» deb ham atashgan. *«Raiyatga haq-nohaq jarimalar soluvchi vazir saltanatni buzadi»*, - degan edi sohibqiron.

Muruvvatli jahongir: *«Kimki mening xizmatimni qilgan bo'lsa, xizmat haqini ado etdim. Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'aynilar, qo'ni-qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganimda unutmading, molu mulk va naqd pul bilan haqlarini ado etdim»*, - deydi. Shuningdek, u amirlar va sipohiyalarni martaba va unvonlar, zaru zarvarlar

bilan xushnud etgan, bazmlarda o'z yonidan joy bergan, xullas, ularning jang vaqtidagi qahramonliklarini hech vaqt unutmagan.

Sohibqiron hayr-ehson ishlari bilan odamlarning ko'nglini olgan. Sipoh va raiyatga bir ko'z bilan qarab, bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxriy o'tova (bosh kiyimiga taqiladigan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynatli belgi), kamar va tarkash (sadoq - o'qdon) taqdim etib, martabalarini yanada yuqori ko'tartirdi. Har el va har mamlakatning ulug'larini, boshliq-oqsoqollarini qadrladi. Ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandi. Sipohiylarni hamisha jangda tayyor turishlari uchun oylik haqlarini so'rattirmay, vaqtida bergan. Sarmoyasi qo'lidan chiqib ketgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan etarli miqdorda oltin berilgan.

U vaqtlarda bozor ahlidan soliq olish qal'a boshlig'i zimmasiga yuklangan. Soliq olish Qur'oni karim ta'limotiga muvofiq edi. Hadis va «Hidoya» kitoblarida bu to'g'rida to'la ma'lumotlar berilgan. Hech bir shahar va qishloqqa odamlardan sari shumor (jon boshidan olinadigan soliq) va xonashumor (har bir xonadondan olinadigan soliq) olinmagan. Raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanilgan. Negaki, Amir Temur *«Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi esa, o'z navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi. Fath etilgan erlik fuqaro azaldan berib kelingan xiroj miqdoridan rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar. Xirojni ekindan olingan hosilga va erning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Fatx etilgan har bir mamlakatning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasinlar. O'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollarni hisob-kitob qilsinlar»*, - degan edi.

Yevropadan ancha ilgari bu davlatda byudjet tushunchasi bo'lgan. Davlat xazinasini, kirim, chiqim, hisob-kitob qat'iy olib borilgan, taftish yo'lga qo'yilgan edi. Buning uchun ma'lum mas'ul shaxslar ajratilgan va doim hisob berib borganlar.

A.Temurning davlat va iqtisodiyot sohasidagi asosiy fikrlari **«Temur tuzuklari»**da to'la bayon etilgan. Tuzuklar Amir Temurning 1342-1405 yillar oralig'idagi faoliyatini aks ettiradi va ikki qismdan (maqoladan) iborat. Birinchi qismda asosan yagona davlat barpo etish, uni mustahkamlash, qo'shni (27) yurt va mamlakatlarni zabt etish masalalari yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismda sohibqiron nomidan aytilgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihad, turli sohalardagi, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiyotga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

A.Temur mamlakatda gadoylar bo'lmasligi kerak, degan qoidaga amal qilgan va uning yo'lini ham belgilab bergan. Gadoylarning barchasi to'plangan va ularga bir yillik kerakli emish, kiyim-kechak berilgan, ularni biror foydali ish bilan shug'ullanishga jalb etilgan. Odatda, ko'pchilik gadoylikni tark etib, biror faoliyat bilan kun ko'rgan. Gadoylikni tark etmaganlar qul qilib sotilgan yoki mamlakatdan chiqarib yuborilgan.

#### **4.2. Shoxruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek davridagi iqtisodiy islohotlar**

A.Temur vafotidan keyin Shohruh va Ulug'bek (1394-1449) podsholigi (1409-1449) davrida iqtisodiyot yaxshi rivojlandi. Ayniqsa qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq munosabatlari o'sdi. Bu Movarounnahrda (arabcha «daryo

ortidagi» (mamlakat) degani) 1428 yilda Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohoti bilan bog'liqdir. Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushungan holda uning qadr-qimmatini oshirish uchun harakat qilingan.

O'sha davrda muomaladagi fulusiy chaqa pullar engil vaznda bo'lib, savdo rivojiga to'siqlik qilgan. Ulug'bek engil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun u bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqli fuluslarni zarb ettirib, muomalaga kiritdi. Eski chaqalar qisqa vaqt davomida yangi pullarga almashtirilib olingach, mis pullar



zarbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berildi. Faqat Buxoro zarbxonasi (poytaxt Samarqandda emas) saqlab qolindi. Xalq orasida «fulusi adliya», ya'ni adolatli chaqa nomi bilan shuhrat qozongan bu yangi mis fuluslar mamlakatning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina bilan to'la ta'minlay boshladi. Ichki chakana savdo-pul munosabatlaridagi tanqislikni fulusning vazni va qiymatini

**Ulug'bek** oshirish bilan hal etilishi o'rta asrlar sharoitida nodir va favqulodda voqea bo'lsa-da, har holda Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik buyumlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib berdi. Ayni vaqtda tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida «tamg'a» boji ham birmuncha oshirildi, ya'ni hozirgi til bilan aytilganda proteksionizm siyosatidan foydalanildi.

Ulug'bek (1394-1449) tarixda ko'proq davlat arbobi sifatida emas, bunyodkor inson, yuksak zehni olim sifatida mashhurdir. Uning dong'i dunyoga ketgan, astronomiya, tarix ilmlariga oid asarlari mavjud. Bu erda biz Ulug'bekning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga alohida e'tibor bermoqchimiz. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida qunt qilinadi, busiz rivojlanish bo'lmasligini hokimlar yaxshi tushunishgan. Sug'orish tarmoqlari qurilib, ular toshhovuz, darg'ot, navo, chig'ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko'prik, handoq, tazar va sardobalar kabi turli-tuman suv inshootlari bilan jihozlandi.

O'sha davrda ham iqtisodiy rivojlanishning soliq tizimi bilan chambarchas bog'liqligi yaxshi ma'lum edi. Soliq yig'imi qancha yuqori bo'lsa, ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi kamdir, ammo soliqning pastligi aholi uchun qulay bo'lgani bilan, davlatning boshqaruv, mudofaa va boshqa maqsadlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Shularni yaxshi tushungan ukmdorlar soliqni iloji boricha me'yorida saqlash va uni yig'ishning ma'lum adolatli usullarini qo'llanganlar. Masalan, Ulug'bek hukmronligi davrida g'alla g'aram qilinmasdan avval soliq to'plash qat'iyman etilgan, chunki dehqon hosil yig'ib olgachgina real soliq to'lash imkoniga ega bo'ladi. Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosili pishishiga qarab bo'lingan:

- 1) saraton (iyun-iyul);
- 2) sumbula mezon (avgust va sentyabr);

3) qavs(noyabr).

Yana bir muhim masala shuki, soliqlarni yig'ish paytida soliqchilar dehqon, chorvador yoki bog'bonga nisbatan zug'um o'tkazmasligi, jismoniy kuch ishlatmasligi va ishni urush-janjalgacha olib bormasligi zarur qilib qo'yilgan. Bu bilan insonning haq-huquqi, yashashga bo'lgan daxlsizligi ta'minlangan.

Umuman, soliq bo'yicha qarzdorlarni bandi qilish va zanjir bilan kishonlab, ularga nisbatan qattiq choralar ko'rishga soliqchilarning haqqi yo'q edi.

Soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiiste'mollikning oldini olishga harakat qilingan. Tartibga amal qilmagan ayrim ma'murlar jazoga tortilgani ma'lum.

Bu davrda ichki va tashqi savdoga katta ahamiyat berilgan. Xitoy, indiston, Tibet va boshqa ko'pgina davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Bu borada savdogarlar uchun qulay sharoitlar yaratilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Elchilar «Buyuk ipak yo'li» xafvsizligini ta'minlash borasida katta ishlarni amalga oshirganlar.

Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, ayniqsa, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari, milliy valyuta mustahkamligiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, pulning uchta asosiy vazifasi mavjud:1) qiymat lchovi; 2) almashuv vositasi; 3) jamg'arma vositasi. Agar pulning miqdori, uning nufuzi mustahkam bo'lmasa, iqtisodiyot posongisi, muvozanati buziladi. Shularni hisobga olib, vaqti-vaqti bilan pul islohotlari o'tkazib turiladi. 1428 yili



Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan islohot katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Muomaladagi fulusiy pullar almashtirildi. Ulug'bek davridagi islohotlar tovar pul munosabatlari rivojiga muhim hissa qo'shdi. Iqtisodiyotning barqarorligiga erishildi.

#### 4.3.Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarning mohiyati

Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** ijodida ham iqtisodiy g'oyalar muhim o'rinni egallaydi. Uning asarlarida va faoliyatida ayniqsa tijorat, savdo masalalari ancha mukammal yoritilgan. A.Navoiy asarlarida savdogarlik ishi ma'qullanadi, lekin tovlamachi va chayqovchi qattiq tanqid qilinadi. A.Navoiy davlat arbobi sifatida mamlakatni tinch saqlash, obodonlashtirish ishiga katta hissa qo'shdi. U tirikligida mingta inshoot qurishga va'da bergan va va'dasining ustidan chiqqan, ko'pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko'prik,

**A. Navoiy** rabot va boshqalarni o'z hisobidan qurdirgan. Mehnatning inson va jamiyatdagi o'rniga, do'stlikka yuksak baho bergan.

**Alisher Navoiy** (1441-1501) shoir va davlatning etakchi vaziri sifatida nom qozongan. Navoiyning mana bu sifatlari uning ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy qarashlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy o'z davrining progressiv kishisi sifatida gumanistik va vatanparvarlik mafkurasi ramkasidan otilib chiqdi.

U o'z davrining siyosiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiy qudratini barkamollashtirish uchun kishilarda gumanistik vatanparvarlik xislatlarini uyg'otish kerak ekanligini erta tushunib etdi. A.Navoiy Navoiyning

dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari - bu 1469 yilda **Husayn Boyqaroning** taxtga kelishiga bag'ishlangan «*Hiloliya*» asaridir.

Husayn Boyqaroning taxtga kelishini Navoiy zulmat korong'uligini yoritadigan «*hilol*», ya'ni uch kunlik oy bilan tenglashtiradi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy qudrati mustahkamlanishiga, aholining ijtimoiy, moddiy ahvoli yaxshilanishiga, feodal urushlarga barham berilishiga, mamlakatda tinchlik o'rnatilishiga ishongan.

Navoiy Husayn Boyqaroni shohlar shohi deb maqtaydi. Lekin Navoiy, maqtash bilan birga muhim ijtimoiy-iqtisodiy fikrlarni ham ilgari suradi. Hukmdorni maqtash Navoiy tomonidan qo'llanilgan taktik bir usul edi. Uning asosiy strategik maqsadi esa mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvolini yaxshilashga, yagona markazga markazlashgan, qudratli davlat barpo qilishga qaratilgan edi. Navoiy Husayn Boyqaroning taxtga kelishidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, sosial-siyosiy va madaniy-oqartuv sohalarida yuksak o'zgarishlar amalga oshirilishiga katta umid bog'laydi. Navoiy shaxsning tarixdagi roliga katta e'tibor berib, mamlakat iqtisodiy ahvoli shu mamlakat hukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog'liq deb hisoblaydi.

Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa, iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, u boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo'ladi, agar teskarisi bo'lsa, mamlakat qashshoq va xarob bo'ladi, deydi. Navoiy boshsiz tana bo'lmaganidek, podshosiz davlat ham bo'lmaydi deb tarixda realist sifatida nom qoldirdi. Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrda mamlakatda nisbiy rivojlanish ko'zga tashlandi. Savdo-sotiq kengaydi, hunarmandchilik va dehqonchilik yaxshi yo'lga qo'yildi. Irrigasion inshootlar qurilishi ham kengaydi.

Navoiy Markaziy Osiyo sharoiti uchun irrigasion inshootlarni kengaytirish - iqtisodiy rivojlanishga olib boruvchi muhim omillardan biridir, deydi. A.Navoiyning bevosita rahnamoligi ostida 70 dan ortiq kanallar va ariqlar qazildi. Milliy daromadning asosiy qismini qishloq xo'jaligida etishtiriladigan hosildan olinadigan daromad tashkil etardi. Feodal jamiyatda irrigasiya inshootlarini qurishni kengaytirish o'sha davr iqtisodiyotini rivojlantirishga keng ta'sir ko'rsatar edi. Navoiy feodalizm davrida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan erni kengaytirishga, uning mahsuldorligini oshirishga katta e'tibor berdi (V.Zaxidov. Mir idey i obraz A.Navoi). Navoiy boylikni ikki yo'l bilan topish mumkin, deydi.

Birinchi yo'li - bu o'z mehnati bilan iqtisod qilib boylikni to'plash, orttirish, yig'ish va o'ziga to'q yashash. Bunday boylik to'plashga Navoiy hayrihohlik bildirdi. U olingan va to'plangan boylikni uch qismga bo'lib, birinchi qismini ketgan harajatga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlarini uchun sarflashga chaqiradi.

Masalan, 1482 yilda yozilgan «Vaqfiya» asarida A.Navoiy shaxsan o'zining erlaridan olingan daromad misolida daromadning o'z harajatlari va oila ahliga etarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. Boylik topishning ikkinchi yo'liga esa, ya'ni o'g'rilik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo'l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan parazit qatlamdor, deb ta'riflaydi.

A.Navoiy ijodining durdona asarlaridan biri 1500 yilda yozilgan «Mahbub-ul-qulub» asaridir.

Ushbu asarda Navoiyning iqtisodiy fikrlari mujassamlashgandir. Navoiy bu asarida jamiyatni sosial tabaqalarga bo'lib, ularning jamiyatda tutgan o'rnini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Asarning birinchi qismida ularning tabaqalariga va kasblariga xarakteristika beradi. Ikkinchi va uchinchi qismlarda yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Navoiyning fikricha, dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy ne'mat etishtirishda, yaratishda va mamlakat boyligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

A.Navoiy dehqon va uning ishlab chiqarishdagi roli to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Don sochuvchi dehqon erni yorish bilan rizq yo'lini ochuvchidir». Dehqon, ya'ni ishchi kuchi mahsulot ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi lozim va shartdir. Navoiy ishlab chiqarish vositalarining moddiy boyluk yaratishdagi rolini quyidagicha e'tirof etadi: «Qo'shi ham ikki zo'r polvon bo'lib, yukiga bo'ysunib oldida yuradi, ishlashda hamdam va hamqadam, dehqon ularni surishda xuddi odam. Dunyo obodi xuddi ulardan. Har ne qilsalar harakat, xalqqa ham etar ovqat ham barakat!».

Demak, dehqon ish kuchi, qo'shi va ho'kizlari esa ishlab chiqarish qurollari, er esa mehnat predmeti, hammasi birgalikda ishlab chiqarish kuchlarini tashkil qiladi. Navoiy ishlab chiqarishdagi hal qiluvchi omil, hal qiluvchi element - bu dehqon, ya'ni ishchi kuchidir, degan fikrni bildiradi. Yuqorida zikr etib o'tilganidek, A.Navoiyning fikriga ko'ra yakka kishi hech narsa ishlab chiqara olmaydi.

Biron narsa ishlab chiqarish uchun boshqa-boshqa toifadagi odamlar doim bir-birlari bilan bevosita aloqada bo'lishlari kerak. Masalan, dehqonga mehnat qurollari zarur bo'lsa, hunarmandga non kerak, dehqonga ham, chorvadorga ham hunarmandchilik va attorlik mahsulotlari suv bilan havodek zarur. Shunday qilib, baliq suvsiz yashay olmaganidek, barcha turdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar ham bir-birisiz rivojlana olmaydi, deydi Navoiy. Dehqonlar va boshqa sohada mashg'ul kishilar ishlab chiqarish uchun boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan ishlab chiqarish jarayonida, taqsimotda, ayirboshlashda va iste'molda bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerak.

A.Navoiy feodalizm davrida, feodalizm jamiyatida dehqon mehnatining katta ahamiyat kasb etishini va mavjud jamiyat dehqon mehnati ustiga qurilganligini e'tirof etadi. Dehqon mehnatining mahsulini novvoy, unfurush, qo'shchi va o'roqchi, mashoqchi va boshqalar orziqib kutadi. Shu bilan birga dehqon ham ularga, ularning mehnatiga hamohangdir. Ularsiz hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Demak, bu bilan Navoiy ishlab chiqarish munosabatlarini e'tirof etadi. Uning fikricha, dehqon o'z mehnati bilan o'z ehtiyojiga zarur bo'lgan mahsulotni keragidan ko'proq ishlab chiqarib, jamiyat va uning ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan qismini ham moddiy ne'mat bilan ta'minlaydi. Navoiyning mana bu fikri qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligida degan fiziokratlar fikriga mos keladi.

Navoiy qishloq xo'jaligining rivojlanishi mamlakat qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi degan o'ta ilg'or fikrni ilgari suradi. Bu fikr o'sha davr, ya'ni feodalizm davri gullab-yashnagan, uning negizini dehqonchilik ishlab chiqarishi

tashkil qilgan bir pallada o'ta to'g'ri fikrgina bo'lib qolmay, balki tarixiy haqiqat hamdir.

A.Navoiy jamiyatda muhim tabaqa bo'lgan savdogarlarning o'zini ham ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruh - chet el bilan savdo aloqalari olib boruvchi savdogarlar guruhi. Ikkinchi guruh - mamlakat ichkarisidagi olibsotarlarning guruhi. Chet ellar bilan savdo-sotiq olib boruvchi savdogarlarga Navoiy ijobiy qaraydi va ularning faoliyatiga hayrihohlik bildiradi. Bozorlardagi savdogarlarga, ya'ni olib sotarlarga esa tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ular o'z manfaatiga xizmat qilib, boshqalar hisobiga boyiydi. Shuning uchun ularning turgan-bitgani mamlakat uchun zarardir, deydi. Savdogarning asosiy maqsadi foyda olishdir. Biri yuz bo'lishidan boshida savdo to'la, buzi shoyi bo'lishidan ko'nglida istak ko'p. Bu erda savdogar Navoiyning «**Hotam Toyiy**» asaridagi o'tin teruvchi cholga qarama-qarshidir. Chol kuni bilan mehnat qilib o'tin teradi va bu o'tinni bozorga olib borib, pulga sotadi. O'tin puliga esa mahsulotlar, ya'ni iste'mol mahsulotlari sotib oladi. Bu joyda «tovar - pul - tovar» jarayoni boradi. O'tinchi cholning ayirboshlashdan ko'zlagan maqsadi iste'mol qiymatidir. Navoiyning fikricha, savdogarning sotib olishdan maqsadi qimmatroq sotishdir. Savdogar birini yuz, yuzini ming qilmoqchi bo'ladi, deydi. Qo'ygan oz puli ko'p bo'lib qaytib kelishini istaydi, ya'ni uni ayirboshlashdan maqsad qiymatdir yoki «pul - tovar - pul» (P-T-P) dir. Demak, Navoiyning fikrida kapitalning dastlabki formalaridan biri mavjud bo'lgan. U shahar olibsotarlari haqida quyidagilarni aytadi: «*Shahar olibsotarlari xiyonatchi, o'ziga foyda va boshqalarga qahat istovchi, uning foydasi xalqqa ziyon, arzon olib qimmat sotish uning orzusi. Olishda shoyini bo'z deydi, sotishda bo'zni maqtab shoyi deydi. Molini tovar o'rnida o'tkaza olsa, to'xtatib turish yo'q. Do'konida insofdan boshqa barcha mol mavjuddir!*» (A.Navoiy. Asarlar to'plami. XII tom,199-bet). A.Navoiy o'zi ishlab chiqarishda va ishlab chiqarish sohasida mashg'ul bo'lmasa-da, o'z aqliy va ijodiy mehnati bilan jamiyat uchun kerak bo'lgan tabaqalarni e'zozlaydi, olimlar, tabiblar, shoirlar, muhandislar va boshqalarni jamiyat uchun zarur qatlamdir, deydi, ana shu kasb egalarini o'z mas'uliyat va burchlarini sezishga chaqiradi.

Alisher Navoiy hazratlari o'z asarlarida iqtisodiyotning ravnaqi inson manaviyatining kamoloti bilan uyg'unligini takror-takror qayd etganlar. Jumladan mamlakat obodligi va el farovonligini yuksak manaviyat bilan quyidagicha bog'lagan: *To xirsu havas xirmoni barbod o'lmas, to nafsu havo qasri baraftod o'lmas, to jabr zulm jonig'a bedod o'lmas, el shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.*

#### **4.4. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalar**

Davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) va uning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan ma'lum. Xususan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan soliq siyosatiga katta o'rin berilgan. «Zakat to'g'risidagi katta kitob» da esa o'sha davrdagi soliq, uning turlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bu asarlarni mutaola qilar ekanmiz, ulardan mamlakatimizning bugungi hayotida ro'y berayotgan iqtisodiy islohotlarni,



o'zgarishlarni tahlil qilish, qisqacha xulosalarlar chiqarish va amaliyotda foydalanish uchun yangi fikrlar, maslahatlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotga oid, uning umumiy asoslari bo'lmish ishlab chiqarish, shuningdek savdo va tijoratga oid, soliq va boj to'lovlari bilan bog'liq bo'lgan qarashlari bizni to'lqinlantiradi. E'tirof etish kerakki, garchi bizning hayotimizda Boburning davlatni boshqarish, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish masalalariga doir alohida asari yoki uning o'z hukmronligi davrida yurgizgan iqtisodiy siyosatiga oid birlamchi manbalar bo'lmasa ham, ilmiy bilish va idrok etish kuchiga suyangan holda shunday qisqacha xulosalarga kelamizki, u buyuk mutafakkir, qomusiy olim sifatida iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning jamiyat va davlat hayotidagi belgilovchi ahamiyatini chuqur tushungan. Shuning uchun ham u dolzarb va adolatli farmonlar va hukmlar chiqarib, ilmiy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yurgizgan, buning oqibati o'laroq u hukmronlik qilgan davrda davlatda osoyishtalik, milliy totuvlik, siyosiy -ijtimoiy taraqqiyot qaror topgan. Shu bois ham Bobur asos solgan saltanat bir necha asr davomida yashadi va tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o'rinni egallagan.



Boburning «Mubayyin» asari to'la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan. Asarning nomi ham «qonunlar izohi» ma'nosiga ega.

Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma'lum miqdorda va muayan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma'nosida qo'llaniladi hamda naqd pul va savdo yig'imi shaklida to'planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish ob'ektining «nisobi», ya'ni mol-mulkning zakot berishga layoqatli bo'lish uchun belgilangan miqdori aniqlanadi, hisobdan kam

**Bobur** mulkdan soliq olinmaydi.

«Agar erdan ikki hosil olsang, xirojni ham ikki marta to'la», deb yozadi Bobur. Xiroj, ya'ni er solig'i ikki toifaga bo'lingan: muqassam va muvazzar. Birinchisi, olingan hosilning miqdoriga bog'liq bo'lib, uchdan birdan-yarimgacha teng bo'lgan, ikkinchi esa, soliq solinadigan erning maydoniga bog'liq ravishda olingan.

Erni sug'orish masalalari Sharqda o'ta muhim edi, chunki ob-havo nihoyatda quruq va issiq, er-tuproq sharoiti sun'iy sug'orishni talab etganligidan sug'oriladigan erlar, tabiiyki, lalmikol erlardan ko'p hosil bergan. Shu sababli suv solig'i ham bo'lgan.

Suv solig'i quyidagicha olingan: «agar sug'orish davrida chig'ir qursang, olgan hosilning o'ndan birining yarmini (5%) soliq uchun to'lashing kerak», ya'ni sug'oriladigan erlarga sarf-xarajat hisobga olingan va bu mantiqan to'g'ridir. Umuman olganda, bu davrda soliq va boshqa yig'imlar tamomila islomiy shariatga to'la rioya qilingan holda olingan.

Nisobga etgan miqdordagi mol-mulkdan Qur'oni karim, Muxtasar, Hidoya va boshqa manbalarda qat'iy belgilab qo'yilgan qismi ixtiyoriy ravishda miskinlarga berilgan, masalan, boqiladigan mollar, ya'ni echki, tuya, sigir, otlardan, xususan, qo'ylardan soliq (zakot) quyidagicha olingan: 40 qo'ydan bitta (2,5%), 120 tasidan

ikkita, 201 dan boshlab uchta, 400 dan ortiq bo'lsa har 100 qo'ydan bittasi zakot qilib berilgan. Shuningdek, «Boburnoma»da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to'la bayon qilinadi. Bobur savdo-sotiqning xalqlar o'rtasidagi bebaho ahamiyatini juda chuqur tuqunar edi.

Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo'llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon etkazish kabi salbiy illatlarga ayovsiz munosabatda bo'lgan. Bu siyosat Amir Temur, Ulug'bek va boshqa temuriylar siyosati bilan ma'lum. O'sha davrda Bobur savdogarlardan olinadigan savdo yig'imi-ning ham adolatli va xolisona tashkil qilinishiga katta ahamiyat bergan. Musulmon savdogarlarining savdo aylanmasidan savdo yig'imi 20 misqol (4,5 gramm) oltindan 1 misqoli shaklida olingan, eng muhimi soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan, ya'ni daromad ko'payishi bilan soliq kamaygan va boylik jamg'aruvchilar uchun o'ta manfaatli bo'lgan. Hozirgi davrda ham mana shu siyosatni qo'llash foydadan holi emas. Chet ellik savdogarlardan olinadigan yig'im esa ularning qaysi yurtlardan kelganligiga bog'liq bo'lgan.

Agar ular islom mamlakatlaridan kelgan bo'lsalar, barcha daromadlarining yigirmadan bir qismi (5%) miqdorida soliq olingan. Musulmon bo'lmagan mamlakatlardan kelgan savdogarlardan olinadigan soliq miqdori shu mamlakatlarda musulmon savdogarlaridan olinadigan soliq miqdoriga tenglashtirilgan. Naqadar adolatli va foydali soliq tizimi. Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar davomida qo'llanib kelindi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Bu esa Bobur iqtisodiy g'oyalarining juda chuqur ilmiy asosga suyanligi, uzoqni ko'zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday ilmiy salohiyat uning vorislari, ham yurtlari bo'lgan-bizlarda unga nisbatan yanada chuqur hurmat va faxrlanish hissini uyg'otadi.

Ulug' bobokalonimiz Vatandoshimiz qoldirgan iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy tafakkur merosi, u yurgizgan iqtisodiy siyosat tizimi mustaqilligimizni mustahkamlashda, bugungi kurashimizda qudratli ma'naviy tayanch bo'lishga xizmat qiladi. Mirzo Bobur iqtisodiy dunyoqarashini o'rganish, uning iqtisodiyotga oid qarashlarini tadqiq etish hamda imkon darajasida bugungi hayotimizga tadbiq qilish foydadan holi emas. Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur podshohligi davrida mamlakatga vino keltirish ta'qiqlangan, ya'ni iqtisodiyotda proteksionizm siyosati qo'llanilgan. Boburdan keyin uning o'g'li Xumoyun, keyinchalik nevarasi Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) 1556-1605 yillari Hindistonda muvaffaqiyatli podshohlik qilgan. Akbarshoh tomonidan 1574 yildan boshlab islohotlar o'tkazdi, dehqonlarga yagona soliq kiritdi, yagona uzunlik va og'irlik o'lchovlarini joriy qildi. Bu shoh to'g'risida 1601 yil «Akbarнома» kitobi chop etildi, unda mamlakatdagi soliq tartibi o'z aksini topgan.

Birbal-tarixiy shaxs 1994 yilda Toshkentda bosilgan «Shoh Akbar va Dono Birbal» nomli tqo'plamda ko'rsatilishicha, u XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida Hindistonda hukmronlik qilgan Akbarshoh bobosi-Bobur an'analarini izchil davom ettirib, hindlar bilan musulmonlar urtasida birodarlik munosabatlarini o'rnatish yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. Akbarshoh boshqargan davlatda Birbal nufuzli hukmdor edi. Akbar bu dono va zukko hind amaldorlariga alohida mehr bilan qarab, uni har tomonlama e'zozlagan.

Birbal ham Akbarshohning odilona siyosatini amalga oshirish sohasida sidqillik bilan xizmat qilgan. Akbar va Birbalning o'zaro suhbatlarida izhor etilgan har ikki tarixiy shaxsning iqtisodiy qarashlari alohida diqqatga sazovordir. Unda insonlardagi halollik va insof bilan birga ayrim amaldorlarning vijdotsizliklari iqtisodiy tomondan tahlil qilinadi, feodalizm sharoitida murakkab iqtisodiy muammolarning echimini topishga uriniladi. «Podshohning besh savoli» hikoyasida Birbalning chuqur iqtisodiy tafakkurga ega ekanligi namoyon bo'ladi. «Ulug' ma'bud Indiradir», - deb so'z boshlaydi u.

Uning amri bilan yomg'ir erni sug'oradi, bug'doy unadi, odamlar to'kin va to'q yashaydilar. Buzoqlar qadr-qimmatlidir, u odamlarga ko'p foyda keltiradi. Eng qimmatli gul-paxtaning guli. Undan mato to'qiydilar. U butun olam odamlarini kiyintiradi. Omochning tishidan ulug' tish yo'q. Chunki u er bag'rini yoradi, shundan keyin don va sabzavot ekiladi, odamlarni to'ydiradi. Ulug' fazilat esa jasoratdir.

Agar inson jasoratsiz bo'lsa, uning fazilatlaridan foyda yo'qdir. Jasorat bu mehnat. Inson hayotida faqat ziroat ekinlarini etishtirishdagi mehnatgina emas, balki hunarmandlar mehnati ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada «Inson qo'li gul» hikoyasi yanada qiziqarlidir. Birbal bog'bonni chaqirtiribdi va buyuribdi: - Ertaga bog' va gulzorlardagi eng chiroyli va yaxshi gul bilan o'zing etishtirgan mevalardan olib, shohning huzuriga borasan.

Shoh bog'bondan meva va gullarning narxini so'raganda, u: -Olampanoh! Biz bu mo''jizalarni bunyod qilish uchun ko'p vaqt sarfladik. Xullas, bu noyob narsalar uchun ming rupiy so'raymiz. Podsho ming rupiy beribdi. Bu bahoga yakun yasab, Birbal quyidagilarni aytibdi: «Siz yaqinda tabiat yaratgan narsalarning inson qo'li bilan yaratilganidan yaxshi va qimmatli ekanini aytgan edingiz, men sizga insonning qo'li gul ekanini, uning iqtidori yaratgan mo''jizalar tabiatnikidan go'zal bo'lishi mumkinligini isbotlashga va'da bergan edim. Bugun mening niyatim amalga oshdi: Siz mirishkor bog'bon yaratgan mevalar va gullar uchun ming rupiy to'ladingiz, ammo tabiiylariga atigi yigirma besh rupiy berdingiz». «Mehnatni qadrlash hayotni saqlar» hikoyasida insho etilishicha, shoh Akbar bilan Birbal yoshlik davrlarni eslab, eski uylariga borishibdi.

Yaxshi niyat bilan bir paytlar sada daraxtining tagiga xazina yashirishgan ekan. Kavlashsa, erga ko'milgan oltin qanday bo'lsa shundayligicha turganmish. Boylikni olishib, eski uylariga bir kulba tutashgan bo'lib, u erda o'sha paytlarda munkillagan bir kampir yasharkan. Kampir kunni kun demay odamlarga qo'l tegirmonida donni yanchib berarkan. Ko'z tashlasa kampir hali ham hayotmish. Ko'rinishi ham o'zgarmabdi.

Avvalgidek qo'l tegirmonni aylantirib yotganmish. So'ng ular kampirga rahmi kelib, bundan keyin rohatda yashang deb, olgan boyliklarining hammasini in'om qilishibdi. Kampirning qarilik yillari rohat-farog'otda o'tadigan bo'libdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, shoh Akbar yoshlik davrida kampir 160 yoshda ekan, shu davrdan beri 50 yil o'tibdi. Shundan keyin Birbal mehnatni ardoqlash uzoq umr ko'rish shartlaridan biri ekanligi haqidagi qisqacha xulosalarga kelibdi. Hikoyalarning ba'zilari o'sha davrdagi tovar-pul munosabat-lari masalalariga bag'ishlangan. «Firibgar kema egasi» hikoyasiga ko'ra, Birbal Hindistonning Bengal viloyatidan kemada mol olib kelgan savdogarning shikoyatini eshitib, kema

egasi besh ming rupiylik molni o'ziniki qilib olmoqchi bo'lganini tekshiradi va unga quyidagi savollarni beradi. «Agar mevalar, ziravorlar haqiqatan seniki bo'lsa, ularni zarariga sotishga rozi bo'larmiding?» Kema egasi dengizchilarni ham yo'ldan urganligini isbotlaydi. Savdogarga pul qaytarib beriladi va adolat tiklanadi.

«Tentaklar ro'yxati» hikosida shoh Akbarning zotli otlarni sotib olgani, otlar unga juda yoqib qolgani, yana shunday otlar keltirishni buyurib, 1000 rupiy zakolat bergani hikoya qilinadi. Lekin shoh Akbar shuncha pul berib, savdogarni qaysi yurtdan, qaysi shahardan ekanligini so'ramagan, savdoda xatoga yo'l qo'ygan edi. Savdogar esa muttaxamlik qilib, qaytib kelmagan. Shunda, Birbal tovar-pul munosabatlaridagi bu kamchilikni aytib o'tadi. Savdolashganda xorij savdogar sotib olgan mol qaysi yurtdan, qaysi shahardan ekanini, savdogarning nomini so'rash lozimligini ta'kidlaydi. «Hozir nima harakatda» hikoyasida ayonlardan biri quyosh, ikkinchisi er, yana biri oy, deb javob bergani bayon etiladi. Lekin shoh Akbar javoblarga qanoatlanmaydi.

Birbal quyidagi javobni beradi: «Hozir, - deydi Birbal, sudxo'r qarzga bergan pullarning foydasi harakatda. Axir, bu pullar hech qachon tinch yotmaydi. Aksincha, kundan-kunga tezligi oshib boradi». Bu javob shoh Akbarga ma'qul tushadi, chunki Hindistonda qarzga olingan pullar qanchalik qo'shimcha foyda bilan qaytarilib, dehqonlarni xonavayron qilishi hammaga ma'lum edi. Bu erda gap kapital aylanishi va foiz stavkasi bilan bog'liq voqea haqida borayapti. Dehqonlar olgan qarzlarini yuqori foizlarda qaytarishi salbiy hodisa sifatida qoralanadi. Demak, hozirgi davrdagi adolatli kredit masalalari yoritiladi. Birbal yashagan davrda hali statistika fani vujudga kelmagan edi. Lekin hayot statistik jumboqlarni keltirib chiqarar edi. Kunlardan bir kun podshoh saroy yig'inida har bir mulozimidan: -Dehlida nechta qarg'a bor? - deb so'rab qoladi. Hech kim javob bera olmaydi.

Birbal shunday javob beribdi: -O'tgan yili men hisob-kitob qilib, Dehlida uch ming besh yuz sakson beshta qarg'a borligini aniqlagan edim. Shoh Akbar shubhalanib, o'tgan yili qaysi oyda hisob qilgan eding? - deb savol beribdi va qo'shib qo'yibdi: -Shoshmay turali agar Delidagi qaralarning soni bittaga ko'p yoki kam chiqsa uch ming besh yuz sakson besh rupiy jarima to'laysan. Shuning uchun kechgacha o'ylab, menga aniq javob ber,-debdi shoh. -Mening hisobim to'ppa-to'g'ri, qat'iyat bilan gapiribdi Birbal, - «qayta sanaganda ham shu sonning chiqishiga aminman, faqat ayrim qarg'alarining qaergadir mehmonga uchib ketishi va boshqalarning bu erga uchib kelishi mumkin ekanligini nazarda tutsak bas». Bu javobda Birbal, birinchidan, Dehlidagi barcha qarg'alarni sanab bo'lmasligini ko'zda tutgan, shu bilan birga qarg'alar ko'payib, yozda sovuq joylarga uchib ketishini esdan chiqarmagan. Bu misol Birbalda statistikaning dastlabki kurtaklari mavjudligidan dalolat beradi.

«Haqiqat qo'ng'irog'i» hikoyasida shoh Akbarning juda alomatli hukmdor ekanligi o'z ifodasini topgan. Xalqning mushkulini oson qilish maqsadida, u shahardagi maydonga bitta ustun o'rnatib, qo'ng'iroq osib qo'yishni buyuribdi. Saroygacha uzun arqon torttirib, bu erga ham qo'ng'iroq ostiribdi. Maydondagi arqon tortilsa, saroydagi qo'ng'iroq ham jaranglar ekan. Saratonning jazirama kunlaridan birida qo'ng'iroq jaranglab qolibdi. Xo'kiz qo'ng'iroq ipini tortgan ekan. Xo'kiz-xo'kizda. U gapirarmidi, shoh qarshisida mo'ltillab turganmish, xolos. Shoh

Birbalga «Xo'kizning arzi bor, dardini bilib, menga xabar ber», debdi. Birbal ho'kizning elkasini silab, uning ko'zlariga tikilibdi. Keyin shohga xo'kizning dilidagi qarzini quyidagicha tarjima qilib beribdi: «Men qaridim, ish qilishga kuchim etmay qoldi. quvvatim borligida xo'jayinim meni erkalardi, em bilan siylardi.

Endi bo'lsa ko'chaga haydadi, qarib holdan toygan bir paytda qaerdan ham panoh topaman,-deyapti», debdi. «Ho'kizning egasi topilganidan keyin Birbal savol beribdi: -Nega bog'lab qo'ymadingiz? Savdogar javob beribdi: -Janob vazir, u menga endi kerak emas. Shuncha yil davomida qilgan xizmati bilan to'lagan haqini tiyin-tiyinigacha oqladi. -Vaqti-soati kelib sen ham qariysan va ishga yaramay qolasan. Farzandlaring seni uydan haydab chiqaradi. Aytchi, ularning bu ishi adolatdan bo'ladimi?-deb so'rabdi Birbal. -O'z otasini qanday qilib haydashsin? - ajablanibdi savdogar.

Bir eslab ko'rchi, bu jonivor senga qanchalar xizmat qildi. Nahot qilgan andishasizligingdan vijdoning azoblanmasa. Bu tilsiz mahluq butun quvvatini senga sadoqat bilan xizmat qilishga sarflasayu, sen uning yaxshiligiga shunday javob qaytarsang. Unga hozir ham achinmayapsan. Xullas, bu xo'kizni shoh molxonasiga qo'yib yuboramiz. Uni boqish uchun sen har oyda besh rupiy har to'laysan. Savdogar pulni to'laydigan bo'libdi. Bu hikoya o'z davrida va undan keyin ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Xizmatkorlarni ishlatib, haqini tlamaganlarga tegishli fikr ilgari suriladi va ularga insofli bo'lish kerakligi to'g'risida qisqacha xulosalar chiqariladi.

## **QISQACHA XULOSALAR**

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy ijtimoiy saboqlar davri hisoblanadi.

Bu davrda Amir Temur boshchiligida yagona tug' ostida markazlashgan kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Bu davlatni idora etish va boshqarish uchun Amir Temur asosiy qonun-qoidalar to'plami «Tuzuklar»ni yaratdi. «Tuzuklar» islom dini mafkurasiga asoslangan bo'lib, mamlakatni obod etishga xizmat qildi. Xo'jalikni asosi bo'lgan dehqonchilik xunarmandchilik ichki va tashqi savdo kengaydi, fan va madaniyatning ravnaqi uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratildi.

Alisher Navoiy dastlabki iqtisodiy qarashlari «Hiloliya» (1469) asarida o'z aksini topgan. So'ngra keyinroq «Vaqfiya» (1482) asarida ham boylikning to'planishi va taqsimlanishidagi adolatlilik va hakgo'ylik jamiyatning farovonligiga bevosita ta'siri ayniqsa ijtimoiy manfaatlarning ustunvorligi mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining asosi ekanligi alohida ta'kidlangan. «Mahbub-ul qulub» asarida esa ijtimoiy tabaqalarga tavsif berilgan. Har bir kasb hunarning jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi o'rniga baho berilgan. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g'oyalarning negizini islom ta'limotidagi mezonlar tashkil etadi. «Zakot to'g'risidagi katta kitob», «Mubayyin» kabi asarlar shular jumlasidandir.

## 5-MAVZU. MERKANTILIZM IQTISODIY TA'LIMOTINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

### 5.1. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Avvalgi davrdagi iqtisodiy g'oyalarda natural xo'jalik munosabatlariga oid fikrlar ustunlik qilgan. Yangi bozor munosabatlari shakllanishi tufayli, shunga oid iqtisodiy ta'limot paydo bo'ldi, bu merkantilizm ta'limotidir.

«**Merkantilizm**» iborasi birinchi bo'lib Adam Smitning asarlarida o'z ifodasini topdi. Lugaviy ma'nosiga ko'ra bu so'z italyanча bo'lib, savdogar mazmuniga ega. Bu so'z yangi ta'limotning mazmun va mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Uzoq yillar davomida boylikning, xalq moddiy farovonligining asosi mehnat, er, dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilikda deb kelinar edi, biz buni yuqorida ko'rdik. Lekin XV asrga kelib ahvol keskin o'zgardi. Bu ta'limotning kelib chiqishiga bir qancha sosial-iqtisodiy sabablar turtki bo'ldi. Avvalo feodal tuzumning emirilishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi, fan va madaniyatning rivoji, ayniqsa, yangi erlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tizimining paydo bo'lishi, ayniqsa savdo-sotiqning rivojiga turtki bo'ldi. Noekvivalent savdo tufayli metropoliya koloniyalar hisobiga beqiyos boyidi. Ana shu o'zgarishlarni asoslab beruvchi iqtisodiy ta'limot - merkantilizm yuzaga keldi va muomala sohasini o'rganish bilan shug'ullandi. Merkantilizm sinfiy jihatdan savdo kapitalini himoya qildi. Shu davrga kelib Evropada oltin va kumush qahatchiligi boshlandi. Hindistonda nodir metallar ko'p, degan mish-mishlar va u erdagi mavjud ziravorlar insonlarni yangi erlar ochish, yangi boylik makonlarini izlab topishga otlantirdi.

Pul vazifasini bajargan nodir metallar (hali qog'oz pul yo'q), ularning ohangrabo kuch-qudrati hammani oyoqqa turg'azdi, insonni o'ylashga, ixtirolar qilishga, harakatga undadi. Oqibatda, suvda kemalar orqali xavfli yo'lga otlanish taraddudi boshlandi, xaritalar tuzildi, kompas kashf etildi, kerakli odamlar, asbob-anjom, suv, oziq-ovqat, qurol-yarog' to'plandi.

Merkantilistik siyosat ham ishlab chiqildi. Uning bosh vazifasi davlatga ko'proq oltin va kumush keltirish deb aniqlandi. Bu davrda pul sifatida qimmatbaho metallar - oltin va kumush ishlatilgan, shu sababli oltin va kumush zahiralari ko'paytirish borasida ma'lum iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqarildi.

1492 yilda portugaliyalik **Xristofor Kolumb** uchta kemasi bilan tasodif tufayli Amerika qit'asini ochdi (u o'zini Hindistondaman deb o'ylagan, shuning uchun qit'a nomi boshqa dengizchi - **Amerigo Vespuchhiga** nasib etdi, tarixning bu xatosini to'g'rilash uchun bu qit'adagi bir davlatga Kolumbiya nomi berildi). Ammo Amerika ko'pchilik o'ylaganidek oltin-kumushga unchalik boy emas ekan. Hindistonni qidirish yana davom etdi va 1498 yilda **Vasko da Gama** tomonidan ko'pchilik intizorlik bilan kutgan bu diyorga yo'l ochildi. Boshqa dengizchi Magellanning butun dunyo bo'ylab qilgan sayohati tufayli yangi er, orollar kashf etildi, ular qisqa vaqt ichida Evropa davlatlarining mustamlakasiga aylantirildi, u erlarda oltin-kumush konlari ochildi, yangi xom ashyo, ekin, hayvon turlari ochildi, ularning Evropaga kirishi boshlandi (*paxta, makkajo'xori, tamaki, kofe,*

*kakao*). Evropadagi davlatlar o'rtasida (Portugaliya, Ispaniya, Niderlandiya-Gollandiya, Fransiya va Angliya) o'rtasida kurash ham qizidi.

Shakllanib kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlarning rivoji uchun muhim moddiy turtki paydo bo'ldi. Kapitalizmning shakllanishi va rivoji uchun kapitalning dastlabki jamg'arilish jarayoni kuchaydi, unga qulay imkoniyat yaratildi. Ayniqsa savdo rivoj topdi, bosib olingan erlardagi arzon-garov xom ashyolar Evropaga oqib kela boshladi, bu erda tayyorlangan tayyor mahsulotlar esa u erlarga olib borib sotildi. Savdo kapitalining roli beqiyos o'sdi. Tarixan esa bu kapital umuman kapitalning dastlabki shakli bo'lib qoldi. Undan esa sanoat kapitali ajralib chiqdi.

## 5.2. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati

Merkantilizm rivojida ikki davrni ajratish mumkin:

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (XV-XVI asr o'rtalari).
2. Rivojlangan merkantilizm, savdo balansi (yoki manufaktura sistemasi) (XVI-XVIII asr o'rtalari).

Yangi ta'limot vujudga kelishi manufaktura bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiyot tarixida sanoatning uch xil shaklini ajratish mumkin: uy hunarmandchiligi, manufaktura va fabrika. Uy hunarmandchiligida sohalar, tarmoqlararo mehnat taqsimoti mavjud, hamma ishni bir odam yoki shogird, oila bilan birga qilinadi. Manufakturada esa kooperasiya yuzaga keladi, eng muhimi chuqur mehnat taqsimoti, xususiy tadbirkor, yollanma ishchi kuchi paydo bo'ladi (XV asr). Fabrika to'g'risida esa quyida axborot beriladi.

Merkantilizmning birinchi davri o'sha davr iborasi bilan aytganda monetar, ya'ni oltin va kumush pullar to'plash bilan bog'liq edi. Bunda pul balansi siyosati olib borilgan, chetdan imkoni boricha kam tayyor tovar sotib olishga urinilgan. Qimmatbaho metallni tashqariga, chetga olib ketish taqiqlangan. Savdogarlarga olib chiqilgan mahsulotning bir qismiga pul olib kelish majburiyati yuklangan (qolgani tovar bo'lishi mumkin). Chet ellik savdogarlarni esa sotilgan mol pulining hammasiga yangi tovar sotib olishga majbur qilingan (pul olib chiqib ketmasliklari uchun). Bu siyosat nazorat kuchli bo'lishini talab etgan, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojini susaytirgan.

Taniqli iqtisodchi N.D.Kondratev fikricha, merkantilistlarning iqtisodiy tizimi amaliy siyosat bo'lib, xalq xo'jaligi qandaqa bo'lishi kerak va unga nisbatan davlat hokimiyatining munosabati masalasi asosiydir.

Merkantilizmni qisqacha qilib quyidagicha ta'riflash mumkin: iqtisodiy siyosatda: mamlakatda va davlat xazinasida imkoni boricha nodir metallarni (oltin, kumush, javohir, zar va durlarni) ko'proq to'plash; nazariya va ta'limotda: savdo, pul oboroti, ya'ni muomala sohasida iqtisodiy qonuniyatlarni izlab topish. *«Insonlar metall uchun qurbon bo'lmoqda»*, ya'ni oltin fetishizmi butun kapitalistik jamiyat rivojiga hamohang bo'lgan yangi hayot tarzi va fikrlashning tarkibiy qismidir. Ayniqsa, savdo kapitali davrida bu yorqin namoyon bo'ldi. Savdo kapitalining asosiy tamoyili - qimmatroq sotish uchun sotib olish (bu hodisa O'zbekistonda ham hozirgi davr o'zgarishlarida uchrab turadi). Ularning, ya'ni sotib olish va sotish farqi esa sariq metall shaklida namoyon bo'ladi. Farq, ya'ni foyda

faqat ishlab chiqarishda, faqat mehnat yo'li bilan yuzaga kelishi mumkinligi haqida o'ylanmaydi. Chet ellarga ko'proq chiqarish va ulardan kamroq olish siyosati ham davlat siyosatiga aylandi. Agar davlatda pul ko'p bo'lsa, hamma narsa yaxshi bo'ladi degan fikr asosiy bo'lgan va bu davlatning, dvoryanlarning va burjuaziyaning talab-ehtiyojlariga mos tushgan. Bu kapitalning dastlabki jang'arilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Xaqiqatdan ham har qanday tadbirkorlik puldan boshlanadi va pul kapitalga aylanadi, chunki unga ishchilar yollanadi, qayta ishlash yoki sotish uchun tovarlar sotib olinadi. Uni amalga oshirish nihoyatda primitiv (sodda) yo'llar bilan amalga oshiriladi, bu ishlar odatda davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi bilan, ma'muriy yo'llar bilan bajarilgan. Bu jarayonda esa davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ancha cheklangan bo'lib, rivojlangan merkantilizm tarafdorlari davlat aralashuvini tabiiy huquq tamoyillariga mos bo'lishini istaydilar.

Qadimgi Sharqda paydo bo'lgan tabiiy huquq falsafasi antik dunyoda (Arastu va boshqa olimlar tomonidan) rivojlantirildi va ayniqsa uyg'onish davrida yuksaldi. Bu huquqlar abstrakt «inson tabiati» va uning «tabiiy huquqlari»dan iborat deb qabul qilingan va ko'p hollarda O'rta asrdagi cherkov va dunyoviy (davlat) despotizmiga qarama-qarshi bo'lgan progressiv elementlardan iborat.

Faylasuflar va ularning aqidalariga amal qilgan merkantilizm amaliyotchilari davlatga murojaat etib, insonlarning tabiiy huquqlarini ta'minlashni talab etganlar. Ana shu talablar orasida mulkchilik va xavfsizlik bor. Bu ta'limotning ijtimoiy ma'nosi shuki, davlat yangi jamiyat boyligi o'sishini ta'minlovchi sharoitni yaratishi va qo'llashi shart edi. Iqtisodiy ta'limotlarning tabiiy huquq bilan aloqasi keyinchalik merkantilizmdan klassik iqtisodiy maktabga ham o'tdi. Lekin bu aloqa mazmuni keyingi davrda ancha o'zgardi (Fransiyadagi fiziokratizm, Angliyadagi Smit), chunki bu davrda burjuaziya davlat homiyligiga unchalik muhtoj emas edi, hatto u davlatning imkoni boricha iqtisodiyotga aralashuviga qarshi bo'lgan.

M.Blaus fikricha, merkantilistlar ilmiy dunyoqarashining etakchi tamoyillari quyidagilar: 1)oltin va boshqa qimmatbaho metallar boylikning asosi sifatida qaraladi; 2)mamlakatga oltin va kumushlarning oqib kelishini ta'minlash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish; 3)arzon xomashyoni import qilish yo'li bilan sanoatni qo'llab-quvvatlash; 4)import qilinadigan tayyor sanoat tovarlariga proteksionistik (yuqori) tariflar; 5)eksportni, ayniqsa tayyor mahsulot eksportini rag'batlantirish; 6)ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholi sonining o'sishi. Shak-shubhasiz, milliy farovonlikning asosiy sharti sifatida aktiv savdo balansi hisoblangan va bu merkantilizm g'oyasining yuragi edi.

Bir qancha olimlar fikricha, merkantilizm bozor iqtisodiyot munosabatlari shakllanishi davrining dastlabki iqtisodiy maktabi sifatida (avvlgil davrda bozor iqtisodiyoti unsurlari bo'lgan emas degan fikrdan yiroqmiz o'ziga xos nazariy-metodologik xususiyatlarga ega. Ularning mohiyati quyidagilardan iborat:

- Tahsil predmeti (iqtisodiy tahlil) sifatida muomala sohasi muammolarini o'rganish afzal deb qaraladi, bunda uni ishlab chiqarish muammolari bilan bolab qarab chiqish butunlay inkor etiladi;

- Tahlil metodi (uslub) sifatida asosan empirizm (tajriba)dan foydalaniladi, bunda iqtisodiy hodisalarning tashqi ko'rinishlarigina ta'riflanib, iqtisodiyotning barcha sohalarini o'z ichiga olgan ma'lum tizim asosida tahlil etish istisno etiladi;



- Pulning kashf etilishi insonlarning sun'iy kashfiyot oqibati deb hisoblanadi, pulning o'zi esa aynan boylik deb qaraladi;
- Pul qiymati (qimmat) kelib chiqishini oltin va kumushning «ob'ektiv (jonli) tabiati» dan va ularning mamlakatdagi miqdori bilan belgilanadi;
- Mehnatga taklifning o'sishi ish haqining yuqori emas, past bo'lish zarurati bilan bog'lanadi;
- Davlatning tartibga solishi tufayli iqtisodiy o'sish mamlakat pul boyligining ko'payish oqibati sifatida qaraladi, bunda tashqi savdo va savdo balansi saldosing ijobiy (aktiv) bo'lishi ta'minlanishi kerak.

Manufakturalarning rivoji mustamlakalardan keltirilgan arzon, ko'p va sifatli xom ashyo hisobiga ro'y berdi, tayyor mollar esa o'sha va boshqa mamlakatlarga olib borilib, ancha qimmatga pullangan. Noekvivalent almashuv oqibatida metropoliya boyib borgan. Bu sohada Angliya yuksak yutuqlarni qo'lga kiritdi. Agar Angliya hududini 1 deb olsak, u o'zidan 120 marta katta bo'lgan erni koloniyaga aylantirgan va undan ustalik bilan foydalangan.

Demak, merkantilizm bo'yicha boylikning asosi pul (davlatda qancha pul ko'p bo'lsa, u shuncha boy deb hisoblangan) va pul miqdorini davlat hokimiyati yordamida oshirish mumkin. Aslida merkantilizm buyuk geografik kashfiyotlardan oldinroq paydo bo'ldi va XVI asrning o'rtalarigacha (asosiy oltinlar yig'ib olinguncha) yashadi. Ilk merkantilizm davrida chaqalar ataylab ishdan chiqarilgan, chunki bu pullar bilan faqat ichki savdo oborotini olib borish mumkin (tashqi savdoda esa mumkin emas), maqsad - pulni mamlakatda saqlab qolish.

Bu siyosatning muhim namoyandalari Angliyada **U.Stafford**, Italiyada **G.Skaruffi** va boshqalardir. Masalan, florensiyalik (Italiya) bankir **B.Divanzetti** (1529-1606) pul (chaqa)ni iqtisodiy organizmning qoniga o'xshatadi, demak, agar chaqa (pul) bo'lmasa (qon kabi), organizm o'ladi. Kapitalizmning o'sishi, savdoning rivoji tufayli bu siyosat o'zini oqlamadi (XVII asrdan boshlab XVIII asrgacha), pul balansi siyosati savdo balansi siyosati bilan almashdi. Bunda davlatdan pul olib chiqishga ruxsat berildi. Albatta oltin va kumush pullarning ahamiyati yo'qolmagan, ammo endi imkon boricha chetga ko'proq mahsulot sotib, aksincha chetdan kamroq keltirish siyosati olib borildi, ya'ni faol va ijobiy savdoga amal qilindi. Buni proteksionizm siyosati deyiladi (erkin savdoga qarama-qarshi). Bu siyosatni ayniqsa Angliya keng qo'llagan.

Rivojlangan merkantilizm yoki savdo balansi nazariyasi XVI asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va XVII asrning o'rtalarida asosan Angliyada avj oldi. Uning asosiy mafkurachisi **Tomas Mann** (1571-1641) edi. Uning fikricha, pul tashqi savdo oborotida boshlang'ich maskantni tashkil etadi, ya'ni P-T-P. T.Mannning fikricha har bir savdo kapitalisti o'z pulini ma'lum foyda olish uchun oborotga qo'yadi. Shunday yo'l bilan, ya'ni savdo yo'li bilan boyish kerak. Tovar chiqarish miqdori (eksport), uni kiritish (import) dan ortiq bo'lishi zarur. Ishlab chiqarishni rivojlantirish savdoni kengaytirish vositasi sifatida qaraladi. Tovar, pul, foyda va kapital orasidagi aloqadorlikning sababini topishga harakat qilingan. U Makedoniya podshosi **Filipp Makedonskiyning** «*Kuch natija bermagan joyda pulni ishga solish kerak*», degan iborasini yaxshi ko'rgan.

Savdo balansini oshirish uchun ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga e'tibor berildi, bunda birinchi navbatda yollanma ishchilarning ish haqini cheklash

va umuman, xalqning turmush darajasini pasaytirish kerak, deb topildi. Ish haqini cheklash zarurligi g'oyaviy asosda hal etildi. T.Manni yozishicha, «mo'l-ko'lchilik va kuch xalqni qanchalik buzsa, ehtiyojsiz qilib qo'ysa, qashshoqlik va muhtojlik uni shunchalik aqlli va mehnatsevar qiladi» emish. Bu albatta, savdo kapitali xodimlari har qanday yo'l bilan imkoni boricha ko'proq boyishi uchun yo'l ochib berish, demakdir. XV-XVII asrlarda merkantilizm g'oyalari (pul to'plash siyosati, proteksionizm, xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar) Evropaning deyarli barcha mamlakatlarida, Portugaliyadan to Maskoviyagacha yoyildi. Fransiyada bu g'oya XVIII asrning ikkinchi yarmida moliya ministri Kolber tomonidan rivojlantirildi. Fransiyada sudxo'rlikning rivojlanishi shu siyosat bilan chambarchas bog'liq, uning ta'siri asrlar davomida saqlanib qoldi va milliy xususiyat kasb etdi (P-P). Italiya iqtisodchilari ham (A.Serra) bu ta'limotni keng tadqiq etdilar. Agar inglizlarda bu ta'limot ko'proq «savdo» bilan bog'liq bo'lsa, italiyaliklarda u ko'proq «pul», «chaqa» shaklida namoyon bo'lgan. Germaniyada merkantilizm komeralistika shaklida bo'lib, XIX asr boshlarigacha rasmiy iqtisodiy doktrina edi.

Ammo, merkantilizmning iqtisodiy g'oyalari va uning nazariy asosi Angliyada ishlab chiqildi. O'z davri uchun bu ta'limot ancha ijobiy voqea bo'ldi.

Merkantilizmning nazariy va siyosiy siyosat sifatida milliy xarakterda ekanligi o'zining asosiga ega edi. Kapitalizmning tez rivoji faqat millik ramkalarda mumkin edi va ko'p hollarda davlat hokimiyatiga bog'liq bo'lgan, chunki davlat kapital jamg'arilishiga yordam bergan va shu bilan xo'jalik o'sishini ta'minlagan. Merkantilistlarning qarashlari shu davrdagi iqtisodiy rivojning haqiqiy qonuniyat va talablarini izxor etgan. Nima uchun «boylik», ya'ni iste'mol qilinayotgan va jamlanayotgan boyliklar (ya'ni iste'mol qiymatlari) bir mamlakatda boshqasidan tezroq o'sadi?

Korxonalar va ayniqsa davlat miqyosida boylik tezroq ko'payishi uchun nima qilish mumkin va zarur? degan savol tug'iladi. Merkantilistlar shu savolga javob berishga urindilar.

Davr taqozosi tufayli sanoat hali feodalistik, aniqrog'i kapitalizmgacha bo'lgan shaklda edi va sanoat kapitali hali etakchi emas edi, asosiy kapital savdoda to'plandi. Shu davrda Ost-Indiya, Afrika va boshqa koloniyalarning asosiy maqsadlari savdo bilan bog'liq edi. «Milliy boylikka» asosan va ko'proq savdo kapitali sifatida qaralgan va asosiy iqtisodiy kategoriya - almashuv qiymatiga katta e'tibor berilgan.

Arastu, Ibn Xaldun va boshqa olimlarga tegishli bo'lgan ekvivalent (teng) almashuv tamoyili merkantilistlarga yot edi. Aksincha ularning fikricha almashuv tabiatan tengsiz noekvivalentdir. Bu g'oyaning kelib chiqishi tarixan bo'lib, ular almashuv deganda birinchi navbatda tashqi savdo almashuvini tushunishgan, ayniqsa rivojda ortda qolgan xalqlar va mustamlakalardagi almashuv oldindan teng bo'lmagan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshqa yo'nalish (Arastu), o'rta asrdagi tadqiqotchilardan farqli ravishda merkantilistlar qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirmadilar. Ularning fikricha, kapitalning o'sishi va jamg'arilishi almashuv tufayli, ayniqsa tashqi savdo tufayli ro'y beradi, lekin ular ko'p masalalarni to'g'ri hal etishga intilganlar.

Merkantilizm bu davrda xalq manfaatlaridan yiroq siyosatni olib borayotganligi ochiqdan-ochiq ma'lum bo'lib qoldi.

Ba'zi bir ingliz mualliflari, masalan J.Chayld, U.Teml boshqacha yo'l, ya'ni ssuda kapitali miqdori (foiz)ni kamaytirishni taklif etgan. Merkantilistlarning g'oyalari burjua siyosiy iqtisodining avvalgi davr qarashlarini aks ettiradi, chunki ular asosiy e'tiborni muomala sohasiga qaratgan edilar (boylik asosan ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladi, buni keyinroq ko'ramiz). Merkantilizm turli davlatlarda asosiy sohalarda bir xil namoyon bo'lsa ham o'ziga xos milliy xususiyatlarga ham ega.

Kapitalistik ishlab chiqarishga imkoni boricha ko'proq aholini jalb etish muhim deb hisoblangan, chunki real ish haqi past bo'lgan sharoitda foyda kelishi oshadi va kapital jamg'arilishi tezlashadi.

Pul tizimini tartibga solish, bu borada davlatning rolini oshirish qo'llangan. Ayrim mutaxassislar, T.Mann chetga nodir metallar chiqarishga ruxsat berish tarafdori edi. Uning fikricha, dehqon hosil olish uchun erga don sepishi kerak bo'lgani kabi, savdogar ham chetga pul olib chiqishi va unga chet el tovarlarini sotib olishi, uni ko'plab olib kelib, yana qaytadan sotishi va yangi qo'shimcha pul ishlab, millatga foyda keltirishi kerak. Mamlakat quyidagi xalqaro almashuv yo'llari bilan foyda olishi mumkin: tovarlar, xizmatlar, nodir metallar eksporti yoki investisiya shaklida kapital importi (chet eldagi kapital foydasi shaklida ham bo'lishi mumkin). Davlat sarflari quyidagicha: tovarlar importi, yashirin import, nodir metallar importi va chet el aktivlar shaklidagi kapital eksporti. Odatda bu ikki holat teng bo'ladi. Ammo merkantilistlar shu yo'l bilan foyda olish mumkinligiga ishonganlar, bu xato fikrdir (quyida ko'riladi).

Merkantilizm ta'limot sifatida ham, iqtisodiy siyosatdagi yo'nalish sifatida ham turlicha edi: eskirayotgan feodal munosabatlarga qarama-qarshi va yangi burjuaziyani qo'llash orqali o'z davri uchun progressiv bo'lgan ilk kapitalizmning shakllanishiga yaxshi imkoniyat yaratdi. Ammo Fransiyada Lyudovik XIV («Davlat bu men» degan) va Kolber tomonidan manufakturalarni ko'paytirish usuli milliy sanoatni rivojlantirish uchun emas, absolyutizmni mustahkamlash, qirol xonadonining sarf-harajatlarini qoplashga qaratildi. Germaniyadagi kameralistlar ham mavjud hokimiyatni qo'llash, aholini esa ularga so'zsiz bo'ysundirishga harakat qildilar.

Merkantilizm bilan birga **siyosiy iqtisod** tushunchasi ham kirib keldi. Bu tushuncha fransiyalik **Antuan Monkreten Ser de Vattevil** tomonidan kiritildi (1565-1621). U 1615 yilda «**Siyosiy iqtisod traktati**» kitobini yozdi. Bundagi asosiy g'oya - «*ko'p sotishu, kam sotib olish*». Olim o'z g'oyalari bo'yicha faol merkantilist edi.

«Siyosiy iqtisod» tushunchasi va shu nomli fan XX asrning 90-yillarigacha yashab keldi, ayniqsa sobiq socialistik deb atalgan mamlakatlarda bu nom mashhur edi, chunki davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qonuniyat darajasiga ko'targan edi. G'arbda XIX asr oxirida (A.Marshall) bu ibora «ekonomiks» shaklida qo'llanila boshlangan (bu haqida quyida gap boradi).

Angliyada qishloq xo'jaligi va sanoatda kapitalistik o'zgarishlar erta amalga oshgan va bunga merkantilizm ham yordam bergan bo'lsa, Fransiyada ahvol o'zgacha edi. Fransiyada yangi merkantilizm siyosati (Lyudovik XIV) hukumat

a'zosi (moliya nazoratchisi va dengiz ishlari vaziri) Jan Batist Kolber (1619-1683) tomonidan keng olib borildi (bu siyosat kolbertizm deb ataladi). Bu davlatda feodal munosabatlar (ayniqsa mayda dehqonchilik) keng tarqalgani uchun Kolber asosiy e'tiborni sanoatga qaratdi va agrar sohani deyarli e'tiborga olmadi. Masalan, chetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari keltirish qo'llangan, chiqarish esa cheklangan, don narxi davlat tomonidan past ushlab turilgan.

Bu siyosat va sanoat birinchi o'ringa qo'yiladi va ayniqsa qishloq xo'jaligining pasayishiga olib keldi, bu esa noroziliklarga sabab bo'ldi. Shunday haqiqatga yaqin rivoyat boriki, unga ko'ra ishbilarmonlar Kolbergga shikoyat qilishgan, shunda u «nima istaysizlar» deb so'raganda fransuzcha «laissez faire» (qilishga ruxsat bering, ya'ni o'z-o'zidan davom etaversin) degan ekanlar.

Bu ibora hozirgi davrda ham sof erkin iqtisodiyot prinsiplarini, birinchi navbatda, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligini talab etadi (liberalizasiya, lesse-ferr).

Merkantilizmning yana bir shakli kameralistika (lotinchada-xazina) bo'lib, ayniqsa, Germaniyada keng tarqalgan. Bu g'oya tarafdorlari yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

Demak, yangi ta'limot bo'yicha iqtisodiyotda davlat roli birinchi o'ringa qo'yiladi. Amalda esa turli-tuman farmon, farmoyish, qonunlar yuzaga erkin raqobatga yo'l berilmas edi. Hunarmandchilik bo'yicha sex tizimi, feodallarning imtiyozlarini himoya qiluvchi qoidalar saqlab qolindi (tenglik yo'q). Bu tizim Fransiyada XVIII asr oxirigacha, Angliyada XIX asr boshlarigacha saqlab kelindi

. Merkantilizm bozor iqtisodiyotining birinchi ta'limoti edi. Bu ta'limot barcha mamlakatlarda tarixan progressiv xarakterga ega. Merkantilistlar birinchi marta boylik sifatida iste'mol qiymatini emas, balki almashuv qiymatini qabul qildilar. Ular qiymatni va demak boylikni pul bilan tenglashtirib, oddiy til bilan aytganda qo'pol, sodda shaklda bozor-kapitalistik iqtisodiyotning siri, uning almashuv qiymatiga to'la tobe' ekanligini ochib qo'yidilar.

Xullas, merkantilistlar qiymatning mehnat nazariyasidan ancha uzoqda edilar. Merkantilizm (proteksionizm) siyosati kapitalning dastlabki jamg'arilishini va demak, feodalizmdan kapitalizmga o'tishni tezlashtirdi.

### **5.3. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining tarixiy taqdiri**

XVIII asrning oxirida merkantilizm iqtisodiy ta'limot yo'nalishi sifatida tarix sahnasidan tushdi. Sanoat inqilobi (to'ntarishi) sharoitida bu ta'limot va unga asoslangan siyosat hayot talabiga javob bermay qo'ydi. Xo'sh, bu ta'limot nega tarix sinovidan o'ta olmadi, uning «bo'sh joylari» nimalardan iborat?

Bu ta'limotning xatolarini klassik maktab vakillari, hatto ayrim merkantilistlar ham tan olgan. A.Smitning fikricha, bu «bizning savdogar va sanoatchilar tomonidan sotqin parlamentga o'tkazilgan proteksionistik anglashilmovchilikning qorishmasidan iborat va boylik bu pulga egalik bilan bog'liq eng oddiy tushunchadan iborat. Agar o'z boyligini oshiraman desa, har bir individ kabi davlat ham olayotganidan kam sarflashi kerak. Iste'mol etilganidan tashqari qaysi moddiy shaklda bo'ladi? Oddiyroq aytganda, daromad va buromadning farqi nimada

ifodalanadi? Merkantilistlar uni mustahkam pul yoki oltin, zeb-ziynatlardan iborat deb bilganlar. Pul va kapital o'rtasida tenglik qo'yilishi xato edi. Shuningdek, savdo balansining aktiv saldosi bilan yillik foydaning iste'moldan ortiqchasi ham tenglashtirilgan. A.Smit va uning izdoshlari bu ta'limotning xatolarini shunday izohlaydilar.

O'sha davrdagi (va hozirgi) olimlarning fikricha, mamlakat boyligi oltin va kumush zahiralari dangina iborat bo'lmay, er, qurilish va boshqa ko'plab iste'mol mollaridan iboratdir. Masalan, V.Petti Angliyaning XVIII asr oxiridagi pul miqdoriga baho berib, bu pullar barcha mulkning 3 foizidan kamroq ekanligini isbotlab berdi.

Aktiv savdo balansi faqat vaqtincha samara beradi. 1630 yilda T.Manni o'zi ham mamlakatga qimmatbaho metallarning oqib kelishi ichki baholar ko'tarilishiga olib kelishini va «qimmatroq sotish, arzonroq olish» doktrinasini mamlakatning o'ziga qarshi ekanligini tushundi.

Taniqli ingliz iqtisodchi **R.Kantilon** (1680-1734) va **D.Yum** (1711-1776)lar ham merkantilistlar g'oyasining noto'g'ri ekanligini isbotlab berdilar. Sof avtomatik mexanizmlar savdo qilayotgan davlatlar o'rtasidagi «pul metallarining tabiiy taqsimlanishi»ga va ichki baholar darajasining shunday o'rnatilishiga olib keladiki, har bir mamlakat eksporti uning importiga teng bo'ladi. Alohida mamlakatda har bir qo'shimcha oltin qazib olish hajmlari boshqa mamlakatlarga nisbatan ichki baholar darajasini oshiradi. Importning eksportdan ortiqchasi oltinning oqib ketishi bilan qoplanishi kerak. Bu jarayon savdo qilayotgan barcha davlatlarda eksport va import o'rtasida oltinga yuqoriroq talabga mos bo'lgan yangi tenglik paydo bo'lguncha davom etadi. Tashqi savdo va oltin, tutash idishlardagi suv bir sathda bo'lishga intilgani kabi, aktiv savdo balansi ortidan quvish o'z-o'zini inkor etadi.

1690 yil **Jon Lokk** baholarning muomaladagi pulning miqdoriga ma'lum proporsiyada o'zgarishini aniq ko'rsatib berdi. Lekin import kapital ko'proq qo'llaniladigan xom ashyo va yarim fabrikatlardan, eksport va mehnat intensiv qo'llaniladigan oxirgi mahsulotdan bo'lishi umumiy qoida sifatida qabul qilingan, chunki mehnatning sof eksporti mamlakat ichida aholini ish bilan bandligini qo'llaydi va chet el manbalaridan foydani ko'paytiradi. Merkantilistlar o'zlarining yuqoridagi yaxshi ma'lum g'oyalariga harbiy va strategik sohani hamda hali mustahkam oyoqqa turmagan sanoatni himoya qilish kerakligini ham ko'shadilar.

Shunday qilib, klassik iqtisodiy maktab vakillari (*V.Petti, P.Buagilber, A.Smit* va boshqalar) merkantilizmni qattiq tanqid ostiga oldilar va bu hukm asrlar davomida saqlanib keldi. Merkantilizmning g'oyalarini amalda joriy qilish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi Jon Lo tarixiy tajribasi misolida ibratlidir. Shuning uchun bu haqda to'laroq to'xtalamiz.

«*Pul savdoni rag'batlantiradi*» doktrinasini eng yuqori darajaga ko'targan qog'oz pul merkantilisti **Jon Lo** (1671-1729)ning g'oyalari va faoliyati diqqatga sazovordir (ba'zi manbalarda Lou). Uning «**Pul va savdo tahlili**» (1705y.) asaridagi tub g'oya baholarda foyda hissasini oshirishga va «pulning ko'payishi hozirgi o'ziga to'q odamlarni tadbirkorlikka jalb etadi» degan fikr asosiga qo'yiladi. Uning hayoti to'g'risida «*Inflyasiya otasi*», «*Kredit sehrgari*», «*Bankir Loning g'aroyib hayoti*» kabi turli kitoblar chop etildi.

Xo'sh, nega bu insonning hayoti va ayniqsa faoliyati barchani qiziqtirib qoldi?

Jon Lo Shotlandiyaning Edinburg shahrida zargar oilasida tug'ildi, uning otasi pullarni foiz hisobiga qarzga berar edi. Lo qisqa vaqt ichida boyib ketdi, Londonga jo'nadi. U 1694 yil duelda odam o'ldirdi, sud bu duelni noqonuniy deb topdi va uning o'zini o'limga hukm etdi. Harakati tufayli qirol *Vilgelm III* uni avf etdi, ammo unga qarshi yangi sud jarayoni boshlandi. Shundan so'ng Lo qamoqdan qochib, Gollandiyaga boradi. Ammo Lo uch yil Londonda bo'lgan vaqtida bank ishini yaxshi o'rganadi, 1694 yilda birinchi bank yuzaga keldi. Uning fikricha, bu hodisani «Hindistonning ochilishi» bilan tenglashtirish mumkin edi.

O'sha davrda kredit kuchi Lo timsolida o'zining muxlisi, shoiri va bashoratchisiga ega bo'ldi. U Amsterdamda o'sha yillari eng yirik bo'lgan bankning faoliyatini chuqur o'rgandi. 1699 yilda u Parijda paydo bo'ldi, u erdan esa Italiyaga bordi. Yangi tipdagi bank ochish orzusi 1704 yilda uni o'z vataniga olib keladi. Shotlandiya og'ir iqtisodiy ahvolda, savdoda turg'unlik, shaharlarda ishsizlik, tadbirkorlik ruhi keskin pasaygan, ana shunday sharoitda u o'zining kitobini (1705y.) yaratdi. U hech qanday nazariyotchi emas edi, uning asosiy iqtisodiy qiziqishlari pul va kredit muomalalariga tegishli edi, xolos. Lekin u o'z loyihasidagi g'oyalari bilan iqtisodiyot fanida muhim rol o'ynadi.

Sen-Simon unga baho berib, «tizim, ya'ni o'z davri odami», bo'lganligini bir necha bor qayd etdi. Lo o'z loyihasini keng targ'ib etdi va muhimi uni amalga oshira boshladi.

Loning g'oyasi quyidagilardan iborat bo'lgan: uningcha, iqtisodiy ravnaqning kaliti mamlakatda pul mo'l-ko'lligidir. U pulning o'zini boylik deb hisoblamagan, tovarlar, korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir (bu fikrni sof merkantilistlar fikri bilan solishtiring). Ammo pulning ko'pligi, uningcha erdan, ishchi kuchidan, tadbirkor mahoratlaridan to'la foydalanishni ta'minlaydi. U shunday yozadi: «*Ichki savdo odamlarining ish bilan bandligi va tovarlar almashuvidir...Ichki savdo pulga bog'liq. Pulning ko'pligi ko'p odamlarni ish bilan band etadi...*»

Ammo Jon Lo avvalgi merkantilistlardan sezilarli farq qiladi. U iqtisodiy rivojlanish omilini muomala sohasida izlasa ham, metall pullarni sharaflamaydi, aksincha ularni tanqid qiladi. 200 yildan so'ng J.M.Keyns oltin pullarni «varvarlarning qoldig'i» deb ataydi, xuddi shularni Lo ham aytishi mumkin. Loning fikricha, pullar metalldan emas, balki xo'jalik talabi asosida banklar tomonidan chiqariladigan kreditdan iborat bo'lmog'i kerak, ya'ni qog'oz pullarga ustunlik beriladi. Banklardan foydalanib, pul miqdorini o'stirish hozirgacha qo'llanilgan eng yaxshi usuldir. Lo tizimida yana ikki tamoyil muhim o'rinni egallaydi. Birinchidan, u banklar uchun kredit ekspansiyasi siyosatini, ya'ni bankda saqlanayotgan metall pul zahiralaridan ko'p marta ortiq ssuda berish huquqini ko'zda tutgan. Ikkinchidan, u banklarning davlat ixtiyorida bo'lishi va davlatning iqtisodiy siyosatni o'tkazishini talab etgan. Buni misolda ko'rsatadigan bo'lsak, bank aktivida oltin hisobida 2 mln funt sterling mablag' mavjud, ssudalar 10 mln funt sterling, aktiv summasi 12 mln funt sterling, passivda esa xususiy kapital 1 mln funt sterling, qo'yilmalar 1 mln funt sterling, banknotlar 10 mln funt sterling. Turg'un bankda bunday hodisa bo'lmaydi, ssuda va banknot summasi zahiraga yaqin bo'lishi kerak. Shu sababli bunday bank katta xavotir, tavakkalchilik bilan ish yuritadi. Agar banknot egalari zahiradan ortiq, masalan 3 mln funt sterlingni

almashtirish uchun olib kelsa, bankning holi nima kechadi? Bank bu holda sovun ko'pigi kabi yorilib ketadi, to'lovlarni tugatadi. Ammo Lo buni o'rinli va zaruriy tavakkalchilik deb hisoblaydi. Uningcha, agar banklar ma'lum davr to'lovlarini to'xtatsa, bu katta xavf emas emish. Bu usul bilan banklar ssuda miqdorini keskin oshirish va muomala doirasini to'ldirish imkoniga ega bo'ldi. Kredit kapitalistik ishlab chiqarishda, uning rivojida muhimdir. Lo birinchilardan bo'lib buni tushunib etdi. Ammo bu tamoyilda bank tizimi mustahkamlanganligida katta xavf bor, bank foydani ko'proq olish maqsadida o'z ssudalarini oshirib yuboradi. Bundan banklar bankroti va iqtisodiyotga katta ziyon etishi xavfi tug'iladi. Bu xavfning yana bir aspekti shuki, banklarning bu xususiyati davlat tomonidan suiiste'mol qilinishi mumkin. Agar banklar xo'jaliklarning haqiqiy talablarini qondirish uchun emas, balki davlat byudjeti kamomadini to'ldirish uchun banknotlar chiqarishni yo'lga qo'ysa nima bo'ladi? Bu davrda hali «*infllyasiya*» so'zi kashf etilmasa-da, u Lo banki va shu bank ishlayotgan mamlakat uchun xavf soladi.

Jon Lo banklarning ijobiy, ustunlik tomonlarini ko'ra bildi, ammo uning salbiy holati, bo'lajak xavfni yo ko'rishni istamadi, yoki uni tushunib etmadi. Bu Lo tizimining bosh amaliy, nozik xavfi edi va u oxir-oqibatda unga zarba berdi. Nazariy jihatdan Lo katta xatoga yo'l qo'ydi. U pul va kreditni kapital bilan aynan bir deb o'yladi. U xato ravishda ssuda va pul chiqarishni kengaytirish bilan bank kapitalini yaratdi hamda shu bilan boylik va ish bilan bandlik ortadi deb o'yladi. U olib borgan kredit operatsiyalar moliyaviy avantyurizm bo'lib chiqdi.

Shotlandiya parlamenti Jon Loning bank tuzish loyihasini rad etdi. Angliya hukumati uning avvalgi gunohini (duelda odam o'ldirganligini) kechmadi, oqibatda Lo yana kontinentga ketishga majbur bo'ldi, u hayotining asosiy qismini chayqovchilik, turli qimorlarda ishtirok etish bilan o'tkaza boshladi. U o'z loyihasini Parijda amalga oshirishga erishdi. Fransiyaning iqtisodi og'ir ahvolda, davlat xazinasini bo'm-bo'sh edi. 1715 yilda qirol Lyudovik XIV olamdan o'tdi, regent gersog Filipp Orleanskiy (odingi qirolning jiyani) Lo loyihasini qabul qildi, ammo oddiy emas, xususiy aksionerlik banki tuzildi. Amalda bu ko'zbo'yamachilik edi. Boshdanoq bank davlat bilan chambarchas bog'liq edi. 1716 yilning mayida tuzilgan bank nihoyatda katta yutuqqa erishdi, talantli administrator, usta ishbiarmon, mohir siyosatchi va diplomat bo'lgan Lo regent yordamida mamlakatdagi barcha pul krediti tizimini ishonch bilan egalladi. Ko'p sonli bank banknotlari ustalik bilan tartibga solib turildi va iste'molga keng kiritib borildi, ular hatto haqiqiy chaqalardan ham ustun bo'lib qoldi. Parijdagi sudxo'rlarga nisbatan ssuda foizi ancha imtiyozli edi va ongli ravishda sanoat va savdoga yo'naltirildi. Xalq xo'jaligida sezilarli jonlanish boshlandi.

Lo vatanparvar bo'lgan emas. U o'z g'oyasining jonkuyari edi. U o'zining g'oyasi ko'p erda o'tmagach, Fransiya shu imkoniyat paydo bo'ldi. Lo Fransiya fuqaroligiga o'tdi, hatto doimiy e'tiqodini o'zgartirib, katoliq dinini qabul qildi. U o'z g'oyasini nihoyatda sevgan, ishongan, unga puli va vujudini to'laligicha bag'ishlagan. Jon Lo moliya tizimida mustahkam tartib o'rnatish, qishloq xo'jaligi, sanoat va savdoni jonlantirish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bosh vaziri qilib belgilandi.

Lo 1717 yilda Fransiyaning Missisipi daryosi xavzasidagi erlarda katta kompaniya tuzdi, bu kompaniya 1719 yilda qirol bankiga aylangan bank bilan

hamkorlikda ish yuritdi. Bu Jon Loning ikkinchi «buyuk g'oyasi», kapitalni markazlashtirish va assosiasiyalash g'oyasi edi. U bu sohada ham o'ziga xos bashoratchi bo'lib chiqdi. Agar G'arbiy Evropa va Amerikada aksionerlik jamiyatlari faqatgina XIX asrning o'rtalarida tuzilgan bo'lsa (hozir hamma erda), Lo bu ishni XVIII asrning boshida amalga oshirdi. Kompaniya faoliyati tobora avj oldi, aksiya chiqarish va sotish tobora kuchaydi. Jon Lo bu sohada qat'iylik ko'rsatdi. Har olti oyda ikki hissa dividend (foйда) olish imkoni tug'ildi.

Kompaniya faoliyati kengayib, flot va savdoni o'ziga jalb etdi. 1719 yilda (kompaniya 1717 yilda tuzilgan edi) nominali 500 livr (Fransiyaning o'sha davrdagi pul birligi) bo'lgan aksiyalari 5000 livrdan (o'n baravar ortiq) sotila boshladi. Ajiotaj boshlandi, aksiyalarni ba'zi birjalarda 7-8 mingdan pullash mumkin edi. Aksiyalar bahosi hatto 20 ming livrga etdi. Ko'pchilik bundan katta foyda ola boshladi. Ana shu qog'oz boyligini yaratgan inson shotlandiyalik moliyachi, maftunkor Jon Lo edi.

Amalda Jon Lo Fransiya moliya tizimini to'la boshqarar edi, ammo xuddi shu davrda (1720 y.) dastlabki xavf-xatar xabari ham sezila boshladi, Lo tizimi ostidagi zilzilaning dastlabki belgilari, er osti silkinishlari boshlandi.

Kompaniya aksiyalar chiqarish yo'li bilan to'plagan katta pul mablag'larining oz qismini kema va tovarlarga, asosiy qismini esa davlat qarz obligasiyalariga qo'ydi. Amalda egalaridan obligasiyalarni sotib olish yo'li bilan kompaniya davlatning katta qarzini (2 mlrd livr) o'z ostiga olgan edi. Bu usul Lo va'dasidagi moliyadagi tartib edi. Yangi banknotlar chiqarish yo'li bilan moliyada tartib o'rnatish abadiy bo'lmaydi, Lo buni sezmedi yoki sezishni istamadi. Lekin uzoqni ko'zlagan ayrim savdogarlar bu xavfli holatni seza boshladilar va o'z qo'llaridagi aksiya va banknotlardan qutulish yo'lini kidira boshladilar. Aksiya kursi ushlab turildi, banknotlarni metall pullarga almashtirish cheklandi. Aksiyani qo'llash uchun tobora ko'proq pul kerak edi, oqibatda pul stanogi tobora tez ishlay boshladi. Tizim halokati aniq bo'lib qoldi. 1720 yilning kuzida aksiyaning bahosi o'z kompaniyasidagi bahosining to'rtidan biriga tushib qoldi, tovarlarning bahosi keskin oshdi. Parijda oziq-ovqat etmay qoldi, xalq noroziligi kuchaydi. Noyabrda banknotlarning qonuniy to'lov quvvati yo'qoldi, tizimni tugatish boshlandi. Jon Lo 1720 yil dekabrda Parijdan qochib Bryussel (Belgiya)da qo'nim topdi. Uning barcha mulki musodara etildi va kreditorlar talabini har qalay qondirishga sarflandi. Bir moliya avantyuristining faoliyatiga chek qo'yildi. Lekin aslida shundaymikin? Yo'q! XIX asrda va XX asrda ham, ayniqsa o'z boshidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini kechirayotgan davlatlarda bu holat takrorlanmoqda. Jon Lo tizimi, uning firibgarliklari o'yinchokdek ko'rinadi. Ayniqsa, Rossiya Federasiyasida turli-tuman moliyaviy kompaniyalar («MMM», «Valentina», «Germes» va boshqalar) faoliyati diqqatga sazovordir. Aslini olganda iqtisodiy ta'limotlar tarixini diqqat bilan o'qimagan va Jon Lo kabi avantyuristlarni bilmagan xalq Mavrodi kabilarning ustalik bilan qo'ygan tuzogiga ilindilar va ilinmoqdalar (pul topishning piramida usuli bunga yaxshi misoldir). Bu holat 1997 yy. Albaniyada ham kuzatildi.

Ammo Jon Lo tizimidagi faqat negativ tomonlarnigina ko'rish tarixan adolatsizlikdir. Chunki uning tizimida bir qancha rasional tomonlar borki, ular keyingi rivojga ijobiy ta'sir etdi.



Loning moliyaviy g'oyasi - kredit-moliya sohasi va davlatning iqtisodga aralashuvi yo'li bilan xo'jalikni rivojlantirishdir. Bu g'oya (30-yillardan keng tus oldi) hozirgi iqtisodiy ta'limotlar yo'nalishidan biridir (Keyns va neokeynschilik). Bular to'g'risidagi ma'lumot quyida beriladi.

#### 5.4. Merkantilizm va hozirgi zamon

Evropada proteksionizmning tiklanishi (Angliyada proteksionizm, Fransiyada kontinental qamal (blokada) va boshqalar) va nemis tarixiy maktabi (bu haqda quyida gap boradi) vujudga kelishi bilan merkantilizm g'oyalari yana tilga olinib boshlandi. *Avval Rosher va Schmoller*, so'ngra ularning ingliz izdoshlari Kanningem va Eshlilar merkantilizm g'oyalarini to'la rasonal va ma'lum istak-natijalariga erishuvda, masalan, milliy avtarkiya va davlat hokimiyatini kuchaytirishda yaroqli siyosat deb qaradilar.

A.Smit mashhur asarining bir joyida ohistagina «*Mamlakat xavsizligi farovonlikdan muhimroq*» deb yozish bilan shunday nuqtai nazarni ilgari surdiki, unga ko'ra merkantilistlar jiddiy qabul qilinishi kerak edi. Bu munosabat merkantilizm davridagi bosh masalalardan biriga oydinlik kiritishga imkon berdi: davlat qurilishining maqsadi ko'shni davlatlar iqtisodiy kuch-qudratini pasaytirish hisobiga ham erishiladi, bunda ushbu davlat qudratining oshishi ro'y beradi. Lokkning fikricha, bu shunday ro'y beradi: «boylik» oltin va kumushning oddiy ko'pliginigina anglatmaydi, balki boshqa davlatlarnikidan ortiqroq bo'ladi. Haqiqatdan ham, ko'pchilik merkantilistlar shunday nuqtai nazarni himoya qilganlarki, unga ko'ra millatlarning iqtisodiy manfaatlari antagonistik, ya'ni qarama-qarshidir, go'yoki dunyoda cheklangan miqdordagi resurslar mavjud, ularni esa bir davlat ikkinchi davlat hisobiga olishi mumkin. Bu merkantilistlarning «*qo'shningni talon-toroj qil*» degan siyosatini uyalmasdan himoya qilishini tushuntirib beradi. Undan tashqari bu g'oyada ichki iste'molni kamaytirish milliy siyosatning maqsadi qilib ko'rsatiladi.

Merkantilizmni qaytadan qo'llash, klassik maktabni (bu haqda quyida gapiriladi) tan olmaslik, kapitalizm yo'lga keyinroq o'tgan davlatlarda ro'y berdi. Yangi davlatlar iqtisodiyotda to'la erkinlikka qarshi edi, yoki bu erkinlik faqat kuchli Angliya uchun qulaylik va ustunlik beradi deb bejiz o'ylamaganlar. Shu sababli bu erda merkantilistlarning davlatning iqtisodiyotni boshqarish, proteksionizm, mamlakatda pul mo'l-ko'lligini ta'minlash va boshqalar hukumatlar siyosatiga aylantirildi.

XX asrda davlat monopolistik kapitalizmi rivoji bilan davlatning iqtisodiyotdagi roli tobora oshib bordi. Inqirozlar tez-tez takrorlanib turdi. Ayniqsa, 1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqiroz butun dunyoni larzaga soldi. Shu davrda J.M.Keyns nomi bilan bog'liq ta'limot yuzaga keldi. U «**Merkantilizm to'g'risidagi mulohazalar**» va «**Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi**» (1936y.) nomli asarlarida merkantilizmning ayrim g'oyalarini qo'llaydi, unda «*amaliy donolik*» kurtaklari borligi ta'kidlanadi. *Eksportning importdan ko'pligi, oltinlarning oqib kelishi esa pulga taklifni kuchaytirib, foiz stavkalarini pasaytiradi va shu bilan investisiya va bandlikni rag'batlantiradi. Keyns shularni «merkantilizm doktrinasidagi ilmiy haqiqat urug'lari» deb ataydi.*

Umuman, J.M.Keyns mavjud sharoitlarda klassik maktab aqidalari ish bermasligini ta'kidlaydi, hozirgi til bilan aytganda bozor munosabatlari avtomatik ravishda barcha ziddiyatlarni hal eta olmaydi, shu sababli davlatning iqtisodiyotga faol ishtirok etishi taklif etiladi (bular haqida to'la ma'lumot maxsus boblarda beriladi).

Keyns o'zini merkantilistlar bilan yaqinlashtiruvchi to'rt sohani berdi:

1. Merkantilistlar mamlakatdagi pul massasini oshirishga intilib, ssuda foizini pasaytirish va investisiyalarni rag'batlantirishni o'ylaganlar;

2. Merkantilistlar baholar oshuvidan qo'rqmaganlar va yuqori baholar savdo va ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirgan. Keynsning fikricha, «mo"tadil inflyasiya» iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi;

3. Merkantilistlar «pulning etishmasligi ishsizlikning sababchisi ekanligi» to'g'risidagi tushunchaning asoschilari bo'lganlar.

Keynsning fikricha, bank va davlat byudjeti kamomadini kredit ekspansiyasini oshirish yo'li bilan pul miqdorini oshirish ishsizlikka qarshi kurashishda muhim qurol bo'lishi mumkin. Ishsizlik bir qancha ob'ektiv sabablarga bog'liq edi, masalan agrar sohada u ko'pincha mavsumiy edi, ya'ni qishloq xo'jaligi ishlarining tugashiga yoki kam hosilli yillarga to'g'ri keladi. Hatto sanoatda ham bu holat qayd etiladi, ya'ni daryodagi kishki muzlar yoki bahorgi toshkinlar suv tegirmonlarini to'xtatib qo'yganidek;

4. Merkantilistlar o'z siyosatlarining milliy xarakteri va uning urushlar ochish yo'nalishini ochiqdan-ochiq namoyon qiladilar. Keyns proteksionizm mazkur mamlakatda ishsizlik muammosini hal etishga yordam bera oladi, deb hisoblagan va iqtisodiy millatchilik tarafdori bo'lgan.

Bunga yana bir masalani, beshinchi moddani ham qo'shmoq kerak, chunki davlat bu holatda iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Buni Keyns o'z-o'zidan ravshan narsa deb tushungan bo'lsa ehtimol.

Ma'lumki, asrimizning 60-70 - yillari mustamlakachilik tizimining emirilishi va ko'plab yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelish davri hisoblanadi. Bu davrda «nmerkantilizm» g'oyalari ilgari surilmoqda. sh, rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligida iqtisodiyotda davlat sektorining kattaligi, xalq xo'jaligida reja va dasturlar mavjudligi, milliy sanoatni bojxona tariflari bilan himoya qilish va boshqa choralar «nmerkantilistik» hisoblanadi. Ikki tomonlama savdo shartnomalari, davlat zayomlari yo'li bilan industrializasiyani moliyalash, baholarni tartibga solish va monopoliyalar daromadini cheklash ham shu ta'limotga to'g'ri keladi.

90-yillarda boshlangan, ilgarigi socialistik rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlarning bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy siyosati ham ko'p jihatdan yuqorida keltirilgan holatlarga juda o'xshashdir. Ayniqsa, tadjriy (evolyusion) yo'lni tanlagan davlatlarda bu siyosat ancha kuchlidir (bu to'g'rida kerakli ma'lumotlar mazkur boblarda beriladi). Shu sababli merkantilizm ta'limotini har tomonlama o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

## QISQACHA XULOSALAR

XV asr oxiri - XVIII asrlar davomida yangi iqtisodiy ta'limot - merkantilizm va u bilan bog'liq siyosat paydo bo'ldi. Bu ta'limot bo'yicha millat (xalq) boyligining asosi muomala sohasida yuzaga keladi (avvalgi qarashlardan prinsipial farq qiladi).

Bu ta'limotda ikki davrni ajratish mumkin:

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (ya'ni pul degani) XV-XVI asrlarda (qisman XVII asrda) mavjud bo'ldi va boyluk asosan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho javohirlardan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi. Shunga oid siyosat ham olib borilgan, unda chetdan imkon boricha ko'proq nodir metallar keltirish va ularni chetga kamroq chiqarish targ'ib qilingan.

2. Rivojlangan merkantilizm ta'limotida boyluk savdo-sotiq sohasida savdo balansi asosida yuzaga kelgan, imkon boricha ko'proq eksport qilish va mumkin qadar kamroq import qilish g'oyasi ilgari surilgan. Merkantilizmning ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi milliy xususiyat kasb etgan, ayniqsa Fransiyada kolbertizm, Germaniyada kameralistika shakllari yaxshi ma'lum. Bu ta'limot yangi tug'ilayotgan jamiyat - kapitalizm rivoji uchun ijobiy progressiv xarakterga ega bo'ldi. Kapitalning dastlabki jamg'arilishiga imkon yaratdi, mustamlakachilik tizimini qo'llab-quvvatladi, tovar-pul muomalasi rivojiga olib keldi, moliya tizimining rivoji tufayli iqtisodiyot jonlandi. Merkantilizm ta'limotida davlat iqtisodiyotga faol ishtirok etishi shart, shunga oid iqtisodiy siyosat ham yuzaga keldi. Merkantilizm tarixan cheklangan bo'lsa ham (u XVIII asrda to'g'ri va qattiq tanqidga uchradi), ta'limotlar tarixidan munosib o'rinni egallaydi. Lekin bu ta'limot va unga asoslangan siyosatni to'la amalga oshirish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi Jon Lo tajribasidan ma'lum. Merkantilizm moliya tizimi va savdo rivojiga muhim hissa qo'shdi.

## **6-MAVZU. ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK (MUMTOZ)MAKTABNING SHAKILLANISHI**

XVII-XVIII asrlarda Farbiy Evropada sanoatning tez rivojlanishi manufaktura davrasidagi (tashqi savdo rivojiga to'siq) proteksionizm siyosati va (tadbirkorlik tashabbusini bo'g'uvchi) davlatning iqtisodiy homiyligiga muhtojlik yo'qoldi. Angliyadagi XVIII asr o'rtalaridagi sanoat inqilobi jamoatchilik dikqatini savdodan industriyaga jalb etdi. Ishlab chiqarish tadbirkorlarni daromad olishning asosiy manbai sifatida yanada ko'proq qiziqтира boshladi. Avvaldan ma'lum inqilobiy g'oyalar amaliy talablarga javob bermay qoldi. Iqtisodiy erkinlashtirish konsepsiyasi yangi g'oyaning asosi edi.

### **6.1. Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari va uning xarakteristikasi**

Merkantilizm o'rniga klassik (lot. namunali, haqiqiy) iqtisodiy maktab vujudga keldi. Chunki avvalgi ta'limot sanoatlashayotgan sohibkorlar talablariga javob bermay qo'ydi («Klassik maktab» atamasi K.Marks tomonidan berilgan). Paydo bo'layotgan yangi muammolarni hal etish yangi yo'nalish tarafdorlari zimmasiga to'g'ri keldi. Uning namoyandalari o'z ilmiy tadqiqotlarining asosi qilib kishilikning ishlab chiqarish sohasini oldilar va kapitalizmni ilmiy tahlil qilish bo'yicha dastlabki muhim qadamni qo'ydilar. Klassik maktab ishlab chiqarishning yangi usuli shakllanayotgan va mustahkamlanayotgan davrda vujudga keldi. Kapitalizm ayrim mamlakatlarda tarixiy shart-sharoitlarga mos ravishda feodal munosabatlarning saqlanganlik darajasiga qarab turlicha rivojlandi. Bu jarayonlar dastlab XVI asrda Angliyada ro'y bera boshladi. Feodalizm emirilib, uning zaminida kapitalistik, ya'ni bozor munosabatlar shakllana bordi. Uy hunarmandchiligi o'rniga **manufakturaning** kirib kelishi katta ijobiy voqea bo'ldi. Tarix, xalq xo'jaligi tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarni o'qiganda hunarmandchilik, sex va manufaktura nima ekanligi bayon etiladi, uy hunarmandchiligida hamma asosiy ishlar bir odam yoki oila tomonidan bajarilgan (xomashyoni tayyorlash, qayta ishlash, sotish...), unda aniq mehnat taqsimoti yo'q, manufakturada esa (manu - qo'l, facture - tayyorlash) mehnat taqsimoti, kooperasiya, yollanma ishchi kuchi, demak, kapitalistik ishlab chiqarishning kurtaklari paydo bo'ldi. XVI asrdan boshlab dastlab Angliyada dehqonlarning erdan mahrum qilinishi (er yirik lendlordlar qo'lga o'ta boshladi) ro'y berdi, yomenlar - dehqon sinfi tugatildi, oqibatda kapitalistik fermerchilik yuzaga keldi (ular erni lendlordlardan uzoq muddatli ijaraga olgan), ular yollanma mehnatdan (krepostnoylik emas) keng foydalangan, keyinchalik texnikani, ilmiy texnika yangiliklarini keng qo'llaganlar. Agrar inqilob, islohot nomini olgan bu o'zgarish manufaktura sanoatining rivoji bilan bog'liq. Dastlabki paytlarda bu sohada mato to'qish asosiy edi. U nihoyatda foyda keltiruvchi sohaga aylandi. Matoga talab oshdi, uni qondirish uchun, sanoat uchun kerakli xom ashyo bazasini yaratish talab qilindi. Xom ashyo esa jun bo'lib, qo'ylardan olinardi. Manufaktura rivojiga jun kerak, buning uchun qo'ylar sonini oshirish talab etildi, ko'p qo'y boqish uchun esa yangi keng yaylovlar zarur, oqibatda chakalakzor, botqoq, bo'z erlar chegaralanib («erlarni chegaralash» degan

ibora shundan kelib chiqqan) yaylovga aylantirildi, Dehqon (yomen)lar o'z erlaridan haydab chiqarildilar, erlari esa tortib olinib, yaylovlarga aylantirildi. Bu jarayonning muhim ahamiyati bor: 1. manufaktura (sanoat) uchun xom ashyo ko'paydi; 2. sanoatga ko'p va arzon ishchi kuchi etkazib berildi ( erdan mahrum bo'lgan, haydalgan dehqonlar ish kidirib shaharlarga borganlar). Oqibatda sanoat tez o'sa boshladi, yangi sinflar paydo bo'ldi. Demak, sanoatdagina emas (manufaktura), qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlar g'alaba qozondi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yo'l ochib berildi. Lekin ko'plab dehqonlarning ekspropriasiya qilinishi (ersizlantirilishi), ularni zo'rlik yo'li bilan yollanma mehnatga jalb etilishi (chunki boshqa iloj yo'q) qarama-qarshilikni kuchaytirdi, oqibatda 1641-1660 yillarda Angliyada inqilob bo'lib o'tdi. XVII asrdagi Niderlandiya keyingi ikkinchi bu inqilob burjua inqilobi bo'lib, u Angliyadagi feodal jamiyatga chek qo'ydi. Angliya respublika deb e'lon qilindi, parlament vujudga keldi, demokratik jarayon kuchaydi.

Angliya iqtisodiyotida, sohibkorlarning boyishida mustamlakachilik siyosati katta o'rin egalladi. Gollandiya, keyinchalik Fransiya ustidan dengizda erishilgan g'alaba tufayli Angliya jahondagi eng yirik va kuchli dengiz davlatiga aylandi. Inqilobgacha va to 1830 yillargacha bu erda proteksionizm (savdoda chetga ko'proq chiqazib, chetdan kamroq kiritish) siyosati (eksport importdan ko'p) o'tkazilgan, bu esa savdoning (ayniqsa o'z mustamlakalariga) keskin o'sishiga olib keldi. Demak, savdo, tovar-pul munosabatlari ham keskin oshdi.

Xalq xo'jaligining yuksak rivoji ilmiy kashfiyotlarni taqozo etdi. Shu davrda Angliyada tabiiy fanlar, ayniqsa mexanika, astronomiya va fizika tez rivoj topdi. Bu davrning eng buyuk vakili **Isaak Nyuton**dir (1643-1727yy.), **Tomas Gobs** (1588-1679yy.) ingliz faylasufi, mexanistik materializm sistemasining asoschisi sifatida katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, jamiyat mexanizmga o'xshash narsa, uning oddiy elementi inson degan g'oya yotadi. «Inson insonga bo'ri» iborasi shu olinga tegishli, uningcha egoizm insonni harakatlantiruvchi kuchdir. Bu olimda tarixga zid fikrlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning fikricha, ijtimoiy hayotda ham xuddi tabiatdagi kabi ob'ektiv qonuniyatlar mavjuddir. Ana shunday sharoitda klassik iqtisodiy maktab shakllandi va rivojlandi. Bu davrda merkantilizm ta'limoti talabga javob bermay qo'ydi va uning buzilishi ro'y berdi.

Merkantilistlardan farqli ravishda (ular iqtisodiyotning faqat muomala sohasinigina tahlil etganlar), klassik maktab namoyandalari feodalizm o'rniga kelgan nisbatan progressiv kapitalistik munosabatlarning ichki iqtisodiy aloqalarini o'rgandilar va o'z tadqiqotlarini asosan ishlab chiqarish sohasiga ko'chirdilar. Klassik iqtisodiy maktab deganda V.Pettidan boshlanadigan iqtisodiy tadqiqotlar tan olinadi, bu ta'limot ishlab chiqarishdagi bozor munosabatlarining ichki aloqadorligini o'rganadi va tahlil etadi. V.Petti klassik maktab otasi va statistikaning kashfiyotchisidir. Angliyada *V.Petti*, Fransiyada *P.Buagilber* shu maktabning boshlovchilari bo'lsa, Fransiyada shu maktabning bir yo'nalishi bo'lgan fiziokratlar vujudga keldi (F.Kene, A.Tyurgo) va u *A.Smit*, *D.Rikardolar* bilan yakunlanadi. Bu davr kapitalistik munosabatlar rivojiga yo'l ochib berdi. *R.Xeylbroner* va *L.Turoularning* fikricha («*Ekonomika dlya vsex*»), ishlab chiqarish omillari vujudga keldi: mehnat, er va kapital tovarga aylantirildi,

bungacha ular tovar bo'lmagan. Hozirgi davr tili bilan aytganda, bozor tizimi, bozor jamiyati barpo etila boshlandi.

Yangi ta'limotning klassik (mumtoz) deb atalishiga sabab avvalo shuki, hozirgi iqtisodiyotning asosida yotuvchi ko'pgina nazariya va metodologik qoidalarning haqiqiy ilmiy xarakteri bilan izohlanadi. Mana shu maktab namoyondalarining xizmatlari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan darajasiga ko'tarildi. Erkin xususiy tadbirkorlikning ahamiyati isbotlab berildi. P.Samuelsong fikricha, yangi ta'limot to'la laissez faire (ya'ni tadbirkorlik faoliyatiga davlatning mutlaq aralashmasligi) sharoitiga o'tishga va voqealarning boshqacha rivojiga olib keladi va faqat XIX asrning oxirlarida deyarli barcha mamlakatlarda davlat iqtisodiy funksiyalarining doimiy kengayishi ro'y berdi. Bu ta'limot namoyondalari Angliyada V.Pettidan to D.Rikardogacha, Fransiyada P.Buagilberdan S.Sismondigacha (XIX asrning o'rtalarigacha) yangi jamiyatning haqiqiy ishlab chiqarish munosabatlarini tadqiq etdilar. Ularning fikricha, erkin xo'jalik faoliyatida shu davrdagi tuzum mukammal deb qaraladi.

Ya.S.Yadgarov klassik maktab rivojlanishida (ma'lum shart bilan) 4 bosqichni ajratadi: 1-bosqich XVII asr oxiri – XVIII asr boshiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda merkantilizm ta'limotining xatolari yoritib beriladi va uning asoschilari V.Petti va P.Buagilber bir-biridan bexabar qiymatning mehnat nazariyasini ilgari surdilar va har qanday qiymatning manbai va o'lchovi sifatida tovar mahsulot yoki boshqa boylikni yaratish uchun sarflangan mehnat miqdori hisoblanadi. Boylik va farovonlik muomala sohada emas, ishlab chiqarish sohasida yaratilishi ko'rsatiladi.

Bu bosqich XVIII asr o'rtalarida va 2-yarmida fransiyalik F.Kene va A.Tyurgolar tomonidan ilgari surilgan fiziokratizm bilan yakunlanadi. Sof mahsulot (milliy daromad) manbaini qidirish orqali asosiy e'tiborni mehnat bilan erga qaratdilar. Merkantilizm tanqid qilinib, tahlilda ishlab chiqarish asossiz ravishda muomala sohasidan to'la ajratib qo'yilgan.

2-bosqich XVIII asr oxiri va XIX asr boshiga to'g'ri kelib, A.Smit asarlaridagi iqtisodiy g'oyalarda aks etgan.

3-bosqich XIX asrning 1-yarmiga to'g'ri kelib fransiyalik J.B.Sey va F.Bastiya, inglizlar D.Rikardo, T.Maltus va N.Senior, amerikalik G.Keri va boshqalar asarlaridagi g'oyalar bilan bog'liq.

4-yakunlovchi bosqich XIX asrning 2-yarmiga to'g'ri keladi va J.S.Mill g'oyalari o'z nihoyasiga etadi. K.Marks ham shu bosqich vakili sifatida qaraladi lekin, bizning fikrimizcha, bu unchalik to'g'ri emas. Bu bosqichlarning xususiyatlari tegishli boblarda yoritiladi.

Bizning kitobimizda sosialistik g'oya vakillari bozor iqtisodiyotiga muqobil ta'limotlar guruhida qarab chiqiladi, chunki bu olimlarning asosiy fikri xususiy mulkchilikka va bozor stixiyasiga qarshi chiqib, yangi sosialistik va kommunistik jamiyat yaratish bo'lgan.

## **6.2. V.Petti - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi**

Umumiy bahoga ko'ra, klassik maktab XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida V.Petti (Angliya) va P.Buagilber (Fransiya) asarlarida yaratildi.

**Vilyam Petti** (1623-1687yy.) Roms shahrida tug'ilgan, Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschidir. Ko'pchilik bu olimning iqtisodiyot fani sohasidagi faoliyatiga yuksak baho berib, uni buyuk va takrorlanmas iqtisodchitadqiqotchi deb baholagan edi. V.Petti favqulodda har tomonlama va yuksak bilimli inson bo'lgan. U mayda hunarmand-matochi oilasida tug'ildi. Leyden, Parij va Oksford universitetlarida medisina sohasida tahsil ko'rdi. U juda keng qobiliyatli talaba bo'lgan, 1647 yilda nusxa ko'chiradigan mashinani (kseroks) ixtiro qildi, 1649 yilda fizika doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U dengizchi, vrach sifatida ham ishladi. Petti shu bilan birga yirik er egasi ham edi, u yirik ingliz lendlordlar (yirik er egasi) sulolasining asoschisi bo'lib qoldi. 1652 yilda Kromvel hukumatining topshirigiga ko'ra Irlandiyaning «er obzori» (kadastrini) o'tkazdi.



U XVII asrdagi Angliya burjuaziya inqiloblaridan keyin kuchaygan ingliz tadbirkorlar mafkurachisi sifatida tanildi. U tadbirkorlar mulkini, ya'ni xususiy mulkni «muqaddas» va «dahlsiz» deb bildi va uni turlicha yo'llar bilan himoya qildi. Ish haqini cheklash tarafdori sifatida ishchilarga fizik jihatdan minimum haq to'lash va shu bilan birga yangi sinfning boyishiga yordam berishni qo'lladi. U mehnatning kapital tomonidan ekspluatatsiyasini yoqlab chiqdi.

Xuddi shuningdek, Angliyaning mustamlakachilik siyosatini ham qonuniy deb hisobladi. V.Petti kapitalga soliq

**V. Petti** solishga qarshi edi, chunki bu ishlab chiqarishni cheklashi mumkin edi. Shu bilan birga u mehnatkashlarning daromadlaridan soliq olish tarafdori edi. U iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan «**Soliqlar va yig'implar to'g'risida risola**» (1662y.), «**So'z donishmandlarga**» (1665y.), «**Irlandiyaning siyosiy anatomiyasi**» (1672y.), «**Siyosiy arifmetika**» (1683y.) va boshqa shu kabi asarlarni yozdi.

V.Petti XVII asrdagi eng taniqli shaxslar qatoridan o'rin oladi (Mak-Kulloxning 1845 yilda bergan bahosi). U iqtisodiyotni o'rganishda yangi usulni qo'lladi, ko'rinib turgan voqealarni sharxlashdan ularning mohiyatini tahlil etishga o'tdi. V.Petti tadqiqot predmeti sifatida ishlab chiqarish sohasi muammolarini tahlil etishdir. Uning fikricha, boylik paydo bo'lishi va ko'payishi faqat moddiy ne'matlar yaratish sohasida ro'y beradi, bu jarayon savdo va savdo kapitalining hech qanday ishtirokisiz bo'ladi.

Olimning tadqiqot usulida empirizm elementlari (unsurlari) bo'lishiga qaramasdan (bu masalan, er bahosini talqin etishda ko'rinadi), davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvini qisman qo'llaydi (mamlakatdagi savdogarlar sonini qisqartirishni talab etadi), u asosan erkin iqtisodiyot (laissez faire) prinsiplarini qo'llaydi va merkantilistlardan farqli ravishda pul muomalasi va savdoni erkinlashtirish tarafdori bo'lgan. U o'z tadqiqotlarida bir qancha metodik (shartli) soddalashtirishlardan foydalaniladi:

- muomala sohasining ishlab chiqarishga teskari ta'siri inkor etiladi;
- pul va tovar bozorlarining o'zaro bog'liqligi ko'zda tutilmaydi;
- tovarlar va xizmatlar qiymati (qimmati) paydo bo'lish tabiatida xarajatlar xarakteristikasi (sabab-oqibat prinsipi) qo'llaniladi;

- ish haqini ishchi mehnati bahosi sifatida talqin etish, oqibatda erkin raqobat sharoitida ish haqining minimal bo'lishi va boshqalar.

U iqtisodiy jarayonlarga xos ichki qonuniy aloqalar va ularning sababiy munosabatlarini ko'rsatishga intildi. Uni *«faqat tabiatda ko'rinarli asosga ega bo'lgan sabablarga»* qiziqtirar edi. Petti iqtisodiyotga tabiatshunoslikda qo'llaniladigan usulni kiritib, shu bilan birga iqtisodiy tahlilning statistik usulidan ham keng foydalandi.

V.Pettining dastlabki asarlarida merkantilistlarning ta'siri ancha kuchli bo'lgan, ammo keyingi **«Pul to'g'risida bir necha ogiz so'z»** (1682y.) kitobida u merkantilizmdan butunlay voz kechdi. Boshida u faol (aktiv) savdo siyosatini, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qo'lladi, ammo bu ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam berishi kerak, degan fikrda bo'lgan. U boyluk va qashshoqlikka baho berib, bu hayotning abadiy va o'zgarmas, shafqatsiz qonunidir, degan qisqacha xulosalarga keldi. *«Ba'zi odamlarning boshqasidan ko'proq qashshoqligi doim bo'lgan va doim bo'ladi»* degan edi u. Ammo Petti ortiqcha zebziyatga berilishdan tiyilish zarur deb bilgan.

Merkantilizm nuqtai nazaridan amaliy, aniq masalalarni echish borasida u o'z asarlarida bo'layotgan voqealarni ta'riflashga ko'proq o'rin bergan. Ammo iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish davomida hodisalarning ichki mohiyatiga kirib bordi, ularni izohlashga urindi, iqtisodiyotda tabiiy fan metodlarini qo'lladi, ayniqsa matematikani keng tadbiiq etdi. U o'zining tadqiqotlarida ayrim odamlarning fikri, hohishi va ehtirosiga oid barcha narsalarni chetda qoldirib, iqtisodiy hodisalarning salbiy bog'liqligini ko'rsatishga intildi. Shu yo'l bilan u iqtisodiyotda ilmiy abstrakt metodni qo'llashda dastlabki qadamni qo'ydi. Shunday qilib, V.Petti iqtisodiy tahlilda statistik metod, yangi metodologiyani qo'llay boshladi. Shunisi diqqatga sazovorki, V.Petti iqtisodiy masalalarni yoritganda tabiiy fanlar, ayniqsa medisina, anatomiya (axir, V.Pettining o'zi vrach-da!) matnlari va o'xshatmalaridan ustalik bilan foydalangan. U masalani echish uchun to'g'ri yo'lni topish, «siyosiy jonivor»ning sog'ligini ta'minlash uchun faqat uning anatomiyasini o'rganish orqali hal etish mumkinligini isbotlab berdi. U merkantilistlar kabi iqtisodiy tekshirishlarni muomala sohasidagi voqealarni umumlashtirish bilan cheklash mumkin emas degan qisqacha xulosalarga keldi. U xo'jalikning asosini ishlab chiqarish jarayoni hal etadi, jamiyat boyluklari moddiy ne'matlar yaratish davomida yuzaga keladi, deydi. Savdogarchilikni unumsiz kasblar qatoriga ko'shadi. Pettining fikricha, ular hech qanday mahsulot tayyorlamaydilar va faqat qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini xuddi insondagi vena va arteriyalarga o'xshab jamiyat tanasidagi qon to'yintiruvchi sharbatlarni taqsimlagandek taqsimlaydilar. Ishlab chiqarishni xo'jalikning asosi sifatida o'rganib, bahoning tabiatini, ish haqi va er rentasi, er bahosi miqdorini belgilovchi sabablarni aniqlashga intildi. V.Pettining pulga bo'lgan munosabatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u qimmatbaho metall va toshlarni boshqa tovarlarga solishtirib, ular aynimaydi va o'zgarmaydi, har erda va har qachon boyluk sifatida saqlanadi, degan. Shu sababli bunday tovarlarni ishlab chiqarish va savdo qilish kerak, chunki bu boshqa ishlab chiqarish va savdodan qulayroqdir. Shu bilan birga olim har qanday yo'l bilan oltin va kumush, ya'ni pul to'lashga qarshi edi.



1682 yilda yozilgan «**Pul to'g'risida bir necha ogiz so'z**» kitobi 32 ta savol va javob tariqasida Angliyada pul chaqasini qaytadan zarb etish masalasiga bag'ishlangan. Bu aslida kichik bir parcha pul nazariyasining ustuni edi. Unda Petti merkantilizmdan butunlay voz kechadi va pulni umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar deb hisoblaydi. Pulning qiymati ham boshqa tovar kabi sarflangan mehnat miqdori bilan aniqlanadi, almashuv qiymati esa qimmatbaho metallni qazib olishga ketgan mehnat sarflari bilan belgilanadi. Eng muhim masala, bu mamlakatdagi pulning miqdori, ya'ni oborotdagi pul masalasi edi.

Muomaladagi pulning miqdori tovar-to'lov oborotlari yoki oxir-oqibatda realizasiya qilinayotgan tovarlar, ularning bahosi (to'g'ri proporsiya) va pulning muomala chastotasi (teskari proporsiya) bilan aniqlanadi. O'sha davrda qimmatli metallardan qilinadigan chaqa pullar bank tomonidan chiqariladigan qog'oz pullar bilan (ma'lum chegarada) almashtirilishi mumkin degan to'g'ri qisqacha xulosalar chiqariladi.

Uning fikricha, pul inson organizmidagi yog'ga o'xshaydi, chunki yog'ning ortig'i ham, kami ham ziyondir, ya'ni uning me'yorda bo'lgani yaxshi (uning vrachligini eslang).

V.Petti davlatning iqtisodiyotga aralashuviga ham e'tibor berdi, bu aralashuv rivojlanishga yordam berishi kerak, lekin boshqa paytda davlat iqtisodiyotdan uzoq bo'lishi kerak. Uning fikricha, vrach kasalni davolaganda iloji boricha sun'iy dorilardan kamroq foydalangani, ko'proq ob'ektiv omillarni ishlatgani ma'qul (davlat aralashuvi zarur holda va me'yorda bo'lgani yaxshi).

V.Petti o'zining tabiiy baho to'g'risidagi ta'limotida *qiymatning mehnat nazariyasiga* asos soldi. Bu klassik maktabning asosiy nishonasi (belgisi) sifatida qaraladi. U vaqt va tasodifiy omillar ta'sirida o'zgarib turuvchi bozor bahosi («siyosiy baho») ga tabiiy bahoni (qiymat deb bilgan) qarama-qarshi qo'ydi. Tabiiy baho ichki bozor bahosiga teng bo'lishi kerak. Chunki u mehnat miqdori bilan o'lchanadi. U non bahosi bilan kumushni solishtiradi va ularning bahosi sarflangan mehnat miqdori bilan tenglashtiriladi. Bu misolda, ya'ni non kumushga almashtirilganda almashuv proporsiyasi asosida shu mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat yotadi, demak qiymat mehnat bilan aniqlanadi. Undan tashqari, tovarning qiymati kumushni qazib olishdagi mehnat unumdorligiga to'g'ri proporsionaldir, sarf-xarajat usuli qo'llaniladi. Shunday qilib, V.Petti iqtisodiyot tarixida qiymatning mehnat nazariyasi kurtaklarini ta'rifladi. Bu olimning katta ilmiy xizmatidir. Ammo Petti qiymatni almashuv qiymati bilan qorishtirib yuboradi va almashuv qiymatini almashuv jarayonida qanday shaklda bo'lsa, shunday, ya'ni pul shaklida ifoda qiladi. U qiymatning bevosita manbai sifatida faqat konkret mehnatning aniq bir ko'rinishini, oltin va kumush qazishdagi mehnat (ya'ni pul materiali)ni ko'rgan, xolos. Uningcha, tarmoqlardagi ishlab chiqarilgan mehnat mahsulotlarining qiymati shu mahsulotlarni nodir metallarga almashuvi natijasida aniqlanadi. Olimning merkantilistik qarashlari bu erda ham saqlangan (kamchiligi). U abstrakt mehnat bilan konkret mehnatni farqlamaydi. Unda qiymat bilan iste'mol qiymati tushunchalari o'rtasida aniq farq ko'rinmaydi, ayrim holda ular qorishtirib yuboriladi. Konkret mehnat iste'mol qiymatini yaratsa, abstrakt mehnat umumiy qiymatni yaratadi.

Petti merkantilistlardan farqli ravishda boylik bu pul haqida qimmatbaho metall va toifalardangina iborat emas, balki mamlakatdagi erlar, uylar, kemalar, tovarlar hatto uy jihozlarini ham boylik deb hisoblaydi.

Mamlakat boyligini oshirish uchun odamlarni qamqxonalariga tashlash emas, pullik jarimalar kiritish kerak deydi. Yirik o'g'rilarni esa «qullik»ka sotib, ishlatish zarur. Shu bilan birga pulning jamiyatdagi roli to'g'ri talqin etilmagan (savdogarlarni qisqartirish taklif etiladi).

«*Mehnat boylikning otasi va nihoyatda faol prinsipidir, er esa uning onasidir*» degan fikr ham V.Pettiga tegishlidir. Bu g'oyaning shunisi to'g'riki, mehnat boylikning yakkayu-yagona manbai emas, chunki gap moddiy boylik, iste'mol qiymatlari hosil qilish ustida borganda faqat mehnat emas, balki tabiat ham ishtirok etadi, ammo to'g'ri qoida tovarning qiymatiga ham xato ravishda noo'rin qo'llaniladi. Shunday qilib, V.Petti o'zining qiymatning mehnat nazariyasiga qarama-qarshi o'laroq, qiymat manbai sifatida mehnat bilan birga tabiatni ham qabul qilishni talab etadi. Buning sababi shuki, u iste'mol qiymati manbai sifatida ham, qiymat manbai sifatida ham bir xil gavdalangan.

Qiymat nazariyasi bilan daromadlar, ish haqi va renta to'g'risidagi nazariyalar bevosita bir-biriga bog'liq. V.Petti boshqa (D.Rikardo, T.Maltus) klassik maktab vakillari kabi, ish kuchini emas, balki mehnatni tovar deb hisobladi (aslida ish kuchi ham tovardir).

V.Petti mehnatni tahlil etishga kirishadi. Har bir konkret mehnat aniq narsani (baxt-saodatni), iste'mol qiymatini yaratadi. Qiymat ikki qismdan iborat: 1) iste'mol qiymati, 2) almashuv qiymati - mahsulot almasha yoki sotilsa yuzaga chiqadi. Masalan, dehqon mehnatida shunday umumiylik borki, unga ko'ra barcha mehnatlarni bir-biri bilan solishtirish (chog'ishtirish) mumkin, narsalar (baxt-saodat) - tovarlarni almashuv qiymati bilan, ish vaqtini sarflash, umuman ishchilarning unumli energiya sarflashi bilan aniqlash mumkin. Bundan abstrakt mehnat tushunchasi kelib chiqadi va buni birinchilardan bo'lib V.Petti tushuna boshladi. U mehnatning tabiiy bahosini ish haqi deb biladi va uning miqdorini aniqlashni o'zining vazifasi qilib qo'yadi. O'sha davrda Angliyada ish haqi qonun bilan tartibga solingan, uning eng yuqori pog'onasi ishchilarning hayoti uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum mablag'lardan iborat edi (sog'lom odamning kunlik o'rtacha ovqati). Petti har bir ishchi «yashash, mehnat qilish va ko'payish uchun» kerakli narsani olsa bas, degan qisqacha xulosalarga keladi. Bu holatni V.Petti nazariy jihatdan isbotlamoqchi bo'ldi. U o'yladiki, agar ishchilarga ko'rsatilgan minimumdan masalan ikki hissa ko'p haq to'lansa, ular ikki marta kamroq ishlaydilar.

Tirikchilik uchun zarur mablag'lar nazariyasi xato bo'lib, avvalo ishchi kuchi qiymatiga kiruvchi tarixiy va ahloqiy elementlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga bu nazariyaning ijobiy tomoni ham mavjud bo'lib, ishchilar o'zlari yaratgan qiymatning faqat bir qismini (tiriklik uchun kerakli minimum mablag'ni) olayotgani ma'lum bo'lib qoldi. Mehnat tufayli yuzaga kelgan qiymatning boshqa qismi esa qo'shimcha mehnat natijasi sifatida namoyon bo'ladi, bu qo'shimcha qiymat uningcha rentadir.

U ishlab chiqarmaydigan aholiga - dindorlar, advokat, amaldorlarga salbiy munosabatda bo'ldi, xuddi shuningdek u sotuvchilar sonini ham keskin kamaytirish

tarafdori edi. Tadbirkorlar va er egalarining daromadlarini belgilash uchun umumiy bo'lgan «Renta» tushunchasi kiritiladi.

V.Petti renta nazariyasini ham ishlab chiqdi (siz ham rentani bir eslang). Uning fikricha, renta mahsulot (natura) ko'rinishida ish haqi va urug'likni ajratgandan keyin qoladigan mahsulot miqdoriga teng bo'lishi kerak. Demak, bu holda renta qo'shimcha mahsulotga teng. Pul holidayi renta qo'shimcha mahsulotning kumush miqdoriga teng qiymatidir.

V.Pettida foyda tushunchasi alohida kategoriya shaklida yo'q, renta barcha qo'shimcha qiymatga teng miqdor deb baholanadi. Shu sababli renta to'g'risidagi nazariyada amalda qo'shimcha qiymat haqida gap boradi. Qiymatni mehnat sarflari sifatida qarab, V.Petti birin-ketin renta (qo'shimcha qiymat)ni qo'shimcha mehnat natijasi ekanligini aniqlaydi. Buni fermerning foydasi sifatida ham qaraydi.

Ish haqi va rentani mehnat asosida yuzaga kelgan qiymatning bir bo'lagi sifatida tahlil etib, Petti muhim qisqacha xulosalar chiqaradiki, unga ko'ra ish haqi va renta bir-biriga qarshi. Masalan, deydi u, bir bushel (36.4 kg) bug'doy 60 pensdan sotiladi, undan 20 pensi er rentasiga, 40 pensi er egasining ish haqi sifatida berilsa va ish haqi 1/8 ga yoki kuniga 8 dan 9 pensga ko'tarilsa, er egasining 1 bushel bug'doydagi hissasi 40 dan 45 ga ko'tariladi, er rentasi esa 20 dan 15 pensga (ya'ni 5 pensga) kamayadi.

V.Petti rentaning kelib chiqishi to'g'risida ham muhim va qiziqarli fikrlarni beradi (umuman, renta absolyut va differensial bo'ladi). Differensial rentaning kelib chiqishini u er uchastkalarining turlicha joylashganligi bilan tushuntiradi (birinchi sabab, ya'ni bozorga uzoq-yaqinligi, masofa, transport sarflari). U rentaning ikkinchi sababini ham aniqlab, erning tabiiy unumdorligining turlicha ekanligini ko'rsatgan (o'zbek xalqida ham «Erdan erning farqi bor, etmish ikki xil narxi bor», degan yaxshi makol bor). Olimlarning fikricha, V.Petti differensial rentani Adam Smitdan ham yaxshi bayon etgan.

Absolyut renta haqida gap borganda shuni aytish kerakki, bu renta erga xususiy mulkchilik bo'lganda namoyon bo'ladi. V.Petti er bahosi masalasini juda qiziq va noyob ravishda hal etishga uringan. Uning fikricha, erni sotib oluvchi har yili renta olish huquqini qo'lga kiritgan shaxsdir. Shu sababli erning bahosi bir yillik rentani ma'lum bir songa ko'paytirish orqali aniqlanadi. Hamma masala shunda bo'lib, uni tanlash talab etiladi. Xo'sh, u nima bo'lishi mumkin?

V.Petti bu savolga javoban shunday deydi: er sotib oluvchi o'zi va o'ziga yaqin avlod-ajdodlarining manfaatlarini e'tiborga olib ish yuritadi. Uningcha, odatda uch avlod vakillari bir vaqtda hamkorlikda yashaydilar: buva (50 yosh), o'g'il (28 yosh) va nabira (7 yosh). U shu uch avlodning hamkorlik davrida yashagan yillar rentasi yig'indisini er bahosi deb qabul qiladi. U Angliya uchun bunday son 21 yilga teng ekanligini aniqlaydi. Demak, erning bahosi shuncha bir yillik rentalar yig'indisiga teng, degan qisqacha xulosalar chiqariladi.

V.Petti erni sotib oluvchi uchun er yillik daromad manbai ekanligini tushungan. Shunga muvofiq u erning bahosi shunday summaga teng bo'lishi kerakki, bu summa har yili olinadigan renta huquqini beradigan bo'lishi kerak, deb to'g'ri hisoblagan. Amalda *erning bahosini* kapitallashgan rentadek hisoblash orqali **V.Petti** masalaning mohiyatini to'la va to'g'ri tushungan.

Ammo erning bahosi masalasi hali to'la hal etilmadi, chunki erning bahosi ikki omilga bog'liq: 1) er rentasining miqdori, 2) prosent (foiz) darajasi. V.Petti esa yuqorida qayd etilganidek, ssuda prosentini er bahosidan chiqargan. Bu qiyin ahvoldan chiqish uchun u er bahosi rentaning 21 ga ko'paytirilganiga teng deb hisoblagan (uch avlod - buva, ota va nevara birgalikda 21 yil yashaydilar va erdan birga foydalanadilar, degan qisqacha xulosalar). Erning asl bahosi masalasini boshqa olimlar to'g'ri hal etdilar.

V.Pettining «**Siyosiy arifmetika**» asari to'la ravishda uning vafotidan keyin bosilib chiqdi (kitob uning o'g'li lord Shelbern tomonidan nashr etilgan). Buning sababi shuki, unda Angliya va Fransiyani chog'ishtiruvchi ma'lumotlar bor edi. Bu asar yangi fan - statistikaga asos soldi. Bu davrda hali bu tushunchaning o'zi yo'q edi («statistika» so'zi XVIII asr oxirida paydo bo'ldi).

V.Petti birinchilardan bo'lib davlat statistika xizmati tuzish zarurligi masalasini ko'tardi va ma'lumot to'plashning ayrim yo'nalishlarini belgilab berdi. Uningcha, mamlakatdagi aholining umumiy soni, joylashuvi, yoshi va kasbi hamda boshqa ma'lumotlar muhimdir. Iqtisodiy ko'rsatkichlardan asosiy tovarlarning ishlab chiqilishi va iste'moli, aholi daromadi, boyluk taqsimoti haqidagi ma'lumotlar kerakli hisoblangan. Pettining kuzatishlaricha, mamlakatda faqat soliq va tashki savdo bo'yicha ayrim ma'lumotlar bor edi, xolos. Biror masala haqida gap ochilar ekan, Petti «*avval hisoblab ko'rish kerak*» degan fikrni aytishni yaxshi ko'rar edi. Statistika bilan shug'ullanganligi tufayli ma'lum ma'noda «rejalashtirish» masalalari ham ko'tarilgan. Masalan, u «ishchilar kuchi balansi» bilan shug'ullanib, mamlakatga shuncha vrach va advokat kerak, demak, oliy o'quv yurtlariga yiligi shuncha talaba qabul qilish kerak, degan hisob-kitoblarni keltirar edi. Odatda u Angliya va Fransiyaning iqtisodiy ahvolini solishtirib, qaysi davlat boyroq ekanligini aniq faktlar bilan ko'rsatishga intilgan.

«Siyosiy arifmetika» kitobining mukaddimasida u o'z uslubining yangi ekanligini ta'kidlab, qiyosiy (ozroq, ko'proq, yaxshiroq, yomonroq) ko'rsatkichlardan aniq statistik raqamlar - son, og'irlik bilan boshqa o'lchovlar tiliga o'tish kerakligini aytadi. U milliy daromad, milliy boyluk haqida gapiradi va Angliyaning milliy boyligini hisoblab chiqadi (ma'lumki, bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda juda muhim ko'rsatkich hisoblanadi). Masalan, u Angliyaning moddiy boyligini 250 million funt sterling deb baholaydi, ammo aholining 417 million funt sterling pulini ham shunga qo'shish kerak, deydi.

V.Pettining iqtisodiy ta'limoti aholining soni va tarkibidan boshlanishi nihoyatda muhimdir. Uning g'oyasi o'zidan keyingi Maltusdan keskin farq qiladi, agar Pettining fikri bo'yicha «*aholi - boylukning asosi*» bo'lsa, Maltusda aholining tez o'sishi kambag'allikning asosidir. V.Petti Angliyaning milliy daromadini ham hisoblab chiqdi. Uning hisobiga ko'ra, Angliyaning pul shaklidagi boyligi barcha boylukning faqat 3% teng ekan. Xuddi shundan hozirgi davrning milliy hisob schetlari yuzaga keldi, unga qarab ishlab chiqarish hajmini, bu boylukning aholi o'rtasida taqsimotini (iste'mol, jamg'arma, eksport, aholi, asosiy sinflar, guruhlar daromadi) va boshqalarni bilib olish mumkin. Albatta, hozirgi davr bilan solishtirganda bu hisob-kitoblarda jiddiy uslubiy xatoliklar bor edi. Masalan, u milliy daromadni aholining iste'mol sarflari yig'indisi deb bilgan, ya'ni jamg'arma, bino, qurilish, asbob-uskuna, erni yaxshilashga ketgan kapital qo'yilmalar hisobga

olinmasa ham bo'laveradi, deb noto'g'ri o'ylagan. Ammo XVII asrdagi Angliya uchun bunday yo'l ancha realistik edi, chunki jamg'arma normasi past bo'lgan, Angliyaning moddiy boyligi nisbatan sekin o'sayotgan edi. Sal keyinroq V.Pettining bu xatolari uning izdoshi Gregori King tomonidan to'g'rilandi va XVII asr oxiridagi Angliya milliy daromadi nihoyatda to'g'ri hisoblab chiqildi.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, V.Pettining so'nggi asarlari ko'proq aholi, uning o'sishi, joylashuvi va ish bilan bandligi masalalariga bag'ishlangan. V.Petti zamondoshi va do'sti, mayda savdogar Jon Graund bilan birgalikda demografik statistika faniga asos soldi. 1662 yildan boshlab Angliya aholi sonining umumiy soni, tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish masalalari bo'yicha kitoblar yuzaga kela boshladi.

### **6.3. Fransiyada klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. P.Buagilberning iqtisodiy qarashlari**

Agar Angliyada klassik iqtisodiy g'oyalarning boshlanishi V.Petti nomi bilan bog'liq bo'lsa, Fransiyada P.Buagilber bilan boshlanadi, bu g'oyalar Angliyada Rikardo bilan intihosiga etgan bo'lsa, Fransiyada Sismondi bilan yakunlanadi.

Fransiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit Angliyanikidan keskin farq qilar edi. Fransiyada feodal munosabatlar hali ham kuchli bo'lib, qirollar («*qirol - quyosh - Lyudovik XIV*») va uning atrofida gilar tomonidan qattiq himoya qilingan. Kolber tomonidan olib borilgan siyosat mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojiga olib kelmadi. U sanoatni, moliyani taraqqiy ettirish tarafdori edi, ammo bu ish qishloq xo'jaligining ziyoniga o'tkazildi, feodal munosabatlar to'la saqlab turildi (eslang, Angliya burjua inqilobi XVII asrda bo'lib o'tdi, vaholanki Fransiyada bu inqilob XVIII asr oxirida ro'y berdi), bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga to'siq edi. Manufakturalar paydo bo'ldi, ammo rivoj topmadi. Sex tizimi saqlangan bo'lib, rivojga to'siq edi.

Er masalasi to'la hal etilmadi, «Senorsiz er yo'q» tamoyili saqlandi, mayda er egaligi, dehqonlarning turli soliq va yig'implarga mahkum etilganligi ularni bu tizimda erni yaxshilash va ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'batlantirmas edi, vaholanki aholining 3/4 qismi dehqonlar bo'lib, ular bu sohada tushkunlikda edi.

Shu sababli bu sohada islohotlar o'tkazish zarur bo'lgan, ammo unga shu davrdagi tizim halaqit berardi. Ichki bozor tor bo'lib, kapitalistik tadbirkorlikning o'sishiga yo'l bermasdi. Bu sinf asosiy soliq to'lovchi sinf edi, dvoryanlar va dindorlar umuman soliq to'lamagan, shahar burjuaziyasi hali nisbatan kam sonli, soliqlardan ustalik bilan bosh tortar edi.

Yana bir muhim to'siq - bu urushlar edi. Fransiya olib borgan urushlar tufayli mablag'larning asosiy qismi shu urushlarga sarflanardi. Qirol saroyidagi bazmi jamshidlar ham davlat xazinasiga katta ziyon keltirar edi.

Demak, Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida feodal munosabatlar o'zining cho'qqisiga chiqqan edi (Angliya bilan solishtiring), vaholanki Angliyada burjua inqilobi bo'lib, kapitalistik munosabatlar tez shakllana boshladi. Fransiyada yuqori tabaqa barcha erning egasiga aylandi, dehqonlar shaxsan ozod bo'lsalar ham, feodal majburiyatlar nihoyatda ko'p edi. Xo'jalikdagi kapitalistik ukhad nihoyatda sekin rivojlandi, ichki bozor xiyla tor edi, xalq xo'jaligida natural

xo'jalik asosiy bo'lib, sanoat rivoji past bo'lgan. Faqat zeb-ziynat buyumlari va parfyumeriya mahsulotlari tayyorlash bo'yichagina Fransiya Evropada yuqori o'rinda edi.

Ana shunday sharoit Fransiyaning XVII asr oxiri - XVIII asr boshidagi sosial-iqtisodiy ahvoli klassik iqtisodiyotning Fransiya'dagi asoschilaridan biri bo'lgan **Per Buagilber** (1646-1714) ning iqtisodiy qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Per Lepezan - iqtisodchining asl familiyasi bo'lib, de Buagilber - bu oila er pomestesining nomi edi. Lekin tarixda Per Buagilber nomi saqlanib qoldi. **Per Lepezan de Buagilber** dvoryan normand oilasidan chiqqan, u yaxshi ma'lumot olgach, adabiyot bilan shug'ullandi, keyinchalik Ruan okrugida oilaviy kasb-hunar sudya (hakam) lavozimini egalladi; dehqonlar ishini olib bordi; o'z ko'zi bilan ularning nochor ahvoriga guvoh bo'ldi; u bu lavozimni umri oxirigacha saqlab qoldi va katta o'g'liga topshirdi; o'zini «qishloq xo'jaligining advokati - himoyachisi» deb atadi.

Olimning tadqiqot predmetini qisqacha qilib jamoat boyligi konsepsiyasidan iborat deyish mumkin. Bu boylik pulning fizik massasi bilan emas, balki turli-tuman foydali boylik va buyumlardan, masalan, non, vino, go'sht, kiyim-kechak va boshqalardan iboratdir. Xatto erga va pulga egalikning o'zi boylikni ta'minlaydi. Agar er ishlanmasa, pul esa hayot uchun zarur ashyolar (masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechak) aralashtirilmasa bunday «boylik» egasi qashshoqlikka mahkum etiladi.

Shu sababli jamiyatda pulni ko'paytirish emas, balki ishlab chiqarishni o'stirish masalasi iqtisodiy fanning asosiy vazifasi hisoblanishi kerak.

Olimning tadqiqot uslubiga quyidagilar xos:

- erkin raqobat sharoitida iqtisodiyotda avtomatik mo'tadillik mavjud bo'ladi;
- tovarlar va xizmatlar qiymati (qimmat) ni belgilashda xarajatlar qoidasiga amal qilinadi;
- milliy iqtisodiyot manfaatlari uchun shaxsiy manfaatning jamoat manfaatlaridan ustunligi tan olinadi;
- xo'jalik hayotida pulning mustaqil va ahamiyatli rolga etarli baho berilmaydi va boshqalar.

Buagilber sanoat va savdoni kamsitish yo'li bilan qishloq xo'jaligining roli ataylab mutlaqlashtirgan.

Adam Smitdan ancha oldin shaxsiy manfaat (egoizm)ning jamiyat uchun ahamiyatini ko'ra bildi.

1691 yilda u Fransiyaning og'ir iqtisodiy ahvoldan chiqarish tizimini taklif etdi. Dastlabki fikrlari bo'yicha turli islohotlar o'tkazib (ular burjua-demokratik xarakterga ega bo'lishi kerak edi), 1707 yilda esa uning g'oyalari etilib, quyidagi uch qismdan tarkib topdi:

1. Soliq tizimini o'tkazish. Soliq tizimining dehqonlar mehnatidan manfaatdorlik tamoyiliga asoslanishi, undan tashqari soliq barchaga tegishli bo'lishi kerak edi.

2. Ichki savdoni har xil cheklashlardan ozod qilish (ichki savdo erkinligi); bu chora ichki bozorni kengaytirish, mehnat taqsimotining o'sishini ta'minlash, tovar-pul muomalasini kuchaytirishi kerak edi;

3. Donning erkin sotilishiga yo'l berish, donga tabiiy baho ta'sirini cheklamaslik. Gap shundaki, mamlakatda donga sun'iy ravishda baho belgilangan bo'lib, ishlab chiqarish harajatlari qoplanmas edi, don etishtirish o'smay qo'ygan edi. Buagilberning fikricha, iqtisodiyot erkin raqobat sharoitida rivojlanishi va tovarlar bozorida «haqiqiy qiymat»ga ega bo'lishi kerak edi. U davlat bu sohada dehqonlarga homiylik qilishi zarur, deb hisobladi.

Bu islohotlar mamlakat va xalq farovonligini oshirish va xo'jalikni rivojlantirishning boshlang'ich shartlari bo'lishi kerak edi. Buagilber o'z g'oyasini reklama qilish maqsadida bu islohot bu oyda qirolga kerak bo'lgan summani etkazib beradi, degan fikrni tarqatdi. Vazirlar esa ikki soat davomida kerakli qator qonunlarni tayyorlashi mumkin va xo'jalik «xuddi hamirturushdagi kabi» tez o'sadi, deydi u. U o'z takliflari bilan bir necha bor murojaat qildi. Ammo uning bu harakatlari zoe ketdi. U o'z g'oyalarini kitoblarda bayon etdi va bu kitoblarni nashr ettirdi. Uning asosiy iqtisodiy asarlari «**Fransiyaning to'la tavsifi**», «**Fransiya to'g'risida varaka**», «**Boylıklar tabiati to'g'risida traktat**» va boshqalardir. Uning ayrim asarlari, masalan, 1707 y. 2 jildda chiqarilgan «Fransiya ayblari» kitobi ta'qiqlangan. Ularda Fransiyaning shu davrdagi og'ir iqtisodiy ahvoli to'la yoritib berilgan, ayniqsa qishloq xo'jaligining orqada qolish sabablari to'g'ri berilgan. Xalq xo'jaligi orqada qolishining bosh sababi - olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning, Kolber (moliya boshlig'i) va boshqalarning merkantilistik qarashlari fosh etilgan. U faqat sanoat rivojini bir tomonlama qo'llab-quvvatlashga qarshi chiqdi. Qishloq xo'jaligi manfaatlarini himoya qildi, don eksportini cheklashga qarshi chiqdi, soliq tizimini isloh qilish tarafdori bo'ldi, u ezilgan xalq ommasining ahvolini yaxshilash tarafdori edi (V.Petti bilan solishtiring). Olib borilayotgan iqtisodiy siyosat xo'jalik hayotining tabiiy rivojiga teskari edi. Buagilber aytadiki, avvalgi davrdagi to'kin-sochinlikni qaytarish uchun mo'jiza qilish shart emas, tabiat ustidan bo'layotgan doimiy zo'ravonlikka chek qo'yish etarlidir. Olimning fikricha, shunday soliq va iqtisodiy siyosat tadbirlari kerakki, ular tabiatga qarama-qarshi bo'lmasligi kerak. Bu g'oya shundan iboratki, unga ko'ra iqtisodiyotda shunday qonunlar borki, ularni bemalol, jazosiz buzish mumkin emas (ekologiyada ham shunday).

Shunga mos ravishda u tabiatning talablari nimadan iborat ekanligini ochib berishga uringan, ob'ektiv qonuniyatlarni o'rganishga kirishib, ilmiy tahlil qilish yo'li sari yirik qadam tashlagan. Ammo shu bilan bir vaqtda u xo'jalikdagi hodisalarni tabiiy va tabiiy bo'lmaganlarga ajratib, avvalgisini himoya qildi va keyingisini qoraladi. Buagilber o'zi taklif etgan siyosatni amalda isbotlovchi nazariyani yaratishga intildi. Uning iqtisodiy qarashlari ko'p jihatdan V.Pettiga o'xshab, mamlakatning iqtisodiy o'sishi nima bilan bog'liq degan savolga javob topish edi. Buagilberni ko'proq va asosan Fransiya iqtisodining turg'unlik holati va uning orqaga ketishi sabablari qiziqtirardi. Bundan u umuman nazariy masalalar, masalan, xalq xo'jaligida qanday qonuniyatlarni harakat qiladi va uning rivojini ta'minlaydi, degan masalaga o'tdi.

Buagilber bu muammoga javob berishda bosh e'tiborni «optimal baho paydo bo'lishi» masalasiga qaratdi. Uningcha iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning eng muhim sharti proporsional va normal baholar hisoblanadi. Xo'sh, bu baholar nimadan iborat? Avvalo, bu baholar o'rtacha har bir sohadagi ishlab chiqarish

harajatlarini qoplashga yordam berishi va ma'lum kirim, sof foyda keltirishi kerak. Aks holda ishlab chiqarish bo'lmaydi, undan so'ng, bu shunday baholarki, unda tovarlarni realizasiya qilish jarayoni bekamu-ko'st davom etishi va barqaror iste'mol talabi qondirilishi kerak. Va nihoyat, bu shunday baholarki, pullarning «o'z o'rni bo'lib», ular to'lov oborotini bajarishi va odamlar ustidan hukmronlik, zo'ravonlik qila olmasligi zarur.

Xalq xo'jaligi proporsionalligi ifodalangan baholar qonunini, aslida esa qiymat qonunini tushunish yangi va ilg'or g'oya edi. Olimning asosiy asarlari shu g'oyalar bilan bog'liq. Iqtisodiyotda «optimal baholar»ni qanday ta'minlash mumkin? Buagilberning fikricha, baholarning bunday strukturasi raqobat erkinligi sharoitida stixiyali ravishda tarkib topadi.

Erkin raqobat sharoitining buzilishi Fransiyada donga maksimal baholarning qo'yilganligidir, deydi u. Uningcha, donga erkin baholar belgilansa, baholar birmuncha oshadi, bu dehqonlarning daromadini oshiradi va ularning sanoat tovarlariga talabini ko'taradi, oqibatda bu mahsulotlarni ishlab chiqarish ortadi va hokazo. Bunday zanjirli reaksiyalar bir vaqtning o'zida «proporsional baholar» o'rnatilishiga va xo'jalikning ravnaqiga olib keladi.

Demak, Buagilber iqtisodiy erkinlik tarafdori edi va talabga qarshi chiqmaslikni taklif etadi. Shu bilan birga, u davlatning iqtisodiy funksiyasini inkor etmadi: bu o'sha davr uchun, real hayotni tushungan amaliyotchi olim uchun tabiiy edi. Uningcha, davlat to'g'ri soliq tizimi orqali mamlakatda iste'mol va talabni yuqori darajada ta'minlashi mumkin. Agar iste'mol sarflari oqimi pasaysa, tovarlarni sotish va ishlab chiqarish keskin kamayadi. Agar kambag'allar ko'proq ishlab topsalar, soliqlarga kam sarf qilsalar, ular o'z daromadlarini tez sarflashga moyildirlar. Boylar esa, aksincha, o'z daromadlarini saqlashda va demak, mahsulotni sotishda qiyinchilik tug'dirishiga olib keladi.

Buagilberning bu mulohazalari iqtisodiy ta'limotlarning keyingi yuz yillikdagi rivojiga katta ta'sir etdi. Jamiyat boyligi va iqtisodiy o'sish bo'yicha prinsipial jihatdan ikki xil qarash mavjud.

Birinchisi bo'yicha ishlab chiqarishning o'sishi jamg'arish hajmi (ya'ni jamg'arma va kapital qo'yilmalar)ga bog'liq. Bunda to'lovlarga talab avtomatik ravishda (stixiyali) amalga oshadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari bo'lishi inkor etiladi.

Ikkinchi pozisiya bo'yicha iste'mol talabi ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sishini qo'llaydigan omil sifatida qaraladi. Buagilber ma'lum ma'noda mana shu pozisiya tarafdori edi va u qonuniy ravishda iqtisodiy inqirozlar muammosini keltirib chiqargan.

Buagilber inqiroz hodisasini xo'jalikning ichki qonuniyatlari bilan emas, balki yomon davlat siyosati bilan bog'laydi. Uningcha, yaxshi siyosat olib borish yo'li bilan talab kamomadini hal etish va inqirozlarni chetlab o'tish mumkin. Bu masala juda murakkab bo'lib, Seyga tegishli (buni keyin qarab chiqamiz) «*bozorlar qonuni*»ga asos bo'lgan deyish mumkin, ya'ni erkin mahsulotlar almashuvi tizimida mahsulotlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin emas (inqirozlar bo'lmaydi). Aksincha, *Shumpeter*ning fikricha, Buagilber iste'mol talabining etarli emasligi va jamg'arma ortiqchaligi sababli, o'sha davrdagi tizim uchun inqiroz xavfi bo'lib, tizim barqarorligiga shubha bildirgan, ya'ni Sey qonunini oldindan tanqid qilgan.



Buagilber o'zining «**Boylik, pul va o'lponlarning tabiati to'g'risida mulohaza**» asarida iqtisodiy inqiroz davrida nima ro'y berishini yorqin va obrazli ifodalab beradi, uningcha, odamlar faqat etishmovchilikdangina emas, ortiqcha boylikdan ham o'lishi mumkin ekan. Tasavvur qilingki, deydi u, 10-12 odam bir-biridan ajratilib, zanjirband qilingan. Birida oziq-ovqat ko'p, ammo boshqa hech narsa yo'q; ikkinchisida esa kiyim-kechak serob, uchinchisida ichimliklar ko'p va hokazo, ammo ular bu mahsulotlarni almasha olmaydilar. Zanjirlar bu oddiy insonlarga tushunarsiz inqirozlarni keltirib chiqaruvchi iqtisodiy kuchlardir. Buagilber insoniyat tarixida XX asrda bir necha bor ro'y bergan yirik iqtisodiy inqirozlarni oldindan ko'ra bilgandek (ma'lumki, ishsizlik va qashshoqlik sharoitida sutlar dengizga to'kilgan, ekin maydonlariga o't qo'yilganligi aniq).

Merkantilistlardan farqli ravishda u boylikning manbai almashuv sohasi emas, balki ishlab chiqarish degan edi. Almashuvni esa ishlab chiqarish rivojining sharti sifatidagina qaraydi.

Buagilber V.Pettidan holi, mustaqil ravishda qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi, u bozor bahosi va «haqiqiy baho»ni farqlagan, «haqiqiy baho mehnat sarfi bilan belgilanadi», degan. U haqiqiy baho deganda, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari o'rtasida mehnat taqsimotining to'g'ri proporsiyasini tushungan. Shunday proporsional taqsimotning zaruriy shart-sharoiti sifatida ishlab chiqaruvchilar orasidagi erkin raqobat yotadi.

V.Pettidan farqli ravishda (qiymatni pul shaklida ifodalashni taklif etgan) Buagilber qiymatning pul shaklini qat'iy ravishda inkor etgan, shunday zaruratga ehtiyoj yo'q degan. Agar V.Pettining diqqat markazida pullar va boshqa tovarlar o'rtasidagi almashuv munosabatlari turgan bo'lsa, Buagilberning e'tibori tovarlarning tovarga bevosita munosabati, ya'ni tovarlarning to'g'ridan-to'g'ri almashuviga qaratilgan edi. Buagilber uchun shu narsa xarakterli ediki, u pulga keskin qarshi bo'lgan, pulda barcha yovuzlik va ofatlarning manbai mujassamlangan, tovarlarning «haqiqiy baho» asosida almashuvi buzilishining sababi ham shunda deydi u. U oltin va kumushni buyuk yovuzlik deb baholaydi, pulga qarshi mutaassiblik (fanatizm) bilan kurashadi. Pulning yagona yaxshi tomoni shundaki, u almashuvni osonlashtiradi. Oltin va kumush o'rnini qog'oz pul bemalol qoplaydi. Ko'rinib turibdiki, olim pulning barcha funksiyalarini tushunib etmaydi. Pul umumiy ekvivalent bo'lib, uning rolida qiymatga ega bo'lgan tovarlarga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli uningcha, tovar ishlab chiqarilishini saqlagan holda, pulni yo'q qilish kerak. Shu erda u iqtisodiy munosabatlarning ikki shakli o'rtasidagi chambarchas aloqani tushunmadi, uning bir shaklini (tovar) saqlab, ikkinchi (pul) shaklini yo'q qilmoqchi edi.

Olim tovar ishlab chiqarishning asl maqsadi faqat iste'molni qondirishda deb xato o'ylagan (iste'mol va almashuv uchun).

Demak, Buagilberning eng buyuk xizmati shundaki, u qiymatni sarflangan ish vaqtiga tenglashtirdi. Lekin u tovar ishlab chiqarishning qulay tomonini saqlagan holda uning salbiy tomonlarini tugatishni orzu qiladi. Agar Pettining iqtisodiy ta'limotida almashuv qiymati asosiy bo'lsa, Buagilberda iste'mol qiymati bosh rol ni o'ynadi. Aslida ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Buagilber qarashlaridagi cheklanganlik (faqat dehqonlarni himoya qilishi, sanoat va savdoni etarlicha baholamasligi), bizningcha tarixan bo'lib, Fransiya

kapitalizmi rivojining xususiyatlaridan kelib chiqadi, nazariy jihatdan orqaga qarash bor. Agar Angliyada sanoat, savdo va hatto qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar to'la g'alaba qozongan bo'lsa, uning iqtisodiyoti mehnat taqsimoti, raqobat, kapital va ishchi kuchlarining faolligi bilan xarakterlanar edi; Fransiyada esa bu munosabatlar endi shakllana boshlagan edi, xolos.

## **QISQACHA XULOSALAR**

XVII-XVIII asrlarda qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dastlab Angliyada klassik iqtisodiy maktab kurtaklari paydo bo'la boshladi. Bu yangi iqtisodiy g'oyalar V.Petti nomi bilan bog'liq (burjua inqilobi, manufaktura va savdoning rivojlanganligi, agrar islohot, dehqonlarning chegaralanishi, mustamlakachilik siyosati, qulay tarixiy, tabiiy va geografik hamda iqlimiy sharoitlar).

Klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi avvalgi g'oya merkantilizmdan prinsipial farq qiladi, agar merkantilizmda boylikning asosi muomala sohasi (javohir, oltin, kumush, pul, savdo saldosida) vujudga keladi deb qaralgan bo'lsa, endi boylik ishlab chiqarish sohasida vujudga keladi deb isbotlab berildi. V.Petti yangi kapitalistik jamiyatni, erkin tadbirkorlikni, kapitalistlarni himoya qildi, xususiy mulkni «muqaddas» va «dahlsiz» deb bildi.

U iqtisodiy tadqiqotda tabiiy fanlarni, ya'ni abstrakt usullarni qo'llab har bir masalaning ichki bog'liqligiga asosiy e'tiborni qaratdi, matematik va statistik usullardan keng foydalandi. V.Petti «tabiiy baho» (qiymat), «siyosiy baho» tushunchalarini kiritdi, tovar qiymatining unga sarflangan mehnat miqdori bilan o'lchanishi g'oyasiga, ya'ni qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. «Mehnat boylikning otasi, er esa uning onasidir» degan fikrni bildirdi. Qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushundi. Ish haqi ishchilarga tirikchilik uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum, ya'ni «yashash, mehnat qilish va ko'payish» uchun kerak darajada to'lansa bas, degan g'oyani ilgari surdi.

Kapitalistlarning foydasini imkoni boricha oshirishni, ishchilarning soliq to'lashlarini zarur deb bildi. Pulning roli va uning mamlakatdagi miqdori masalalarini asosan to'g'ri hal etdi, ya'ni pul miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga to'g'ri, pulning aylanish oborotiga esa teskari proporsionalligini aniqladi. Pulning me'yorda bo'lishini qo'llab-quvvatladi. Er va renta masalalarini ancha puxta ishlab chiqdi. Ish haqi va rentaning bir-biriga qarama-qarshiligini isbotladi (er bahosini to'g'ri hal etmadi).

Petti «Siyosiy arifmetika» va boshqa asarlarida statistika, aniqrog'i demografik statistika faniga asos soldi. «Aholi - boylik asosi» masalasini to'g'ri qo'ydi. Milliy daromad masalasini qo'ydi va uni qisman hal etdi. Fransiyadagi klassik iqtisodiy maktabning dastlabki vakili P.Buagilber ham muhim g'oyalarni ilgari surdi. Bu mamlakat ahvoli Angliyanikidan ancha katta farq qildi. Shu sababli iqtisodiy qarashlarda o'ziga xoslik seziladi.

## **7-MAVZU. A. SMITNING IQTISODIY TA'LIMOTI**

### **7.1. Klassik maktab g'oyalari shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Klassik iqtisodiy maktabning to'la shakllanishi**

XVIII asrning ikkinchi yarmida klassik iqtisodiy maktab britaniyalik olimlar A.Smit va D.Rikardo asarlarida eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bu hol tasodifiy emas edi, chunki bu olimlar yashab ijod etgan davrda Angliyada chuqur iqtisodiy, sosial va siyosiy o'zgarishlar ro'y berayotgan edi.

Angliya jahonda eng rivojlangan va sanoatlashgan davlatga aylana boshladi, iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda kapitalistik munosabatlar hal qiluvchi o'rinlarni egalladi. Mamlakatda yuksak rivojlangan qishloq xo'jaligi va tez o'sayotgan sanoat mavjud edi, faol tashqi savdo olib borilardi. Yangi jamiyatga xos sinfiy ajralish yaqqol bo'lib, ishchilar, sohibkorlar, er egalari - lendlordlar va fermerlar bor edi. XVIII asr o'rtalariga kelib Angliyada amalda dehqonlar, ya'ni yomenlar sinfi chegaralash agrar islohoti tufayli tarix saxnasidan tushdi.

Kapitalning dastlabki jamg'arilishi natijasida hosil bo'lgan pul kapitali (manbalari: past ish haqi, mustamlaka siyosati, ayniqsa noekivalent savdo, qul savdosi, erlarning dehqonlardan tortib olinishi, bosqinchilik urushlari va boshqalar) tobora ko'p miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligiga qo'yila boshladi. Yirik markazlashgan manufakturalar va kapitalistik fermalar tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Agar XVIII asr boshida mamlakat hali agrar holatda bo'lsa, sanoatning iqtisodiyotdagi hissasi tobora tez o'sib bordi. Angliya industrial agrar davlatga aylandi. Manufakturalar soni oshdi, ulardagi ishchilar soni ko'paydi, ishchilarning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lib, qattiq ekspluatasiyaga duchor qilindi.

Manufakturalar soni tez oshib borgani bilan ichki va tashki bozordagi o'sib borayotgan mahsulotlarga bo'lgan talab to'la qondirilmas edi, taklif esa etarli emas edi.

Asr o'rtasida Angliya boshqa mamlakatlarga nisbatan manufakturalardan fabrikaga o'tishga yaqin turar edi. Angliya sanoat inqilobi arafasida edi. Mamlakatning sanoat mahsulotlari jahon bozorida yuqori baholangan va talab tobora ortgan, ammo davlat tomonidan kiritilgan savdo-sotiqdagi proteksionizm siyosati, feodalizm davridagi bir qancha tartib va cheklashlar, qonunlar davr talabiga javob bermay qo'ydi, ularning borligi kapitalizm rivojiga to'sqinlik qilar edi. Hali kam sonli savdo va sanoatdagi sohibkorlar sinfi bu davrda progressiv o'zgarishlar tarafdori edi, ammo ekspluatasiya usullari ishchilar sinfining qarshiligiga uchray boshladi. Undan tashqari, yangi o'zgarishlarga hali ancha kuchli va uyushgan dvoryanlar sinfi ham to'siq edi. Angliya sanoati egalari erkin sohibkorlik faoliyatini kuchaytirishni, feodalizm qoldiqlarini tugatishni talab qilardi. Shu sababli sohibkorlar sinfi yangi kapitalistik ishlab chiqarish usulini ilmiy jihatdan to'la tahlil qiladigan iqtisodiy ta'limotlarga muhtoj edi.

Shunday qilib XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A.Smit va D.Rikardo ta'limotlarida o'z aksini topdi. Bu tadqiqotlar aslida sohibkorlar mafkurasini himoya qilgan bo'lsa ham, bu mafkuraning apologetlari (ko'r-ko'rona

ataylab yoqlovchilari) emasdilar, ular o'z asarlari va yaratgan ta'limotlarida bu tuzumning barcha faoliyatini to'la-to'kis ma'qullamadilar, uni bo'yab ko'rsatishga urinmadilar, bu jamiyatdagi ilg'or tomonlarni ko'rsatish bilan birga undagi ko'pgina qarama-qarshilik va nuqsonlarni ochib tashladilar, ishchilar sinfiga, uning ahvoliga achinish, rahm-shafqat va xayrihohlik munosabatida bo'lganlar. Ular tomonidan yaratilgan ta'limot ingliz klassik iqtisodiyotining asosi bo'ldi va jahon iqtisodiyot fikriga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu olimlar o'zlaridan avvalgi merkantilizm, ilk klassik maktab va fiziokratizm g'oyalarini mukammal o'rganib, shular asosida yangi iqtisodiy maktabning shakllanishini nihoyasiga etkazdilar. Aslini olganda ular bozor iqtisodiyoti asosini yaratdilar. Klassik maktabning to'la shakllanishida ayniqsa sanoat inqilobi katta rol o'ynadi (bu ibora muomalaga 75-80 yil ilgari taniqli tarixchi A.Toynbi tomonidan kiritildi va Toynbining o'zi buni 1760 yilda Shotlandiyadagi yirik Kerron metallurgiya zavodining ishga tushishi bilan bog'laydi). R.Xeylbroner va L.Turoularning fikriga ko'ra shu davrda bozor jamiyati («*rnochnoe obestvo*») vujudga keldi (bozor iqtisodiyoti avvaldan mavjud).

Avvalgi barcha tizimlarda iqtisodiy hayotni tashkil etish usulida an'analar hokimiyati va buyruqlar doim ustun bo'lgan.

Bozor tizimida esa barcha erkin bozor talablari doirasida sohibkorlik bilan ixtiyoriy shug'ullanadilar, an'analar yoki kimlarningdir buyrug'iga bo'ysungan holda ish yuritmaydilar. Bu tizimda odamlar ish tanlashda to'la erkinlikka ega bo'libgina qolmasdan, ishni ham o'zlari qidirishi kerak. Bunga qarama-qarshi bo'lgan jamiyatda qullar yoki an'analar bilan cheklangan hunarmandlar oldindan o'zlarining ma'lum vazifalarini bajarganlar va uni o'zgartirish juda katta qiyinchiliklarni tug'dirgan. Bozor tizimida har bir inson erni erkin sotib olishi yoki sotishi, ferma esa o'z navbatida osonlik bilan savdo markaziga aylanishi mumkin.

Bu tizimda kapital bozori paydo bo'ladi va ishlab chiqarishda doimo boylik oqimi, ya'ni banklar va boshqa moliya kompaniyalari tomonidan tashkil etiladigan jamg'arma va investisiyalar oqimi vujudga keladi, qarz oluvchilar bu boyliklardan foydalanganligi uchun foiz to'laydilar.

Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan mehnat sarflari, er va kapitallar ishlab chiqarish faktorlari (*omillari*) deb ataladi (*bu masalalar keyinroq qarab chiqiladi*).

Kapitalizm gacha ishlab chiqarish faktorlari umuman bo'lmagan, degan qisqacha xulosalar chiqariladi. Albatta inson mehnati, tabiiy resurslar, shuningdek er va ishlovchilar san'ati doim bo'lgan, ammo mehnat, er va kapital tovar emas edi. Mehnat krepostnoy yoki qullarning ijtimoiy vazifasiga aylanib, bu mehnatga haq to'lanmagan. Krepostnoy dehqon undan tashqari o'z xo'jayiniga erdan va qurol-yarog'dan foydalanganligi uchun obrok to'lagan. Er harbiy yoki fuqarolik hokimiyatining asosi hisoblangan. Kapital xazina yoki hunarmandlarning asbob-uskunolari sifatida qaralgan va u bozor bahosiga ega bo'lmagan.

Kanday qilib haq to'lanmaydigan mehnat, renta puli keltirmaydigan er va shaxsiy xazina ishlab chiqarish faktoriga aylanib qoldi? Bu kapitalistik tuzumni keltirib chiqargan inqilob bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar tarixan uzoq davrni (XV-XVI asrlar) o'z ichiga olib, ba'zida asta-sekin, ba'zan esa to'fon kabi o'rta asrlarning urf-odatlarini emirib bordi va jamiyatni hozir biz biladigan bozor jamiyatiga olib

keldi. Ayniqsa Angliyada bu jarayon ertaroq boshlandi va biz yuqorida eslatgan dehqonlarni shafqatsizlik bilan o'z erlaridan siqib chiqarish yo'li bilan amalga oshirildi. Asosiy maqsad bu erlarni lendlordlarga berish va yaylovga aylantirib, qo'y boqish, uning junidan manufakturalarda mato to'kish edi. O'z erlaridan mahrum bo'lgan ijarachilar shaharlarga ketishga va u erda o'z ishchi kuchini ishlab chiqarish faktori sifatida sotishga majbur edilar.

Fransiyada ham shu kabi o'zgarishlar ro'y bera boshladi, demak, bundan shunday qisqacha xulosalar chiqarish mumkinki, bozor jamiyati uchun hayotiy zarur bo'lgan ishlab chiqarish faktorlari tarixiy o'zgarishlar tufayli yuzaga keldi. Oqibatda mehnat tovarga aylandi, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan er ko'chmas mulk bo'lib qoldi va uni sotish, sotib olish mumkin bo'lib qoldi, xazina esa kapitalga aylandi. Ammo kapitalizmning iqtisodiy erkinligi ba'zilar uchun yutuq, ko'pchilik uchun esa qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Ko'tarilayotgan savdo sohibkorlar uchun yangi hayotga yo'llanma va yangi ijtimoiy holat bo'lsa, kambag'allar sinfi uchun esa o'z holatidan chiqib olish uchun imkoniyatdir, chunki avvalgi holatda bunday asos yo'q edi. Lekin iqtisodiy erkinlikning muhim tomoni yana shuki, unda har kim bironing hech qanday yordamisiz hayot girdobida yashash uchun kurashishi kerak bo'ladi. Ko'pincha savdogarlar va boshqa xodimlar bu to'fonda o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi.

Shunday qilib, bozor tizimi bir tomondan turli qiyinchilik, ishonchsizlik, azob-uqubat sababi bo'lsa, shu vaqtning o'zida taraqqiyot, imkoniyat va yutuqlar manbai hamdir.

XVIII asrning ikkinchi yarmida «Texnik yo'nalishda»gi ishbiarmonlar guruhi iqtisodiyot tarixida butunlay yangi insonlarni vujudga keltirdi.

Sanoat inqilobi dastlab engil sanoatda, xususan, to'qimachilik sohasida boshlandi va mashinasozlik vujudga kelishi bilan nihoyalandi. **J.Key** to'quv mokisini, 1733 yilda **J.Xargrivs** o'z qizining nomi bilan atalgan «*Jenni*» mexanik to'quv dastgohini kashf etdi. Mexanik **K.Vud** uni 1772 yilda takomillashtirdi, 1783 yilda esa **S.Krompton** «myul-mashina»ni yaratdi, 1785 yilda **E.Kartrayt** mexanik to'quv stanogini ijod qildi, bu dastgoh 40 odamning ishini bajarardi. **R.Arkraydning** to'quv mashinasi esa bu sohaning unumdorligini keskin oshirdi.

Ishlab chiqarishning energetik bazasi qo'l va suv oqimidan 1782 yilda **J.Uatt** tomonidan ishlab chiqilgan bug' mashinasi ixtiyoriga o'tishi muhim o'zgarish bo'ldi, bu mashina asosida 1805 yilda bug' kemasi-paroxod yaratildi, 1811 yilda **J.Stefenson** parovoz yasadi, 1830 yilda esa Manchester-Liverpul temir yo'li qurildi.

Metallurgiya sohasida 1735 yilda **A.Derbi** pistako'mir o'rniga toshko'mirdan foydalanib, domna pechidan nisbatan sifatli va ko'proq miqdorda metall olish yo'lini topdi. **J.Uilkinson** hamma narsa, ko'prik, quvur va hatto paroxod ham metallardan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Temirdan paroxod yasalganida uning suvda suza olishiga hech kim ishonmadi.

Sanoat inqilobi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlarga olib keldi. 1701-1802 yillar oralig'ida to'qimachilik rivoji tufayli Angliyada paxta tolasidan foydalanish 6000 foizga o'sdi. 1788-1838 yillarda cho'yan eritish 68 ming tonnadan 1347 ming tonnagacha oshdi.

Fransiyada 1815 yildan keyingi 30 yil ichida temir olish 5 marta, toshko'mir qazish 7 marta, yuk tashish hajmi 10 marta ko'paydi. Vaholanki, A.Smit davrida Shotlandiyaning ayrim joylarida mix pul o'rnida ishlatilgan. Bu o'zgarishlar, ya'ni texnikaning kirib kelishi buyum - tovarlar turini keskin oshirdi, ilgari ayrim odamlargagina tegishli bo'lgan narsalar (poyafzal, qog'oz, stul, deraza oynalari) kundalik buyumlarga aylanib qoldi. Asta-sekin kapitalizm hayot darajasining o'sishiga olib keldi, moddiy ne'matlar turi sistematik ravishda doimo ko'paydi, sifati yaxshilandi, eng muhimi bu imkoniyatlardan jamiyatning aksariyat qismi foydalandi. Bunday jarayon ilgari hech ham bo'lmagan edi.

Jamiyat ishlab chiqarish apparatining absolyut ko'rsatkichlari texnika ta'siri ostida keskin oshdi. Bu jarayon ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asbob-uskunaning ko'payishi, asosan temir, keyin pulatdan yasalgan texnologiyalar ortishi bilan boshlandi. Temir oluvchi oddiygina pechlar o'rniga gigant inshootlar paydo bo'ldi, oddiy to'quv dastgohlari ham katta uylarga zo'rg'a joylanadigan mexanizmlar bilan almashtirildi.

Agar avvalgi korxonada bor-yo'g'i 10 kishi ishlagan bo'lsa, XIX asrning birinchi choragida to'qimachilik fabrikalarida 700 dan ortiq ishchi bo'lgan. Ayrim korxonalaridagi ishchilar soni kichikroq shahar aholisiga tenglashdi. Masalan, 1929 yil «*Ford-Motor Kompani*»da 174 ming odam ishlar edi, hozir ularning soni 800 mingtaga etgan. Mehnat taqsimoti nihoyatda kuchaydi, bu esa mehnat unumdorligining asosiy sababidir.

Siyosiy sohada ham muhim o'zgarishlar ro'y berdi, demokratik, parlamentar institutlar yuzaga kela boshladi. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, bu inqilobiy o'zgarishlarni hamma ham to'la tushunib etmadi. Masalan, A.Smit mashina va fabrikalarni ko'rgani holda manufakturani qo'lladi, Angliya kelajagi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq deb o'yladi.

## 7.2. A. Smitning iqtisodiy g'oyalari. Uning «Xalqlar boyligi...» asaridagi iqtisodiy qarashlar



**Adam Smit** (1723-1790) Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida bojxona chinovnigi oilasida dunyoga keldi. Glazgo va Oksford universitetlarida ta'lim oldi, u erda falsafa, adabiyot, tarix fanlari bilan birga fizika va matematikani ham o'rgandi. A.Smit 1748 yilda Edinburgda ommaviy leksiya o'qiy boshladi. Glazgo universitetining professori lavozimiga saylandi, keyinchalik ijtimoiy fanlar kafedrasini boshqardi. A.Smit 1759 yilda o'qigan leksiyalari asosida etikaning falsafiy muammolariga bag'ishlangan o'zining birinchi «**Ahloqiy hissiyot nazariyasi**» kitobini yaratdi.

Uning iqtisodchi bo'lishiga Glazgodagi o'ziga xos siyosiy iqtisod klubidagi ishtiroki, qisman filosof va iqtisodchi David Yum bilan do'st bo'lganligi ta'sir etdi. Ammo u 1764 yilda universitetdagi ishini tashlab, bir ingliz aristokratning

**Adam Smit** oilasiga tarbiyachi bo'lib keldi (gersog Baklyu). O'z tarbiyalanuvchisi bilan Evropa bo'ylab sayohatga chiqdi, Shveysariyada Volter, Fransiyada Didro, fiziokratlar F.Kene va A.Tyurgo, D`Alamber, Gelvesiy, Golbax

va boshqa taniqli progressiv olimlar bilan uchrashdi, ularning ishlari bilan tanishdi. Bu uchrashuvlar olimning dunyoqarashini shakllantirishga katta ta'sir qildi.

U 1766 yilda o'z yurtiga qaytdi va o'zining bosh asari - «**Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot**»ni yozishga kirishdi, bu asar 1776 yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy prinsiplar asosida nisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi

A.Smitning bu asari besh kitobdan iborat bo'lib, birinchisida qiymat va qo'shimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida - kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Evropaning iqtisodiy rivojlanishi, uchinchisida - turli xalqlarda farovonlik, kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida - merkantilizm va fiziokratlarning ta'limotiga munosabati, beshinchisida esa davlat moliya tizimi tadqiq etilgan. Bu ajoyib asar A.Smit tirikligidagi davrda to'rt marta, o'limdan asr oxirigacha uch marta takroran nashr etildi. Bu asardagi qisqacha xulosalarlar keng jamoatchilikni faqat Angliyadagina emas, balki chet ellarda ham qiziqtirib qoldi. Rossiyada bu asarning tarjimai birinchi marta 1802-05 yillarda chop etildi.

1778 yilning boshida Edinburg shaxridagi bojxona kommissari lavozimiga tayinlandi va umri oxirigacha shu erda ishladi. Zamondoshlarining eslashicha, A.Smit nihoyatda xushmuomalali inson bo'lgan, ammo shu bilan birga afsonoviy parishonxotir ham ekan.

O'sib borayotgan sohibkorlar uchun bu asar ayniqsa asqotdi, feodalizm qoldiqlarini tugatish uchun qimmatli qurol bo'ldi. Yangi kapitalistik, ya'ni bozor iqtisodiyotining klassik ta'limoti yaratildi.

A.Smit tomonidan tadqiq etilgan insonning tabiati, inson va jamiyat orasidagi munosabat klassik maktab qarashlarining asosini tashkil etadi. Bunda «iqtisodiy odam» tushunchasi keyinroq paydo bo'lishiga qaramasdan, uning kashfiyotchilari A.Smitga tayanganlar.

### **A.Smit tadqiqot predmeti va metodologiyasi.**

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari A.Smit **tadqiqotining predmetini** tashkil etadi. Qanday shart-sharoitlar va qanday qilib va qanday qilib insonlar yuqoriroq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar degan fikr asarning asosiy g'oyasini aks ettiradi. Iqtisodiy o'sishning pul shakli inkor etiladi va moddiy ne'matlar yaratish asosiy deb qaraladi, bular esa faqat ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladi va shu sababli ustuvor deb hisoblanadi. Ammo qaysi (sanoat, qishloq xo'jaligi) soha afzalligi aniq aytilmaydi. Asarning 2-kitobida dehqonchilikka kapital qo'yish yaxshiroq samara beradi deb o'qtiriladi. Iqtisodiyot rivojlanishi bilan sanoat tovarlarni narxi pasayish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi esa o'sish tendensiyasiga ega deb hisoblaydi. Demak, shunday qisqacha xulosalar qilish mumkinki, agrar soha ustun (bu xato).

Metodologik jihatdan bu tadqiqot **iqtisodiy liberalizm** konsepsiyasiga, ya'ni fiziokratlarning tabiiy tartibi, yanada aniqroq bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslanadi.

Olim o'z asarlari va tadqiqotlarida odamlar ba'zi bir shunday tabiiy xususiyatlarga egaki, ular ijtimoiy tuzumga bog'liq emas, degan qisqacha

xulosalarga asoslanadi. Ana shunday xususiyatlardan biri - egoizm (xudbinlik) bo'lib, odamlar o'z xo'jalik faoliyatlarida unga amal qiladilar. Ammo ayrim shaxsninggina manfaatlari jamiyat manfaatlariga mos tushadi, deb uqtiradi u. Har bir odam o'z shaxsiy manfaatini ko'zda tutadi, ammo bu holatda ko'p boshqa holatlardagi kabi, u «**ko'rinmas qo'l**» tomonidan uning niyatida ham bo'lmagan maqsad sari yo'naltiriladi...

Bunda u ongli ravishda xususiy manfaatlarga intilganidan ko'ra ko'proq haqqoniy ravishda jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. «*Ko'rinmas qo'l*» - bu ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning stixiyali harakati. Bu qonunlar odamlarning xohish-irodasidan qat'i nazar, odatda unga qarama-qarshi harakat qiladi. Har bir odam ko'proq foyda olish uchun kapitalni imkoni boricha qulay ishga joylashtirishga urinadi, chunki u jamiyatning emas, balki avvalo o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlaydi. Ammo inson o'z shaxsiy manfaatini o'ylagan paytda, bu holat tabiiy, yoki aniqrog'i, muqarrar ravishda shunga olib keladiki, odam jamiyat uchun ko'proq naf keltiruvchi mashg'ulotni tanlaydi va shu ish bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, Smitning ta'rifi bo'yicha, foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat deb qaraladi (biz Sovet hokimiyati davrida uzoq yillar davomida bu fikrga qarshi kurashib keldik).

Hozirgi davrda barchaga yaxshi ma'lum blgan «ko'rinmas ko'l» iborasi bilan birga «**iqtisodiy odam**» tushunchasi ham kiritildi. Unga ko'ra , shaxsiy manfaatlar tufayli savdo va almashuv jarayoni amalga oshadi. «Menga kerak bo'lgan narsani bersang, men senga kerak bo'lgan narsani beraman», qabilida, ya'ni shaxsiy manfaatlarning talabini qondirish yo'li tutiladi, ya'ni gap kimningdir sahiyligida emas.

Iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarning o'zaro nihoyatda samarali harakati sharoitlarini A.Smit «**tabiiy tartib**» deb atagan. A.Smit va uning izdoshlari bu tushuncha bir tomondan iqtisodiy siyosatning tamoyili va maqsadi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu iqtisodiy harakatni o'rganish uchun nazariy konstruksiya yoki modeldir. Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak, degan qisqacha xulosalar chiqariladi.

Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

1. Ishchi kuchining erkin harakati;
2. Savdoda (er savdosida ham) to'la erkinlik;
3. Sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentasiya qilishga qat'iy qarshilik;
4. Erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi).

Olimning bu g'oyalari keyinchalik to'la amalga oshdi.

A.Smit kapitalistik jamiyatni tabiiy tuzum bilan bir deb tushungan, shuning uchun kapitalistik munosabatlar abadiy, kapitalistik xo'jalik namoyandalarining xususiyatlari odamning tabiiy xususiyatlari kabidir, deb izohlaydi (bu fikrning qanchalik to'g'riligini tarix ko'rsatadi). A.Smitning tushunchasi bo'yicha iqtisodiy hayot shunday jarayonki, u ayrim kishilarning xohishiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv qonunlarga bo'ysunadi. Bu qonunlar tabiiydir, insonning tabiatidan kelib chiqqan xo'jalikning «tabiiy» qonunlarini ochishga intilgan olim amalda kapitalistik ishlab chiqarishni tadqiq etdi.



A.Smit iqtisodiy haqiqatga oid faktlarni qanday bo'lsa shunday holda, bevosita kuzatuvchiga qanday ko'rinsa shunday o'rganish bilan cheklanmasdan, «tabiiy baho», «tabiiy norma», ish haqi va boshqalarning nimaga bog'liq ekanligini aniqlashga urindi. Buning uchun u mantiqiy abstraksiya yordamiga tayanib ish yuritdi. U tasodifiy voqealardan holi ravishda kapitalistik xo'jalikning ayrim xususiyatlari to'g'risida qator muhim qisqacha xulosalarlar chiqardi. Shu bilan birga u boshqa vazifa - aniq iqtisodiy hayotni izohlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. U shu maqsadda shundokkina ko'rinib turgan kapitalistik xo'jalik voqealarini izohladi va ma'lum sistemaga soldi.

A.Smit abstraksiya usulidan foydalanib qator chuqur ilmiy qisqacha xulosalarlarga keldi, hodisalarning ichki bog'lanishi masalalariga kirib bordi. Shunga parallel ravishda u boshqa yo'ldan ham bordi, kapitalistik haqiqat to'g'risidagi bevosita kuzatish natijalarini umumlashtirdi. Birinchi metod izoterik, ikkinchisi - ekzoterik usullar deb ataladi.

**N.G.Chernishevskiy** A.Smit metodiga aniq xarakteristika bergan. Ikkala metodni bir vaqtda qo'llashning afzalligi bilan birga, katta kamchiligi ham bor: olingan natijalarni bevosita solishtirish har doim ham mumkin emas. Ilmiy tahlil asosida olingan qisqacha xulosalarlar, yuzaki umumlashmalar bilan bir qatorga qo'yiladi. Mazmun va hodisa shakllari doim ham o'zaro mos kelavermaganidan bu qisqacha xulosalarlar ba'zida bir-biriga zid ham bo'lgan, ammo A.Smit buni oxirigacha tushunib etmadi.

### **Mehnat taqsimoti va pul to'g'risidagi ta'limot.**

Bevosita masalaga o'tishdan avval bir narsaga diqqatni jalb etish kerakki, bu A.Smit yashagan muhitdir. Muhit olimning tadqiqotlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davr Angliyada manufaktura nihoyatda rivojlangan va sanoat inqilobi arafasidagi yoki bu boradagi dastlabki qadamlar qo'yilgan payt edi. Shu sababli A.Smit manufaktura davrining umumlashtiruvchi iqtisodchisi mafkurachisi bo'lib qoldi. O'z davri uchun mos ravishda u manufakturani ishlab chiqarishning eng progressiv, eng ilg'or shakli deb baholadi, uning tarixan o'tkinchiligini tushunmadi, bu albatta sharoitning ta'siridir. A.Smit ishchilar, kapitalistlar va er egalarining turli sinf vakillari ekanligini yaxshi tushungan va iqtisodiy rivojlanishning umuman yaxshi oqibatlari hamma uchun tegishli, xalq boyligining ortishidan esa jamiyatning hamma a'zolari bir xil manfaatdor deb o'ylagan edi. O'z davrida tanqid qilingan bu g'oya hozirgi paytda haqiqatga ancha yaqindir (yana tarix ko'rsatadi).

A.Smitning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi (merkantilistlardan keskin farqi bor). Eslang, fiziokratlar va ilk klassik maktab vakillari mehnat faqat qishloq xo'jaligidagina samarali bo'ladi, desalar, A.Smit mehnatni barcha sohalarda (sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari) boyligining asosi deb bildi. U kapitalistik ishlab chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy progressning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan qisqacha xulosalarga keldi va buni o'z tadqiqotlarining boshlang'ich punkti deb qabul qildi.

A.Smit o'z tadqiqotida nina-tugnogich manufakturasidagi ko'pchilikka ma'lum bo'lgan mehnat taqsimotini misol qilib keltirdi, u erdagi ishchilarning

ixtisoslashuvi va mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni va mehnat unumdorligini ko'p marta oshirish imkonini berdi. Mehnat taqsimoti bo'lmagan holatda har bir ishchi o'rtacha 20 ta to'g'nog'ich yasashi mumkin ekan.

O'n kishi ishlaydigan ustaxonada mehnat taqsimoti o'rnatiladi: biri simni tortadi, 2-si to'g'rilaydi, 3-si kesadi, 4-si uchini o'tkirilaydi va hokozi. Bu kuniga 4800 ta to'g'nog'ich yasash imkonini beradi, demak, mehnat unumdorligi 240 marta oshgan. Mehnat taqsimotining ahamiyati to'g'risidagi bu misol klassik bo'lib ketgan va hamma erda ishlatiladi. Mehnat unumdorligi uch usul bilan amalga oshiriladi:

1. Mehnat taqsimoti tufayli ayrim ishchilarning chakkonligi va mohirligi oshadi;

2. Bir turdagi ishdan boshqasiga o'tish uchun ketadigan vaqt iqtisod qilinadi (dastgohdan dastgohga borish vaqti va yangi turdagi ishga psixologik moslashish uchun ketadigan vaqt iqtisod qilinadi);

3. Mehnat taqsimoti mashinalar ixtiro qilishga imkon tug'diradi, ya'ni takrorlanadigan jarayonlar mashina qo'llashga qulaylik yaratadi.

Undan tashqari ishchilarning bir xil ishni doim takrorlashi tufayli mahsulotning sifati ham yaxshilanishi kerak, bu esa tovarning bahosi, raqobat quvvatini oshiradi. Shunday qilib, A.Smit manufakturada mehnat taqsimotining roli va mashina sanoati sari rivojlanish tendensiyasini to'g'ri yoritgan. Uningcha ishlab chiqarish hajmi va mahsulot iste'moli ikki omil: *aholining unumli mehnat bilan shug'ullanayotgan qismi va mehnat unumdorligining darajasi* bilan belgilanadi. Farqli ravishda ikkinchi omil muhimroq bo'lib, u mehnat taqsimoti bilan bevosita bog'liqdir.

A.Smit asarida mehnat taqsimotining salbiy tomonlari ham berilgan. Bir xil operatsiyani mexanik ravishda takrorlayverish oqibatida ishchi befarosat va nodon bo'lib ham qolishi mumkin. Aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farq odamlarning tabiiy ko'rsatkichlari bilangina aniqlanmaydi, balki ularning hayoti va faoliyati oqibatidadir. Faylasuf aravakashdan tug'ma xususiyatlari bilan emas, balki boshqa turdagi mehnat va hayot tarzi bilan farq qiladi. Mehnat taqsimoti qancha mukammal va bozor qancha keng bo'lsa, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv uchun shuncha keng sharoit bo'ladi, tor bozorda bu imkoniyatlar cheklangan bo'ladi va mehnat unumdorligining o'sishi ham qiyinlashadi.

A.Smit bir tomondan manufaktura miqyosida va ikkinchidan jamiyatdagi turli korxonalar, sohalar mehnat taqsimoti o'rtasida prinsipial farq yo'q deb hisoblaydi. Uningcha, butun jamiyat yirik manufaktura bo'lib, mehnat taqsimoti esa odamlar hamkorligining umumiy shaklidir. Shu bilan birga ob'ektiv sharoitni hisobga olib, manufakturadagi mehnat taqsimoti va endigina rivojlanib kelayotgan mashina sanoatining salbiy oqibatlari ham tan olinadi.

### **Pul nazariyasi**

Ishchi kapitalning ilojisiz qo'shimchasiga aylanib boradi, ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat ob'ekti va sharoitidan mahrum bo'la boradi. Insonning almashuvga moyilligi uning psixologiyasi va hulq-atvoriga xos bo'lib, mehnat taqsimotining rivojiga ham ta'sir etadi. Bundan keyin, mehnat taqsimotining o'sishi va almashuvning kengayishi parallel boradi va ular bir-birining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu jarayonda pulning muhim roli bor. Smit tovar dunyosining

pulning stixiyali ravishda, uzoq rivojlanish jarayoni natijasida ajralishini ko'rsatib beradi. Pulning paydo bo'lishini ayrim talantli odamlarning kashfiyoti yoki odamlarning o'zaro hamkorligiga bog'lash mumkin emas. Smit pulning muomala vositasi funksiyasini boshqalarga nisbatan (bu prinsiplar Smitda beshta, Farb olimlarida esa asosan uchta) alohida ta'kidlaydi. Oqibatda Smitning fikricha, pul texnik qurol bo'lib, iqtisodiy jarayonlarni engillashtiradi, uni «*muomalaning buyuk g'ildiragi*» deb baholaydi. A.Smit oltin va kumush pullarni qog'oz pul bilan almashtirish maqsadga muvofiq, uni esa banklar cheklangan miqdorda chiqarishi zarur deb hisoblagan, ammo bunga uncha katta e'tibor bermagan.

A.Smitning qarashlarida ancha chalkashliklar bo'lsa ham, lekin u pul va kreditni ishlab chiqarish asosidan chiqardi, ularning ishlab chiqarishga nisbatan tobeligini ko'rsatib berdi. A.Smit pul-kredit omillarining mustaqilligini etarli baholay olmadi, ularning ishlab chiqarishga teskari ta'sirini tushunmadi.

### **Qiymat nazariyasi**

A.Smit qiymatning mehnat nazariyasini V.Pettiga nisbatan ancha chuqur va to'laroq ishlab chiqdi (shuni ta'kidlab o'tish kerakki, keyingi Farb tadqiqotlarida qiymat o'rniga qimmat tushunchasi ko'proq qo'llanilmoqda, marjinalizm nazariyasida ham shunday). U tovarning bozor va tabiiy yoki haqiqiy baholarini farqlaydi, haqiqiy bahoni qiymat bilan aynan bir deb tushunadi. «*Qiymat*» so'zi uningcha ikki xil mazmunga ega. Bu so'z bilan buyumning foydaliligi (balki qimmat) hamda uni boshqa buyumga almashish qobiliyati belgilanadi. Demak, u iste'mol va almashuv qiymatlarini farqlagan. Masalan, suv va olmosni olib, bu tovarlarning almashuv qiymatini ularning foydaliligi yoki iste'mol qiymati bilan tushuntirish bema'ni ekanligini ko'rsatib beradi. Qiymatning yagona manbai va oxirgi o'lchovi shu tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat bo'lib, bu mehnat sarflari jami uchun zarur o'rtacha sarfga tengdir. Smit malakali va murakkab mehnatdan oddiyga o'tishga ma'lum koeffisientlar yordamida bajarilishini uqtiradi.

Almashuv qiymati tovarning tabiiy xususiyati emas, tovarlarning tabiiy xususiyati, ularning iste'mol qiymatlari hisoblanadi. Agar tabiiy xususiyatlarni inkor etsak, tovarlarda yagona xususiyat qoladi: tovarlar inson mehnatining mahsulidir. A.Smit V.Pettidan farqli ravishda (u mehnat faqat oltin yoki kumush ishlab chiqarishda qiymat hosil qiladi, degan edi) mehnat barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida qiymatni hosil qiladi, degan fikrda edi. U ish vaqti va qiymat miqdori orasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlikni aniqladi, mehnat qiymatning haqiqiy asosi ekanligini isbotlashga urindi.

A.Smit mehnatning ikkiyoqlama xarakterini, ya'ni abstrakt va konkret mehnat borligini tushunmadi, qiymat o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy xarakterga ega, tovar ishlab chiqaruvchilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi va bir tovarning ikkinchisiga munosabati almashuv qiymati orqali aniqlanadi.

Smitning fikricha, qiymatni sotib olinadigan mehnatga qarab aniqlash shu tovarlarni ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan aniqlash usuliga qarama-qarshi emas.

Ekvivalentlik tovar almashuvining qonuni: bir xil miqdordagi mehnat aks etgan tovarlar almashadi. Shundan Smit tovar ishlab chiquvchi bir tovarni

boshqasiga almashganda keng miqdordagi mehnatni sotib oladi, shu sababli tovar qiymatini sarflangan va sotib olingan mehnat bilan bab-baravar aniqlash mumkin, degan qisqacha xulosalar chiqaradi. Bu holda qiymat o'lchovi deb ish vaqti o'rniga mehnatning almashuv qiymati keltiriladi.

Sotib olinadigan mehnat nazariyasida qiymat tushunchasi ishlab chiqarish faoliyatidan almashuv sohasiga ko'chirilgan (bu esa xato), almashuv qiymati esa o'z hisobiga faqat ma'lum miqdordagi mehnatni olish qobiliyati sifatida izohlagan, xolos.

A.Smit kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatni tahlil etib, bunda ekvivalentlik qonunining buzilganligini ko'rdi. Kapitalist ishchiga ish haqi sifatida ishchi mehnati tomonidan yaratilgan qiymatning faqat bir qismini to'laydi. Bu qiymatning ikkinchi qismini esa kapitalist foyda sifatida o'zlashtiradi. Olim kapitalizm davrida qiymat qonuni buzilayotir, deb e'lon qildi va qiymatning mehnat nazariyasi kapitalizmga bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, qiymat faqat «jamiyatning dastlabki holatida», kapitalist va yollanma ishchilar bo'lmagan, ya'ni oddiy tovar ishlab chiqarilishi sharoitlaridagina mehnat bilan aniqlanadi (ekvivalentlik to'la mavjud).

Ma'lumki, oddiy tovar ishlab chiqaruvchilar mehnat mahsulotini sotadilar va sotib oladilar, ishchi kuchi u erda tovar emas. Tushunarliki, u sharoitda begona mehnat faqat mehnatning moddiylashgan shaklida «sotib olinadi». Kapitalizm esa ishchilar ishchi kuchini tovar sifatida, sotuvchilar sifatida, kapitalistik ishlab chiqarish vositalari egasi sifatida bu tovarni sotib oluvchilar sifatida ish yuritadilar, oqibatda jonli va moddiylashgan mehnat o'rtasida doimiy almashuv ro'y beradi.

A.Smit ishchi kuchi degan kategoriyani bilmagan, u ishchi o'z mehnatini sotadi deb o'ylagan. Shu sababli u kapitalizm haq to'lanmagan mehnatning o'zlashtirilishini qiymatning mehnat nazariyasi asosida tushuntirib bera olmagan. A.Smit qiymatni daromad bilan ham tenglashtirishga uringan. U aytadiki, ish haqi, foyda va renta har qanday daromadning, xuddi shuningdek har qanday almashuv qiymatining dastlabki uch manbaidir. Demak, Smit kapitalizmga xos yana bir qiymat - daromad nazariyasini o'ylab topdi, bu erda daromad ish haqi darajasi, foyda va renta bilan aniqlanadi. Qiymatni daromadlar asosida tushuntirish olimning qiymatning mehnat nazariyasiga qarama-qarshidir. Bu g'ayriilmiy konsepsiya boshqa siyosiy iqtisod namoyandalari tomonidan keng foydalaniladi.

### **Daromadlar to'g'risida ta'limot**

A.Smit kapitalistik jamiyatning sinfiy strukturasi baholashda fiziokratlarga nisbatan ancha ilgari ketdi. U ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatiga ko'ra uch sinfni ajratib berdi: ishchilar, kapitalistlar va er egalari.

Har bir sinf o'zining asosiy daromadini: ishchilar ish haqi, kapitalistlar foyda, er egalari esa renta oladilar. Smit turli qatlam va oraliq guruhlar mavjudligini ham aniqladi va asosiy sinflar deb atalmish daromadni oladilar, barcha boshqa guruhlarning daromadi esa qayta taqsimlangan yoki ikkilamchidir.

Ish haqi, ya'ni ishchining daromadi Smitning fikri bo'yicha mehnat mahsuloti bo'lib, mehnat uchun to'lanadigan tabiiy mukofotdir, oddiy takror ishlab chiqarishda ham mehnat haqi mavjuddir. U oddiy ishlab chiqaruvchi bilan

yollanma ishchining daromadlarini bir deb bildi. Oddiy takror ishlab chiqarishda «ish haqi» ishchining butun mehnat mahsulotiga teng.

Smit ish haqi masalasini ilk klassik maktab vakili va fiziokratlaridan, ya'ni F.Kene va V.Pettildan boshqacharoq hal etdi. Ma'lumki, V.Petti tirikchilik uchun zarur bo'lgan minimum harajatlar nazariyasini ilgari surgan, fiziokratlar ham shunday fikrda edilar. Smit «tabiiy baho» tushunchasini ishlatgan va ish haqi tirikchilik uchun zarur minimum xarajatlardan ancha ortiq bo'lishi, bolalar hayoti va tarbiyasiga oid harajatlar ham hisobga olinishi kerak, ish haqi milliy boyluk o'sishiga bevosita bog'liq degan fikrda edi.

Smit ta'limotida ishchi kuchi degan kategoriya yo'q, u kapitalist va ishchi o'rtasidagi munosabatda ishchi mehnati sotiladi deb hisoblaydi.

Ammo ish haqining normal darajasini aniqlashda u amalda ishchi kuchining qiymatidan foydalangan, ish haqining miqdori to'g'risida gap borganda esa tirikchilik harajatlari qiymati hisobga olinishi kerak, deydi. U shuningdek, ish haqi miqdori o'zgarishining mexanizmini o'rganib, uning quyi chegarasi jismoniy tirikchilik minimumi bo'lish kerak degan qisqacha xulosalar chiqardi. Agar ish haqi undan past bo'lsa, ishchilarning ommaviy qirg'ini ro'y beradi, Hindiston va Xitoydagi ishchilarning ish haqlari iqtisodiyotning tushkunlik yoki turg'unlik holatida jismoniy minimumga yaqinlashadi.

Angliya va Shimoliy Amerikada, ya'ni rivojlanish me'yorida yoki tez sur'atlar bilan borgan davlatlarda ish haqi minimumdan yuqori bo'ladi, undan tashqari ish haqi an'ana, madaniy saviya, tarkib topgan iste'mol me'yoriga ham bog'liq. Ish haqi miqdorining o'zgarishi bozor mexanizmining harakati asosida shakllanadi, uning o'zgarishining bevosita sababi mehnat bozoridagi talab va taklifning tebranib turishi hisoblanadi. Smit jamiyatning uch holatini: yuksalayotgan - progress, stasionar - turg'un va tanazzul - regressga uchragan holatlarini farqlagan. Birinchisida boyluk ko'payadi va mehnatga talab-ehtiyoj ortadi. Stasionar holatda ishchilarning ahvoli og'ir, tushkunlikda esa ayanchli bo'ladi.

Smitning fikricha, yuqori ish haqi iqtisodiy taraqqiyot - progressga yordam beradi, chunki u mehnat unumdorligini oshirish uchun rag'batlantiradi. U ish haqini oshirish mehnatga bo'lgan layoqatni kamaytiradi, ishchilarni dangasa qilib qo'yadi, degan g'oyalarga qarshi edi (buni V.Pettining fikrlari bilan solishtiring). Iltimos ishchilar aholining asosiy qismini tashkil etadi va birona jamiyat, shubhasiz, agar uning asosiy qismi kambag'al va og'ir ahvolda bo'lsa, baxtli jamiyat bo'la olmaydi. Undan tashqari, oddiy mantiqiy adolat shuni ham talab qiladiki, butun xalqni boqayotgan, kiyintirayotgan va binolarni qurayotgan kishilar o'z mehnati tufayli yaratilgan boyluklardan ma'lum qismini olib, durustgina yashash uchun kerak bo'lgan mablag'larga ega bo'lishi zarur. Bizningcha, bu fikrga hamma yaxshilab e'tibor berishi kerak.

Olimning davlat xizmatchilari, advokat, sudya, ruhoniylar va o'qituvchilarning ish haqlari to'g'risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. U, ayniqsa oliy o'quv yurtlarida «natijaga qarab haq to'lash»ning yo'qligini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning asosiy fikri shuki, cheklangan maosh olayotgan o'qituvchi hech qachon to'la kuch bilan ishlamaydi, chunki u bundan manfaatdor emas. Lekin kam haq to'lash qanchalik ziyon keltirsa, ortiqcha ko'p maosh ham jamiyat uchun naf keltirmaydi.

A.Smit sohibkorlarga ishchilar sinfining qashshoqligi uning manfaatlariga qarama-qarshi ekanligini uqtiradi va hatto foyda kamaygan holda ham ish haqi oshishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Jamoatchilik bu fikrga, ayniqsa keyingi paytlarda katta e'tibor berdi va Smitning o'gitlariga quloq soldi.

Qiymatning mehnat nazariyasidan kelib chiqib, foyda yollanma ishchi mehnatiga to'lanmagan mahsulotdir, degan qisqacha xulosalar chiqariladi. A.Smit qo'shimcha qiymat kelib chiqishining haqiqiy sababini aniqlashga yaqinlashgan, chunki foyda kapitalist bilan bevosita bog'langan, bunda ishchi o'z mehnat samarasini kapitalist bilan bo'lishishga majbur bo'ladi. Bu holatda foyda yangi paydo bo'lgan qiymat bilan ish haqining farqi ayirmasidir; ishchiga u hosil qilgan tovarning bir qismi tegadi, xolos. Qolgan qismini kapitalist foyda sifatida oladi. Amalda foyda qo'shimcha qiymatdir. Fiziokratlardan farqli ravishda, A.Smit qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligida, iste'mol qiymatlarning ortishi hisobigagina emas, balki xodimning mehnati yaratgan yangi qiymatdir, degan to'g'ri qisqacha xulosalarga keldi (bu erda ishlab chiqarish sohasining, ya'ni bu soha sanoatmi yoki agrar sohami, xizmatmi - ahamiyati yo'q). Ammo boshqa holatda u foydani boshqacha tushunadi: er egasiga rentani to'lagandan keyin sanoat kapitalistida qoladigan daromad, pul kapitali egasi ssuda foizini to'lagandan keyin qoladigan daromad. Bu erda foyda xizmatchi kapitalistning korxonada daromadi sifatida amal qiladi. Smit bu holdagi foydani korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'rinishdagi ish haqi deb e'lon qilishga qarshi chiqdi. U foyda miqdori korxonani boshqarishdagi mehnatning miqdori va murakkabligiga emas, balki avans (bo'nak) qilingan kapitalning hajmiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Smit qo'shimcha qiymatga ilmiy izoh bera olmadi va uning paydo bo'lish mexanizmini tushunmadi. U foyda barcha avanslangan kapital tufayli tug'iladi, deb o'yladi. Foyda normasining tekislanib borishini, o'rtacha foyda paydo bo'lishi jarayonini sezgan olim bu orada yuzaga keladigan qarama-qarshilikni ko'ra olmadi. Agar qo'shimcha qiymat to'lanmagan mehnat mahsuli bo'lsa, u kapitalga proporsional bo'la olmaydi. Smit tarixiy rivojlanish tizimi «o'zgaruvchi kapital - qiymat - qo'shimcha qiymat»dan «yalpi avanslangan kapital - o'rtacha foyda - ishlab chiqarish bahosi» tizimiga o'tilganligini inkor etib, o'rtacha foydani qo'shimcha qiymat bilan qorishtirib yubordi. Oqibatda Smit qiymatga kapitalning unumi natijasi yoki kapitalistga uning faoliyati uchun to'lanadigan haq sifatida qaraydigan bo'ldi. Shu fikr bilan bog'liq ravishda u foizni to'lagandan keyin qoladigan foydaning bir qismi kapitalni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan mehnat va tavakkalchilik uchun to'lanadigan mukofot ko'p hollarda arzimmas mukofot yoki haq deb gapira boshladi.

Smit foyda normasi va prosentning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va «millatning ravnaqi» ko'rsatkichi deb xarakterladi, ammo foyda normasining pasayib borish tendensiyasini tushuntirib bera olmadi. U boy davlatlarda kapital ortiqchiligi, kapitalistlar raqobatini foyda normasi pasayishiga sabab deb ko'rsatdi.

Smit sohibkorlarni progressiv ilg'or sinf deb hisoblaydi, chunki u kapital jamg'arilishiga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. U yirik er egaligini qo'llab-quvvatlamagan, er rentasi - er egasining daromadini foyda kabi ishchining mehnat mahsulotidan chegirilgan qismi, deb tushuntirgan. Smit rentani ijara haqidan ajratgan va rentaning erni yaxshilash uchun sarflangan kapitalga

aloqasi yo'q, deydi, chunki bu yaxshilashni ko'pincha ijarachi qoplaydi. Ammo ijara shartnomasi yangilanganda er egasi rentani oshiradi, erni yaxshilash go'yoki uning hisobiga amalga oshirilgan bo'ladi.

Qiymatning mehnat nazariyasi asosida rentaning haqiqiy tabiati ochib beriladi. Er kapital kabi o'zga mulk sifatida mehnatkashlarga qarshi turadigan moddiy sharoit hisoblanadi. Er xususiy mulkka aylangach, xodim, ya'ni ishchi o'z mehnati yakunlarining bir qismini er egasiga qaytarishga majbur. Renta erga xususiy mulkchilik monopoliyasi paydo bo'lishining oqibatidir. Er unumi va joylashuvining turli bo'lishi ham rentaga sabab bo'lishi mumkin, deydi Smit. Ammo absolyut va differensial renta tushunchasi unda bo'lmagan (absolyut renta erga xususiy mulk bo'lgandagina paydo bo'ladi, differensial renta esa har doim mavjud). Fiziokratlardagi kabi tabiiy kuch ta'siri ham e'tiborga olingan. Bu variantda rentani hosil qilishda qishloq xo'jaligi ishlari va ishchi hayvonlari ishtirok etadi. Dehqonchilik kapital qo'yish uchun eng foydali, samarali soha deb hisoblangan. Smit Angliyaning kelajagi shu sohada, deb noto'g'ri o'ylagan. Uning renta to'g'risidagi boshqa bir qancha fikrlari bor, lekin ular masalani o'ta chalkash va noto'g'ri talqin etadi. Pettining rentani Smitdan yaxshiroq tahlil etganini hayot isbotladi.

### **Mehnat unumdorligi to'g'risidagi ta'limot.**

Mehnat unumdorligi – bu qayta ishlanayotgan material qiymatining oshuviga olib keladigan mehnatdir.

Smitda bu masala ancha mukammal tahlil etilgan. Fiziokratlarda qiymatning manbai u yoki bu konkret mehnat shakllari emas, qaysi sohada bo'lishining farqi yo'q, balki umuman mehnat ekanligini ko'rsatib berdi.

Smitning fikricha, qiymat va foyda umumiy ijtimoiy mehnat bilan yaratiladi.

Avvalo kapitalga almashuvni, ya'ni foyda yaratuvchi mehnat unumli deb e'lon qilinadi, maqsadidan qat'i nazar odamlarning boshqa turdagi faoliyati unumsiz mehnat harajatlari deb aytiladi. Unumli va unumsiz mehnatning farqi shundaki, birinchisi kapitalga almasha, ikkinchisi daromadga almashtiriladi.

Bu tushunchadan boshqa fikr ham kelib chiqadi. Mehnat metafizik ravishda qaralib, tarixiy bo'lmagan hamma davrlarga xos kategoriya deb tushuniladi. Moddiy bo'lmagan ishlab chiqarishning hammasi unumsiz mehnat deb qaraladi, masalan, xizmat sohalari. Unga davlat chinovniklari, armiya, flot, shuningdek, ruhoniylar, huquqshunoslar, vrachlar, yozuvchilar, har xil aktyorlar va boshqalar shu guruhga bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan toifa vakillari qo'shiladi. Demak, tovarlarda o'z aksini topgan mehnat unumli, xizmat sohalari unumsiz mehnat bo'lib chiqadi. Smitning tasdiqlashicha, davlat daromadining deyarli hammasi unumsiz elementlarni ta'minlash uchun sarf bo'ladi (bu gapda jon bor), shu sababli jamiyatda bunday guruhlar imkon boricha kam bo'lish kerak, deydi u.

### **Kapital va takror ishlab chiqarish nazariyalari.**

A.Smitning kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyasida ancha katta ziddiyatlar mavjud. U ba'zida kapitalga to'g'ri baho berib, kapital yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilish tufayli foyda keltiruvchi qiymat, deydi. Boshqa hollarda masalaga tarixdan tashqarida turib qaraladi va kapital bu ishlab chiqarish

vositalari zahirasi (zapasi) bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun kerakli deyilgan. Fiziokratlar faqat qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kapitalni unumli deb atagan bo'lsalar, Smit sanoat kapitalini ham unumli deb uqtiradi (bu uning progressiv tomoni). U savdo kapitali ham unumli deb hisoblaydi, chunki u sanoat kapitaldan ajralib qolgan emas, balki moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qo'shimcha qiymat - savdo foydasining manbai.

Oddiy tovar xo'jaligida kapital kategoriyasi yo'q. Kapital jamg'arish jamiyat boyligini oshirishning bosh sharti deb e'lon qilinadi. Unda asosiy rol tejamkorlikka qaratiladi, noo'rin sarf-harajatlar tanqid qilinadi, kapitalni isrof qilish, ya'ni buromadning daromaddan ortiqcha bo'lishiga qarshi bo'lgan (bu g'oyalar hozirda ham nihoyatda dolzarbdir).

Kapitalistlar tomonidan yollanma ishchilarning qo'shimcha mehnat natijalarini o'ziniki qilib olish ijtimoiy hodisa bo'lib, ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida fond yaratish uchun zarur deb hisoblanadi. Kapitalning jamg'arilishi doim va cheksiz ro'y beradi, bu jamiyat uchun foydali ish deb baholanadi (bu investisiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi).

Smitning kapital ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zahira kerak ekanligi to'g'risidagi qoidasi **asosiy va aylanma kapital** haqidagi tushunchaning boshi edi, bu atamalarni ham u kiritgan. Fiziokratlar (F.Kene) boshlang'ich va yillik avans (bo'nak) tushunchalarini dehqonchilik kapitaliga qo'llagan bo'lsalar, Smit asosiy va aylanma kapitalni sohasidan qat'i nazar barcha amaldagi kapitalga xos deb tushuntiradi. Ammo u aylanma kapital deganda tovar va pul kapitalini xato tushungan (bu muomala sohasiga xos kapital). Bu kapitalni hosil qiluvchi moddiy elementlarga sotuvchilar qo'lidagi oziq-ovqat, materiallar va tayyor buyumlar hamda ko'rsatilgan taqsimlash va muomalaga kiritish uchun kerak bo'lgan pullar ham kirgan. Uning fikricha, aylanma kapital doimo muomalada bo'lishi kerak.

Savdo-sanoat maqsadlari uchun mo'ljallangan mashina va mehnat qurollari, erni yaxshilash (tozalash, drenaj qilish, o'g'itlash va boshqalar) uchun ajratilgan narsalar jamiyat barcha a'zolarining o'zlashtirgan va foydali qobiliyatlari asosiy kapitalga tegishli deb hisoblangan. Shunday qilib, Pettidan keyin Smit ham asosiy kapitalga xodimlarning mehnat malakasi va qobiliyatini qo'shdi. Bu masalani ancha chigallashtirdi, chunki malaka va qobiliyat kapital deb e'lon qilindi. Uning egasi esa foyda oluvchi bo'lib qoladi (ishchi har doim ham foyda egasi bo'la olmaydi, uni kapitalist yoki er egasi oladi). Asosiy **S** va aylanma **Y** kapitalni solishtirib, ular o'rtasidagi farq shundaki, deydi Smit, birinchi **S** bir egadan ikkinchisiga o'tmay va yana aylanmay foyda keltiradi, ikkinchi **Y** esa egasi qo'lidan bir shaklda ketib, boshqa shaklda qaytib keladi va foyda keltiradi. Shunday qilib, asosiy kapital umuman aylanmaydi, aylanma (oborot) kapital esa doimo muomalada bo'ladi.

Haqiqatda asosiy va aylanma kapital ishlab chiqarish kapitalining ikki ko'rinishidir. Ular bir-birlaridan qiymatlarining aylanish usullari bilan farq qiladi. Asosiy kapitalning qiymati konkret mehnat bilan bo'laklar bo'yicha ishlab chiqaruvchi tovarga ko'chiriladi, aylanma kapitalning qiymati esa to'laligicha shu tovarga o'tadi. Ijtimoiy kapitalni doimiy va o'zgaruvchan kapitalga bo'lish masalasi Smitga noma'lum bo'lib qolaverdi.



A.Smit kapital jamg'arishga katta ahamiyat berdi, talon-torajlik jamiyat dushmani, tejamkorlik jamiyat homiysidir, deb e'lon qildi. Ammo u kapital jamg'arilishini ishchilar tomonidan oddiy iste'mol qilish sifatida ifodalaydi, qo'shimcha qiymatning kapitallashuvini esa faqat o'zgaruvchi kapitalga aylanish deb tushundi. Individual kapital doimiy va o'zgaruvchan qismlarga bo'lingan. Ammo u ijtimoiy kapitalni butunlay o'zgaruvchan kapitaldan iborat deb xato o'ylagan, ya'ni kapitalning unumli mehnatni ta'minlash uchun ketadigan qismiga tenglashtirgan. Smit shunday fikr yuritadi: kapitalistning tejamkorligi unumli xizmatchilarni ta'minlash uchun mo'ljallangan fondni ko'paytiradi. Bu esa o'z navbatida xizmatchilar sonini oshiradi, ular o'z mehnati bilan yaratgan tovarlar qiymatini oshiradi, undan so'ng qo'shimcha mehnat harakatga keladi, oqibatda yillik mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shiladi.

Smitning butun ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish nazariyasi uning qiymat nazariyasiga asoslangan. U ijtimoiy mahsulot qiymatining tarkibiy qismlari to'g'risida xato ta'limot yaratdi. Olimlar buni «Smit dogmasi» deb ataydilar. Smitning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulotning qiymati ish haqi, foyda va renta yig'indisiga teng, ya'ni daromadlar summasidir. Ishlab chiqarish jarayonida jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalari ham qo'llanilishini tushungan holda, Smit shunga qaramay ishlab chiqarish vositalari qiymatini oxir-oqibatda ish haqi, foyda va renta kabi daromadlarga bo'lish mumkin, deb o'yladi. Shunday qilib, u yalpi ijtimoiy mahsulot «qiymati»dan doimiy kapital **S** ni chiqarib tashlagan. Qiymatdan uning tarkibiy qismi bo'lgan doimiy kapitalni inkor etish takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish imkonini yo'qqa chiqaradi. Har yili ishlab chiqarilgan mahsulot go'yo har yili to'la iste'mol qilingan bo'lib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday sharoitda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish emas, hatto oddiy ishlab chiqarish mumkin bo'lmay qoladi (doimiy kapital **S** ko'p yillar ish beradi).

Smit takror ishlab chiqarish muammosini echish uchun yo'l kidirib o'z nazariyasiga yalpi va sof daromad o'rtasidagi farqni kiritadi. Muayyan mamlakatning yillik barcha mahsuloti yalpi daromad bo'lsa, sof daromad yalpi daromadning shunday bir qismiki, uni shu mamlakat aholisi o'z kapitalini sarflamay iste'mol zahirasiga qo'yishi mumkin.

Smitning xatosi shuki, u yillik mahsulot qiymatini shu yili yangidan hosil qilingan qiymat bilan aynan bir deb o'ylagan (milliy daromad). Lekin yangidan hosil qilingan qiymat daromadlarga ajraladi, yillik mahsulot qiymati ishlatilgan ishlab chiqarish vositalari qiymati, ya'ni doimiy kapitalni ham o'z ichiga oladi. Bu xatolik Smitning qiymat to'g'risidagi ta'limotining kamchiligi va cheklanganligidan kelib chiqqan.

Umuman, bu erda gap kengaytirilgan emas, balki oddiy tarkor ishlab chiqarish to'g'risida fikr yuritiladi.

Smit mehnatning ikkiyoqlama xarakterini tushunmasdan, abstrakt mehnat yangi qiymat hosil qilishini, konkret mehnat esa ishlab chiqarish vositalari qiymatini yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazishini ko'rsata olmadi. Ijtimoiy mahsulot qiymatidan doimiy kapital qiymatini yo'qotib qo'ygan Smit kapital jamg'arilishini butun qo'shimcha qiymatning qo'shimcha ish haqiga aylanishi bilan teng degan xato qisqacha xulosalar chiqardi. U o'ylardiki, kapitalistik ishlab

chiqarish rivoji bilan ishchilar va ularning iste'moliga talab ham bir xil sur'atda oshadi, chunki daromad va shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish bilan parallel o'sadi (bir qancha mamlakatlarda shunday bo'lmoqda).

A.Smit erkin raqobat davridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy siyosatni asoslashga katta e'tibor berdi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlik ta'minlashni, davlatning iqtisodiy hayotga aralashmasligini talab qilardi. Ammo mamlakatning mudofaa manfaatlari iqtisodiyotdan ustun ham bo'lishi mumkin degan fikri ham bor, ya'ni bu ba'zi paytlarda davlatning iqtisodga aralashuvi zarur deganidir. Smit iqtisodiyotda davlat sektorining samarasizligini ko'rsatib, «hukumat har doim va istiznosiz buyuk isrofgarchidir» deydi. Shu sababli davlatning faqat uch funksiyasi tan olinadi: 1) huquq-tartibot; 2) mamlakat xavfsizligini ta'minlash; 3) jamiyatga zarur bo'lgan (ammo xususiy sektor tomonidan tuzilmagan) ijtimoiy korxonalar va muassasalarni ta'minlash.

Umuman to'g'ri bo'lgan bu fikrlar, ya'ni davlatning iqtisodiyotga aralashish chegaralari keyingi paytda qayta ko'rib chiqilmoqda.

U sex tartib-qoidalari, eskirgan qonunlar, korporasiyalar va savdo monopoliyalari imtiyozlariga qarshi chiqdi, ya'ni hamma uchun bir xil imkoniyatni yoqladi. Hodisalarning stixiyali borishini va raqobatni har qanday cheklash iqtisodiy rivojlanishni albatta sekinlashtiradi. Ammo Smit davlatning ayrim funksiyalarini ijobiy baholadi, masalan, mamlakat ichki tartibini saqlash, tashqi harbiy xavf-xatardan asrashni xo'jalik rivojining zaruriy shartlari deb hisobladi.

Davlat moliyaviy faoliyatiga alohida ahamiyat berilgan. Smit o'z asarining beshinchi, oxirgi kitobini davlat byudjeti va davlat qarzlariga bag'ishlagan. U faqat butun jamiyat manfaatlariga mos keladigan davlat xarajatlarinigina qo'llab-quvvatladi, «arzon davlat» tezisini ilgari surdi.

Smit zamonaviy davlatning soliq siyosatining nazariy asoslarini yaratdi. Soliqlar fuqarolarning kuchi va imkoniyatiga mos kelishi, ishga yaroqli har bir kishiga alohida belgilanishi kerak, soliq imkoni boricha arzon, uning shakli va olinish vaqti esa to'lovchi manfaatiga mos kelishi zarur (shu g'oyalarga to'la amal qilayotgan davlatlar rivoj topayotir).

Sanoatchilar manfaatlarini himoya qilgan olim lendlordlar, ya'ni yirik er egalari belgilangan soliq immunitetiga (imtiyozga) qarshi chiqdi. Er rentasi davlat solig'i qo'yiladigan eng qulay ob'ektdir. Smit foydadan olinadigan soliq samarasiz degan qisqacha xulosalar chiqardi. Korxonalar egasi foydani saqlash uchun o'z mahsulotiga yuqori baho qo'yish bilan soliq og'irligini iste'molchi ustiga yuklaydi. U ish haqidagi olinadigan soliq ham mahsulotga loyik emas deb hisoblaydi. Bu soliqni ham korxonalar egasi to'laydi, chunki tirikchilik minimumini ta'minlashi kerak.

Smit merkantilizmga, shu bilan birga savdodagi proteksionizmga (davlat tomonidan cheklashlar, soliq, bojxona va boshqalar), tashqi savdodagi har qanday cheklashlarga qarshi edi. Olimning siyosati feodalizm qoldiqlariga katta zarba bo'ldi.


Olimlar Smitga baho berib, «ilg'or burjuaziyaning buyuk mafkurachisi» degan edilar. Lekin u aslida bozor iqtisodiyotining mafkurachisi sifatida nom chiqardi.

Smit nochor ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi uch omilni ko'rsatib bergan edi: 1) mamlakatda tinchlik, osoyishtalik bo'lishi va

saqlanishi; 2) me'yordagi engil soliqlar tizimi; 3) davlat iqtisodiyot ishlariga hadab aralashavermasligi zarur, iqtisodiyot tabiiy ravishda amalga oshaveradi.


Bu qoidalar bizning mamlakat xo'jaligiga ham bevosita oid fikrlar hisoblanadi.

A.Smit bo'yicha ijtimoiy takror ishlab chiqarish F.Kene bo'yicha ijtimoiy takror ishlab chiqarish F.Keneda oddiy takror ishlab chiqarish jarayoni aks etgan bo'lsa, A.Smitda oddiy (xususiy) hol va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlari mavjud.




F. Kene bo`yicha ijtimoiy takraro ishlab chiqarish

7.1a-chizma. A. Smit va F. Kene bo`yicha ijtimoiy takraro ishlab chiqarish



F. Kene bo`yicha ijtimoiy takraro ishlab chiqarish  
**7.1b-chizma. A. Smit va F. Kene bo`yicha ijtimoiy takraro ishlab chiqarish**

A.Smit erkin savdo (ing. «free trade») konsepsiyasini ilgari surdi (Fritrederlik). Xalqaro tashqi savdoda qaysi mahsulotlarni chiqarish (eksport) va keltirish (import) masalasi qo'yiladi.



**7.2-chizma. Adam Smit bo`yicha milliy boylikni ko`paytirish omillari**

Agar biror bir davlat bizni biz ishlab chiqara oladiganga qaraganda nisbatan arzonroq tovar bilan ta'minlay olsa, uni sotib olish ancha qulayroqdir, uning o'rniga ba'zi sohalardagi afzallikka ega bo'lgan tovarni chiqarish yaxshi natija beradi. Bu holat A.Smitning mutlaq afzallik prinsipi asosida yotadi. Bunda tabiiy sharoit, iqlim, er-suv, qazilma boyliklar ko'zda tutiladi.

## QISQACHA XULOSALAR

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida klassik iqtisodiy maktab to'la shakllandi, bu britaniyalik olim A.Smit tomonidan amalga oshirildi. Bu tasodifiy voqea bo'lmay shu davrda Angliyada ob'ektiv shart-sharoitlar mavjud edi: burjua inqilobi manufakturadan fabrikaga o'tilishi, agrar islohot, kapitalning dastlabki jamg'arilishi, sinfiy va mulkiy differensiasiya va boshqalar.

Mantiqiy abstraksiya uslubi asosida iqtisodiy voqea va jarayonlarning mohiyati asosan to'g'ri talqin etib berildi. Yangi burjua jamiyati har tomonlama ob'ektiv asosda tahlil qilinib, uning progressiv tomonlari ko'rsatib berildi. Xususiy mulkning abadiyligi va dahlsizligi qo'llab-quvvatlandi. Klassik maktab vakillari inson xohishiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini tan oladilar. Bu qonunlar iqtisodiy tizimda tabiiy turg'unlikni ta'minlashga, o'z-o'zini boshqarishga qodir ekanligi tan olinadi, shu sababli davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iloji boricha inkor etiladi va erkin savlo-sotiq qo'llanadi. «Ko'rinmas qo'l» yordamida avtomatik iqtisodiyot erkin bozor munosabatlari doimo rivojlanish qobiliyatiga egadir.

Birinchi bor erkin bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy tamoyillari aniqlab berildi. Mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyot asosi sifatida to'g'ri ko'rib chiqilgan.

## **8-MAVZU. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL FOYALARNING MOHIYATI**

### **8.1. XIX asrning birinchi yarimida islohotchilik ilmiy konsepsiyalarining shakillanishi**

XVIII-XIX asr boshlaridagi sanoat to'ntarishi katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelish bilan birga, A. Smit ta'limotini turlicha tanqid qiluvchi nazariy maktablarni shakillanishiga etarli zamin tayyorladi. Bu nazariy maktablar umuman klassik iqtisodiy maktabga muholid bo'lib uch asosiy yo'nalishda: iqtisodiy romantizm, hayoliy sotsializm, nemis tarixiy maktabi (ijtimoiy-tarixiy) yo'nalishida rivojlandi. Bularning asosiy vakillari klassik iqtisodiy maktabga qarshi chiqish bilan birga ulardan o'zgacha jamiyatning nisbatan ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish modelini taklif qildilar.

Darslikning shu va keyingi boblarida klassik iqtisodiy maktabga qarama-qarshi g'oyalarning ba'zilar bilan yaqindan tanishamiz.

Kapitalistik rivojlanishdan orqada qolgan va mayda tovar ishlab chiqarish ustun bo'lgan sharoitda sanoat to'ntarishi davriga kirayotgan mamlakatlarda bu tuzumni tanqid qilib, unga mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatini nisbatan bergan iqtisodchilarni paydo bo'lishi tabiiy bir hol edi. Mayda ishlab chiqaruvchilar nazaryotchilar klassik iqtisodiy maktabga ham, hayoliy-sotsialistlarga ham bab-barovar teng qarshi turuvchi iqtisodiy ta'limotni ilgari surishga intildilar. Ular kapitalistik jamiyatning mayda tovar ishlab chiqarishni saqib chiqarish yollanma mehnatni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina belgilarini tanqid qilib, xususiy mulkchilikni sohibkorlik erkinligini yoqlab chiqadilar.

XIX asrning birinchi choragida iqtisodiy ta'limotlarda shuningdek, ilk bor ishchilar sinfining ahvoli asosiy muammo qilib ajratib ko'rsatila boshlandi. Chunki aynan mana shu davrdan boshlab sanoat ishchilarga rasman shakllandi va ularga xos muammolar ko'zga tashlana boshlagan edi.

Mayda ishlab chiqarish nazariyotchilari «iqtisodiy romantizm» ga xos islohotchilik xarakterlarini targ'ib qilib, o'z rivojida bir necha bosqichni bosib o'tdi. Agar birinchi bosqichni vakili hali kapitalizmdan voz kechishni orzu qilgan, uni cheklab qo'yishga intilgan ishchilarning kullafatlari xususida astoydil ko'z yoshi qilgan bo'lsa, ikkinchi bosqich maktabi vakili esa kapitalizmni isloh qilish loyihasini ilgari surib «kichik kapitalizm» ni saqlab qolish tarafdori edi. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, markscha-lenincha ta'limotdan farq qilib, ya'ni «inqilobga qarshi» deb atalgan yo'nalishdan yuz o'girib, «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» alohida yo'nalish hisoblangan islohotchilikka xos bu maktab vakillari ijodini, ta'limotlari o'rganish nihoyatda zarurdir. Chunki ilmiy maktab vakillari o'z davrlarida klassik iqtisodiy maktab vakillarini tanqid qilib, hayoliy sotsialistlar g'oyalariga qarshi kurashdilar, marksizm ta'limoti ommalashuviga qarshilik qilishga urindilar.

Biz ushbu bobda mana shu maktabning asosiy vakillari S.Sismondi, P.Prudon, K.Rodbertusning iqtisodiy ta'limotlariga xos xususiyatlar ularning uslubiyati bilan yaqindan tanishamiz. Bu olimlar qoldirgan ilmiy meros ma'lum darajada uzoq davr

davomida turli mamlakatlardagi iqtisodiy qarashlarning shakllanishiga katta ta'sir o'tkazib keldi.

## 8.2. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari, uning mayda ishlab chiqarish nazariyasi

**Jan Sharl Leonardi Simond Leonard de Sismondi (1773-1842)** Shveysariyada tug'ilgan, fransuz klassik siyosiy iqtisodini nihoyasiga etkazuvchi va ayni vaqtda mayda siyosiy iqtisodning asoschilaridan biridir. U mu'tabar protestant pastor oilasida tug'ilib voyaga etdi. protestantlar kollegiyasini bitirib chiqdi, Jeneva universitetida o'qidi. siyosat bilan unchalik ko'p vaqt shug'ullangani yo'q, Fransiya ma'naviy va siyosiy fanlar akademiyasining a'zosi etib saylandi.

S.Sismondi iqtisod va tarix fanlari sohasida katta ishlarni amalga oshirib, boy ilmiy-adabiy meros qoldirdi. «**Toskani qishloq xo'jaligining ko'rinishi**» (1801 y.), «**Savdo boyligi yoki siyosiy iqtisod prinsiplari va ularning savdo qonunchiligida qo'llanilishi to'g'risida**» (1803 y.), «**Italiya respublikalarining tarixi**» (1807 y.), 1818 yilda esa «**Edinburg ensiklopediyasi**» uchun «**Siyosiy iqtisod**» maqolasini tayyorladi, lekin «**Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari yoki boylikning aholi nufusiga munosabatlari to'g'risida**» (1819 y.) kitobining nashr qilinishi uning shuhratini yanada oshirdi. Keyingi yillarda «**Siyosiy iqtisoddan etyudlar**» (1837 y.) va fundamental tarixiy asarlar hisoblangan «**Fransuzlar tarixi**» (31 tom), «**Rim imperiyasi qulashining tarixi**», «**Italiya ozodligi tiklanishining tarixi**» va boshqa asarlari nashr qilindi.



Sh.Sismondi g'oyalarining shakllanishi, sanoat to'ntarishi davri bilan, shuningdek mayda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy kuchsizlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida kapitalizmning feodalizm ustidan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning mayda ishlab chiqarish ustidan g'alabasini anglatar edi.

S.Sismondi ijodini o'rganish metodini ayrim xususiyatlarini klassik iqtisodiy maktab vakillari bilan tenglashtirishimiz mumkin. Aynan o'ziga xos uslubiyot iqtisodiyot faniga quyidagi yangiliklarni olib kirdi.

**Birinchidan**, Klassiklardan farq qilib, xukumatlar

**Sh. Sismondi** boylikni taqsimlash va tartibga solishni boshqarishni o'z qo'llariga olishlariga xayrihohlik bildiradi. Unda aynan xukumat ishlab chiqarishni kengaytirmasdan «uchinchi shaxslar» manfaatlariga mos yo'l ochib beradi.

**Ikkinchidan**, siyosiy iqtisodda ilmiy abstraksiya usulini qabul qilmaslik. S.Sismondi, A.Smit izdoshlarini abstraksiyaga berilib insonlarni umuman unutganliklarini, natijada fan ularni izlanishlarida turli amaliyotlardan ajralib qoldi deb qisqacha xulosalar qiladi.

**Uchinchidan**, A.Smitning «iqtisodiy inson» doktrinasini inkor etish. S.Sismondi klasiklarning har bir alohida olingan inson manfaatlarini umumiy manfaatlarini shakllanishiga sababchi degan fikrga umuman qo'shilmaydi. Uning fikricha har qaysi inson o'zining shaxsiy manfaatlarini o'zgalar hisobiga amalga oshirish bilan mavjud turli imkoniyatlarni ishga solar ekan, bu erda har



sanoatchining erishgan yutug'i o'z navbatida o'zga sanoatchini xonavayron bo'lishiga olib keladi.

**To'rtinchidan**, ilmiy texnika progresini jadallashuvi jamiyat ravnaqidagi ob'ektiv zaruriyatligini tan olmaslik. Quyidagi uslubiy holatni izohlab S.Sismondi shunday deydi: «garchan mashinalar ixtirosi insonlar uchun katta qulaylik bo'lsada, ammo ular (mashinalar) yaratgan foydani adolatsiz taqsimlanishi, kambag'allar uchun ofat keltiradi».

**Beshinchidan**, iqtisodiy tahlilda funksional usulni qo'llash maqsadga muvofiqligini e'tirof etish. Bu holat siyosiy iqtisodda tobora yangi tus olayotgan sabab va oqibatni tan olish demakdir.

**Oltinchidan**, iqtisodiy tahlilda iqtisodiy faktorlar bilan birga noiqtisodiy faktorlarning ham o'rin olishi. Din, tarbiya, vijdoniylik va boshqalar insonlarning bir maqsadga yaqinlashtiruvchi faktorlar deb belgilanadi.

S.Sismondi mayda ishlab chiqarish pozisiyalarida turib, kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi.

Uning qarashlari rivojida ikki bosqich ko'zga tashlanadi. Avval boshda S.Sismondi A.Smit ta'limotining, klassik siyosiy iqtisodning tarafdori bo'lib chiqdi. U o'zining dastlabki asarlaridan biri - «**Savdo boyligi to'g'risida...**» kitobida (1803 y.) sanoat to'ntarilishining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va imkoniyatlarini yuksak baholadi. S.Sismondi Angliyaga ikkinchi marta borib kelganidan keyin endi kapitalizmni, shuningdek klassik maktabni qattiq tanqid qila boshladi.

«Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari yoki boylukning aholi nufusiga munosabatlari» (1819 y.) kitobi uning shuhratini yanada oshirdi. S.Sismondi odamlar baxt va tenglikni ta'minlash uchun birlashdilar, degan fikrga asoslanadi. U mayda ishlab chiqarishni ko'klarga ko'tarib maqtaydi, mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilishga intiladi, hammaga hamdardlik bildiradi, fabrikaga oid qonunlarni tabriklaydi, bolalar mehnatining ekspluatasiya qilinishini qoralaydi. Kapitalizmni ijtimoiy adolatdan mahrum bo'lgan jamiyat deb ma'lum qiladi. S.Sismondi iqtisodiy qarashlarining sistemasida daromad to'g'risidagi ta'limot alohida o'rin olishini kitob nomining o'ziyoq ko'rsatib turibdi. U taqsimotning ko'pdan-ko'p muammolari to'g'risida fikr bildiradi. Kapitalni, krizislarni, mahsulotni realizasiya qilish masalalarini tadqiq etadi, jamiyatni o'zgartirishning mayda burjuacha dasturi (programmasi) ni ilgari suradi.

A.Smitning ta'limotida mehnat qiymat va boylukning birdan-bir manbai deb tahlil qilingan edi. Zarur ish vaqti tushunchasi birinchi bor joriy etildi. S.Sismondi pul ichki qiymatga ega bo'lgan mehnat mahsulotidir va shu sababli qiymatning umumiy mezoni tarzida namoyon bo'ladi, degan to'g'ri qisqacha xulosalarga keldi. Pulning qadrsizlanishi ortiqcha qog'oz pullar muomalaga chiqarilishi haddan oshib ketishining natijasi, deb talqin etiladi. Ammo u pulning vujudga kelishi jarayonini, uning vazifasini tadqiq etmaydi. S.Sismondi iste'mol qiymat o'rtasidagi ziddiyatni ko'ra bilgan bo'lsa ham, ammo uning mohiyatini tushunmaydi. U qiymatdan chetga chiqishni qiymat qonunining buzilishi deb hisoblaydi. S.Sismondining ta'biricha, ijtimoiy fan ikki qismdan: oliy siyosat va siyosiy iqtisoddan iborat, agar siyosat davlat tartibining qanday vujudga kelishini o'rgatsa, fuqarolarni diyonat va din ruhida tarbiyalasa, siyosiy iqtisod xo'jalikni qanday boshqarishni, ijtimoiy tartibni saqlashni hukumatga tavsiya qilishi kerak. Umuman siyosiy iqtisod ma'naviy fan

bo'lib, u odamlarning his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va ehtiroslarini o'rganishi kerak. S.Sismondining fikricha, «odamlarning moddiy farovonligi, inson tabiati» siyosiy iqtisod predmeti bo'lishi kerak, «odamlarning moddiy farovonligi» esa davlatga bog'liq. S.Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatning iqtisodiy siyosati bilan ayni bir narsa deb bildi, uni sinflardan ustun turadigan fan deb talqin etdi. Ishlab chiqarish munosabatlarini, iqtisodiy qonunlarni bilish zarurligini inkor qildi. U insonning fe'l-atvorini birinchi o'ringa qo'ydi.

S.Sismondi uslubiyoti (metodologiyasi)ga 1. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni sub'ektiv-idealistik talqin etish; 2. Ilmiy abstraksiya usulining yo'qligi; 3. Tarixdan tashqari yondashuv; 4. Ayirboshlash konsepsiyasi xosdir. Mayda burjua nazariyotchisi bo'lgan S.Sismondi iqtisodiy qonunlarning ob'ektiv xarakterini tan olmadi. U kapitalistik iqtisodiyot notekis rivojlanishini haqli ravishda ko'rsatgan bo'lsa ham, bu narsa iqtisodiy qonunlar amal qilishining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi ekanligini ko'ra bilmadi. U o'zining rahmdillik bilan (sentimental) qilgan tanqidini ijtimoiy fanning alohida usuli darajasiga ko'tarishga intildi. S.Sismondi insonni unutib, abstraksiyaga berilgan A.Smit va uning tarafdorlarini qattiq tanqid qildi. U kapitalizm ko'p mamlakatlarda amal qila boshlagan bo'lishiga qaramay, kapitalistik rivojlanishdan voz kechish mumkinligini asoslamoqchi bo'ldi. U iste'mol ishlab chiqarishdan ustun degan fikrga asoslandi. Butun iste'molni shaxsiy iste'moldan iborat deb bildi.

S.Sismondi kapitalizmni antagonistik jamiyat deb bildi va shu bilan klassik iqtisodiy maktabning namoyandalardan ilgarilab ketdi. U kapitalizmning o'ziga xos xususiyatini - boylarning oz sonli kishilar qo'lida to'planishi va ko'pchilik mehnatkash aholining chor-nochor kun kechirishini, jamiyat bilan xususiy sohibkorning manfaatlari bir-biriga mos emasligini, qishloq xo'jaligining savdodan va sanoatdan orqada qolayotganini ko'rsatdi. S.Sismondi burjua boyligining ko'payishini bosh vazifa deb va iqtisodiy taraqqiyot mezoni deb hisoblashdan voz kechdi, «kapitalizmning ziddiyatlari» masalasini birinchi bo'lib maydonga tashladi va shunday qilib tahlilni yanada davom ettirish vazifasini qo'ydi.

Klassik maktabga qarama-qarshi o'laroq mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'layotganini, «ortiqcha» aholi paydo bo'layotganini, mashinalar ishchilarni siqib chiqarayotganini ko'rsatdi, biroq kapitalizm ziddiyatlarining asl sababini payqay olmadi. S.Sismondi klassik maktabning krizislar bo'lishi mumkin emas va kapitalizm ziddiyatlar nimaligini bilmaydi degan mulohazalarini tanqid qildi. Uning tarixiy xizmati mana shundan iborat.

Shu bilan birga S.Sismondi kapitalizmning ilg'or mazmunini, uning feodalizmdan ustunligini tushunmadi. U kapitalizmni romantik tarzda g'ayri ilmiy asosda tanqid qildi, kapitalistik tuzumning imkoniyatlariga mayda burjuaziya nuqtai nazaridan baho berdi.

U kapitalizmni tartibga solish, mayda hunarmandlarning sex tuzumi tarzida orqaga qaytish ehtimoli bor, deganlarida ham mayda burjuacha romantizm namoyon bo'ldi. S.Sismondi revolyusiyaga qarshi, u kapitalizmni isloh qilish, uni tiyib turish tarafdori.

Milliy daromad va kapital S.Sismondining iqtisodiy qarashlari sistemasida etakchi muammodir. U o'zining «Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari» asarining

dastlabki uch bobini ayni shu muammoga bag'ishlaydi. A.Smitdan keyin S.Sismondi ham daromadlarning uch turini: foyda, renta va ish haqini alohida ajratib ko'rsatadi, dastlabki ikki turni umumlashtirib, ustama qiymat tushunchasidan foydalanadi, ularni ichki mahsulotdan chegirma deb hisoblaydi. Biroq S.Sismondi shu tariqa qo'shimcha qiymat nazariyasini maydonga tashladi deb aytish uchun asos yo'q. U ish haqi ishchi mahsulotining jami qiymatiga teng bo'lishi kerak deb aytish bilan birga shu zahotiyok kapitalistning kapital yaratish sohasidagi «dastlabki mehnati» uchun unga odilona mukofot deb, rentani esa erning ehsoni deb e'lon qiladi. A.Smitning iqtisodiy taraqqiyot davomida ish haqi oshishi xususidagi umidiga S.Sismondining qo'shilmaganligi uning ijobiy jihatidir.

Yakka tartibdagi daromadlardan S.Sismondi «boyliklardan olingan foyda» va ishchi ish haqining yig'indisi bo'lmish milliy daromad muammosiga o'tadi. Bu milliy daromad bilan yalpi mahsulotni aynan bir narsa deb bilganligi uning asosiy nazariy xatosidir. Agar u birlamchi mahsulotda A.Smitning izidan borib uch qismdan: xom materialning va mehnat qurollarining o'rni qoplanishini, ish haqi va foydani ajratgan bo'lsa, yig'indi mahsulotdan faqat so'nggi ikki qismni ajratadi. Doimiy qism yo'q bo'lib ketadi.

Kapital deganda S.Sismondi ishlab chiqarish zapaslarini (ishlab chiqarish vositalarini) tushunadi. U kapital jamg'arilishini tejamkorlik bilan bog'laydi. S.Sismondi asosiy mashinalar, ish qurollari va aylanmalar, urug'lik, xom ashyo, ish haqi kapitalini bir-biridan ajratib, A.Smitning hamma xato va yutuqlarini takrorlaydi. U kapitalni doimiy va o'zgaruvchi kapitalga ajrata bilmadi. Oxir-oqibatda S.Sismondi kapitalning milliy daromaddan farqini izohlay olmadi va buning ustiga A.Smitning shu ikkisi o'rtasidagi tafovutni nazariy jihatdan isbotlash yo'lidagi intilishlarini pisand qilmay, orqaga qadam tashladi.

S.Sismondi kapitalistik aholi nufusi jarayonini tahlil etishga harakat qildi. U iqtisod fanida birinchilardan bo'lib foydani ko'paytirish manfaatlari yo'lida mashinalarni joriy etish ishsizlar vujudga kelishiga olib boradi, ishsizlarning mavjudligi esa ishlab turganlarning ahvolini yomonlashtiradi degan fakti tan oldi. Ammo S.Sismondi ortiqcha aholini kapitalistik fabrika mexanizmining zarur tarkibiy qismi deb bilmadi. S.Sismondi kapitalistik fabrika chor-nochor ishchini kelajakka boqqanda «kelgusi shanbadan narini» ko'rmaslikka o'rgatganligini, undagi ahloqiy tuyg'ularni siyqalashtirib yuborganligini ishsizlar paydo bo'lishining sabablaridan biri deb hisobladi. U din ishchilarning «nojo'ya nikoh»larini qoramamayotganligini aytib, dinga hujum qildi.

«Uchinchi shaxslar» nazariyasi S.Sismondi nazariy qarashlarida asosiy o'rinni egallaydi. U ishlab chiqarish va ijtimoiy daromad hajmlarining birligini ijtimoiy mahsulotni to'la-to'kis realizasiya qilishning asosiy sharti deb hisoblaydi. Bunday tenglikka avtomatik tarzda o'z-o'zidan erishilmaydi deb hisoblaydi, u aksincha yirik sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarishning muqarrar ravishda iste'moldan o'zib ketishiga olib boradi. Kapitalizm o'zi uchun hal etilmaydigan muammoni qiymat va «ustama qiymat»ni realizasiya qilish muammosini keltirib chiqaradi, yalpi ortiqcha ishlab chiqarish krizisi kapitalizmga xos xususiyatdir. S.Sismondining o'ylashicha, ichki kapitalistik bozor qisqarib boradi, chunki ishchilarning daromadlari kamayadi. Kapitalistlar o'z daromadining bir qismini iste'mol qilmaydi, balki jamg'aradi, mayda ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo'ladi va ularning iste'moli kamayadi.

Vaziyatni tashqi bozorlar engillashtirishi mumkin. Ammo bunday bozorlarni qidirish tobora qiyinlashadi. Kapitalizm maqbul emas va mumkin ham emas.

S.Sismondi «uchinchi shaxslar», ya'ni mayda ishlab chiqaruvchilarga madad berishga umid bog'laydi. U burjua mamlakatlarining hukumatlarining hukumatlariga murojaat etib, ular kapitalistik rivojlanishni to'xtatsinlar deb so'raydi. Jamiyat mayda ishlab chiqarishga qaytgan taqdirdagina go'yo mo'l-ko'lchilik boshlanar emish. S.Sismondining tutgan o'rni - takror ishlab chiqarish asosiy qonunlarini tushunmaslik natijasidir. Ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi ziddiyatni, shaxsiy iste'molning takror ishlab chiqarish ziddiyatini, shaxsiy iste'molning takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun muhimligini tan olganligi S.Sismondi o'rta tashlagan konsepsiyaning ijobiy jihatidir.

S.Sismondi iqtisodiy krizisni daromadlar o'rtasidagi nomuvofiqlik deb tushunadi, ayrim olimlar chinakam ilmiy nazariya kapitalizm sharoitida ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi nomuvofiqlikni tan oladi, biroq unga tobe' o'rin beradi deb ta'kidlagan edi. Etarli iste'mol qilmaslik nazariyasi krizislar arafasidagi davrda ishchilarning iste'mol quvvatining oshib borishi, etarsiz iste'mol qilish esa kapitalizmdan avval ham mavjudligi, ammo krizislar faqat kapitalizmning belgisi ekanligi va surunkali bo'lmasligi vaziyatini izohlay olmaydi. Iqtisodiy krizislarning haqiqiy sababi ishlab chiqarishning ijtimoiy xarakteri bilan iste'molning xususiy xarakteri o'rtasidagi ziddiyatdir.

S.Sismondi kapitalistik yo'ldan voz kechishni taklif qildi, kapitalizmni tartibga solishga, ishchilar bilan kapitalist o'rtasida patriarxalchilik munosabatlarini o'rnatishga, ishchilarni foydani taqsimlashda qatnashtirishga, ishsizlar va nogironlar haqida g'amxo'rlik qilishga va buning uchun maxsus fondlarni vujudga keltirishga, mayda ishlab chiqarishni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga, manufakturaga bo'lgan yirik mulkchilikni ko'p sonli kapitalistlar o'rtasida taqsimlashga chaqirdi. U yollanma ishchilarni ham mulkdorlar sinfi safiga qo'shishni orzu qildi. S.Sismondi davlatning yordamiga umid qildi.

Uning ijtimoiy tadbirlar dasturi mayda burjuacha va reaksion xayolparastlik xarakteriga egadir. S.Sismondi ob'ektiv tarixiy jarayonga to'sqinlik qilishga urindi. Shu sababli u reaksioner bo'lib qoladi, o'z mulohazalarini Fransiyada hali ham kuchli bo'lgan feodal tuzum himoyachilariga qo'l kelishini sezmaydi.

XIX asr oxirlarida rus narodniklari S.Sismondining qisqacha xulosalarlarini ko'klarga ko'tarib maktaganliklari sababli Lenin S.Sismondining iqtisodiy qarashlarini batafsil va mufassal tahlil etish zarur deb bildi. Chunki S.Sismondining qisqacha xulosalarlarini bunday maqtash marksizmning iqtisodiy ta'limotini yoyishga halaqit berar edi. U o'zining «**Iqtisodiy romantizm ta'rifiga doir**» asarida S.Sismondining mayda burjua siyosiy iqtisodchisi ekanligini isbotladi, uning qarashlari ichki ziddiyatli va noizchilligini, klassik maktabdan o'zib ketish yo'lidagi urinishlari zaifligini ko'rsatdi. S.Sismondining iqtisodiy nazariya ba'zi masalalarini o'rta qo'yishdagi xizmatini V. Lenin tarixiy pozisiyalarda turib tan oladi, biroq ayni vaqtda uning qarashlarining mayda burjuacha xarakterini, uning metodologiyasi ilmiy emasligini, amaliy dasturining reaksion xarakterini ochib tashlaydi. V.Leninning iqtisodiy romantizmni ob'ektiv va ilmiy asoslab, tanqidiy tahlil qilganligi, iqtisodiy ta'limotlar tarixida S.Sismondi va liberal narodniklarning

o'rnini aniq belgilash imkonini berdi, sinfiy kurashni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

### 8.3. P.J.Prudonning iqtisodiy konsepsiyasi.

**Prudonizm Per Jozef Prudon** (1809-1865) - fransuz publisti, mayda ishlab chiqarish nazariyotchisi, kambag'al kosib oilasida tug'ilgan. Moddiy jihatdan nochorligi sababli kolejdagi o'qishni tugatmagan, sherik hamkorining mablag'i hisobiga kichik bir bosmaxonani ishlatib, zo'r berib o'z ma'lumotini oshirish bilan shug'ullangan. Ilmu-fanni o'rganishni avvalo muhtojlikdan qutulish usuli deb bilgan.

1838 yilda P.Prudon Bezanson akademiyasi tomonidan kam ta'minlangan yosh olimlarga ajratilgan uch yillik stipendiyani olib Parijga ko'chib o'tdi. Parijda u J.B.Sey, S.Sismondi, T.Maltus, K.Sen-Simon, Sh.Fure va boshqa iqtisodchi olimlar asarlari bilan yaqindan tanishdi.



1840 yilda P.Prudonning «Mulkchilik nima?» nomli mashhur asari e'lon qilindi. Ushbu asarda kapitalizmni tanqid bosh mavzu bo'lsada, hali olimning amaliy dasturi bayon qilinmagan edi. 1846 yilda P.Prudonning «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi yoki qoshshoqlik falsafasi» nomli yana bir asari e'lon qilindi. Asarda olim kapitalizmni isloh qilishning amaliy dasturini ishlab chiqishga, siyosiy kurashning behudaligini asoslashga urindi. 1848 yilda nashrdan chiqqan «Ijtimoiy masalalarning Xal etilini» nomli yangi asarida olim har qanday inqilobiy chiqishlarni keskin qoralaydi.

**P. J. Prudon** Xalq banklari konsepsiyasini e'lon qilib xalqni ijtimoiy islohotlarga chorlaydi. P.Prudon siyosiy iqtisodni «aql-zakovatning abadiy qonunlari» to'g'risidagi fan deb biladi. P.Prudon va S.Sismondi nazariy qarashlarida biz juda yaqinlik va o'xshashlik hollarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa ularning uslubiyotlarida bu holat quyidagicha aks etadi:

**Birinchidan**, iqtisodiyotda cheksiz erkin raqobatni inkor etib, boshqarish mumkin bo'lgan raqobatni topib tashkil etish.

**Ikkinchidan**, xo'jalik hayotini tahlil qilish jaranida iqtisodiy ko'rsatkich va manbalarni asosiy deb hisoblamasdan, balki mehribonlik, ahloq, ijtimoiy adolat, etika va boshqa kategoriyalarni, shuningdek inson hayotining eng oliy ne'mati tenglik va tinchlikni asosiy deb hisoblash.

**Uchinchidan**, ko'p yillar davomida yaratilgan ilmiy asarlarda iqtisodiy hodisalarga nemis faylasufi Gegel dialektikasi asosiy uslub qilib olinib, unga alohida e'tibor berildi.

P.Prudon o'zining mayda ishlab chiqarish manfaatlaridan kelib chiqqan islohotchilik konsepsiyasini maydonga tashlar ekan, juda ko'p masalalar xususidagi fikrlarni bayon etadi. mehnat taqsimoti, tovarning xususiyati, ish haqi, mulkchilik, daromad va takror ishlab chiqarish kabilarni ilmiy izohlashga harakat qiladi. P.Prudon o'zining eng muhim asarlaridan biri - «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi...» da avvalgi mehnat taqsimotini tahlil qiladi. Mehnat taqsimoti bir tomondan boylikning ko'payishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan qashshoqlikka, kambag'allikka olib

boradi. P.Prudonning mulohazalariga qaraganda, mehnat taqsimotining naf keltiradigan xususiyatlarini saqlab qolish va zararli xususiyatlarini tugatish kerak. Metodologiya jihatidan bu o'rinda ijtimoiy jarayonlar dialektikasining ilmiy tahlilida tarixdan tashqari yondashuv sezilib turadi. Prudon tovarning xususiyatini ham mana shunday pozitsiyalardan turib «tadqiq» qiladi. Uning fikricha, qiymatning abadiy g'oyasi mavjud, bu g'oya iste'mol qiymati talab va kamchilik bilan, ayirboshlash qiymati esa taklif va mo'l-ko'lchilik bilan belgilanadi. Talab bilan taklif o'rtasidagi kurashda tovarning qiymati yoki narxi belgilanadi. Nazariy jihatdan olganda bu haddan tashqari vulgar konstruksiyadir: qiymat ayirboshlashda vujudga keladi, u ob'ektiv asosdan mahrum.

U ish haqining harakati qonuniyatlarini ham oddiy va g'ayriilmiy pozitsiyalardan turib bayon etadi. Prudon ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurashiga qarshi chiqadi, chunki bu narsa narx-navoning yoppasiga ko'tarilishiga yoki muhtojlikning kuchayishiga olib borar emish.

P.Prudon yollanma ishchini ekspluatasiya qilish mexanizmini tushuna olmaydi. U kapital bilan mahsulotni aynan bir narsa deb talqin etib, butun kapitalning harakatini uning prosent keltiradigan qismi harakatidan iborat deb talqin etadi. Ssuda kapitalning harakatini Prudon qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim deb hisobladi. U mahsulotning bir qismini kapitalist o'zlashtirib olishini ishlab chiqarish chiqimlari eniga kapitaldan foydalanganlik uchun prosent qo'shish zarurligi bilan izohlaydi. Prudonning nazariy sistemasida prosent mehnatni ekspluatasiya qilishning asosiy shakli tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga u prosent bilan yollanma ishchini ekspluatasiya qilish mexanizmi o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunmaydi.

P.Prudon «*belgilangan qiymat*» nazariyasini o'zining butun iqtisodiy negizi deb hisobladi. Bunda klassik maktabdan o'zib ketish pinhona istagigina emas, shu bilan birga ijtimoiy o'zgartirishlarning yo'llarini belgilash istagi ham namoyon bo'ldi. Tovar ishlab chiqarishini Prudon insoniy ozodlikning va har bir kishi shaxsiy mustaqilligining cho'qqisi deb biladi, mayda burjua nazariyotchisi bo'lgan Prudon bozor mexanizmining ba'zi bir salbiy jihatlarini: mollarning qalashib ketishini, nomunosiblikni, xonavayron bo'lish va shu kabilarni tan oladi. Prudon asosiy iqtisodiy ziddiyatlarni «qiymat»ning ichki ziddiyatlaridan: iste'mol va ayirboshlash qiymati g'oyalardan iborat deb biladi. «Belgilangan yoki sun'iy» qiymat murosaga keltiruvchi timsol bo'lib ko'rinadi. Bunday qiymat ayirboshlashda vujudga keladi. U tovarning ijtimoiy boylik tarkibiga bema'lol kirib borishini bildiradi.

Binobarin tovar ishlab chiqarishining hamma qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun har bir tovarga yo belgilangan qiymat qo'yib qo'yish, yoki uning bozorda sotilishiga kafolat berish, tovar bilan pul o'rtasidagi ziddiyatni tugatish zarur. Prudon tilla bilan kumushni «belgilangan» qiymatga ega bo'lgan dastlabki tovarlar deb ataydi.

P.Prudon daromad to'g'risidagi nazariyani siyosiy iqtisodda daromadning asosiy manbai deb qabul qilingan mehnat, kapital va erning mazmunini ko'rib chiqishdan boshlaydi. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayonining o'zi har uchchaloa elementning ishga tushurilishi natijasida yuz beradi. Lekin er yoki kapital egasi o'zi hech narsa ishlab chiqarmasdan o'z daromadini olishini va ayni vaqtda ishchi o'z mehnati natijasida hosil bo'lgan daromadining faqat kichkina bir

qismini ish haqi sifatida olishni adolatsizlik deb baholaydi. P.Prudonning takror ishlab chiqarish nazariyasi uning daromadlar to'g'risidagi fikrlari asosida rivojlantiriladi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni olimning fikricha, xamjamiyatdagi ishlab chiqarish va iste'molning muvozanati asosida bo'ladi. Lekin amaliyotda mulkchilarning ishlamay qo'yganligi bu prinsipning buzilishiga va natijada J.B.Sey ko'rsatib o'tgan «iqtisodiy qonunni» ham buzilishi olib kelmoqda.

P. Prudon ijtimoiy masalalarni hal qilishi zarur bo'lgan kapitalizmni isloh qilish loyihalarini o'zining ko'pgina asarlarida e'lon qiladi. Ushbu asarlarda ijtimoiy adolat konsepsiyasini asoslash bilan birga inqilobiy chiqishlar haqidagi har qanday fikrni inkor etadi. Olimning islohotchilik g'oyalarning ayrimlari S.Sismondi qarashlariga o'xshash bo'lib ular quyidagilarda o'z aksini topdi:

- «uchinchi shaxslar» ya'ni dehqonlar, xunarmandlar va mayda kustar ishlab chiqaruvchilarning jamiyatdagi o'rniga rahimdillik bilan hayrihohlik bildirish;

- «mayda mulkchilik va mayda ishlab chiqarishni» iqtisodiyotdagi etakchilik o'rnini e'tirof etish bilan ularning shart-sharoitlari, ta'limotlarida to'liq tenglikka erishish;

- ijtimoiy adolat tamoyillariga mos ravishda jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib ishlab chiqarish ishtirokchilariga teng daromad berish;

- kapital va daromadlar bir kishi qo'li ostida konsentrasiya qilinishiga va ayniqsa mehnatni ekspluatasiya qilishga yo'l qo'ymaslik. Bundan tashqari faqat P.Prudon islohotchiligiga xos qo'yidagi g'oyalarni alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- pulni muomalada haraktini bekor qilib, uning o'rniga ishchi pullari banklarni muomalaga kiritish;

- foizni yo'q qilish hisobiga foizsiz kreditlarni tashkil qilish;

- xalq banklarini tashkil etish;

- islohotlar amalga oshirish jarayonining xotimasi sifatida xukumatni bekor qilish. Islohotchilik konsepsiyalarida P.Prudon.Xalq bankiga katta umid bog'laydi. Uning banki socialist-rikardochilar taklif qilgan banklardan 3 xil o'ziga xoslik bilan farq qilar edi:

**Birinchi**dan, undagi metall pullar dastlabki bonlar chiqarilishi sababli, pulga va tijorat voqealariga almashtirish yo'li bilan sekin-asta muomaladan chiqarilar edi.

**Ikkinchi**dan, foizni birdaniga yo'q qilmasdan, balki yuqori qayd qilingan bosqichni amalga oshirishni 2%dan eng kam daraja-0,25% tushirish haqda sotilmagan tovarlarga oldindan ssuda berilishi.

**Uchinchi**dan Xalq banki kapitalni o'ziga jalb qilmay yuzaga kelmasdan, balki aksincha kapital bilan yuzaga keladi.

P.Prudonning hukumatni bekor qilish g'oyasi islohotlarni amalga oshirish davrida sinflarning umumlashuvi va yagona mehnatkashlar, o'z mehnatini haqiqiy haqini oladigan sinfini yuzaga kelishi o'z navbatida hukumat faoliyatini keraksiz qilib qo'yadi (anarxizm g'oyasi).

Prudon kapitalizmni isloh qilish loyihasida mayda tovar ishlab chiqaruvchining o'z moli sotilishiga kafolat olish, mayda do'kondorning foizsiz kreditning olish to'g'risidagi asriy orzusini, burjua ziyolisining kapitalizm sharoitida mutlaq mehnat erkinligi, qiymat qonuni asosida tenglik imkoniyati to'g'risidagi

xomxayollarini ifodalagan edi. Prudonning «sosializm»i tovar bilan pul o'rtasidagi aloqani soxtalashtirishga asoslangan. Shu loyihaning muallifi xususiy ishlab chiqarishni tovarni saqlab qolishga, ammo pulni, ayirboshlashni, ayirboshlash qiymatini yo'q qilib tashlashga intilgan edi.

Prudon va prudonizm o'z davrida ishchilar xarakatiga jiddiy hatar solganligi sababli proletar ta'limotining asoschilari Prudonning mayda ishlab chiqarish reformizmiga (islohotchiligiga) qarshi murossasiz kurashdilar. Uni proletariatga dushman va revolyusion harakatga halaqit beruvchi bir oqim deb fosh qildilar. Bu kurashni K.Marks XIX asrning 40-yillari o'rtalaridayoq «**Falsafa qashshoqligi**» asarini tayyorlashdan boshladi va marksizm rivojining keyingi davrlarida ham shu kurash davom etdi.

Prudon falsafada Gegeldan, siyosiy iqtisodda esa A.Smit bilan D.Rikardodan yuqori ko'tarila olmadi. Uning ijtimoiy dasturlarida mafkuraviy yo'nalishni fosh qilishda alohida vazifalar kelib chiqdi. Prudonizm mayda ishlab chiqarish muhitiga va uning puch xayollariga tayanib, uzluksiz ravishda o'zgarib boruvchi sharoitlarga moslashaverdi.

#### **8.4. K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari**

**Karl Iogann Rodbertus-Yagesov** (1805-1875) Germaniyada, Shimoliy Greyfsvoldda 1805 yilda tug'ildi. Gettingem va Berlin universitetlarida huquqdan tahsil olib, shu mutaxassislik bo'yicha ma'lum vaqt ishladi. Burjua demokratik revolyusiyasi yillarida parlament a'zosi, keyinchalik vazir (ministr) lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. K.Rodbertus Germaniya mayda burjua iqtisodiy ta'limoti vakili bo'lib, Sen-Simon va socialist-rikardochilar g'oyalari ta'sirida edi. U xayoliy sosializm va konservativ reformizm g'oyalari asosida o'zining eklektik konsepsiyasini yaratdi.

1842 yilda K.Rodbertus «**Davlat-xo'jalik tizimimizni bilish yo'lida**» deb nomlangan kitobini nashrdan chiqardi. Uning asarlari «sosial xatlar» shaklida yozilgan. U aynan shu kitobida qo'shimcha qiymat nazariyasini ko'rsatib o'tdi. U o'z fikrlarini yakunlab, shunday deb yozadi: «*Agar ishlab chiqarish qanchalik yuqori bo'lsa, ishchining yashashi uchun zarur vositalardan tashqari ko'pgina iste'mol buyumlarini yaratishi mumkindir. Bu chegirtma erga xususiy mulkchilik va kapital mavjud sharoitda renta holiga aylanadi va kishilar tomonidan mehnatsiz o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, renta olishning asosiy usuli erga xususiy mulkchilik va kapitaldir*» (K.Rodbertus «K poznaniyu nashego gosudarstvenno-xozyaystvennogo stroya. Pyat teorem». M.,1935, str.115). K.Rodbertusning nazariyasi va qisqacha xulosalarlariga yuqori baho berish mumkin, chunki u A.Smit va D.Rikardo iqtisodiy ta'limotlar bilan yaqindan tanish va bu ta'limotlarni chuqur ilmiy tahlil qilgan edi.

Shuningdek, olim o'z xatlarining birida qo'shimcha qiymat va uning vujudga kelishini Marksdan oldinroq ko'rsatganligini va aniq qilib tushuntirganligini yozadi. Bu bilan u o'zining qo'shimcha qiymat nazariyasidan Marks ijodiy foydalanganligini va hatto «o'g'irlab» o'ziniki qilganligini isbotlamoqchi bo'ladi. Shuni aytish zarurki, Marks ta'limotiga nisbatan aytilgan bu tanqidlar Marksning o'ziga ham ma'lum edi. Marksning vafotidan keyin nemis kateder-sosialistlari bu



masalani yana qayta ko'tardilar. Ularning asosiy maqsadlari Marks ta'limotini kuchsizlantirish va uning ta'sir doirasini kamaytirish edi. O'z davrida F.Engels bu fikrlar uydirma ekanligini va Rikardoning qiymat nazariyasidan so'likardochilar socialistik qisqacha xulosalarlar uchun K.Rodbertusdan oldinroq ko'rsatib foydalanganliklarini aytdi. Shuningdek u K.Rodbertus qo'shimcha qiymatning foyda va er rentasiga aylanish qonunini, kapitalistik sinflar o'rtasida qo'shimcha qiymatning taqsimlanishi, qonunni to'liq tushunmay, faqat renta nazariyasi bilan cheklanib qolganligini ham ko'rsatib o'tdi.

Haqiqatdan ham foyda va er rentasini ishchilarga haq to'lamaslik samarasi deb hisoblash, bu hali qo'shimcha qiymatning ilmiy nazariyasini yaratish degan gap emas edi. Ingliz socialist-rikardochilar bu masalada K.Rodbertusdan ancha ilgari lab ketdilar (biz bu haqda keyingi boblarda to'xtalib o'tamiz).

K.Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari yuqorida qayd etilgan asosiy asaridan tashqari, katta to'mni tashkil etgan to'rtta «ijtimoiy xati»da bayon etilgandir. Unda u qiymatning mehnat nazariyasini sodda ko'rinishda tahlil qildi. Qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat bilan aniqlanmasdan, balki barcha mehnat harajatlari bilan aniqlanib, bu o'rinda bir xil mehnat harajatlari har qanday ishlab chiqarishdan qat'i nazar bir xil qiymat hosil qiladi deb ko'rsatiladi. Bundan tashqari, mehnat doimo qiymat vujudga keltirishi alohida ta'kidlanadi. F.Engels «Falsafa qashshoqligi» asarining so'zboshisida K.Rodbertus qarashlaridagi bu holatni keskin tanqid qilib, o'zining qiymat nazariyasida mehnatning ijtimoiy zaruriy xarakterini inkor etadi deb yozadi.

K.Rodbertusning fikricha, mehnat qiymat o'lchovi sifatida oltin va kumushdan yuqori turadi, chunki u ish kunini o'zgarmas o'lchov deb hisoblaydi. Bu o'rinda «mehnat kunlari» ham izohlanadi. Lekin olim xayoliy fikrlarga berilib, kapitalistik tovar xo'jaligi sharoitida pulning zaruriyatini to'g'ri tushuntirib bera olmadi. K.Rodbertus o'zining taqsimot nazariyasida klassik maktab vakillari Yo'l qo'ygan xatolarni takrorlaydi. Taqsimot nazariyasi quyidagi tartibda tahlil qilinadi va uch bosqichdan iborat bo'ladi. **Birinchi bosqichda** K.Rodbertus ijtimoiy (milliy) mahsulotni ish haqi va rentaga bo'linishini ko'rib chiqadi. **Ikkinchi bosqichda** u rentani kapital va er rentasiga bo'lishga o'tadi. Va nihoyat, **uchinchi bosqichda** K.Rodbertus barcha foyda va er rentasining kapitalist va er egalari o'rtasidagi taqsimotini ko'rib chiqadi. K.Rodbertus ijodiy faoliyatining so'nggi yillari qiymatning mehnat nazariyasidan uzoqlashib mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos tushuvchi jamiyatni qayta qurish loyihalarini e'lon qilish bilan bog'liq bo'ladi. Kapitalizmni Rodbertuschasiga isloh qilish sinfiy kurashsiz evolyusion yo'l bilan amalga oshirishni ko'zda tutar edi. Bu yo'l keyingi islohotchilik yo'nalishidagi nazariy maktab tomonidan qo'llaniladi. Bu olimning asarlari rus tilida to'la chop etilgan: K.Rodbertus «*Ekonomicheskie sochineniya*» M., OGIZ. Sos Ekgiz.L.,1936.str.436.

## QISQACHA XULOSALAR

Kapitalizmni mayda ishlab chiqaruvchilar nazariyotchilari tomonidan har tomonlama keng o'rganilishi iqtisodiy ta'limotlar tarixida bu maktabning munosib

o'rnini belgilab berdi. S.Sismondi va uning g'oyalari sanoat inqilobi, kapitalizmning nihoyatda tez sur'atlarda rivojlanish davrida birinchilardan bo'lib, shu jamiyatni iqtisodiy negizini va ijtimoiy tuzumini tanqid qilishda o'z aksini topdi. Bu tanqid mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos ravishda oshirilib, kapitalizmning inqirozlar asosida notekis rivojlanishini ko'rsatib berdi. Siyosiy iqtisod fan sifatida inson baxt-saodati uchun zarur bo'lgan ijtimoiy rivojlanishni o'rganadigan fan deb yuritildi. S.Sismondi asarlarida asosiy e'tibor mehnatkashlar, ayniqsa ishchilar sinfining ayanchli bir taqdiriga samimiy hamdardlik bildirishga qaratilgandir.

Shuningdek, iqtisodiy kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda klassik maktabdan, ayniqsa A.Smit qarashlaridan nari o'ta olmadi. Olimning ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi qarama-qarshilikni ko'ra bilganligi katta xizmati bo'lsa, mashinalashgan ishlab chiqarishning ijobiy xususiyatlarini to'g'ri baholamaganligi uning jiddiy kamchiligi edi.

P.J.Prudonning mayda ishlab chiqarish sosializmi Fransiyada va Farbiy Evropaning boshqa mamlakatlarida keng yoyildi. Prudon qarashlarida ham ikkiyoqlamalik va fikrlar qorishmaligini uchratishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham Prudonizm g'oyalaridagi hozir ham kapitalizmni isloh qilish to'g'risidagi fikrlardan sosial islohotchilikning ayrim ko'rinishlarida keng foydalanilmoqda. Prudon kapitalistik tovar ishlab chiqarishdagi qarama-qarshilikni shu tovarlarni pulga aylantirish yo'li bilan bartaraf etish mumkin deb hisoblaydi. U pulning mohiyatini to'g'ri tushunmay, hamma aybni ayirboshlashdagi nohaqlikdan deb biladi.

Shunday qilib u tovar-pul munosabatlarini pul, kapital va foizsiz saqlash kerakligini taklif qildi. Barcha kamchiliklaridan qat'i nazar, Prudon kapitalistik taraqqiyotdan orqaga qaytish mumkin emasligini tushundi, lekin mayda xususiy mulkchilikni saqlab qolish tarafdori bo'ldi. K.Rodbertus ham o'z asarlari bilan nemis mayda burjua nazariyasiga katta hissa qo'shdi. U kapitalistlardan ishchilar sinfiga ishlab chiqarish mahsuldorligi oshganligi hisobidan ma'lum hissa berishlarini talab qildi.

K.Rodbertus qiymatning mehnat nazariyasida, qo'shimcha qiymat, er rentasi nazariyalarida katta ijobiy natijalarga erishdi. Olimning yaratgan asarlari zamondoshlari, jumladan marksistik iqtisodiy ta'limot asoschilari tomonidan ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shilgan katta hissa deb yuqori baholandi.

## **9-MAVZU. BOZOR IQTISODITIGA MUHOLIF – SOCIALISTIK YUNALISH MOHIYATI VA UNING TARIHIY TADBIRI**

### **9.1. XIX asrning birinchi yarmidagi xayoliy sosializmning o'ziga xos xususiyatlari**

Xayoliy socialistik g'oyalarning dastlabki ko'rinishlarida, ya'ni Platon asarlaridan boshlab T.Mor va T.Kompanelli asarlarining barchasida xususiy mulk tanqid qilib kelindi.

Bu olimlar jamiyatni qayta tuzishni taklif qilib nisbatan adolatli, rivojlangan jamiyatni asoslab berishga intildilar. Lekin, bularning barchasi xayoliy sosializm shakllanishi arafasidagi dastlabki g'oyalar edi, xolos. Xayoliy sosializmning haqiqiy rivojlanish davri XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda Farbiy Evropa kapitalistik munosabatlar rivojlanib, sinfiy ziddiyatlar oshkor bo'ldi. Ayniqsa, klassik iqtisodiy maktab vakillarining asosiy asarlarining ta'siri ko'pgina maktablarga bo'lgani kabi xayoliy socialistlar qarashlariga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Shuningdek, bu davrda sanoat to'ntarilishining yakunlanishi va Evropa mamlakatlarida yuz bergan jiddiy iqtisodiy o'zgarishlar ham xayoliy socialistlar A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouenlar o'z asarlarida ko'rsatib, mavjud kapitalizmni ichki xususiyatlarini kengroq ochib berishga intildilar. Bu olimlar guruhi iqtisodiy fan rivojiga katta hissa qo'shib, ilk bor kapitalistik munosabatlar abadiy emasligini, unda iqtisodiy inqirozlar mavjud bo'lishini ko'rsatib berdilar. Shu jumladan ular ham klassiklar kabi texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ilmiy kashfiyotlar va jamiyat ishlab chiqarishini umumjahon rivojini iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi deb hisobladilar. Bundan tashqari, xayoliy socialistlar tabiiy tartib konsepsiyasiga amal qilib jamiyat va alohida olingan insonning ideal ijtimoiy tuzulishi modelini ilgari surdilar.

Xayoliy - socialistlar klassik iqtisodiy maktab vakillaridan farq qilib, xususiy mulkchilikni va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini tanqid qiladilar, jamiyatning barcha a'zolariga baxt keltiradigan yangi jamiyat yuzaga keladi, deb ishchilarni ishontiradilar. Ular yangi jamiyat adolatli ijtimoiy tuzum loyihalarini bayon etib iste'mol va taqsimotni qayta tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan balki ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirishni taklif qildilar.

Shuningdek, ularning ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga qaratilgan g'oyalari aynan adolatsizliklardan voz kechishi zarur degan fikrlari asosida nafaqat xayoliy balki bozor iqtisodiyotiga qarshi karash ko'rinishini oladi. Va nihoyat, XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan xayoliy socialistlar ta'limotlarida bozor iqtisodiyotiga muqobil qarashlari turlicha namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ushbu maktab vakillarining birinchidan, individual (yakka) faoliyatni kollektiv mehnat faoliyati bilan almashtirish mexanizmini qanday izohlashlari bilan, ikkinchidan mehnatkashlarni jamoa tashkilotlariga birlashish tamoyillari xususiyatlarini qay tarzda tushuntirishlarida o'z aksini topadi.

Bu shart-sharoitga e'tibor berib Sh.Jid va Sh.Rist o'z asarlarida quyidagicha yozishadi: «Sen-Simon va uning izdoshlari haqiqiy kollektivizm tarafdorlari bo'lib, ular jamoat tashkilotlariga millatning hamma a'zolarini kirgizishga harakat qildilar va bunday birlashuvni tepadan boshlashni taklif qiladilar, ya'ni milliy lashtirish va boshqa jarayonlarni endi siyosiy xokimiyat o'z qo'lga oladi.

R.Ouen va Sh.Fure hamda ularning izdoshlari «Sosialist-assosiasiyachilar» bo'lib, Sen-Simonchilardan farqli o'laroq indivit to'da (massa) ichida yo'qolib ketmasligini istatadi. Ularni mayda avtonom guruhlar yordamida saqlab qolishni taklif qilib, birlashuv jarayonini yuqoridan emas balki quyidan borishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar». (Sh.Jid, Sh.Rist «Istoriya ekonomicheskix ucheniy». M., Ekonomika, 1995. Str.170)

Nihoyat, xayoliy- sosializm nomoyondolari o'zlarining benuqson ijtimoiy tuzumlarni turlicha: Sen-Simon industrializm, Fure garmoniya, Ouen esa kommunizm deb atadilar. Lekin ularning barchasi ekspluatasiyaning yo'q bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi qarama-qarshilikning bartaraf etilishi hamda xususiy mulkning yo'q bo'lishi to'g'risidagi fikrlarni bir xil takrorladilar. XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida Farbiy Evropada ishlab chiqarishning hukmron shakli manufaktura bo'lib, fabrika ishlab chiqarishi endigina shakllanayotgan edi. Kapitalizmning moddiy sharoitlari va ishchilarning jamiyatning asosiy sinfi sifatida shakllanishi dastlabki bosqichlarda edi.

Xayoliy sosialistlar ijtimoiy adolatli jamiyatga o'tish yo'llarini aniq ko'rsata olmadilar, lekin ular sinfiy manfaatlar qarama-qarshiligini ta'kidlab o'tdilar. Ular ishchilar sinfiga ezilgan jabrlanuvchi sinf sifatida qarab, asosiy e'tiborni ongni rivojlantirishga, o'z g'oyalarini tashviqot qilib kommunalar, «falansterlar» orqali hayotga tadbiiq etishga qaratdilar. Mehnatkashlarni ozod etishning moddiy sharoitlari yaratilmaganligi tufayli xayoliy sosialistlar bo'lajak jamiyatning fantastik loyihalarini taklif etdilar. Ular o'zlarini sinflardan yuqori qo'yib, jamiyatning barcha a'zolari manfaatlarini ifoda etayotganliklarini ko'rsatmoqchi bo'ldilar. Shuningdek, siyosiy kurash, revolyusiyalarni rad etib, ijtimoiy adolat g'oyalarini tashviqot qilish yo'li bilan jamiyatni qayta tuzishni orzu qildilar. Mana shularning barchasi g'oyalarning xayoliy bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi. Biroq, xayoliy sosializm o'zining cheklanganligiga qaramasdan, kapitalizm oyoqqa turayotgan bosqichda progressiv ta'limotlar qatorida alohida o'rin egallaganligini aytishimiz lozimdir.

## 9.2. A.Sen-Simon, Sh.Fure va R.Ouen iqtisodiy qarashlari

Fransiyada burjua inqilobidan keyin kapitalizm yana tez rivojlandi. Jamiyat oldida doimiy ravishda ko'ndalang bo'lib qolgan yangi savollarga fransuz mutafakkiri Sen-Simon birinchi bo'lib javob berishga urindi.

**A.K.Sen-Simon Anri Klod de Rebrua Sen-Simon** (1760-1825 yy.) Fransiya xayoliy sosializmining namoyandasi bo'lib, 1789-1794 yillardagi fransuz inqilobi bilan zamondosh edi.

U aristokratlar oilasidan kelib chiqqan bo'lib, quyidagi mashhur asarlarning muallifidir: «**Sanoat sistemasi haqida**», «**Inson haqidagi fan ocherklari**», «**Sanoat yoki siyosiy, ma'naviy va falsafiy mulohazalar**», «**Yangi xristianlik**» va boshqalar.

Sen-Simon maxsus iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirmadi, balki asosiy e'tiborni ijtimoiy muammolarga qaratdi. U butun yaxshi jamiyat to'g'risidagi umidini aql-idrokka, ma'rifatga bog'ladi; u insonning aql-idrokini tarixiy jarayonning to'la hokimi va rahbari sifatida bildi, jamiyatni yaxshi tarzda qayta

qurish yo'llarini tashviqot qilishni esa o'z ta'limoti amalga oshirilishining bosh vositasi deb hisobladi.



Fransuz ma'rifatparvarlaridan farq qilib, Sen-Simon ishlab chiqarishdagi inson faoliyati, mulkchilik formalari kabi iqtisodiy faktorlarga katta baho berdi. U «*Ilk davr*», «*Qulchilik*», «*O'rta asrlar*», «*Hozirgi davr*» va «*Oltin asr*»larni alohida ajratib, ijtimoiy-iqtisodiy formasialarni ko'rsatib o'tdi.

«Hozirgi davr» (ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi) o'tish davri deb belgilanib, «...bu davrda, deb yozadi Sen-

**A. K. Sen-Simon** Simon, olimlar, tadbirkorlar va ishchilardan iborat sanoatchilar shakllanadi, ular qirol hukumati bilan birgalikda odil jamiyatni

barpo etishlari kerak, bu esa o'z navbatida «Oltin asr»ga kirib kelishni ta'minlaydi.»

Sen-Simon o'zining tarixiy konsepsiyasidan kelib chiqib, hozirgi davrni o'rganib borish uchun o'tgan davrga nazar tashlash kerakligini aytib, «*har bir alohida olingan davr mulohazasida juda yuzaki, hatto noto'g'ri qisqacha xulosalarni beradi, so'nib borayotgan o'tmish qoldiqlari tug'ilib kelayotgan kelajak bilan qorishtirib yuboriladi*», deb ko'rsatadi.

Tarixiyligiga qaramay Sen-Simonning jamiyatning rivojlanish konsepsiyasi idelistik edi, chunki uning asosini fan taraqqiyoti, ong va g'oyalar ravnaqi tashkil etardi.

Lekin uning idealistik tarixiy konsepsiyasida ayrim materialistik fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, Sen-Simon shaharlar, sanoat va savdoning rivojlanishi burjuaziyaning shakllanishiga sabab bo'lganligini, iqtisodiy holat esa, mulkchilikka tobe' bo'lgan, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy formalarni vujudga keltirishini aytib o'tadi. «*Hokimiyat va boshqaruv belgilovchi qonun ham, - deb yozadi u, - mehnat farovonligini to'liq ta'minlay oladigan mulkchilik va undan foydalanishni belgilovchi qonundek katta ahamiyatga ega emas*» (Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda respublikamiz va qo'shni mustaqil respublikalar iqtisodiy taraqqiyotida mulkchilik va mulkchilik formalari haqida qabul qilingan qonunlar ahamiyati kattaligini eslang).

Sen-Simonning bo'lajak adolatli jamiyati industrial sistema deb nomlanib, u industrial jamiyat yirik sanoat ishlab chiqarishi bazasi asosida rivojlanadi, sanoat - alohida reja asosida, boshqaruv esa yagona industrial markaz orqali amalga oshiriladi deb hisoblagan edi.

Sanoat ishlab chiqarishining taraqqiyoti va mahsulotlarni taqsimlash olimlar tomonidan olib boriladi. Katta tajribaga ega bo'lgan sanoat kapitalistlari boshqaruvni tashkil qilish bilan mashg'ul bo'ladilar, ishchilar esa ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun astoydil mehnat qilishlari zarurdir.

Sen-Simon yangi ijtimoiy tashkilotni vujudga keltirishda, ayniqsa sanoatda anarxiyaga (hokimiyatsizlikka) yo'l qo'yilmasligiga va reja asosidagi markaziy boshqaruvga katta e'tibor berishni taklif etadi. Sen-Simon qarashlariga ko'ra, erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzim bu tugab borayotgan feodalizmdan yangi ideal jamiyatga o'tish davridagina emas, balki inqilobiy harakatlardan holi minch va tez

sur'atlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan «industrial jamiyat»ga o'tish davri hamdir. Adolatli «industrial jamiyat» qurilishi haqidagi o'zining mulohazalarida u ilmu-fan va ilg'or nazariyalarga yuqori baho berib, bo'lg'usi yangiliklarni tarixiy muqarrar deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda Sen-Simon o'zining «industrial jamiyat» ida boshqa xayoliy socialistlar kabi qarama-qarshi sinflarni yo'qolib ketishi va xokimiyat tomonidan siyosiy funksiyalarga nisbatan iqtisodiy funksiyalarga katta e'tibor berishini taxmin qiladi. Lekin shuni alohida qayd etish zarurki, xayoliy sosializmning boshqa barcha vakillardan farq qilib Sen-Simon sosializmida xususiy mulkchilik bo'lishini inkor etmaydi, balki aynan xususiy mulkchilik va undan foydalanishni tartibga soladigan qonun zarurligini ko'rsatib o'tadi.

Shuningdek, olim o'z qarashlarida anarxiyaga insonlarga ziyon etkazuvchi boshqaruv deb qarab uni tanqid qiladi. U mavjud o'zgarishlar tezlik bilan rivojlanib davlatning to'liq kamolatini ta'minlaydi, insonlar esaerishishlari mumkin bo'lgan tenglik va ayniqsa mo'l-ko'lchilikka faqat shu «industrial jamiyat» yordamida etib boradilar deydi. Garchi Sen-Simon yangi ijtimoiy tuzumning haddan tashqari mujmal manzarasini tasvirlagan, shu jamiyatga borishning noto'g'ri yo'lini ko'rsatgan bo'lsa ham, uning ba'zi taxminlari katta kelajakka molik edi. U proletariatning nazariyotchisi emas edi va shu sababli uning tarixiy rolini tushunmadi. Ayni vaqtda u ishchilar ahvolidan naqadar og'irligini ko'rdi. «*Mening maqsadim,- deb yozgan edi u, - Evropadagina emas, butun dunyoda ham shu sinfning qismatini engillashtirishdan iborat*». U davlatni «odamlarni boshqarish quroli»dan ishlab chiqarishni tashkil etish, fan va san'at taraqqiyotini ta'minlash, ya'ni «narsalarni boshqarish quroli»ga aylantirish, tartib, osoyishtalikni nazorat qilishni esa jamoatchilikka topshirish kerak degan g'oyani ilgari surdi. Sen-Simonning yangi industrial sistemasi socialistik jamiyat emas edi, chunki unda xususiy mulkchilik, kapital jamg'arish, bankirlar va tadbirkorlar sinflari hali mavjud edi. Bu esa o'z navbatida umumxalq mehnatiga asoslangan rejali keng ishlab chiqarishni inkor etadi.

Sen-Simon asarlarining asosini kapitalizmni tanqid tashkil etadi. U ishlab chiqarish va taqsimotdagi anarxiyani, raqobat, xalq ommasining qashshoqlashuvi va ishchilarning ayanchli ahvoldaligini kapitalizm illati deb hisoblaydi. Olim ishchilar, kapitalistlar va savdogarlarni bir sinf vakillari deb, ularni industriallar deb atadi. Feodal jamiyatining hokim sinflari bo'lgan dvoryanlar, ruhoniylar va boshqa amaldorlarni esa befoyda, keraksiz sinflar deb hisobladi. Shuni aytish kerakki, Sen-Simon kapitalizmni ilmiy ravishda tanqid qilmadi. U burjua jamiyati bo'ysunishi zarur bo'lgan iqtisodiy qonunlarni e'tibordan chetda qoldirdi.



Sen-Simon ta'limotlarini tashviqot qilishda uning shogirdlari O.Rodrig, V.Anfonten va O.Bazarlar katta rol o'ynadilar. Ular «**Sen-Simon ta'limoti**» kitobini nashr qildirib, uning nazariy qarashlarini boyitdilar. lekin bu olimlar ham burjua jamiyatining asosiy sinflari va ular o'rtasidagi sinfiy kurash mohiyatini to'liq tushunmadilar, natijada XIX asrning 30-yillariga kelib, Sen-Simon **Sh. Furedir** maktabi tor doiraga aylandi va tarqalib ketdi. Fransuz xayoliy sosializmining yana

bir yirik namoyandasi **Fransua Mari Sharl Furedir** (1772-1837 yy.). U Bezanson shahrida savdogar oilasida dunyoga kelib, butun hayoti mobaynida savdo bilan shug'ullandi. Bo'sh vaqtlarida o'z ma'lumotini to'ldirib, mustaqil ravishda fizika, astronomiya va falsafa fanlari bilan shug'ullandi, ijtimoiy tadqiqotlarni amalga oshirdi.

Sharl Fure o'zining «**To'g'ri harakat va mushtarak taqdirlar nazariyasi**», «**Umumiy birlik nazariyasi**», «**Savdo qallobligi haqida**», «**Yangi sanoat dunyosi va ijtimoiy dunyo**» nomli asarlari va qator maqolalarida kapitalistik jamiyatni keskin tanqid qildi va ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etish dasturini ishlab chiqdi. Uning tasvirlashicha, inson o'zi yashayotgan jamiyatning barcha yaramas illatlaridan tozalanishi lozim, shunday ijtimoiy tuzum o'rnatish kerakki, bu tuzum insonning kamol topishiga, ehtiroslarini to'liq namoyon qilishiga, ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bersin. F.M.Sh.Fure kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini o'rganishga o'zining katta hissasini qo'shdi.

F.Engels «**Anti Dyuring**» asarida shunday degan edi: «*O'tmishning asosiy etap (bosqich)larida Sh.Furening genialligi keng namoyon bo'ldi. U jamiyat o'z rivojlanishida yovvoyilik, patriarxalchilik, varvarlik va sivilizasiya (madaniyat) bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatib berdi*». Bunday taqsimot garchand ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasini hisobga olgan bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarish munosabatlarining xarakterini va moddiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish usulining turlichaligini inkor etadi. Shuning uchun varvarlikka quldorlik va feodalizm kabi turlicha ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatlar kiritiladi. Sivilizasi davrini esa u kapitalizm vujudga kelishi bilan bog'laydi. Lekin shuni aytish kerakki, uning qarashlariga xos xususiyat har bir davrning asosiy faktori sifatida faqat ishlab chiqarish darajasinigina emas, balki inson ehtirosi va tabiati uyg'unligini ham alohida ajratib ko'rsatishdir.

Shunday qilib, ana shu holatlar muayyanligining vujudga kelishi o'z navbatida sivilizasiyalar o'rniga har tomonlama rivojlangan assosiasiyalar (uyushmalar) tashkil topishiga sabab bo'ladi.

Kapitalizmni tanqid qilish Sh.Fure ta'limotining eng kuchli jihatidir. Jamiyatning yangi sosial tashkiloti barpo etilmasa, ishlab chiqarishning rivoji mehnat ahliga baxt emas, balki kulfat keltiradi, deydi u. «*Burjua sivilizasiyalarining o'ziga xos xususiyati,- deb yozadi olim, - tartibsiz ishlab chiqarishdan iborat. Boylik ko'paymoqda, ammo ishlab chiqaruvchi inson ana shu*



*ko'payib borayotgan boylikdan bahramand bo'layotgani yo'q*» (Sh.Fure. Izbranne sochineniya. T.II, M.,1954, str.68). U aholining ayrim qismi behuda, parazit hayot kechirib, ezilgan mehnatkash xalqning ekspluatasiya qilinishi hisobiga yashayotganini aytish bilan birga, bunday jamiyat aholining barcha qatlamlarini to'liq ta'minlash imkoniga ega emas degan qisqacha xulosalarga keldi. Sh.Fure ayniqsa kapitalistik savdo nuqsonlarini, undagi tovlamachilik, olibsotarlik va muttahamlikni fosh etadi. «*Agar biz Sen-Simonda,- deb yozgan edi. F.Engels, tafakkurning genial kengligini,*

*shuning natijasida uning qarashlarida eng so'nggi socialistlar nomuntazam*

*iqtisodiy fikrlari deyarli hammasining kurtaklari bayon etilganini ko'rsak, Sh.Fure mavjud ijtimoiy tuzumni tanqid qilmaganligini, bu tanqidda sof fransuzcha o'tkir zehning, analizning g'oyat chuqurligi bilan qo'shilganligini ko'ramiz, u burjua dunyosining jamiki moddiy va ma'naviy nochorligini toqatsizlik bilan fosh qilib tashladi...».* Haqiqatan, ham Sh. Fure o'z asarlarida nafaqat mavjud jamiyatni balki klassik iqtisodiy maktab vakillari yuqori baho berayotgan erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotni ham va umuman klassiklarni o'zlarini ham keskin tanqid qiladi. Uning fikriga ko'ra erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot savdogarlar va savdo agentlar sonini keraksiz darajada oshirib yuborgan bo'lib bu esa asosiy kamchiliklarni e'tibordan chetda qoldirgan. Sh. Fure sivilizasiya jamiyatning kamchiliklari deb quyidagilar belgilaydi: ijtimoiy kaos; aholi nufusini ortib borishi; kambag'allikni kuchaytiruvchi industrializm va boshqalar. Lekin Sh.Fure kapitalizmni har tomonlama tanqid qilgan bo'lsa-da, boshqa xayoliy sosializm namoyandalari singari u ham islohotlar yo'li, tashviqotni kengaytirish bilan ekspluatasiya, adolatsizlikka qarshi kurashib, «odil jamiyat» sari bormoqchi bo'ldi. Kelajak jamiyatning asosiy yacheykasi bir necha ishlab chiqarish assosiasiyalaridan iborat falanga (jamo)dir. Falanganing har bir a'zosi mehnat qilish huquqiga ega bo'lib, mehnat zavq bag'ishlashi, kishilarning ehtiyojiga aylanishi kerak. Sh.Fure o'sha paytda mashaqqat deb hisoblangan mehnat qanday qilib inson uchun xuzurhalovatga aylanishi mumkin degan masalani o'rtaga qo'yadi. U burjua huquqi sistemasini tanqid qilib, mehnat qilish huquqini birinchi o'ringa qo'yadi, mehnat qilish huquqi bo'lmasa qolgan hamma huquqlarning qadri yo'q deb hisoblaydi. Uning mehnat musobaqasi to'g'risidagi, mehnatni insonning g'ayrat-shijoati namoyon bo'ladigan ijodiy jarayonga aylantirish haqidagi g'oyalari ijobiy ahamiyatga egadir.

Angliya - sanoat to'ntarishini amalga oshirgan birinchi mamlakat bo'lib, kapitalizm u erda tez va dadillik bilan rivojlandi. Bu hol tabiiy, Angliya xayoliy sosializmining o'ziga xos xususiyatini belgilab berdi. U xususiy mulkchilikning barcha ko'rinishlarini inkor etib, fransuz socialistlarining industriallar jamiyati, turli uyushmalariga moyilligi yo'q edi. Siyosiy iqtisodni proletariat manfaatlariga xizmat qildirishga harakat kommunistik jamoalar tashkil etish tajribalarini qo'llash va nihoyat tinch yo'l bilan yangi «odil jamiyat»ni qurish imkoniyatlarini isbotlashga urinish bu maktabga xosdir. Angliya xayoliy sosializmining vujudga kelishi va rivojlanishi **Robert Ouenning** (1771-1858 yy.) hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liqdir.

**R. Ouen.** U Shimoliy Uelsda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabni tugatgach, o'zi mustaqil shug'ullangan, yoshlik yillaridayoq mehnatkashligi, tadbirkorligi bilan ajralib turgan. R.Ouen 1800 yildan boshlab Pyu-Lenark (Shotlandiya) dagi yigiruv korxonasida boshqaruvchi bo'lgan, o'sha yillarda unda insoniyatni qutqarishni maqsad qilgan islohotchilik g'oyalari shakllanadi. Biroz keyinroq (1820 yildan boshlab) xayoliy sosializmga xos bo'lgan fikrlar va tashviqotga asosiy e'tiborni qaratadi. R.Ouenning «**Jamiyatga yangicha qarash yoki xarakterni shakllantirish haqida tajribalar**», «**Yangi ahloqiy dunyo kitobi**», «**Adolatni almashuv bozori**», «**Ulug' milliy hunar ittifoqi**» asarlarida uning socialistik loyihalari bayon etilgandir. U kapitalistik jamiyatni tanqid qilib, uning xalqqa qarshi mohiyatini ochib beradi. Barcha mulkni umumning mulkiga



aylantiradigan, qashshoqlik yo'qoladigan, mehnat jafo-zulmatdan baxt-saodatga aylanadigan kommunistik jamoalar tuzish fikriga keldi. Shu maqsadga halaqit beradigan uchta to'siq bor deydi u. Bu uchta illat: xususiy mulk, din va burjuacha nikohdir. Biroq olim kapitalistik taraqqiyotning ob'ektiv qonunini tushunmadi, sinflar kurashini inkor etdi. Yangi tuzum yangi yo'l bilan yoki tinch yo'l bilan quriladi va unga tinch yo'l bilan o'tiladi, deb ishondi. R.Ouenning loyiha va ijtimoiy dasturlari fransuz xayoliy socialistlaridan farq qilib, ancha aniq va amaliyligi bilan ajralib turadi. U ishchilar mehnatini engillashtiradigan yoshlar va qariyalar mehnatidan tungi ish vaqtida foydalanishni man etgan, rag'batlantirishni tashkil etgan, u Angliyaning ilk fabrika qonunchiligining asoschilaridan edi. R.Ouen iqtisodiy qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, u burjua siyosiy iqtisodini inkor etgan fransuz xayoliy socialistlaridan farq qilib, o'z nazariyalarini yaratishda Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasiga tayanadi. U Rikardodan keyin qiymatning asosiy manbai deb mehnatni hisobladi. Xususiy mulk bilan bir qatorda mehnat bilan kapital o'rtasidagi qarama-qarshiliklar sababchisi deb pul hisobladi.

R.Ouen qiymatning sun'iy o'lchovi bo'lmish puldan voz kechib, mehnat harajatlarining ekvivalenti sifatida «ishchi pullarini» joriy etishni taklif etadi. U kapitalistik ishlab chiqarishni qaytadan tuzib «ishlab chiqarish uyushmalarini» tashkil etishga harakat qildi.

Lekin bu urinishlar behuda bo'lib chiqdi, chunki kapitalistlar o'z korxonalarini ixtiyoriy sotish haqida o'ylamagan bo'lsalar, kasaba uyushmalari sotib olish uchun imkoniyatlari yo'q edi. R.Ouen birinchilardan bo'lib T.Maltusning «aholi nufusi» qonuniga qarshi chiqdi. U mehnatkashlarning og'ir ahvolga tushib qolishiga aholi soni ortib borishi emas, balki mavjud mahsulotlarning adolatsiz taqsimlanishi sabab bo'lmoqda, deb ko'rsatadi.

R.Ouen xayoliy sosializmi va uning islohotchilik faoliyati qarama-qarshi xarakterdadir. U ishchilarning manfaatlarini himoya qilib, boyluk mehnatda yaratiladi, deb ko'rsatish bilan birga ayni vaqtda ishchilarga e'tiborsiz passiv rol belgilaydi, kapitalistlarni esa asosiy kamchilik qoniqarsiz tarbiyada deb oqlashga harakat qiladi. Lekin olim qarashlari va faoliyatida qarama-qarshiliklar bo'lishiga qaramay, uning ayrim tajribalari barbod bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda R.Ouenning g'oyalari ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, Angliya ishchilar harakati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. U o'zining ko'pgina asarlarida jamiyatni to'g'ri tashkil qilish konsepsiyalarini ilgari suradi. Ularning bachasida xar bir fuqoro uchun mehnatning majburiyligi, jamiyatning eng muxim tamoyillaridan deb hisoblanadi. Shuningdek R. Ouenning ishlab chiqarish uyushmalarida ishchi pullarini o'rni modiy boyluklar odilona taqsimlash masalalarini va umumman xususiy mulkchilikka berilgan baho o'sha davr uchun katta ahamiyatga molik edi.

### **9.3. Sosialist-rikardochilarning (T.Godskin, J.Grey, J.Brey) iqtisodiy qarashlari**

XIX asrning 20-30 yillarida Angliya hunarmandlari va ishchilari orasida sosialistik g'oyalar shakllandi. Bu g'oyalarni o'rganish bilan yangicha yo'nalishni tashkil qilgan olimlar *Jon Grey, Tomas Godskin va Jon Breylar* edilar. Ular asosan

ishchilar orasidan kelib chiqib, muammolarni hal etishda mustaqil ravishda o'z qarashlarini e'lon qildilar.

**Tomas Godskin.** O'tgan asrlarda ilmiy axborot va publisistika janr sifatida hali bir-biridan ajralmagan edi. T.Godskin asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, bu erda biz ilmiy izlanishlarning bizning tafakkurimizga ko'ra belgilarini topamiz. Avvalo bu qo'yilgan masalaga yaqindan taalluqlidir.

1827 yilda T.Godskin «**Taniqli siyosiy iqtisod**» nomli kitobini e'lon qildi, lekin uning asosiy g'oyalari avvalroq 1825 yilda «**Kapitalning daf qilishiga qarshi mehnatni himoyalash**» asarida bayon etilgan edi.

Dastlabki nazariyalarida olim kapital ishlab chiqarishdan tashqarida degan fikrni bildirib, o'z zamondosh iqtisodchi olimlariga qarshi chiqdi. Uning fikricha, aylanma kapital umuman yig'ilgan zapaslar emas, masalan, ishchilar novvoyxonada non epishadi, boshqa ishchilar esa uni sotib olishadi, demak, aylanma kapital - bu zapas «yig'ilma» emas, balki «mavjud» mehnatdir.

T.Godskin asosiy kapitalni to'plangan mehnat deb biladi, lekin ishchilarsiz hech qanday mashina hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Bundan shunday qisqacha xulosalar chiqadiki, foyda o'tgan mehnat hisobiga emas, balki kundalik mehnat tufayli yuzaga keladi. Lekin asosiy kapital o'z egasi uchun mehnatdan ustunlik qilish vositasi hisoblanadi. Yuqorida aytilganlarning barchasidan T.Godskinning ikkinchi tezisi kelib chiqadi: kapitalist tomonidan o'zlashtirib olingan foyda ishchilarning mehnatdan oladigan to'liq mahsulot huquqini buzish demakdir. Bu zo'ravonlik kapitalistlar tomonidan mehnatning bo'ysundirilishi bo'lsa, ularning hokimiyati ishchi mahsulotni o'zlashtiradi. T.Godskin «...*kapitalistlar o'z hollaricha Rikardoning qiymatning mehnat nazariyasini buzishadi, u holda bu qanday qonun bo'ldiki, u yoki bu kishilarning hohishiga qarasa!...*», - deb yozadi.

Kapitalistlar hech narsa ishlab chiqarmaydilar, lekin ular o'zlarini ish bilan ta'minlovchi va raxnamo deb ishchilarni ishontiradilar. Bu erda Godskin siyosiy iqtisodni ayblaydi, chunki u bir vaqtning o'zida ham ularning da'vosini oqlaydi, ham ularni xayron qolarli darajada rivojlanish hamda sivilizasiyaning buyuk va munosib quroli deb ataydi. T.Godskinning aytishicha, jamiyatdagi barcha jamg'arma kapitalistlar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni va kapitalistga foyda ko'rinishida tegadigan mahsulotni ham faqat ishchi ishlab chiqaradi. Foyda ko'p bo'lgan sari ish haqi kam bo'lishini ko'rsatib o'tadi (Bu fikr Rikardoniki bo'lganligini eslab o'taylik). Godskin esa bu fikrdan uzoqlashganligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin. Ko'ylak va ikki juft etikning haqiqiy bahosi mehnatning ma'lum miqdori hisoblanadi. Lekin u yoki bu tovarni qo'lga kiritish uchun ishchi kapitalist foydasiga yana ko'proq mehnat miqdorini sarf etishi kerak. Godskin ishchi ishlab chiqargan hamma narsa uning o'ziga tegishli bo'lishi kerak deb yozadi. Lekin har bir ishchining tegishini qanday belgilash mumkin? Ishlab chiqarishda mato bo'lagi yigiruvchida, to'quvchida, oqartiruvchi va bo'yoqchida, ularning hammasi turli xil shaxslardir. Bu erda mehnat taqsimlangan. Ularning har biri alohida bitta operatsiyani bajaradi va buning natijasida tayyor mahsulot yuzaga keladi. Buni qanday bo'lish mumkin? «Men bu masalani hal etishni ishchilarning o'zlariga erkin hal etish uchun berishdan boshqa yo'lni bilmayman». T.Godskin kapitalistlarda ikkita funksiyani ajratadi. Ishbilarmonlar kabi, tashkilotchi va ixtirochilar kabi ular ham ishchilardir. Lekin

kapitalistlar va kapitalning vakillari kabi ular faqat ishchilarga zulm qiluvchi vositadirlar. T.Godskin bunday xo'jayinlarni mamlakatdan chiqarib yuborishni maslaham bermas edi, begona o'lkalarga kashfiyotchilik va uddaburonlik bo'lib, mamlakatdagi qolgan aholiga ziyon etkazish demakdir. Haqiqiy adolatni tiklashning birdan-bir vositasi yoki chorasi,- deb hisoblaydi olim, - ishchilarni kasaba uyushmalariga birlashtirishdir.

**J.Grey.** yoshlik yillaridanok R.Ouen pamfletlarini o'qib, ularni targ'ibot qildi. 1825 yilda u o'zining «**Inson baxti haqida ma'ruzalar**» kitobini nashr qildirdi. XIX asrning 20-30 yillarida ingliz ishchilarining sevimli kitobi bo'lgan bu kitob R.Ouen ta'siri ostida yozilgan edi. J.Greyning fikricha, jamiyat uch kategoriyadagi kishilarga bo'linadi: birinchisi ishchilar, ular barcha moddiy boyliklarni yaratuvchilardir. Ikkinchisi shifokor, o'qituvchi va boshqalardir. Uchinchisi esa «mustaqil sinflar»dir. «*Bu mustaqil sinflarni tashkil qiluvchi kishilar ikki xil holatga bog'liqdir. Birinchidan, atrofdegilarning mehnatsevarligiga, ikkinchidan nohaklikning mavjudligiga. Bu esa ular ustidan hukmronlik qilish imkoniyatini beradi.*» J.Greyning qarashlarida siyosiy zo'rlikdan yuz ugrishga va adolatga tinch yo'llar bilan erishishga chaqiriqni uchratishimiz mumkin.

Olimning fikricha, jamiyatning asosini ayirboshlash munosabatlari tashkil qiladi. Kishilar orasidagi boshqa barcha munosabatlar esa mana shu munosabatlar ustiga quriladi.

Qashshoqlikning bosh sababchisi esa raqobatdir. «Faqat savdo tartiblarining to'liq o'zgarishi insonlar baxt-saodatiga olib keladi». 1831 yilda J.Greyning «**Ijtimoiy tartib**», «**Ayirboshlash asoslari haqida harakat**» nomli asarlari e'lon qilindi. Bu asarlar siyosiy iqtisodga oid asarlar hisoblanib, unda ishlab chiqarish, taqsimot, aholi nufusi, soliq va soliqqa tortish muammolari, shuningdek jamiyatda ayirboshlash tartibini qayta tashkil etish ko'rsatiladi.

Umummilliy savdo palatasi tashkil etilib, u barcha tarmoqlar - dehqonchilik, sanoat va savdo ishlari boshqaruvini tashkil etadi. Er va kapital egalari o'z mulklarini mazkur boshqaruv apparatiga bir yilcha avvaldan belgilangan mukofot hisobiga topshirib, o'zlarini turli tavakkallardan xalos qiladilar. Barcha xo'jalik ishlariga rahbarlikni palata topshirigiga ko'ra amaldorlar yoki ziyolilar olib boradilar. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari milliy savdo omborlarida saqlanib o'sha erdan savdo do'konlariga sotuvga chiqariladi.

Umummilliy idora tashkiliy reja asosida ish olib borib, tovarlar narxini ishlab chiqarish tannarxini qoplaydigan darajada va hatto foyda keltiradigan darajada belgilaydi. Ish haqlari esa hech qanday qiymatga ega bo'lmagan qog'oz pullar bilan to'lanadi. J.Grey o'zining «**Xalq baxtsizligiga qarshi to'g'ri vosita**» nomli pamfletida ishchi pullari g'oyasini rivojlantiradi. Bu ish vaqti va o'rtacha mehnat bahosini tasdiqlovchi kvitansiya ishchilarga do'konlardan shunga loyik mahsulotlarni sotib olish imkonini beradi. «Ishchi pullari» o'sha davrda turli ko'rinishlarda Prudon va Brey kabi olimlar tomonidan ham taklif qilingan edi.

**Jon Brey.** J.Breyning «**Mehnatga nisbatan adolatsizlik va uni bartaraf etish yo'llari**» nomli kitobi 1839 yilda nashr qilindi. T.Godskin va J.Greyning pamfletlari kabi Breyning kitobi ham katta shuhrat qozondi. U ham ishchilar orasidan etishib chiqqan bo'lib, bosmahonada harf teruvchi va muqova qiluvchi bo'lib ishlar edi. O'zining qarashlariga ko'ra J.Brey ham Grey singari ishchilarning

sinfy kurashiga qarshi edi. Uning asosiy kitobi «**Xalq xartiyasi hujjatlari**» e'lon qilingandan bir yil keyin chiqdi. Xartiyaning asosiy mazmuni Britaniya saylov tizimini demokratlash edi (umumxalq saylov huquqi, yashirin ovoz berish, nomzodlar mulkiy senzlarini bekor qilish va boshqalar). Chartizm harakati ham aynan shu davrdan boshlanib, unga J.Breyning asari chaqiriq sifatida xizmat qildi. Dunyoda adolatsizliklar qaerdan vujudga kelishini, jamiyat va davlat nima ekanligini, mehnatning zaruriyati, kapital jamg'arish va ayirboshlash xususiyatlarini o'rganishga o'z e'tiborini qaratdi. J.Brey shunday deb yozadi: *«Adolatli tuzumda hamma mahsulotlarni baholab, ayirboshlash, ishlab chiqazishga sarf qilingan butun harajatning yig'indisi bilan belgilanar edi, boylik teng ayirbosh qilinardi. Shu bilan birgalikda juda qadimdan jamiyatda yuksak darajada tengsiz ayirboshlash sistemasi hukm surardi: ishchilar kapitalistlarga yil davomida mehnat qilar edilar va evaziga yarim yillik mehnatning qiymatini olardi.»*

Xuddi shu erdan, aslo taxmin qilinmagan individlarning jismoniy va aqliy kuchlari ichidan boylik va hokimiyatning tengsizligi kelib chiqadi. Xuddi shu ayirboshlash tengsizligi bir sinfga hech narsa bilan shug'ullanmaslikni va dabdabali yashashni ta'minlaydi, boshqa bir sinfni og'ir mehnatga mahkum etadi.

J.Brey shunday deydi: *«Siyosiy iqtisodchilarning tasdiqlashicha har bir ayirboshlash o'zaro manfaatlidir. Aslini olganda esa kapitalist bilan ishchi o'rtasida hech qanday ayirboshlash yo'q! Ishchi kapitalistga o'zining mehnatini beradi, xo'sh, kapitalist unga nima beradi? Kapitalist ayirboshlash uchun yo mehnatni, yo kapitalni berishi mumkin. Kapitalist hech qachon mehnatni bera olmaydi, chunki u mehnat qilmaydi. Shu bilan birga kapitalist kapital ham bermaydi, chunki uning kapitali kamaymaydi, balki ko'payadi. Ishchining mehnati evaziga kapitalist nima beradi? Ishchining bir haftalik mehnati evaziga kapitalist va xususiy muhl egalari unga o'zlarining shu hafta ichida olgan boyliklarining bir qismini beradilar. Boshqacha qilib aytganda, ular ishchidan biron narsa oladilar, ammo o'rniga hech narsa bermaydilar».* «Hech kim dunyoda qandaydir tug'ma yoki tabiiy boylikka ega emas, - deb davom etadi J.Brey, - tabiat insoniyatga nimaiki bersa, bu mehnatga bo'lgan qobiliyatidandir. Demak, agar kimdir hech qachon mehnat qilmasdan boylikka egalik qilsa, bu boylik unga tegishli bo'lishi adolatsizlikdir. U o'zlarining mehnatlari evaziga yuzaga keltirgan insonlarga tegishli bo'lishi kerak, chunki kapital o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Angliyaning ulkan kapitallari yaratilish prinsipi bo'yicha kapitalistlarga tegishli bo'lishi kerak emas (ular uni o'zlari ishlab chiqarmaydilar). Bu ayirboshlash prinsipi asosida ham bo'lgan emas, ya'ni ular kapitalni o'z mehnatlari evaziga ayirboshlab olganlari yo'q. Meros huquqi asosida ham emas (bu boyliklarning merosxo'ri yo'q). Qaysi eshikka qaramaylik, mehnatkash kishi bilan puldor o'rtasidagi shartnoma adolatsizlik va aldanchilik bilan tugallanadi.» J.Brey qisqacha xulosalar qilib, hech qanday siyosiy saylov islohotlari bu tartibni o'zgartirmaydi, deydi. Mavjud tartibdagi ishchilar sinfi qanchalik aqlli, yuqori ma'naviyatli yoki mehnatsevar kuch bo'lishidan qat'i nazar, to'g'rilab bo'lmaydigan qullikka mahkumdirlar. Shuning bilan birgalikda u ishchilar sinfining kurashi kishilarga qarshi emas, balki tuzumga qarshi, u kapitalistlar bilan yoki kapital bilan emas, balki kapitalni qo'llash usuli bilan ekanligini uqtiradi.

#### **9.4. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari**

XIX asrning o'rtalarida iqtisodiy ta'limotlar tarixida yangi bir yo'nalish - marksizm vujudga keldi. K.Marksning nomi ko'pchilikda inqiloblar bilan bir deb qaraladi. Haqiqatdan ham bu fikrda jon bor, chunki u F.Engels bilan birgalikda proletariatning kapitalizmga qarshi kurashi zarurligini isbotlovchi nazariyaga asos soldi, buni tasodifiy hol deyish qiyin, chunki shu davrda kapitalistik xo'jalik rivoji, sanoat to'ntarilishining ayrim (Angliya va Farbiy Evropa) mamlakatlarda nihoyasiga etganligi, sanoatning iqtisodiyotda etakchi rolni egallashi, ishchilar sinfining jamiyatdagi mavqeining keskin oshganligi, kapitalistik jamiyatning feodalizmdan ustunligi namoyon bo'lishi bilan birga uning bir qancha illatlari ham mavjudligi (ishsizlik, ish vaqtining uzunligi, maoshning kamligi, iqtisodiy inqirozlar, mulkiy va sinfiy tabaqalashuvning tobora kuchayishi, mustamlakachilik va boshqalar) prinsipial yangi ta'limot paydo bo'lishiga asos bo'ldi. O'z davrida burjua olimlari deb atalgan tadqiqotchilar (Sismondi, Prudon, qisman Smit, Rikardo), xayoliy socialistlar va boshqalar kapitalistik tizimning bir qancha negativ tomonlarini ochib bergan edilar. Ana shu illatlar bu davrda keskin kuchaydi, mehnat va kapital, ishchilar va sohibkorlar o'rtasidagi qarama-qarshilik tobora ortib bordi. 1831-34 yillar Fransiyada Lion to'quvchilari, 30-40 yillarda Angliyadagi vuddistlar va chartistlar harakati ishchilar sinfining mustaqil sinf sifatidagi chiqishlari edi. 1844 yilda Sileziya to'quvchilarining qo'zg'oloni Germaniyadagi inqilobiy harakat darakchisi bo'ldi. 1848 yilda burjua inqilobi tufayli marksizmning vujudga kelish jarayoni yanada kuchaydi. Avvalgi davrdagi iqtisodiy talablar asta-sekin siyosiy tus ola boshladi.

Vujudga kelgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoit va avvalgi davrdagi bir qancha iqtisodiy g'oyalar asosida, birinchi navbatda klassik iqtisodiy maktab, utopik sosializm ta'limotlari tufayli marksizm shakllandi. Kapitalistik tuzum, hozirgi davr tili bilan aytganda bozor iqtisodining bekamu-ko'st emasligi, uning ijobiy tomonlari bilan birga hal etilishi shart bo'lgan muammolarining ham mavjudligi yangi iqtisodiy ta'limot paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

#### **9.5. K.Marksning iqtisodiy ta'limoti**

Uning bosh iqtisodiy asari «Kapital» bo'lib, unda asosiy iqtisodiy g'oyalari ilgari suriladi (1-jildi 1867 yil nashr etilgan). Marksning iqtisodiy merosida klassik maktab g'oyalari asosiydir. Bu olimning tadqiqot predmetida iqtisodiyotda ishlab chiqarish sohalari muammolarning tahlili ustuvordir. V.Petti tadqiqotlariga baho berib, ishlab chiqarishning burjua munosabatlarining ichki aloqalari o'rganishi ta'kidlanadi.

Tadqiqot uslubi boshqa olimlardan keskin farq qilmaydi, iqtisodiy jarayonlar siyosat va davlatga nisbatan ustuvor hisoblanadi, ammo kapitalizm va shunga muvofiq xo'jalik yuritishning bozor mexanizmi o'tkinchi deb qaraladi.

Bazis va ustqurma to'g'risidagi konsepsiya olim metodologiyasi markaziy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra ishlab chiqarish etakchi hisoblanadi formasiyalar to'g'risidagi fikrda esa kapitalistik jamiyatning o'tkinchiligi ko'rsatiladi, bunga asosiy sabab ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulk va bozor anorxiyasidir.

Yangi jamiyat sosializm va kommunizm bo'lib, unda ishlab chiqarish vositalari xususiy o'zlashtirish ob'ekti bo'lmaydi.

Sinflar to'g'risidagi nazariyada sinfiy kurash masalasi asosiydir, bunda kapitalistlar va ishchilar sinfi hisobga olinadi, uchinchi sinf to'g'risida shu narsa aytiladiki, mamlakatning industrlashib borishi tufayli rentaning daromad sifatidagi ahamiyati kamayib boradi.

Kapitalga nisbatan ishchilarni ekspluatasiya qilish va ishchi kuchi ustidan xokimiyat o'rnatish vositasi sifatida qaraladi. Kapitalizmdagi va demak, bozor munosabatidagi qarama-qarshilar kapital bilan bog'lanadi. Undan tashqari kapital tovarni ishchi kuchi bilan birlashtirib, o'sib boruvchi qiymatga aylanadi. Qo'shimcha qiymat bilan kapital o'zaro chambarchas bog'liqligi ko'rsatiladi. Faqat qo'shimcha qiymat yaratuvchi yoki kapitalning o'z-o'zidan o'sishga xizmat qiluvchi ishchigina unumli bo'ladi deb baho beriladi.

Kapitalning organik tuzilishi to'g'risidagi g'oya «yangilik» bo'lib, asosiy va o'zgaruvchi kapitalning nisbati  $-S/V$  ga tenglashtiriladi. Bundan ekspluatasiya nomasi (qo'shimcha qiymat normasi)-qo'shimcha qiymatning o'zgaruvchan kapitalga nisbati sifatida qaraladi (A. Smit va D. Rikardlarda kapital asosiy va aylanma qisimlarga bo'lingan). Bu erda asosiy kapital (mashina, asbob-uskuna, xomashyo....) qo'shimcha qiymat yaratmaydi.

Kapitalning jamg'arilishi sanoatning markazlashuvi va konsentratsiya bilan bog'lanadi, bu esa ishsizlik (rezerv) kuchayishiga olib keladi, bunday jamg'arilishning absolyut, umumiy qonuni deb ataladi.

K.Marksda qiymatning mehnat nazariyasi to'g'risida to'la ma'lumot beriladi, qiymatning mehnat sariflari bilan o'lchanishi birdan-bir to'g'ri deb qaraladi. Ammo talab va taklifga ko'ra, tovar bahosi qiymatga nisbatan oshishi va kamayishi mumkin. «Ishlab chiqarish bahosi» konsepsiyasi ilgari surilib, qiymatga qiyos qilinadi (xarid bahosi bilan tenglashtiriladi).

Oddiy tovar ishlab chiqarishda (to bozor iqtisodiyoti) va kapitalizmning dastlabki davrida baholar qiymat qonuni bilan tartibga solinar ekan. Rivojlangan kapitalistik iqtisodiyotida esa baho A.Smit bo'yicha tabiiy baho, D.Rikarda bo'yicha ishlab chiqarish bahosi (yoki qiymati), fiziokratlar bo'yicha zaruriy baho deb qaraladi. Uzoq muddat davomida ishlab chiqarish bahosi taklifning zaruriy shartidir.

Marksning bu g'oyasiga Kondratev «mehnat nazariyasining yuqori shakli» deb baho beriladi. Mark Blaug fikricha, marksistlarning qarashlari shunga borib taqaladiki, agar biz qiymatning mehnat nazariyasidan boslamasak, kapitalistlar mehnat jarayonida ishtirok etmasdan turib, umumiy mahsulotning bir qismini o'zlashtirishni isbotlab bera olmaymiz (ya'ni espluatasiya manbai yo'qoladi).

*Pul nazariyasi* Rikardo - Mill g'oyalari amal qilinadi ammo pulning miqdoriy nazariyasi inkor etiladi. Bunda ma'lum davr davomida savdo oborotlari va pul massasi oborotlari (aylanmasi) doimiy emasligi dalil qilib ko'rsatiladi.

Marksning *qo'shimcha qiymat nazariyasi* asosiy bo'lib, uning vujudga kelishi quyidagicha «isbotlanadi» (klassik maktab g'oyalari bo'yicha hamma narsa o'z qimmatida sotiladi va shu qimmatda olinadi, ya'ni ortiqcha narsa yuzaga kelmaydi). mehnat aniq miqdoriy o'lchovga ega, ishchi kuchining qimmatini baholash esa - bu katta darajadagi muammodir, hamda fe'l-atvor holati va kolektiv va psixologiya

(ruhi) tomonidan aniqlanadi. Shu sababli qo'shimcha qiymatning manbai bo'lib, faqat o'z ishchi kuchini sotayotgan unumli ishchilarning «haqqi to'lanmagan mehnat» hisoblanadi. Bu «zaruriy» va «qo'shimcha» ish vaqtidagi jarayondir. «qo'shimcha vaqt» va «qo'shimcha mehnat» bilan «qo'shimcha daromad» yuzaga keladi.

«Unumli mehnat» to'g'risidagi fiziokratlar (yuqoridagi boblarda berilgan) tomonidan ishlab chiqarilgan. Marks bu g'oyani rivojlantirib shunday qisqacha xulosalar chiqaradi: birinchidan, agar mehnat «mutloq» bo'lmagan shakldagi qo'shimcha qiymatni, ya'ni «nisbiy qo'shimcha qiymatini» yaratsa (bu tirikchilik vositalari qiymati (qiymati) arzonlashuviga olib keladi); ikkinchidan, unumli mehnat muomala sohasida emas, ishlab chiqarish sohasida qo'shimcha qiymat yaratgandagina unumli bo'ladi.

*Daromadlar to'g'risida* fikr yuritib, yollanma ishchilar o'z «kuchini» sotib kapitalistdan oladigan haqdir (bu erda «ishchi kuchi» ish haqiga almashtiriladi), vaholanki klasik maktab vakillari bo'yicha mehnat uchun ish haqi beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, ish haqi ishchi va uning oilasi hayotini ta'minlash uchun zarur tovarlarga ekvivalentdir. Uning miqdori ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va texnologik jihozlash darajasiga bog'liq, bu esa oxirgi oqibatda ish haqi o'sishi uchun to'siq bo'ladi, chunki texnik-iqtisodiy taraqqiyot doimiy ortiqcha ishchi kuchini yaratadi. Kapitalist va ishchi o'rtasidagi almashuv munosabatlari ishchi ziyoniga bo'ladi. Hech vaqt real ish haqi mehnat ishlab chiqarish kuchlari o'sishiga mutanosib ravishda o'smaydi. Erkin raqobat iqtisodiyoti sharoitida ishchilar kasaba Kumitalariga suyangan hollarda ham bu sharoitni o'zgartira olmaydilar. mehnat unumdorligi o'sishi tufayli, tovar va xizmatlar qiymatining puldagi ifodasi pasayib borishi oqibatida ishchilar tomonidan sotib olinadigan tovarlar bahosining har doim adekvat pasayishiga olib keladi, bu esa ishchilar ahvolining doimo yomonlashuvidir.

*Foyda va foyda normasi.* Bu daromad shakli sohibkor tomonidan ekspluatasiya yordamida paydo bo'ladi; Rikardodagi foyda normasi emas, boshqa qo'shimcha Qiymat normasi, hatto ekspluatasiya normasi to'g'risida fikr yuritiladi.

Korxonalar yoki sohadagi qo'shimcha qiymat hissasi o'zgaruvchi kapital va mehnat hissasi qancha ko'p bo'lsa, shuncha ko'p bo'ladi, kapitalning organik tuzilishida ( $S/V$ ) doimiy kapital hissasi kam bo'lsa, demak, korxonalar qanchalik mashina va boshqa texnikalar bilan yaxshi Kurollangan bo'lsa, shuncha kam bo'ladi.

Qo'shimcha qiymat normasi va foyda normasi o'rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi Uzgaruvchi ( $V$ ) kapitalga nisbat shaklida, ikkinchisi esa umumiy kapital ( $C+V$ )ga nisbat shaklida bo'ladi. Foyda normasi pasayib borish tendensiyasiga ega (Rikardo-Mill bo'yicha hayot uchun zarur mahsulotlarga baho oshuvi, demografik omillar, tuproq unumdorligi pasayishi va boshqalar), ammo Mark bo'yicha buning sababi kapitalning organik tuzilishi ( $S/V$ )da o'zgaruvchan ( $V$ ) kapitalning hissasi kamayishi va, demak, kapitalning jamg'arilishi bilan bog'liq.

Ekspluatatsiyani kuchaytirish (yoki qo'shimcha qiymatni oshirish) ning yo'llari 2 ta, ish soatlari oshiriladi (absolyut) yoki mehnat unumdorligi orttiriladi (nisbiy).

Marks Seniorning «So'nggi soat nazariyasi»ni qattiq tanqid ostiga oladi (yuqorida berilgan). Bu g'oya umuman yangilik edi.

Rikardo bo'yicha foyda normasining pasayish tendensiyasi mashinalarning takomillashuvi (texnik kashfiyotlar) va agronomiya fanidagi yangiliklar tufayli o'zgarib (to'xtab-to'xtab) turishi mumkin bo'lsa. Marks bo'yicha bu jarayon kapitalizmni o'z ichidan emirmaguncha davom etaverar ekan.

*Renta to'g'risidagi nazariya* D.Rikardonikidan farq qilmaydi, ammo differensial renta bilan absolyut renta ham borligi aytiladi. So'nggi renta qishloq xo'jaligidagi kapital organik tuzilishini pastligi ( $S/V$ ) va erga xususiy mulk borligi bilan izohlanadi. Xususiy er egasi ijarachi-fermerdan rentaning tabiiy darajasidan yuqoriroq ijara haqi talab qilib olish imkoniga ega bo'ladi.

*Takror ishlab chiqarish nazariyasida* Marks takror ishlab chiqarishning o'z sxemasini ilgari suradi. Avvalgi (Smit-Sey) mualliflar bo'yicha, yalpi milliy mahsulot jamiyat sinflarining daromadlar summasiga teng deb qaraladi. Marksda esa iqtisodiyot ikki tarmoqqa bo'lib qaraladi: ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollari; kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tahlil etiladi (F.Keneda oddiy takror ishlab chiqarish). Marksning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sxemasi fan tarixida iqtisodiy o'sishning birinchi matematik modeli deb hisoblash mumkin. Marks iqtisodiy inqiroz (krizis)larning avvalgi namoyondalari (Sismondi, Maltus va b.) fikrini tahlil etadi va xatolarini ko'rsatib beradi. Yirik ishlab chiqarish tufayli iste'molning pasayishi oqibatidagi inqirozlar, ularni tugatish uchun «uchinchi shaxslar» (T.Maltus) zarurligi to'g'risidagi g'oyalar yanada chuqurlashtiriladi.

Marksning «Kapital» asarida inqirozlar nazariyasidan ko'ra, muqarrar umumiy ortiqcha ishlab chiqarish davriga olib keluvchi kapitalning (sabab-oqibat) jamg'arilishi va kapitalizmga daromadlarning taqsimlanishiga baho beradi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari bozor iqtisodiyoti stixiyasi bilan bog'lanadi. Xo'jalik anarxiyasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli Yuzaga keladi, realizasiya muammosi kuchayadi. Sey qonuni tanqid qilinadi. Marksning yozishicha, har bir odam bir narsa sotgani uchun, uni darhol sotib olishi majbur emas. Bu esa ortiqcha ishlab chiqarish inqiroziga olib kelishi mumkin, chunki umumiy xarajatlar umumiy daromaddan kam bo'ladi.

Siklik o'sishning moddiy asoslari tahlil etilib, asosiy kapitalning (har 5-10 yilda) yangilanib turishi bilan bog'liq deb ko'rsatiladi. Marks bo'yicha iqtisodiyot tarkibining o'zgarishi yangi investisiya va yangi ish joylari paydo bo'lishi bilan ro'y beradi, bu jarayon foyda normasi pasayguncha davom etadi, keyin mehnat rezervlari armiyasi o'sadi, ish haqi pasayadi va inqiroz sharoiti paydo bo'ladi.

Yuqorida markscha iqtisodiy ta'limotning asosiy xususiyatlari tahlil etildi, endi shu g'oyalarning nazariy va amaliy ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Hozirgi davrda marksizmga bo'lgan munosabat salbiy hisoblanadi. Ammo bu ta'limotning muholiflari ham ayniqsa **Karl Marksning** (1818-1883) iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan buyuk hissasini tan olmoqdalar (masalan, R.Xeylbroner, L.Turou. «**Ekonomika dlya vsex**»). Umuman, iqtisodiyot g'oyalari tarixida uch shaxs - A.Smit, K.Marks va J.M.Keyns ta'limotlariga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun odatda **K.Marks** va **Fridrix Engelsning** (1820-1895) kapitalizmga bo'lgan munosabatlariga baho beriladi. Bu ikki olimning ta'limoti bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, bu yagona ta'limot marksizm deb ataladi, shuning uchun ko'proq K.Marksning nomi tilga olinadi. Bu olimning iqtisodiy



qarashlarini tushunish uchun ularni boshqa tadqiqotchi - A.Smit g'oyalari bilan solishtirishni o'rinli deb hisoblaymiz.

A.Smit kapitalizmni tartibga solish va taraqqiyotining me'mori edi. K.Marks esa bu jamiyatning illatlari va bo'lajak o'limi tashbexchisi bo'lgan. Ularning qarashlarida tarixga bo'lgan turli munosabat ochiq-oydin bo'lib qoladi. A.Smitning fikricha, insoniyat ovchilar va baliqchilarning ilk va sodda jamiyatidan oliy kommersiya jamiyati sari boradigan yo'lni bosib o'tdi. K.Marks esa insoniyat tarixi sinflarning to'xtovsiz kurashi, barcha davrlarda ezuvchi va eziluvchilar o'rtasidagi antogonistik raqobati hisobiga rivojlanishini aytadi. A.Smit va ko'pgina boshqa olimlar kapitalistik tizim oxir-oqibatda jamiyatdagi barcha taraflarning shaxsiy manfaatlari bilan ijtimoiy manfaatlarining uyg'unligi (garmoniyasi)ni, bu jarayon abadiy yoki jilla bo'lmasa juda uzoq vaqt davom etishini bashorat qiladilar. Marks esa sinfiy kurash ziddiyat va antagonizmni vujudga keltiradi va kapitalistik tizimning umri qisqa, ish haqi va foyda o'rtasidagi qarama-qarshilik kapitalizmni o'zgartiradi va uni yakson etadi, degan fikrni bildiradi.

Smit fikricha, ayrim shaxslar va jamiyat manfaatining mos tushishi «Ko'rinmas qo'l» orqali (tabiiy Konunlar va raqobat natijasida) tartibga solib turiladi. Vaholanki, Marks bo'yicha, ishlab chiqarish vositalari markazlashuvi va mehnatning ijtimoiylashuvi kapitalizmni inqilobiy yo'l bilan boshqa jamiyatga o'tishini taqozo etadi. Smit xususiy mulkni himoya qilsa, markschilar umumxalq (davlat) mulkini afzal deb hisoblaydilar.

Markschilar kapitalizmni rivojlanayotgan tizim, deb qaradilar va boshqa hali to'la aniq bo'lmagan jamiyat sari ketayotganligini aniqladilar (buni ba'zilar sosializm deb qaraydilar). Marks iqtisodchi sifatida bozorni kapital va boylik jamg'arishning kuchli vositasi sifatida biladi. Ammo bu jarayonni Smitdan boshqacharoq tahlil qiladi. Agar Smit bo'yicha bozor o'zini-o'zi boshqara olsa, Marksda bu o'sish turli to'siqlar, inqirozlar orqali ro'y beradi. Marks jamg'arilish jarayonini biznesmen nuqtai nazaridan o'rganadi: asosiy masala shundaki, ma'lum kapital (bankdagi pul yoki korxonaga qo'yilgan mablag') foyda keltirishi kerak. Marks iborasi bo'yicha P (pul summasi) undan kattaroq P1 ga aylanishi kerak. Bunga Marksning javobi quyidagicha: kapitalistlar o'z pullarini tovar va ishchi kuchini sotib olishga ishlatadilar, shunday qilib ishlab chiqarish jarayoni uchun asos solinadi, kerakli xom ashyo, yarim fabrikatlar olinadi, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchi yollanadi. Bu bosqichda hamma narsani haqiqiy bahoda olish qiyinchiligi yuzaga keladi. Real hayotda (masalan, mehnat qiymat tursa) P o'zgarmas holda qoladi va jamg'arilish jarayoni boshlanmaydi.

Agar yuqoridagi birinchi bosqich muvaffaqiyatli o'tsa, pul kapitali yollanma ishchi kuchi va moddiy ne'matlar zahirasiga aylansa, ya'ni pul mehnat jarayoni bilan materiallar, xom ashyo, yarim fabrikatlar orqali qo'shib ketsa, keyingi bosqichga o'tiladi.

Xuddi shu erda fabrika sexlarida foyda yuzaga keladi, uning manbai shundaki, kapitalistlar ishchi kuchiga ular tomonidan ajratilgan qiymatdan kamroq haq to'laydilar. Foyda, ya'ni P va P1 orasidagi farq amalda haq to'lanmagan mehnat bo'lib chiqadi. Bu Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasi foydaning manbai sifatida kapitalizmni tahlil etishda juda muhimdir.

Bu qo'shimcha qiymat odatda ikki yo'l bilan vujudga kelishi mumkin:

1. Ish soatlarini cho'zish (absolyut).

2. Zaruriy ish vaqtini qisqartirish (nisbiy) yoki mehnat unumdorligini oshirish.

Marksning fikricha, ish kuni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi zaruriy ish vaqtida ishchi va ishlab chiqarishga ketgan sarf-harajatlar to'la qoplanadi va qolgan vaqtda (qo'shimcha ish vaqtida) qo'shimcha qiymat hosil bo'ladi, ya'ni haq to'lanmagan ish vaqti kapitalist tomonidan o'zlashtiriladi (odatda ish kunining yarmi yoki ma'lum qismi o'shanga sarflanadi). Kapitalist avvalgi davrlarda ish soatlarini ko'paytirish yo'li bilan qo'shimcha ish vaqtini cho'zgan bo'lsa, keyingi paytlarda zaruriy ish vaqtini qisqartirish yo'lini kidiradi va bu ko'pincha ishlab chiqarishga mashinalashtirish, avtomatika, telemexanikani kiritish bilan amalga oshiriladi.

Marks kapitalizmning to'g'ri tizim emasligini, uning turli inqirozlar, siklik o'zgarishlarga moyilligini ko'rsatib berdi. Haqiqatdan ham Smitning fikridan farqli ravishda kapitalizm tizimining kibernetik kafolatlangan jarayondan ancha uzoqligi aniq. Kapital jamg'arilishi mehnat va kapital manfaatlarining noaniqligi, qarama-qarshiligini engishi kerak bo'lgan bozor tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Biznesning asosiy maqsadi boylik to'plash bo'lsa ham bu maqsadga erishish har doim ham amalga oshavermaydi.

«Kapital» asarida kapitalizmning turg'un emasligi oxir-oqibatda tizimning qulashiga olib keladi, degan qisqacha xulosalar chiqariladi. Bu asarda yana ikkita muhim fikr berilgan:

1. Korxonalar hajmi inqirozlar tufayli doim o'sib boradi, bu esa iqtisodiyotning monopollashuviga va qulashiga sabab bo'ladi. Inqirozlar tufayli bankrot bo'lgan korxonalar mulki boshqa firmalar tomonidan sotib olinadi. Bundan firma va fermerlarning yiriklashuv tendensiyasi kapitalizmning muhim ajralmas xususiyatidir.

2. Ommaning «proletarlashuvi» natijasida sinfiy kurash keskinlashuvi kutiladi. Inqirozlar tufayli kichik biznes va mustaqil hunarmandlar ommaviy ravishda ko'chaga haydaladi. Shunday qilib jamiyat tarkibida oz sonli kapitalist-magnatlar hamda ko'p sonli, mulkdan mahrum etilgan, norozi, «proletarlashgan» ommadan iborat ikki sinf paydo bo'ladi, «...oxir-oqibatda bu jarayon uzluksiz davom etishi mumkin bo'lmay qoladi. Kapital monopoliyasi o'zi yaratgan ishlab chiqarish usulining kishaniga aylanadi. Ishlab chiqarish vositalarining markazlashuvi va mehnatning ijtimoiylashuvi kapitalizm bilan mos kelmay qoladi. Kapitalizm qobig'i portlaydi. Kapitalistik xususiy mulk zil ketadi. Ekspropriatorlar ekspropriasiya qilinadi...»

Kapitalizm jamiyati boshqa yangi jamiyatga inqilobiy yo'l bilan o'z o'rnini beradi, deb bashorat qilingan edi. Bu hodisa eng rivojlangan mamlakatlarning bir qanchasida har holda bir vaqtda ro'y berishi kerak edi.

Ilgari surilgan iqtisodiy munozara asosan kapitalizm oxir-oqibatda o'zini o'zi vayron eta oladimi, degan masalaga borib takaladi. Kapitalizmning ichki qarama-qarshiliklarining chuqurlashuvi tufayli bozor mexanizmi ularni tartibga sola oladimi, degan va boshqa savollarga aniq javob berish qiyin. Marks tanqidchilari to'la ishonch bilan kapitalizm vayron bo'lmadi, ishchilar sinfi qashshoqlashmadi, foyda normasining pasayishi va boshqa prognozlari tasdiqlanmadi, demoqdalar.

Uning tarafdorlari esa buning aksini isbotlamoqdalar. Ularning fikricha, kapitalizm XX asrning 30-yillari deyarli vayron bo'ldi, odamlarning

«proletarlashuvi» tobora ortib bormoqda, masalan, 1800 yilda 80 foiz amerikaliklar yollangan holda ishlagan bo'lsalar, ularning hissasi hozir 10 foizdan tushgan, Marks aytganidek, firmalar hajmi tobora yiriklashmoqda, kapitalistik tizim nokapitalistik Osiyo, Janubiy Amerika va Afrikaga tobora kirib bormoqda.

Bu borada o'z fikrimizni bildirmoqchi bo'lsak, shuni aytib o'tish kerakki, marksizm g'oyalari o'sha davr uchun ko'p jihatdan to'g'ri edi. Kapitalizm shakllanayotgan va rivojlanayotgan davrda ishchilarning ahvoli keskin yomonlashdi, ekspluatasiya kuchaydi, inqilobiy vaziyat yuzaga keldi va bu qisman amalda ro'y berdi. Ammo inqirozlar girdobiga uchragan etakchi kapitalistik mamlakatlar ahvolni to'g'rilash uchun o'z iqtisodiy siyosatlarini keskin o'zgartirishga majbur bo'ldilar, ijtimoiy bozor elementlaridan foydalanish yo'lga o'tdilar. Bunda sobiq SSSR va boshqa «sosialistik» deb atalgan davlatlarning ta'siri ham kuchli bo'ldi. Bu davrda kapitalizm yangi davrga moslashdi va aslida «sosializm» elementlarini hayotda qo'llay boshladi. Hozirgi XX asr kapitalizmi XIX asrdagidan keskin farq qiladi.

Olimlar Marksning otashin demokrat bo'lganligini tan olgan holda, uning juda shoshqalok odam ekanligini ham aytmoqdalar.

Taniqli iqtisodchi olim **Mark Blaugning** ta'kidlashicha, K.Marksning iqtisodiy ta'limoti hozirgi davrda ham dolzarbdir («*Ekonomicheskaya msl v retrospektive*», str.207). Lekin bu olim «qiymat» tushunchasini «qimmat» bilan alishtirgan (qimmat qonuni, qo'shimcha qimmat qonuni va boshqalar). Uningcha, Marks qimmat qonunidan nisbiy baho, kapitalga foyda normasini aniqlash uchun foydalanadi, boshqacha aytanda, uning tizimida «qo'shimcha qimmat» qanday aniqlanishi ko'rsatiladi. Asosiy kapital «**S**», aylanma kapital «**V**», qo'shimcha qimmat «**S**» (Marksda «**m**») xarflari bilan belgilansa, yalpi milliy mahsulot  $C + V + S$  bilan, sof milliy mahsulot  $V + S$  bilan aniqlanadi. Qo'shimcha qimmat normasi  $g = S / V$  shaklida keltiriladi. Kapitalning organik tuzilishi  $q = C / C + V$  (yoki  $V / C + V$ ) shaklida ifodalangan. Marks iqtisodiy ta'limo-ting asosi qo'shimcha qimmatning paydo bo'lishi quyidagilar bilan tushuntiriladi. Jamiyat a'zolarining katta qismi mulkdan mahrum etilgan, bu mulk ozchilik qo'lida to'planganligi tufayli, ko'pchilik o'zlarining mehnat quvvatlarini sotish hisobiga tirikchilik qilishga majbur. Ishchi kuchi tovar sifatida (boshqa tovarlar kabi) bozorda to'la bahoda sotiladi va sotib olinadi. Ammo bu ishchi kuchi yaratgan qimmat ishchi kuchi bahosidan ortiq bo'ladi. ana shu farq (ish haqi to'lanmagan mehnat) qo'shimcha qimmatdir.

Marksda xalq ommasining absolyut yoki nisbiy qashshoqlashuvi masalasi ham muhimdir. Lekin M.Blaugning ma'lumotlariga ko'ra, Marksning yuqoridagi g'oyasi, kichik va o'rtacha korxonalarining yo'qolib borishi, foyda normasining pasayib borishi to'g'risidagi fikrlari hatto nazariy jihatdan ham isbotlanmaydi (O'sha kitob, 227-bet).

Marks ishchilarning real ish haqlari oshib borishi mumkinligini inkor etmaydi. Ammo mehnat unumdorligining ortishi har doim maoshning oshishiga olib kelmaydi, bu absolyut qashshoqlashuvdir. Kapitalizmning tarixiy rivojlanishi har doim ham bu g'oyaning to'g'ri ekanligini isbotlamaydi. Ko'pgina mamlakatlarda ishchilar sinfining ahvoli yaxshilanib borgan. Markscha iqtisodiy ta'limotning asosi bo'lgan qo'shimcha qiymat nazariyasi ham haqiqatdan yiroq deb topildi.

Xususiy mulkning inkor etilishi, umumxalq mulkining afzalliklari ham hayot sinovidan o'tmadi. Barcha turdagi mulklarning mavjudligi, ayniqsa xususiy mulkdagi rag'batlantiruvchi kuch tarixda va umuman iqtisodiyotda muhimdir.

Bu olimlarning buyuk xizmatlari shuki, ular ijtimoiy iqtisodiy formasiyalar to'g'risidagi ta'limotni, uni tashkil etuvchi tarkibiy elementlarini, formasiyalarning almashuv sabablarini, kapitalizmning rivojlanishi qonunlarini, uning ichki harakatlantiruvchi kuchlari, ichki qarama-qarshiligi, bu formasiyaning o'tkinchi xarakterini ifodalab berdilar, takror ishlab chiqarish va iqtisodiy inqirozlar, ishlab chiqarish bahosi, mehnatning tovarida aks etgan ikkiyoqlama xarakteri, tovar qarama-qarshiligi, qo'shimcha qiymat to'g'risidagi ta'limotlarni ishlab chiqdilar; qiymat evolyusiyasining noyob tahlili; absolyut rentaning mohiyati ochib berildi; kapitalistik ekspluatasiyaning umumiy xarakteristikasi berilgan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, sosialistik jamiyat qurish borasida marksizmning asosiy g'oyalari dogmatik ravishda buzib qo'llanildi. Asosiy e'tibor sinflar o'rtasidagi antagonizmga qarshi qaratiladi. Jamiyatni kelajakda rivojlantirish tavsiyalari ikkinchi darajali deb qaraldi. Kapitalizmni faqat ekspluatatorlik jamiyati ekanligiga ortiqcha urg'u berildi. Kapitalizm esa sharoit taqozosi tufayli adaptasiyaga moyilligini namoyish etdi.

Marks va Engelsning iqtisodiy qarashlari ular hayotligi davridayoq qattiq tanqidga uchradi. Sosialistik va kommunistik jamiyat to'g'risidagi g'oyalar ham ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

## **9.6. Markscha iqtisodiy ta'limotning tarixiy taqdiri**

Markscha g'oyalar davr sinovidan o'tdimi? degan o'rinli savol tug'iladi. Umuman, o'z davrida sosialistik va konkret Sovet davlati va dunyoning 1.5 mlrd aholisini o'z ichiga olgan sosialistik lager deb atalgan mamlakatlardagi ijtimoiy tuzumning mazmuni nimadan iborat edi, hozirda bu yo'lni davom ettirayotgan davlatlarning istiqboli qanday? kabi muammolar bugungi kunda oz emas. Bu murakkab savollarga baholi kudrat o'z fikrimizni bildiramiz.

Imperializm sosialistik inqilob arafasi ekanligi dastlab Rossiyada, keyinroq qisqa vaqt bo'lsa ham Germaniya (Bavariya), Vengriya, Mongoliya va II Jahon urushidan keyin ba'zi davlatlarda isbotlandi. Lekin bu inqilob yuksak rivojlangan, ishchi sinfi ko'pchilikni tashkil etgan joylarda emas, nisbatan o'rta yoki kam rivojlangan davlatlarda ro'y berdi.

Markscha ta'limot asoschilarining umumxalq mulkini yaratish, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, iqtisodiyotni qat'iy rejalashtirish, raqobatni yo'qotish, ya'ni bozor iqtisodiyotini bekor qilish to'g'risidagi g'oyalari (Sovet davlati va boshqalarda) o'zini oqlamadi.

Lenin va leninchilarning oktyabr to'ntarilishi jahon revolyusiyasiga aylanadi, degan umidlari ham ro'yobga chiqmadi. Oqibatda Sovet davlati amalda yagona sosialistik mamlakat bo'lib qoldi. Bizda bashorat qilingan umumxalq, ya'ni davlat mulki asosiy bo'lib oldi, qisman kolxoz-kooperativ jamoat mulki saqlandi, xususiy mulkchilik barham topdi, bozor iqtisodiyoti o'rniga markazdan rejalashtirilgan ekonomika keldi, ilgari qoloq davlat qisqa vaqt ichida ancha ilg'or mamlakatlar qatoriga o'tib oldi. Agar shu yutuq bo'lmaganda Gitler Germaniyasi sobiq Ittifoqni

er bilan yakson qilib yuborgan bo'lar edi. Lekin 70-yillarda, ayniqsa 80-90 yillarda Sovet Ittifoqi inqirozga yuz tutdi. Xo'sh, sosializm va kommunizm g'oyasi puch bo'lib chiqdimi yoki gap boshqa erdami?

Bu erda tarixga ekskursiya qilishga to'g'ri keladi. Kapitalizm (ayniqsa imperializm, davlat-monopolistik kapitalizm bosqichida) avvalgi jamiyatlardan ijobiy farq qiladi, uning ko'plab imkoniyatlari borligi aniqlanmoqda; ayniqsa burjuaziya katta tajribaga ega (XVIII asrning o'rtasida paydo bo'lgan bu sinfning 250 yillik tajribasi bor), o'z boshidan qanchadan-qancha jarayonlarni o'tkazdi, u feodal munosabatlarga qarshi qonli kurashda hokimiyatni qo'lga olgach, asosiy ishlab chiqarish vositalarining egasiga aylandi, dastlab ekspluatasiyaning jirkanch usullari qo'llanildi (14-16 soatlik ish kuni, bolalar va ayollarning mehnatidan foydalanildi, ish haqi nihoyatda oz, sosial sharoit g'oyatda og'ir edi), oqibatda bir qancha sosial inqiloblar va iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirdi, bu sinf kurashlarda chiniqdi, tajriba orttirdi, o'zini himoya qilish, yashash uchun yo'l kidirdi, ilojini topdi. Dastlabki va keyingi yillarda mustamlakalar (koloniyalar) joniga oro kirdi, ular hisobiga metropoliyaning iqtisodiy va demakki, siyosiy ahvoli nisbatan yaxshilandi.

Mustamlakachilik sistemasi tugagan hozirgi paytda ham ilgari koloniya bo'lgan davlatlar o'z qarzlarini emas, hatto foizlarini to'lashga ham qodir emaslar (masalan, Janubiy Amerika davlatlari AQSh ga juda katta qarzdor). Yana bir fikr shuki, barcha kapitalistik davlatlarning ravnaqi bir xil emas, balki turlichadir.

Rossiyadagi inqilob (chet el intervensiyasi bejiz emas), sosializm yo'lini birinchi bo'lib tanlagan davlatlar - SSSR, Mongoliya va boshqalar, II Jahon urushi, yangi sosialistik yo'ldan borishni istagan davlatlar, mustamlakachilik sistemasining emirilishi, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar kapitalistik davlatlar oldiga yangidan yangi muammolarni qo'ydi. Katta tajribaga ega bo'lgan burjuaziya ilmiy-texnika progressidan unumli foydalandi, ishlab chiqarishni o'stirdi, foyda oshdi, ishchilar sinfi va xalqning moddiy turmush darajasini oshirishga va sosial tenglikni yumshatishga erishdi. Masalan, AQShda milliy boylikning 60 foizi 1 foiz aholining qo'lida, bunga xalq jim qarab tura olmaydi. Shuning uchun bu sistema yo'qolish xavfining oldini olishga majbur edi (SSSR tajribasi).

Shu vaqt davomida SSSR deb atalgan sobiq mamlakatda rivojlanish tobora susayib bordi, sosial tanglik kuchaydi, bunga bir qancha sabablar bor. Avvalo voqealarni sun'iy tezlashtirishga urinildi. 1928 yildan boshlab yangi iqtisodiy siyosat vazifalari inkor etildi, vaholanki bu jiddiy va uzoqqa mo'ljallangan siyosat edi. Kapitalistik munosabatlarga chek qo'yishga shoshildik, ma'muriy-buyruqbozlik usulini joriy qilib, ayniqsa qishloq xo'jaligida majburiy kollektivizasiya kabi yirik xatolarga yo'l qo'ydik, dehqonlar va ishbilarmonlarning faoliyatiga sun'iy to'siqlar yaratdik. Ikkinchi beshyillik oxirida sosializm qurib bitkazilganligini e'lon qildik va AQShga etib olish va undan o'zib ketish vazifasini belgiladik. II Jahon urushi oqibatlari va undan keyingi voqealar, sovuq urush, qurollanish poygasi (40-50 foiz harajat), boshqa davlatlarga beg'araz yordam, ilmiy-texnika taraqqiyotiga e'tiborning kamligi (kibernetika va genetikani dastlab inkor etish) iqtisodiyotda qo'pol xatolar va yomon oqibatlarga olib keldi. Ayniqsa og'ir sanoatning ustun rivojlanish qonuni katta ziyon keltirdi. 1953 yilda Stalin vafotidan so'ng G.M.Malenkov tomonidan xalq iste'mol mollarini ko'proq ishlab chiqarish g'oyasi

zararli deb e'lon qilindi. Ayniqsa N.S.Xrushchevning iqtisodiy siyosati xalq xo'jaligini keskin og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Ilg'or kapitalistik davlatlarda qayta qurish (agar shunday deyish joiz bo'lsa) ancha ilgari boshlandi. Masalan AQShda 1929-33 yillar buyuk inqiroz davrida 17 mln ishsiz bo'lgan paytda sosializasiya rejalari tuzildi, insonning manfaatlarini ta'minlamay, himoyalamay borib halokatga uchrash mumkinligi ayon bo'lib qoldi (buning uchun 200-250 yil kerak bo'ldi).

II Jahon urushidan keyin Germaniyada L.Erxard tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga yo'l ochildi, Shvesiya va bir qancha mamlakatlarda davlat tomonidan sosial himoya kuchli qilib qo'yildi.

Yuqorida aytilganidek, bir qancha davlatlar sosializm g'oyasidan voz kechmagan. XXRda sosializm asoslarini qurish 50-100 yillik vazifa qilib belgilangan, KXDR, Kuba va Vetnam sosialistik respublikasida ham bu jamiyatni qurish uchun harakat bor.

Markscha ta'limot tarix sinovidan to'la o'tmadi. Uning taqdiri kelajak tarixi hukmiga havola etiladi.

## **QISQACHA XULOSALAR**

Sen-Simonizm ta'limoti o'z rivojida to'rtta bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich uning 1815 yilgacha yozilgan asarlarida yoritilib, olimning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuri endi shakllanib borayotgan edi. Ikkinchi bosqich Sen-Simon hayotining so'nggi o'n yilligida yozilgan asarlarni o'z ichiga olib, ularda kapitalizm tabiiy va abadiy degan fikrdan qaytib, yangi, qarama-qarshilik va raqobat o'rniga birodarlik va hamkorlikka asoslangan jamiyat vujudga kelishi ko'rsatiladi.

Bu almashinuv tinch yo'l bilan, «industriallar jamiyati»ning rivojlanishi va feodallarni tugatish asosida olib boriladi. Sen-Simon umuman xususiy mulkchilikka qarshi chiqqan emas, u faqat jamiyatda ma'lum nazorat o'rnatilganligi maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydi.

Uchinchi bosqichga Sen-Simonning vafotidan keyin olti yil ichida uning shogirdlari yaratgan asarlar hamda ularning tashviqot va amaliy faoliyati kiradi. Bu bochkichda Sen-Simonizm sosialistik ta'limotga aylanib, xususiy mulkchilikni bartaraf etishni, boylukni har kimning mehnati va layoqatiga qarab taqsim qilishni, ishlab chiqarishni esa rejalashtirishni talab qiladi. Bu g'oyalar to'liq ravishda 1829 yillarda Sen-Simonning yaqin shogirdlari S.A.Bazar, B.P.Anfonten, B.O.Rodrig tomonidan Parijda o'qilgan ommaviy ma'ruzalarda o'z aksini topdi. Sen-Simon va uning shogirdlari asarlarida siyosiy iqtisodning asosiy kategoriyalarining ilmiy tahlilini uchratmaymiz.

Ular qiymat shakllarini, ish haqi, foyda va er rentasining xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilganlari yo'q. Balki, siyosiy iqtisod fani oldiga yangi vazifalarni: kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi va rivojlanishi, undagi qarama-qarshiliklar, nima uchun va qanday ko'rinishda sosializmga o'rin bo'shatishi kerakligini o'rganishni qo'yadi.

1831 yilda boshlangan to'rtinchi bosqich Sen-Simonizm inqirozi bosqichidir. Ishchilar orasida mustahkam o'rin egallamagan Sen-Simonchilar dastlabki

revolyusiyalar davrida ancha o'zlarini yo'qotib qo'ydilar. Natijada ular orasida kelishmovchiliklar vujudga kelib, ikkiga bulinishga, keyinchalik esa umuman Sen-Simonizmning oqim sifatida tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Sen-Simon agar yangi jamiyatning umumiy qiyofasini, ya'ni eskizini yaratgan bo'lsa, Fure o'z navbatida undagi mehnatni va hayotni tashkil qiluvchi alohida yacheykalarining mohiyatlarini o'rgandi. Fure asarlari va g'oyalarining ahamiyati shundan iboratki, olimning o'zi kapitalizm qonuniyatlarini o'rganishga harakat qildi.

## 10-MAVZU. MARJINALIZM TA'LIMOTI NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR

### 10.1. Marjinalizmning umumiy ta'rifi va rivojlanish bosqichlari

XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asrning boshlarida iqtisodiy ta'limotlarning rivojlanishi (evolyusiyasi) kapitalizm iqtisodiyotida uning siyosiy ustqurmasida yuz berayotgan tub siljishlarni aks ettirar edi. XIX asrning so'nggi chorasida erkin raqobatning monopoliyaga aylanishi iqtisodiyotdagi eng muhim hodisa bo'ldi. Bu jarayon kapitalizm ziddiyatlarning, ayniqsa mehnat bilan kapital o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi va keskinlashuvi bilan ayni bir vaqtda ro'y berdi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab qiymat nazariyasi va uni ilmiy tahlil qilishda ham chinakam inqilobiy o'zgarish yuz berib aynan shu davrda Evropaning bir nechta mamlakatlarida turlicha nazariy maktablar shakllandi. Ushbu maktablar yaratgan iqtisodiy ta'limot fanda «marjinalizm» ta'limoti deb nomlanib XX asrning 30-yillarigacha o'z mavqeini saqlab turdi.

*Marjinalizm* fransuzcha *marginal* so'zidan olingan bo'lib «eng yuqori», (chegaraviy) degan ma'noni bildiradi.

Bu boradagi o'zining ilk fikrlarining U. Stenli Jevons 1862yilda Britaniya fanlarini rivojlantirish Assosiasiyasida qilgan «Siyosiy iqtisodning umumiy nazariyasi haqida qisqacha bildirish» nomli ma'ruzasida bayon etgan edi. 1871yilda esa U. Jevons yangi nazariyasini ilmiy asoslashga bag'ishlangan fundamental asar bo'lgan «Siyosiy iqtisod nazariyasi» nomli kitobini Angliyada nashr qildirdi. Aynan mana shu yili 1871yilda Avstriyada Karl Mengerning «Siyosiy iqtisod asoslari» nomli kitobi ham e'lon qilindi. Bu kitobda ham xuddi mana shu «eng yuqori foydalilik» nazariyasi tahlil qilinib matematik formula va teoremlarsiz ilmiy jihatdan asoslab berildi.

1874 yilda Shveysariyada Leon Valrasning «Sof iqtisodiyot fani elementlari» nomli kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitobdagi iqtisodiy nazariya to'liq ravishda matematik jihatdan rivojlantirildi. Shunday qilib yangi yo'nalish bir vaqtda uchta olim tomonidan turli mamlakatlarda ingliz, nemis va fransuz tillarida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Marjinalizm va uning rivojlanish davrini ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

*Birinchi bosqich* XIX asrning 70-80-yillarini o'z ichiga olib iqtisodiy tahlilning dastlabki marjinalistik g'oyalarini mujassam qilgan dastlabki ilmiy asarlar yaratildi. (K. Menger, U. Jevons va L. Valras asarlari). Bu davrda asosiy kechib uni bu ko'rinishi inson psixologik xususiyati, ya'ni uning hissiyoti va qabul qilishi asosida o'rganiladi. Shuning uchun marjinalizmning bu bosqichini iqtisodiy ta'limotlardagi «sub'ektiv yo'nalish» deb ataldi.

*Ikkinchi bosqich* XIX asrning 90-yillariga to'g'ri kelib, bu davrdan boshlab marjinalizm ko'pgina mamlakatlardamahir va asosiy ta'limotga aylandi. Marjinalistlarning bu davrda erishgan asosiy yutug'lari sub'ektiv-psixologik yo'nalishdan vos kechib iqtisodiyotning asosiy maqsadi bu iqtisodiy hayotning doimiy borishini mavjud shart-sharoitlar asosida tushuntira bilish demakdir, dedilar.





Natijada yangicha iqtisodiy g'oyalar namoyondalari klassik iqtisodiy maktabning davomchilari sifatida baholanib,

**K. Menger** ularga neoklassiklar deb nom berildi.

Marjinal rivojlanishning ikkinchi bosqichini ya'ni neoklassik iqtisodiy ta'limotni rivojlanishiga yirik iqtisodchi olimlar A.Marshall, Dj. B.Klark va V.Pareto katta hissa qo'shdilar. Marjinal iqtisodiy g'oyalarni yuqorida qayd etilgan ikkala bosqichini o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ta'riflanimiz mumkin.

*Birinchi.* Dastlabki marjinalistlar o'zlarining sub'ektiv oqimlarida asosiy e'tiborni iqtisodiy tahlil jarayonida istemol (talab)ning tutgan o'rnini o'rganishga qaratib klassiklardan farqli ravishda ishlab chiqarish (taklif)ni ikkinchi darajali qilib qo'ydilar. Keyinchalik neoklassiklar har ikkala jarayonni birgalikda o'rganib ancha mukammal ta'limot yaratdilar.



*Ikkinchi.* Birinchi bosqich marjinalistlari sub'ektiv yo'nalish vakillari klassiklar singari sabab oqibatga asoslangan ilmiy tahlilni qo'llab ularning g'oyalarini ma'lum darajada takrorladilar. Lekin birgina katta farq sub'ektiv maktab qo'llagan iste'mol va tovarlarning foydaliligi usuli ularni klassik maktab usulidan farqladi. O'z navbatida marjinalistlarning neoklassik yo'nalishi funksional ilmiy tadqiqotni maydonga tashlash bilan birga ishlab chiqarish va iste'molni yaxlit holda o'rganib meyoriy iqtisodiy o'lchamlarni taqsimot va ayirboshlash jarayonlariga ham tadbiiq etdilar.

**Ye. Byom – Bavyerk Uchinchi.** Marjinal inqilobning birinchi bosqichidan farq qilib, ikkinchi bosqichda funksional ilmiy uslub bilan birga iqtisodiy tahlilga iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish usuli ham olib kirildi. Shu jumladan, har ikkala bosqich nazariyotchilari «erkin» raqobat yordamidagi iqtisodiy o'sishni haligacha avtomatik avishda qo'llab kelinmoqda degan fikrga keldilar.

*To'rtinchi.* Neoklassiklar iqtisodiy ta'limotlar tarixida alohida o'rin egallagan klassiklardan iqtisodiy liberalizm tamoyillariga sodiq qolishni meros qilish bilan birga tadqiqot mavzuini yanada kengaytirib, unda funksional tadqiqot usulidan va iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash usuli va nihoyat sistemali matematik usuldan keng foydalanishni amalga oshirdilar.

## 10.2. Avstriya maktabi. Sub'ektiv - psixologik yo'nalish

XIX asrning 70-yillarida iqtisodiy ta'limotlarning nufuzli maktablaridan biri bo'lgan Avstriya maktabi vujudga keldi. Avstriya maktabini sub'ektiv yoki sub'ektiv-psixologik maktab deb ham ataydilar. Uning mafkurachilari qo'llagan usul munosabati bilan unga mana shunday nom berilgan. 70-yillarda Avstriya maktabining asoschisi **K.Menger** (1840-1921) bu g'oyani rivojlantirib, uni sub'ektiv-psixologik maktabning asosiy nazariyasiga aylantirdi. **Evgeniy Byom-Baverk** (1851-1914), **Fridrix Vizer** (1851-1926) va boshqalar ham shu nazariyani ishlab chiqdilar. Avstriya maktabining konsepsiyalari K.Mengerning «**Siyosiy**

**iqtisod asoslari»** (1871), F.Vizerning **«Xo'jalik boyligining kelib chiqishi va asosiy qonunlari to'g'risida»** (1884), E.Byom-Baverkning **«Kapital va foyda»** (1884-89), **«Xo'jalik ne'matlari boyligi nazariyasining asoslari»** (1886), **«K.Marks nazariyasi va uning tanqidi»** (1896) va boshqa asarlarida bayon etilgan, Avstriya maktabining ta'limoti Angliya, Germaniya, AQSh va Rossiyada hamda boshqa mamlakatlarda yoyildi. Bu ta'limot iqtisodiyot fanining shundan keyingi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi.

Avstriya maktabi iqtisodchilarining asarlarida avvalo siyosiy iqtisod predmeti, uning uslubiy negizlari va tadqiqot usuli to'g'risidagi ta'limot yanada kengaytirildi. Menger va uning tarafdorlari ishlab chiqarish munosabatlarini, ishlab chiqarishning rivojini tartibga soluvchi iqtisodiy qonunlarni siyosiy iqtisod predmetiga kiritmas edilar.

Ularning konsepsiyasiga ko'ra siyosiy iqtisod xo'jalik sub'ekti tajribasining butun xilma-xilligi bilan uni idrok etishni o'rganishi lozim edi. Byom-Baverkning da'vo qilishicha, siyosiy iqtisod sub'ekt hislarida iqtisodiy hodisalarni izohlaydigan ildizlarni izlashi kerak. Alohida xo'jalik tadqiqot ob'ekti qilib olinar va shu xo'jalik jamiyatning eng oddiy tipik elementi deb talqin qilinardi. Jamiyatdan mutlaqo ajralgan shaxs - Robinzon xo'jaligi mana shunday xo'jalikning oliy maqsadi deb atalardi (D.Defoning asarini eslang). Avstriya maktabi kapitalistik xo'jalikni mana shunday eng oddiy elementlarning mexanik yig'indisi deb talqin etardi. Umuman iqtisodiyot qonunlarini o'rganish uchun alohida olingan bir xo'jalik (firma, korxon) misolida shu qonunlarni ko'rib chiqish etarli deb hisoblanardi (mikroiqtisodiyot).

Tadqiqotning bu usuli *Robinzonada* usuli degan nom oldi. Shu usul yordamida siyosiy iqtisoddan ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari chiqarib tashlandi, iqtisodiy kategoriyalarning ijtimoiy-sinfiiy mazmuni kuchaytirildi, ijtimoiy ishlab chiqarishning roli soddalashtirildi. Robinzonada usuli asosida siyosiy iqtisod tarixiy va sinfiy muayyanlikdan mahrum bo'lar, unda individuallik keng targ'ib qilinardi. Ayirboshlash konsepsiyasining tarafdorlari bo'lgan Avstriya maktablarining iqtisodchilari iqtisodiy masalalarni faqat bozor munosabatlaridan, ya'ni ayirboshlash munosabatlaridan iborat qilib qo'yidilar. Robinzonada usuli madhiyabozlik tusida edi. U ochiqdan-ochiq sub'ektiv psixologik bo'lishiga qaramay, iqtisodiyot fanining bisotiga kirdi va keng yoyildi.

Avstriya maktabining nazariyotchilari kapitalizmni faqat bozor munosabatlari bilangina bog'langan yakkaxo'jaliklarning mexanik yig'indisi deb tasvirlab, mehnatning rolini inkor etdilar va kapitalistik ekspluatasiyani niqobladilar. Ular iqtisodiy jarayonni va uning omillarini sub'ektiv idealistik tarzda izohladilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning psixologiyasi bu jarayonning asosi deb hisobladilar. Avstriya maktabining namoyandalari ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotining ob'ektiv xarakterini va unga xos qonunlarni inkor etib, xo'jalik turmushida iqtisodiyotni rivojlantirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini belgilaydigan psixologik sabablar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb da'vo qildilar. Iqtisodiy jarayonlarni mana shunday sub'ektiv-psixologik talqin etish Avstriya maktabi metodologiyasining asosini tashkil qildi. Avstriya maktabining nazariyotchilari siyosiy iqtisodni ishlab chiqarishni o'rganishdan «xalos» etib, iste'molni birinchi o'ringa qo'yidilar. Ular individlarning moddiy ne'matlarni iste'mol qilishi xo'jalik faoliyatini tashkil etuvchi asosiy omil deb da'vo qilishdi.

Sub'ektivizm va individualizm mehnatning va ijtimoiy ishlab chiqarishning ishlab chiqarish munosabatlarining rolini hamda ijtimoiy ziddiyatlar va sinfiy kurashni inkor etishga hamda soxtalashtirishga asoslangan. Bu qoidalarining tigi marksizmning ilmiy metodologiyasiga iqtisodiy ta'limotiga qarshi qaratilgan edi.

Avstriya maktabining namoyandalari va avvalo Byom-Baverk qiymatning mehnat nazariyasini K.Marks ta'limotining ilk negizi deb bilib, shu nazariyadagi qo'shimcha qiymat ta'limotiga xuruj qilib, «Kapital»ning birinchi va uchinchi tomlari o'rtasida ziddiyat borligini isbotlashga urindilar (bu haqda oldingi mavzuda aytib o'tilgan edi).

Qadriyat (qimmat) nazariyasi Avstriya maktabining konsepsiyalarida markaziy o'rinni oldi. Bu nazariya «eng yuqori foydalilik» nomini oldi. Siyosiy iqtisodda qabul qilingan «tovar» va «qiymat» kategoriyalari ijtimoiy mazmundan mahrum bo'lgan ne'mat va qadriyat tushunchalari bilan almashtirildi. K.Menger, E.Byom-Baverk va boshqalar qiymat - ijtimoiy zarur mehnatning ifodasi, mehnat esa uning birdan-bir manbai ekanligi to'g'risidagi qoidani noto'g'ri deb e'lon qildilar. Ular qiymat kategoriyasini sub'ektiv mazmun bilan to'ldirdilar. Uning ustun omili sifatida iste'mol qiymati yoki moddiy ne'matlarning foydaliligi qabul etildi. Byom-Baverkning fikricha, Avstriya maktabi iste'mol qiymatiga murojaat etish orqali qadriyatni «lozim bo'lgan daraxtdan ildizning o'zidan» tahlil eta boshladi.

Haqiqatda ham Avstriya maktabi qiymatning yangicha ta'rifini ishlab chiqish yo'lidan bordi. Qiymat iste'mol qiymati bilan belgilanishi mumkin emasligi to'g'risidagi fikrni siyosiy iqtisodning klassiklariyoq o'rtaga tashlagan edilar. Lekin qariyb 200 yil davomida iqtisodiyot fanida bu g'oya etakchi bo'lishi va shunga qaramay, Avstriya maktabi foydalilikda zo'r berib qadriyatning sub'ektiv nazariyasini yaratdi. Foydalilik deganda Byom-Baverk moddiy ne'matlarning umumiy xususiyatini tushunar edi. Bu xususiyat moddiy ne'matlarning shaxslar farovonligiga ehtiyojlarning qondirilishiga munosabati bilan belgilanadi, deb hisoblar edi. Qiymat qimmat va qadriyat tushunchasi bilan almashtiriladi.

Qadriyatning vujudga kelishi mehnatdan va ishlab chiqarishdan ajratib talqin etilar edi. Ne'matning foydaliligi uning asosi deb hisoblanardi. Byom-Baverk foydalilikning ikki turini: oddiy (mavhum) va malakali (aniq) turini bir-biridan farq qilardi. Mavhum foydalilik mo'l-ko'l bo'lgan moddiy ne'matlarga xos bo'lgan umuman foydalilik deb ta'riflanar edi. Bu holatda ne'mat birligining foydaliligi 0 dan iborat deb hisoblanardi (daryo enida suv, havo va boshqalar). Zahiralari cheklangan ne'mat malakali foydalilik deb ta'riflanar, bu ne'matlarning hatto birlik hajmida kamayishi ham shaxsning farovonligiga ta'sir qiladi, deb uqtirilardi. Foydalilikning bunday bo'linishi moddiy ne'matlar qadriyatining vujudga kelishi bilan bog'liq qilib qo'yilar edi. Hamma ne'matlar emas, balki miqdori cheklangan ne'matlarnigina Avstriya maktabining iqtisodchilari qadriyatga ega bo'ladi, deb hisoblashardi. Ularning nazarida mana shu qadriyatlarga ayirboshlanishi mumkin edi. Byom-Baverkning fikricha, qadriyatning vujudga kelishi uchun noyob foydalilik bilan birga qo'shilishi zarur, ammo mutlaq noyoblik emas, balki mazkur turdagi buyumlarga bo'lgan mavjud ehtiyojning miqyosiga qiyosan «nisbiy» noyoblik nazarda tutilardi.

Qadriyatning hosil bo'lishida Byom-Baverk ikki bosqichni alohida ko'rsatdi, birinchi bosqichni u sub'ektiv qadriyatning hosil bo'lishi bilan bog'ladi, bunda u

ne'matning shaxs ehtiyojlarini qondirishda qanday rol o'ynashiga qarab, shu sub'ekt ne'matga beradigan shaxsiy baho nazarda tutilar edi. Agar foydalilik mavhum bo'lsa, u holda ne'mat baho olmaydi va uning sub'ektiv qadriyati 0 ga teng bo'ladi. Sersuv buloq yonida turgan kishi uchun bir stakan suv bunga misol qilib ko'rsatildi. Ammo, sahroga borib qolgan kishi uchun o'sha bir stakan suvning o'zi aniq foydalilik kasb etadi. Shaxsning farovonligigina emas, uning hayoti ham shu suv bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holatda bir stakan suv sub'ektiv qadriyatga ega bo'ladi. Byom-Baverkning fikricha, moddiy ne'matlar tufayli insonga keltirilgan foydaning miqdori ham shu ne'matlar qadr-qimmatining o'lchovidir. Qiymatni iste'mol qiymati bilan aynan bir narsa deb talqin etish (aslida almashuv qiymati ham bor) foydalilik qiymatini aniqlash avstriya maktabidan avval ham siyosiy iqtisodda ma'lum edi. Avstriya maktabining nazariyotchilari bu prinsipni matematikadan olingan me'yor tushunchasi bilan to'ldirdilar. Qadriyat negizi sifatida endi shunchaki foydalilik emas, balki shaxsning eng kam ehtiyojini qondiradigan eng yuqori (oxirgi qatordagi) foydalilik tushunchasi ishlatila boshlandi. Byom-Baverkning ta'biricha, buyumning qadriyati uning eng yuqori me'yoriy foyda miqdori bilan o'lchanadi, bunda xo'jalik ne'matlari muayyan turidan olinadigan eng oz naf nazarda tutiladi. Buni Robinzon etishtirgan besh qop don misolida ko'rish mumkin, bir qopi oziqqa, ikki qopi urug'likka, uch qopi em uchun va hokazo. Byom-Baverk bu «qonun»ning amal qilishini besh qop don hosili olgan shaxsning xo'jaligi misolida ko'rsatadi. Hamma qoplardagi donning sifati va vazni teppa-teng. Biroq, Byom-Baverkning nazariyasiga ko'ra, bir qop donning sub'ektiv qadriyati kamayib boruvchi foydalilik prinsipi asosida belgilanishi kerak. Birinchi qop don shaxsning eng zarur hayotiy ehtiyojini qondiradi va shu sababli eng ko'p foydalilikka ega bo'ladi. Keyingi qoplarning foydaliligi kamayib boradi. To'tiqo'shni boqishga mo'ljallangan so'nggi qop ham foydalilikka ega bo'ladi. Ana shu so'nggi qop don mazkur moddiy ne'mat birligining sub'ektiv qadriyatini belgilaydi. Barcha mavjud don zapasi besh qop bo'lgan taqdirda bir qop donning qadriyati to'tiqush boqish qiymatiga teng bo'ladi, deb da'vo qiladi Byom-Baverk. Bu misollar turkumini eyilayotgan beshta olma misolida va boshqalarda ham ko'rish mumkin.

Byom-Baverk qadriyat hosil bo'lishidagi ikkinchi bosqichni «ob'ektiv qadriyat» bilan bog'ladi. U mazkur bosqichni talab va taklif xususidagi mavjud eski nazariya asosida izohladi. Ob'ektiv qadriyatning hosil bo'lishini talab va taklifning stixiyali nisbati davomida bozordagi sub'ektiv baholarni baravarlashtirishdan iborat qilib qo'yildi, shuning natijasida yangi, o'rtacha qadriyat paydo bo'lib, mana shu ob'ektiv miqdor deb ko'rsatildi.

Shunday qilib, Avstriya maktabining iqtisodchilari ilmiy nazariyaning qiymat tovarlarning ob'ektiv xususiyati bo'lib, mana shu xususiyat bu tovarlarning ichki mazmunini belgilaydi, degan tub qoidasini rad etish orqali qiymat hosil bo'lishi jarayonini yangicha talqin etadilar. Ular buni baho beruvchilik mulohazalariga va individlarning psixologiyasiga bog'liq bo'lgan sub'ektiv kategoriyaga aylantirib qo'yidilar. Bu esa navbatdagi yangi nazariya edi, bu nazariyani yaratuvchilar qiymatni u hosil bo'ladigan sharoit va manbadan - ishlab chiqarish va mehnat sohasidan butunlay ajratib qo'yidilar. Byom-Baverkning hamma mulohazalari

haqiqiy jarayonni oydinlashtiradigan, ushbu kategoriyada ifodalanadigan ishlab chiqarish munosabatlarini kengaytiradigan fikrlar asosiga qurilgan edi.

«Eng yuqori foydalilik» nazariyasi Avstriya maktabi va boshqa iqtisodiyot konsepsiyalari uchun asos bo'ldi, bu konsepsiyalar esa kapitalizm sharoitida iqtisodiyotning ijtimoiy mazmunini kuchsizlantiruvchi, uning sinfiy xarakterini inkor etuvchi bir narsadir. Byom-Baverkning ta'biricha, qadriyat to'g'risidagi ta'limot daromadni taqsimlash, shu jumladan er rentasi, ish haqi, kapitaldan olinadigan foyda to'g'risidagi butun o'z doktrinasining markaziy bandidir.

Avstriya maktabining taqsimlash nazariyasi bir qancha mavjud konsepsiyalarni: J.B.Seyning ishlab chiqarishning uch omili, taqsimot konsepsiyasini, «eng yuqori foydalilik» nazariyasini o'z ichiga oladi. Bu o'rinda ishlab chiqarish omillari unumli ne'matlar deb atalgan. Ularning har biriga (er, kapital va mehnatga) olingan iste'mol ne'matlarining muayyan qismi muvofiq keladi. Taqsimotning mana shu o'ziga xos konsepsiyasi kapitalistik ekspluatatsiyani o'zgalar mehnatining kapitalistlar tomonidan o'zlashtirib olinishini inkor etadi. U kelajakdagi ne'matlar va kapitalistning iste'moldan «tiyilishi»ga nisbatan haqiqiy ne'matlarni har xil baholash asosida foydani oqlaydi. Bu o'rinda foyda kapitalistning haqiqiy ne'matlarni iste'mol qilishdan «tiyilishi» uchun va o'z kapitali bilan bo'lajak ne'matlarni hozirgi ne'matlarga aylantirishni ta'minlaganligi uchun «mukofot» deb ko'rsatiladi. Shunday qilib, taqsimot nazariyasida ham muayyan sinfiy maqsadlarni ko'zlaydigan yangicha qisqacha xulosalarlar bor.

Avstriya maktabining uslubiyati ham, iqtisodiy nazariyalari ham tarixdan tashqari yondashuv asosida yaratilgandir. Bu metodologiya va nazariyalar kapitalistik tovar xo'jaligi sharoitlarida jamiyatning sinfiy strukturasi e'tibordan chetda qoldirib, ishlab chiqarishdan iste'molni ustun qo'yadi. Marjinalizm asoschilari qo'llagan sabab-oqibat asosidagi iqtisodiy tahlil (analiz) oddiy mantiqiy qisqacha xulosalarlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, bu esa ularni real kapitalizmdan uzoqlashishga olib keldi. Biroq, yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni aytish bilan birga biz bu maktab namoyandalarining shu uslublari natijasiz va ularning konsepsiyalari to'g'ri ilmiy qisqacha xulosalarlar bermadi, demoqchi emasmiz. Aksincha, kapitalistik bozor muammolarini anglashda va ayniqsa iqtisodiy fanga e'tiborni iste'mol va talabni to'laroq qondirishga qaratishda bu maktabning xizmatlari kattadir.

Bu maktabning konsepsiyalari kapitalistik xo'jalik sistemasining eng muqaddas narsasi - xususiy sohibkorlik, erkin bozor, raqobat va shu kabilar posbonligida turgan siyosiy iqtisodning bundan keyingi rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Avstriya maktabining uslubiyati ayniqsa matematik maktab va umuman hozirgi zamon iqtisodiy maktablarining shakllanishida katta rol o'ynagan. Bu yo'nalish yangi klassik oqimning keng rivojlanishida alohida o'rinni egalladi.

Lekin shuni ham ta'kidlash zarurki, «eng yuqori foydalilik» nazariyasi yangi tashkil bo'layotgan nazariy maktablar uchun ilk manba rolini o'ynadi. «Eng yuqori (chegaraviy) foydalilik» nazariyasining neoklassik (yangi klassik) varianti ingliz iqtisodchisi A.Marshall boshchiligida «eng yuqori foydalilik» nazariyasini «ishlab chiqarish chiqimlari» nazariyasi bilan qo'shib, yangi ilmiy nazariya vujudga keltirilganligida o'z aksini topdi.

### 10.3. U.Jevons va L.Valrasning marjinalistik g'oyalari

**Uilyam Stenli Jevons** (1835-1882) London universitetida matematika va ximiya fanlaridan tahsil olish bilan birga siyosiy iqtisodni ham qiziqib o'rgangan. 1863 yilda Manchester shahridagi kollejga siyosiy iqtisod o'qituvchisi bo'lib ishga kirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan iqtisodiy mavzudagi uning asosiy asarlari e'lon qilindi.



Ular quyidagilar: «**Siyosiy iqtisod nazariyasi**» (1871) va «**Fan tamoyillari**» (1874) va boshqalar.

XIX asrning oxirigacha U.Jevons va uning asarlari o'zining kuchli matematik ifodasi tufayli o'quvchilar tomonidan to'liq e'tibor bilan qabul qilinmadi. Lekin uning g'oyalaridagi sub'ektivizm asosiy ilmiy asarlarida aniq o'z o'rnini topgan edi. Masalan, iste'mol, talab, foydalilik haqida o'z holicha tushunchalar berish bilan birga U.Jevons tovarlar narxi uning me'yoriy foydaliligi bilan funksional bog'liqdir deb ko'rsatadi. Shuningdek olim klassiklarning raqobat haqidagi fikrlarini qo'llab, sotuvchi

va oluvchi o'zaro muloqatda bo'lib

**U. Jevons** kerakli ma'lumotni bir-biridan olishi mumkin deb ko'rsatadi. Natijada u quyidagi qisqacha xulosalar keltirib chiqaradi: bozordagi sotuvchilar (sub'ektlar) insonlar ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni muhayo qilib, ularning iste'mollarini to'laroq qondiradilar. Shu fikri bilan U Jevons dastlabkilardan bo'lib me'yoriy taxlilni maydonga tashlayda va marjinalizm asoschilaridan biriga aylandi.

**Leon Valras** (1834-1910) marjinalizmning Lozanna (Shveysariya) deb ataluvchi maktabi asoschisi hisoblanadi. Unga keyinchalik Pareto, Italiyadan *Borone*, shveysiyalik *Kassel*, amerikalik *Leontev* va boshqalar qo'shildi. L.Valrasning «**Sof iqtisodiy fan elementlari**» (1874) asari iqtisodiyot bilimlari olamida matematikaning shaxdam qadamlariga asos soldi.



Shu sababli u matematik maktabning davomchisi hamdir. Har qanday iqtisodiy tahlilni matematik izohlashga intilish bu maktab va uning izdoshlarining xarakterli xususiyati hisoblanadi. Valrasning fikricha, har qanday iqtisodiy nazariyani faqat matematika asosida qisqa, aniq va ochiq isbotlash mumkin. Uning o'zi matematika ni yaxshi bilgan va Kurnoni o'zining ustozini deb hisoblagan holda undan ilhomlangan. Keyinchalik «*eng yuqori foydalilik*» (naf) deb atalgan tushunchani L.Valras «*noyoblik*» (rarete)

**L. Valras** deb izohlaydi. Buni u miqdor iste'molning kamayuvchi funksiyasidir deb ifodalaydi (ya'ni biror noz-ne'matning iste'mol soni oshishi bilan uning noyoblik miqdorining ko'rsatkichi tobora pasayadi). L.Valras shuni aniqladiki, eng yuqori foydalilik - bu iste'molchi tomonidan (mazkur daromad doirasida) sarflanayotgan mablag'larning so'nggi porsiyalari (ulushi) uning uchun iste'mol qilinayotgan barcha noz-ne'matlardan bir xil qoniqish hosil qilishidir. Shu bilan birga iste'molchi A ne'mat B ne'matdan qimmatliroq ekanligini o'zi belgilaydi. Masalan, unga paypoq galstukdan, go'sht paypoqdan qimmatliroqdir va hokazo.

Boshqacha qilib aytganda, iste'molchi o'zining belgilangan daromadini galstukka nisbatan paypoqqa tezroq, paypoqqa nisbatan go'shtga tezroq sarflaydi. Mana shunday turli-tuman ehtiyoj bo'lganligi tufayli, iste'molchi har bir ne'matdan shunday miqdorda xarid qiladiki, so'nggi juft paypoq, oxirgi galstuk va so'nggi nimta go'shtdan bir xil qoniqish hosil bo'ladi. Faqat shundagina barcha sotib olingan narsalar unga maksimal umumiy qoniqishni paydo qiladi. L.Valras hamma iste'molchilar o'z ehtiyojlarini koniqtirishda maksimumga ega bo'lsalar (yuqorida aytilganlarning hammasini, shuningdek har birining cheklangan daromadini hisobga olgan holda) iqtisodiy muvozanat yuzaga keladi. deb hisoblaydi. U bundan umumiy bozor muvozanati nima ekanligi to'g'risidagi masalani hal etishga muhim qadam qo'yadi. Gap shundaki, har bir iste'molchi va har bir ishlab chiqaruvchi (har bir xaridor va sotuvchi) o'z sheriklaridan va iqtisodiyotda ro'y berayotgan barcha jarayonlardan to'la ajralgan holda harakat qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotda hamma narsalar, barcha jarayonlar o'zaro bog'liq. Har bir baholash boshqa baholarga bog'liq, ammo u ham boshqalarga ta'sir etadi. Bunga hayotda misollar bisyor. Masalan, mamlakatning biror hududida qishloq xo'jaligining ortda qolishi shu mamlakat paytaxtida zargarlik buyumlariga talabning oshuviga olib kelishi mumkin.

Iqtisodchilar ikki xil o'zaro bog'liqlikni ajratadilar: o'zaro almashinuv va o'zaro to'ldirish. Ularning har biri talab sohasida hamda ishlab chiqarish sohasida qayd etilishi mumkin. O'zaro almashinuvga oid misollar iste'mol tovarlarida ko'p uchraydi: plashch va zont, pivo va koka-kola, qo'y go'shti va tovuq go'shti, qand va shakar... Ishlab chiqarish sohasida: g'isht va beton, paxta tolasi va sintetik tola, ko'mir va gaz... O'zaro almashinuv har doim ham to'la-to'kis bo'lavermaydi, shuning uchun odatda tovarlarning biri ikkinchisiga nisbatan afzalroq bo'ladi (hammasi xaridorning beradigan bahosiga bog'liq). Bir-birini o'zaro to'ldiruvchi noz-ne'matlarni odatda odamlar birgalikda iste'mol etishni istaydilar yoki shunga majbur bo'ladilar. Masalan, qo'ylak va galstuk, videomagnitofon va videokassetalar, nina va ip, avtomobil va benzin va shu kabilar. Ishlab chiqarish sohasida ham bunday misollar ko'p: stanok va elektrenergiya, istalgan materiallar va unga kerakli asbob-uskunalar va hokazolar.

Mehnat va mashinalar ayrim holatda o'zaro almashinuvchi resurslar sifatida, boshqa holatlarda o'zaro to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin. Xuddi shu fikrni mehnat, kapital va erga qo'llash mumkin. Klassik maktab vakillari uch resurs, ya'ni mehnat, er va kapitalni faqat o'zaro to'ldiruvchilar deb hisoblashgan. Neoklassiklar (Tyunendan boshlab) esa ularni ma'lum darajada o'zaro almashuvchi deb qaray boshlashgan. Iqtisodchilar ana shu ikki tipdagi bog'liqlikni aniqlashning aniq yo'llarini ishlab chiqdilar. Iste'molchining daromadi o'zgarmas deb hisoblanganda tovarlarga u yoki bu tipdagi bog'liqlik boshqa tovarning narxi o'zgarganda bu tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga mosligi bilan aniqlanadi. Agar bir tovarning narxi pasaysa va ikkinchi tovarga talab kamaysa, demak ularning ikkalasi o'zaro almashinuvga qodir hisoblanadi. Masalan, go'shtga narx pasaysa, makaronga talab kamayadi. Agar bir tovarga bo'lgan narx pasayishi ikkinchi tovarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lsa, demak bu tovarlar o'zaro bir-birini to'ldiruvchilar hisoblanadi. Masalan, elektrenergiyaga bo'lgan tarifning kamayishi elektrochangso'rg'ichlarga bo'lgan talabni oshirishi mumkin va hokazo.

Amalda tovarlarning o'zaro almashinishi yuqorida keltirilgan misollardagidan ancha kengdir. Bu har doim iste'molchi sotib olish fondini uning daromadi cheklanganligidan kelib chiqadi. Iste'molchi har doim tanlashga muhtoj, chunki u o'z daromadini imkoni boricha maksimal umumiy foydalilikka ega bo'lish uchun sarflashi kerak. Inflyasiya sharoitida aholining daromadi qadrsizlanib boradi. Bu sharoitda shuni kuzatish mumkinki, bir tovar iste'moli boshqa tovar iste'moli bilan almashiriladi. Bunda keyingi tovarning sifati pastroq va ammo har holda talabni koniytiradi.

Shulardan qisqacha xulosalar qilib aytish mumkinki, agar **X** tovar uchun talab (yoki taklif)ning haqiqiy ishonchli funksiyasini olishni istasak, bu funksiyaga faqat shu tovarning bahosinigina emas, balki hamma tovarlarning bahosini kiritishimiz zarur. chunki biz **X** tovarning boshqa istalgan tovar bilan o'zaro bog'lanishining qaysi tipda ekanligini oldindan bilmaymiz. Shu asosda Valrasning umumiy bozor muvozanati nazariyasi vujudga kelgan. Shu asosda paydo bo'lgan Valras tenglamasi butun mamlakat va uning butun bozorini qamrab olgan. Masalani soddalashtirish maqsadida eksport va import yo'q deb faraz qilinadi. Bu xayoliy (Robinzon kabi) orolda bir emas, ikkita yovvoyi odam mavjud. Ularning birida mais (makkajo'xori), ikkinchisida o'tin bor. Lekin har biriga ham u, ham bu kerak. Ular beixtiyor bir-biri bilan savdolashishga muhtoj bo'ladi. Har biri kamroq berib, ko'proq olishga intiladi. Bir tomon ma'lum miqdordagi mais uchun maksimum o'tin olishga, ikkinchi tomon ham o'z navbatida ma'lum miqdordagi o'tin uchun maksimum mais olishga intiladi. Ammo birinchi tomonga besh bog' o'tin olish to'rt miqdor mais berishdan muhimroqdir (chunki unda mais bor, lekin o'tin yo'q) va aksincha. Oqibatda bu almashinuv ikkala tomon uchun ham foydalidir. Chunki ularning har biri ko'proq o'lyapman deb hisoblaydi.

Vaqt o'tishi bilan orolda muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Robinzonlar zahiralarning yaqin orada tugashini tushunib etdilar. Endi ular ishlab chiqarishni boshlashi kerak, degan qarorga keladilar. Eski, falokatga uchragan kemadan belkurak va boltaga o'xshash asboblarni topiladi. Ular ishga solinadi. Mehnat taqsimoti tufayli ularning biri mais etishtiradi, ikkinchisi esa o'tin erishga tushadi. Barter savdo davom etaveradi. Kunlardan bir kun orolda uchinchi kishi paydo bo'ladi. U ma'lum vaqt mehmon sifatida yashaydi, ammo tekin kun ko'rish mumkin emas, bozor qonunlari jiddiy. Nima qilmoq kerak? Uchinchi kishi birinchidan ozroq mais va ikkinchisidan ozroq o'tinni qarzga oladi va viski ishlab chiqarishni boshlab yuboradi (qanaqa apparatdan olishi tijorat siri). Shunday qilib, uchinchi shaxsda o'z qarzlari qutulish imkoniyati, ya'ni don va o'tin uchun to'lov imkoni paydo bo'ldi.

Xush bu holatda baholar qanday shakllanadi? Bu ko'rinishda uch xil tovar va ikki xil ishlab chiqarish omili er va mehnat bo'lgan iqtisodiyotga ega bo'ldik (oroldagilar qo'lida ishlab chiqarish inventari kapital kategoriyasiga kiradi). Ammo uning bahosi pastligi sababli e'tiborga olinmadi). Robinzonlar ikkita bo'lganda baholar muvozanati birinchi va ikkinchi tovarning cheklangan foydaliligi darajasida bo'lgan. Endi sharoit o'zgardi. Birinchidan, ularning soni ortdi. O'tin tayyorlovchining talabi donning chegaralangan ehtiyojidan tashqari uning viskiga bo'lgan talabiga bog'liq. U o'z mahsulotining bir qismini kuvonch bag'ishlovchi ichimlikka almashuv tufayli mais olishga kamroq o'tin bilan qoladi. Bunda har bir bog' o'tinning foydalilik darajasi pasayadi. Xuddi shu fikrni boshqa Robinzonlarga



ham qo'llash mumkin. Almashuvning uch ko'rinishi mavjud bo'ladi: 1. Mais o'tinga; 2. Mais viskiga. 3. O'tin viskiga. Har bir ishtirokchilarning tovari talab funksiyasi va o'z tovarining taklif funksiyasi bor. Shunday qilib, biz oltita talab funksiyasi va uchta taklif funksiyasiga ega bo'lamiz, ularning har biri boshqalarning hammasiga bog'liq.

Ikkinchidan: endi ishlab chiqarish resurslari (mehnat va er hisobga olinadi. Bu erda shunday fikr yuritish mumkinki, mais egasi 20 o'lchov donga bir krujka viska oladi, deylik. U maisni qancha ko'p etishtirsa, shuncha ko'p viski oladi. Buning uchun u ekin maydonini kengaytiradi va ko'p hosil oladi, ammo uning mahsulotining bahosi kamayib ketadi va bir krujka viski uchun 25 o'lchov don berishi kerak bo'ladi. Xuddi shunday holat boshqalarda ham ro'y berishi mumkin, ammo ulardagi bu holat mehnat sarfi hisobiga ro'y beradi. Nima qilmoq kerak? Bunda mahsulotning shunday muvozanat miqdorini topish kerakki, unda resurslarning chegaralangan sarfi mahsulotni sotishdan olinadigan chegaralangan daromadga teng bo'lishi darkor. Bunda yana bir holat qayd etilishi mumkin. Yangi Robinzon makkorlik bilan ko'proq mais olib, zahirasi hisobiga o'tin olish kombinasiyasini o'ylashi ham mumkin (mais egasidan vaqtincha hech narsa olmaydi). Bunda raqobat paydo bo'ladi. O'tin egasi maisni kimdan olishni (almashuvni) o'ylab ko'radi. Albatta, buning uchun viski egasi avvalroq ko'proq mehnat sarflashi kerak bo'ladi. Ammo dehqon viski egasining faoliyatini to'g'ri baholab, donning bir qismini zahiraga qo'ya boshlaydi. Viskining bahosi pasayadi va mehnat ko'proq sarflangan bo'ladi.

Albatta, bu misolda resurslar bahosi hisobga olinmagan. Haqiqiy iqtisodiyot haqida gap borganda er bahosi renta mehnat bahosi ish haqi bilan ifodalanadi. Oxir-oqibatda Valras qonuni yuzaga keladi, uningcha bozor muvozanati sharoitida umumiy talab umumiy taklifga tengdir; boshqacha aytganda umumiy daromadlar umumiy harajatlarga tengdir. Bu yuqoriroqda aytib o'tilgan Sey (bozorlar) qonunini eslatadi. Farq shundan iboratki, Sey bo'yicha mahsulotlar mahsulotlarga almashadi, deb aytilgan bo'lsa, Valras tovarlar ro'yxatiga iste'mol ne'matlari va ishlab chiqarish omillariningina emas, balki pullarni ham kiritdi.

XX asrning 30-50-yillarida asosiy mavjudlik teoremlari o'z isbotini topdi. Ammo bu sohada hali o'rganilishi zarur bo'lgan zonalar mavjud. Valras qonunida orol iqtisodiyoti asos qilib olingan. Texnologik koeffisientlar o'zgarmasdir va har bir resursning qo'llanilishi hajmi ma'lum miqdor bilan cheklangan, har bir tovarga bo'lgan talab funksiyasi ham o'zgarmaydi va hokazo. Muvozanat tenglamasiga ko'ra, bu barcha sharoitlar yig'indisi natijasida biron yangilik ro'y bermaydi. Unda texnika progressi yo'q, foydalanilmagan, resurslar zahirasi ishtirok etmaydi. Aholi sonining ortishi va uning tarkibiy o'zgarishlari yo'q. Yangi tovarlar va xizmat sohalari vujudga kelmaydi. Bu to'la holdagi statik (turg'un) model. Haqiqatni o'ta sodda holda qarab chiqishga asoslanadi. Lekin muvozanatning eng muhim sharti sifatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida erkin raqobat bo'lishi ko'zda tutilgan. Valras modelining yana bir muhim tomoni shundaki, bozor muvozanati to'la ish bilan bandlik sharoitida yoritiladi. Ko'p asrlar davomida xo'jalik ne'matlari qimmatining manbai nima, degan mavzuda munozaralar davom etib kelmoqda, u faqat mehnat sarfi bilan belgilanadimi yoki ishlab chiqarish resurslarining sarfi bilanmi? ki aksincha qimmat noz-ne'matlar foydaliligi bilan belgilanib, undan

ishlab chiqarish omillariga yuklanadimi? Baholarning so'nggi (balki dastlabki) asosi to'g'risidagi masala uzoq tarixga ega. U odatda sof ilmiy qiziqishdan siyosiy spekulyatsiyalar predmetiga aylanib ketgan. Xuddi shunday yana bir masala - kapital sarfi uchun foydaning paydo bo'lish manbai hisoblanadi. Bu foyda qaerdan, qanday va nima uchun vujudga keladi? L.Valras nazariyasi shu masalalarni hal etishga va qarama-qarshi lagerdagi muxoliflar pozitsiyasini kelishtirishga yordam bersa ajabmas. Uningcha, ishlab chiqarish chiqimlari (omillar sarfi va ularning baholanishi), daromadlar (omillarni taqdirlash), tovarlarni bozorda baholash (chegaraviy foydalilik), talab, taklif, ishlab chiqarish hajmlari... barcha-barchasi bozorda birgalikda va bir vaqtda aniqlanadi.

## **QISQACHA XULOSALAR**

XIX asrning 70-yillarida Avstriya maktabining shakllanishi iqtisodiyot fanida katta voqea bo'ldi. Uning nazariyotchilari fanda marjinalizm deb nom olgan iqtisodiy nazariyani ilmiy asoslab berdilar. Bu nazariya qoidalari klassik iqtisodiy maktabdan shu darajada farq qilardiki, u ayrim hollarda fandagi to'ntarish deb ham baholanadi. Yangicha yo'nalishni taklif qilgan iqtisodchilar tovarlar (ne'matlar) qimmatini unga bo'lgan sub'ektiv munosabatlar bilan aniqladilar. Har qanday ne'matlar kishilarning talabini qanoatlantirishi darajasiga qarab, foydalilik kasb etishi mumkindir.

«Foydalilik» va «qimmat» kategoriyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, har qanday ne'mat foydalidir, lekin u qimmatli bo'lmasligi ham mumkindir. Foydali bo'lgan ne'matlarga ma'lum darajada qimmatli bo'ladilar. Foydalilik va qimmatlik kategoriyalarini ajratib ko'rsatish bilan birga marjinalistlar qiymatning mehnat nazariyasini butunlay inkor etdilar. Ular bozorlardagi iqtisodiy ne'matlarning narxini unga sarf bo'lgan mehnat va ishlab chiqarish harajatlari bilan emas, balki iste'molchining sub'ektiv ravishda bu ne'mat qimmatini belgilashida o'z o'rnini topadi, deb hisoblaydilar.

«Eng yuqori foydalilik» nazariyasi o'ta sub'ektivligi uchun tartibsizligi va to'la isbotlangan faktlardan keng foydalanganligi uchun ko'p marta haqli tanqid qilindi. Lekin hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarida Avstriya maktabining g'oyalari ayniqsa mikroekonomika bo'limida keng foydalanib kelinmoqda. Chunki bu nazariyaning ustun tomoni shu bilan belgilanadiki, unda nafaqat harajatlarning hisobi, balki ishlab chiqarish va muomalaning natijalari to'liq inobatga olinadi.

Marjinalizm inqilobi to'g'risida gap borganda Avstriya maktabi qatori Lozanna maktabini ham alohida ta'kidlashimiz zarurdir. Bu maktab asoschilari marjinalistik g'oyalarni qo'llagan holda uning qisqa, ochiq va aniq matematik ifodasini topishga harakat qildilar.

Valras foydalilik o'rniga noyoblik tushunchasini kiritdi va miqdor iste'molining kamayuvchi funksiyasini taklif etdi. Umumiy bozor muvozanati nazariyasini ishlab chiqdi va uning tenglamasini yaratdi, iqtisodiyot va matematikani bir-biriga chambarchas bog'ladi. Valras qonuni bo'yicha, bozor muvozanati sharoitida umumiy talab umumiy taklifga tengdir. Agar Valras bozor muvozanati masalasini qo'ygan va uning qachonlardir echilishini bashorat qilgan

bo'lsa, V.Pareto bu muammoni hal etishga muhim hissa qo'shdi va tartibli foydalilik tushunchasini kiritdi. V.Pareto optimal holati (eki Pareto optimumi) bu bozor ishtirokchilarining hammasi o'z foydasi uchun intilib, o'zaro manfaat va foydalar muvozanatiga erishmoqdalar.

Shved olimi K.Viksell normal almashuv sharoitida ikkala tomonning ham muvaffaqiyatga erishuvini isbotlab berdi. Ya'ni almashuvdan hamma manfaatdordir, degan g'oya ilgari suriladi.

#### IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

<b>Fakultet:</b> “ASB TA’LIMI” <b>Kafedra:</b> “Kasb ta’limi iqtisodiyot”	<b>O`quv predmeti:</b> Iqtisodiy ta’imotlar tarixi	<b>Mavzu raqami:</b> 10-Mavzu <b>Soatlar hajmi:</b> 2 soat
<b>Talabalar soni:</b> 25 tagacha	<b>O`qitish texnologiyasi muallifi:</b> KAamolov.A	<b>O`qituvchi:</b> KAamolov.A
<b>O`quv mashg`uloti shakli:</b>	Mammoli vaziyatni yechish orqali talabalar bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
<b>Amaliy mashg`ulotni o`tkazish rejasi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Keys-stadiga kirish</li> <li>• Bilimlarni mustahkamlash va muammoning dolzarbligini talqin etish</li> <li>• Kasb ta`limi muassasalarida tarbiyaviy ishlarning ahvolini o`rganish</li> <li>• Natijalar taqdimoti</li> <li>• Muammoli vaziyatni tashkil etish.</li> <li>• Eng muqobil variantni tanlash</li> <li>• Guruhlar faoliyatini baholash.</li> </ul>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Nazariy olingan bilimlarni amaliyotga tadbqiq etish yo`llarini muammoli vaziyatlar orqali o`rgatish;</li> <li>• talaba yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashga oid fikrlarni bayon etadi;</li> <li>• kasb ta`limi muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mohiyatini ochib beradi;</li> <li>• yoshlarni kasbga yo`naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asos-langan ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarni tahlil qiladi;</li> <li>• Mustaqil o`qib o`rganish va fikrini bayon etish malakalarini shakllantirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Amaliy misollarni nazariy olingan bilimlar bilan mustaxkamlashni o`rganadilar;</li> <li>• talaba yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashga izoh beradi;</li> <li>• tarbiyaviy ishlarning mohiyatini tahlil qiladi;</li> <li>• ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarni sanab beradi va tahlil qiladi;</li> <li>• O`quv topshirig`ini mustaqil ravishda bajaradi va umumiy natijalarini hosil qiladi.</li> </ul>	
<b>O`qitish vositalari</b>	Ma`ruza matni, format qog`ozlari, markerlar, skotch, o`quv tarqatma materiallar,	

O`qitish usullari	Keys-stadi, savol-javob, muammoni yechish Jamoaviy, juftliklarda va guruhlarda ishlash
O`qitish shakllari	Individual, jamoa ishi va to`g`rida-to`g`ri guruhda ishlash.
O`qitish shart-sharoiti	Guruhda ishlash uchun texnik jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o`z-o`zini nazorat, reyting usulida baholash.

### ” AMALIY MASHG`ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar	O`qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
I. Kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mazkur keysning maqsadi, kutilajak natijalarini ta`kidlaydi, uning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Amaliy mashg`ulotning o`tkazilish shaklini va tartibini tushuntiradi. 1.3. Guruhlar faoliyatini baholash mezonlarini e`lon qiladi. 1-ilova	Tinglaydilar.
I. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida tezkor-so`rov texnikasini qo`llab, quyidagi savollarni beradi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Respublikamizda ma`naviyat-ma`rifat bo`yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?</li> <li>• Tarbiya mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?</li> <li>• Talabalarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?</li> <li>• Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi haqida gapiring?</li> </ul> Berilgan javoblarni tahlil qiladi, kamchiliklarini to`ldiradi, xatolarini tuzatadi. 2.2. Talabalarni ixtiyoriy ravishda uchta kichik guruhga bo`ladi va hamkorlikda keysda keltirilgan muammoli vaziyatni hal etishlarini va topshiriqni bajarishlarini tashkillashtiradi. 2.3. Birinchi rejada berilgan, «Talaba yoshlarning ma`naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari»ni «Kaskad» texnikasi orqali tushuntiradi (2 ilova). Talabalarning fikrlarini umum-lashtiradi. Guruhlarda faoliyatni tashkil qiladi, talabalarni kuzatadi, yo`naltiradi,	Tinglaydilar.  Savollarga javob beradilar.  Guruhlarga bo`linadi. Berilgan topshiriqlarni avval juftliklarda, so`ngra guruhlarda muhokama qiladi, fikrlar bildiradi, optimal variantini tanlab jadvalni to`ldiradi. Tayyor javobni format qog`oziga tushirib,

	<p>maslahatlar beradi.</p> <p>2.4. Rejada ko`rsatilgan savollarni tushuntirishda talabalarni erkin bahsmunozaraga tortish maqsadida «Baliq skeleti» texnikasidan foydalanilgan holda «Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish» deb yozilgan tarqatma materiallar bilan ishlashni taklif qiladi. (3 ilova). Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni xulosalaydi.</p> <p>2.5. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Yo`naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to`ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p>	<p>taqdimotga tayyorlaydi.</p> <p>Guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib tayyor ishlarini taqdimotini qiladi, javoblarini izohlab, asoslaydi.</p>
<p>III. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi.</p> <p>3.2. Amalga oshirilgan faoliyatning kelajakda kasbiy faoliyatlari uchun zarurligini qayd qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi:  (1) nazorat savollariga og`zaki javob berish;  (2) Savollar asosida BBB jadvalini to`ldirib kelishlarini ta`kidlaydi (4-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

1-ilova

### Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

Guruh	Baho	Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari			
		Ma`lumotni to`liq yoritishi	Guruh ishtirokchilarining faolligi	Ma`lumotning taqdim etilishi	Jami
	Ball	1,0	0,5	0,5	2
1					
2					
3					

### Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

1,5 – 2 ball - «a`lo»

1,0 – 1,4 ball - «yaxshi»


0,5-0,9 ball - «qoniqarli»

0 - 0,4 ball - «qoniqarsiz».

2-ilova

### «Kaskad» texnikasi


Ushbu texnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi:  
Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.




3-ilova

### «Baliq skeleti» texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.





3-ilova

### Savollar asosida B.B.B. jadvalini to`ldiring

Savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Odob, axloq, madaniyat, ma`naviyatga ta`rif bering?			
2. Kasbiy ta`lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati nimalardan iborat?			
3 YOshlarni kasbga yo`naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy yo`nalishlar nima.?			
4.Talabalarda kasbiy madaniyatni qanday shakllantirish mumkin?			
5. Tarbiyaning qanday usullari bor?			

## 7. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

7.1. Keys uchun boshqa mavzu tanlash va boshqa xarakterga ega bo`lgan guruhni tanlash yo`li bilan o`zgartirish mumkin. Buning uchun keysolog quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- Keysolog vazifasi: Zamonaviy iqtisodchining axloqiy xususiyatlari muammosi bo`yicha dastur va muammo yechimi algoritmini ishlab chiqish, keysning qismlarini o`zaro mantiqiy bog`liqligini ta`minlash, muammo uchun zaruriy axborot materiallarini taqdim etish va iqtisodchi-pedagoglarga metodik yo`llanma ishlab chiqish.
- Bu holda keysolog bir xarakterga ega bo`lgan turli vazifalarni guruhlarga berish imkoniyatiga ega bo`ladi va taqdimot jarayonida qaytarilishini oldini oladi.



- Amaliy darslarni tashkil etishdan oldin talabalarga tarbiya usullari, oliy va o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bilan chuqur tanishib chiqishni uy vazifasi sifatida topshirish maqsadga muvofiqdir.
- Bo`lajak iqtisodchi-pedagoglarga o`quv natijalarini aniqlash malaka va ko`nikmaga ega bo`lishlari talab etiladi.
- Keys yechimi vaziyat yechimini tahlil etish, jadvalni to`ldirish orqali amalga oshirilishini talab etiladi. Keys yechimi quyidagi ko`rinishga ega bo`lishi mumkin.

## 7.2. Muammoli ta`lim usuli

№	Muammoli ta`limning afzalliklari	Muammoli ta`limning kamchiliklari
1.	Muammoli ta`lim talabaning faol ishtiroki-ni ta`minlaydi.	Guruh talabalari sonining cheklangan bo`lishini va ularda maxsus tayyorgarlik bo`lishini talab etadi.
2.	Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.	Faqat qisman ma`lum bo`lgan muammoli mavzularda qo`llash mumkin.
3.	O`tilayotgan mavzuni puxta egallashga zamin yaratadi.	Muammoli ta`lim ko`p vaqtni talab etadi.
4.	Talabalarda qiziqish uyg`otadi, o`z fikrini bayon etish va boshqalarni tinglash malakasini shakllantiradi.	Barcha talabalarni muhokamaga tortish qiyin kechadi.
5.	Muammoli vaziyat asosida darsni tashkil etish yaxshi samara beradi.	Dars beruvchi pedagogdan katta tayyorgarlikni talab etadi.
6.	Talabalar muammoni ko`ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o`rganadilar	

7.3. Axloqiy tarbiyaning dastlabki pog`onasida axloqiy muhit, axloqiy shart-sharoitlar eng asosiy omil sifatida maydonga chiqadi va shuning uchun ham bizning birinchi vazifamiz bu pog`onada ana shu qulay axloqiy muhitni yaratishga harakat qilishdir. Bu axloqiy tarbiyaning dastlabki vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo muhit, xususan axloqiy muhit qanchalik qulay bo`lmasin, u o`z-o`zidan axloqni shakllantira olmaydi. Ana shu axloqiy muhitda yashayotgan shaxsning individual xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyati) muhit ta`siriga nisbatan o`zining javob reaksiyasini vujudga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda har bir shaxs tashqi ta`sirga o`z shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda javob beradi.

Ta'lim oluvchilar ongiga umuminsoniy insonparvarlik axloqi, madaniyati me'yorlarini singdirish, ularni zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji –o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish kabi illatlarga murosasiz bo'lish ruhida tarbiyalab borish ularni yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan ushbu keysda kasb ta'limi muassasalarida tarbiya ishlar muammosi bo'yicha ko'plab ma'lumotlar berilgan.

## PEDAGOGIK ANNOTASIYA

**Fanning nomi:** Iqtisodiy ta'limotlar tarixi

**Mavzuning nomi:** "Iqtisodchining axloqiy qoidalari va axloqiy me'yorlari".

**Ishtirokchilar:** "Kasb ta'limi nazariyasi va metodologiyasi" mutaxassisligi talabalari"

**O'qitishning maqsadi:** o'quv materialini bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talaba-yoshlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uni o'tkazish haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.

**Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:** ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati bilan tanishadilar; kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosining o'ziga xos jihatlarni ajrata oladilar; yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy istiqloq mafkurasiga asoslangan ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlar haqida ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**Talabalar loyiha muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo'lgan tayanch bilim va ko'nikmalar:**

*Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak:* Biladilar: kasb ta'limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyatini, tarbiyaning vazifalarini, o'ziga xos xususiyatlarini; ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarning o'ziga xos jihatlarni; odob-axloq me'yorlarini: axborotlar bilan ishlash, maqsadni belgilash, guruhda faoliyat yuritish, va hamkorlikda ishlash *malakalariga egalar.*

**Namunaviy belgilariga muvofiq loyiha tasnifi:**

- *loyiha turi:* axborotli;
- *mavzu-mazmunli sohasi:* monoproyekt- bir fan miqyosida ishlab chiqilgan;
- *talabalarning loyiha faoliyati yo'nalishlarining tasnifi:* loyiha ishtirokchilarini taqlid qiluvchi, yashirin;
- *ishtirokchilar soni:* bittadan to'rttagacha;
- *muddati:* bajarish davomiyligi-2 oy.

**Loyiha bo'yicha ish tartibi:** mashg'ulotdan tashqari faoliyat sharoitida bajariladi,. Seminar mashg'ulotlarida taqdimot qilinadi.

**Loyihani baholash:** guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- (mavzular bo'yicha) loyihaning alohida qismlarini, talabalarning yakka o'zlari bajarganliklari (maks. 10 ball);
- Hisobot (maks. 5 ball);
- Loyiha taqdimoti (maks.2,5 ball);
- Loyihani taqdim etish va himoya qilish jarayoni (maks.2,5 ball)

**Loyiha asosida o'qitish bosqichlari:**

*Tayyorgarlik bosqichi:* loyihaga kirish, talabalar faoliyatini tashkillashtirish - *auditoriya* ishi.

*Loyihani bajarish bosqichi* - auditoriyadan tashqari ish.

*YAkuniy bosqich:* loyiha taqdimoti, loyihani va talabalar faoliyatini baholash, loyiha faoliyatini o`zi tahlil qilish - *auditoriya* ishi.

Loyihaga oid o`qitishni tashkillashtirishni o`zi tahlil qilishi - *auditoriyadan tashqari* ish.

**O`qitish modelining qisqa tasnifi:** loyihali o`qitish jarayonida quyidagilardan foydalaniladi:

*O`qitish usullari:* loyihalar usuli, aqliy hujum, yo`riqnoma berish, matn bilan ishlash.

*O`qitish shakllari:* umumiy, guruhli, jamoaviy, yakka tartibli.

*O`qitish usullari:* loyiha topshirig`i, uslubiy ko`rsatma, kompyuter texnologiyalari

*Ishtirokchilar loyiha bo`yicha birinchi marta ishlayotganliklari hamda loyiha faoliyati bo`yicha malakalarga ega emasliklari bois, «Talabalar uchun uslubiy ko`rsatmalar»da quyidagilar taqdim etiladi: muammo, vazifa va faoliyat turlari.*

## I. LOYIHA TOPSHIRIG`I

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko`nikmaga aylantirib borish lozim. Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo`lishini taqozo etadi. Bu yo`lda kasbiy ta`lim muassasalarida ta`lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g`oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo`lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo`lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o`qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin.

Inson axloqiy madaniyatning eng oddiy me`yorlarini ilk yoshligidan boshlab avval oilada, so`ng o`rtoqlari bilan bo`ladigan munosabatlarida egallay boshlaydi. Bu ahloqiy me`yorlarga amal qilishning motivlari turlicha bo`ladi. Ota-onaga bo`lgan hurmat va muhabbat bolani axloqiy talablarga amal qilishga va shu orqali ota-onaning hayrixohligiga va mehriga sazovor bo`lishga undaydi. Bundan tashqari axloqiy me`yorlarga amal qilmaslik holatida jazolashdan foydalanish ham bolani ogoh bo`lishga undaydi. O`z tengqurlari bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi, ichki ehtiyoj ham bolada axloqiy me`yorlarga amal qilish motivasiyasini uyg`otadi. Bularning barchasi har bir yosh bolani axloqiy me`yorlar bilan to`qnashishiga va ularga amal qilishni o`rganishiga yordam beradi. SHuningdek, insonda axloqiy me`yorlarga amal qilish malakasini va ko`nikmasini hosil bo`lishiga olib keladi. Ammo bunday axloqiy me`yorlarga amal qilishni biz hali axloqiy onglilik darajasi deb ayta olmaymiz. CHunki bu holda axloqiy me`yorlar ichki ehtiyojdan kelib chiqqan holda emas, balki tashqi ta`sirlarning natijasi sifatida vujudga keladi. SHunga qaramay axloqiy darajaning bu dastlabki

pog`onasi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang`ich nuqta sifatida keyingi rivojlanish uchun xizmat qiladi. Axloqiy rivojlanishning bu bosqichida atrof-muhitdagi axloqiy madaniyat darajasi eng muhim rol o`ynaydi. Pedagogik faoliyatda talaba-yoshlar bilan tarbiya jarayonida turli xil to`siqlarga duch kelinayotganini kuzatish mumkin.

Buning asosiy sabablaridan biri talaba-yoshlarda bu boradagi bilim va ko`nikmalarning yetishmasligi va axloqiy tarbiyaning ahamiyatiga to`laqonli tushunib yetishmayotganidadir.

**Loyiha doirasida yechilishi kerak bo`lgan muammo** OO`YU lari talaba-yoshlarida axloq-odobni shakllantirish bo`yicha axborotli ma`lumotnomani tayyorlash.

**Vazifalar:**

1. Talaba yoshlarning ma`naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari.
2. Kasb ta`limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati va mazmuni
3. YOshlarni kasbga yo`naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarni rejalashtirish yo`llari.

**Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti)** Kasb ta`limi muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish bo`yicha ma`lumotnomali axborotlarni ta`minlash.

Loyihaning yakuniy natijasi (mahsulot): Tarbiyaviy ishlarni o`z ichiga olgan ma`lumotnoma tayyorlash.

**Loyiha mahsulotidan foydalanuvchilar:** OO`YU professor-o`qituvchi va talaba-yoshlari, o`qituvchilar hamda “Kasbiy pedagogika” fanini, mustaqil o`rganuvchi talabalar.

**Loyiha chegarsi:**

- *bajarish vaqti:* 2 oy (oraliq nazorat vaqtida taqdimot qilinadi);
- *ishtirokchilar soni:* bittadan to`rttagacha.

**Loyiha mazmuni:**

**I. «Talaba-yoshlarning ma`naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari».**

- Talaba-yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashning o`rni va ahamiyati.
- Talaba-yoshlarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashning zarurligi.

**II. «Ta`lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati va mazmuni».**

- Kasb ta`limi muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni.
- Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish yo`llari.

**III. «YOshlarni kasbga yo`naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarni rejalashtirish yo`llari».**

• YOshlarni kasbga yo`naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlar.

- Ma`naviy-axloqiy, madaniy-maishiy ishlarni rejalashtirish yo`llari.

**Ish turlari:**

- Mavzu, muammoning dolzarbligini asoslash, loyiha maqsadi va vazifalarini ifodalash.
- Axborot manbasini tanlash, uni yig`ish, tuzilmaga keltirish, matn, jadval, chizma hamda sharhlar ko`rinishida rasmiylashtirish, xulosalarni yozish, (vazifalar bo`yicha) foydalanilgan manbalar ro`yxatini tuzish.
- Loyihani rasmiylashtirish.
- Hisobotni tayyorlash.
- Loyihani taqdimotga tayyorlash.

**Loyihani taqdim etish shakli:** «Kasb ta`limi muassasida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti» ma`lumotnomasi.

**Hisobotni rasmiylashtirish tuzilmasi:**

1. Loyiha mavzusi.
2. Loyiha maqsadi va yakuniy natija (mahsul).
3. Ishtirokchilar, (jadval ko`rinishidagi) ishtirokchilar faoliyatining turlari.
4. Loyiha mavzusini dolzarbligini asoslash.
5. Echimi hal etilayotgan muammoni ifodalash va asoslash.
6. Vazifalar tartibi.
7. Loyiha-vazifalar yechimining natijalari.
8. Foydalanilgan manbalar ro`yxati.

**II. TALABALARGA USLUBIY KO`RSATMALAR**

1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo`riqnoma

*1 bosqich. Tayyorgarlik*

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Axborot manbalarini aniqlang.

*2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish*

2.1. Maqsadga erishish yo`lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

- ishtirokchilar o`rtasida loyihani ishlab chiqish bo`yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo`yicha vazifalarni taqsmilang.

- Bajarish vaqtini va tayyor mahsulot turini aniqlang.

**Loyihani bajarish bo`yicha ish rejasi (Lavha)**

Ishtirokchi I.F.	Vazifa	Faoliyat turi	Tayyor mahsul turi	Bajarish muddati

*3 bosqich. Amalga oshirish*

*A. Loyihani bajarish*

3.1. Olingan axborotni yig`ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlar ko`rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsulot).

*B. Hisobotni tayyorlash*

3.3. Tanlagan mavzuning dolzarbligini (bir betdan kam bo'lmagan) daliliy isbotlang.

3.4. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulotni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.

3.5. Loyiha ishtirokchilarini ayting, ularning vazifalarini va faoliyat turlarini (jadval) asosida ko'rsating.

3.6. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z) bilan asoslang.

3.7. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

3.8. Vazifalar bo'yicha loyiha natijalarini bir butun holga keltiring.

3.9. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.

3.10. Bajarilgan mavzular bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

*V. Loyihani taqdimotga tayyorlash*

3.11. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.

3.12. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang.

*4 bosqich. Ochiq taqdimot, loyihani himoyalash va baholash*

**2. Loyihani va loyiha faoliyatini baholash**

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- loyiha (maks. 10 ball);
- hisobot (maks.5 ball);
- loyiha taqdimoti (maks. 2,5 ball);
- loyiha taqdimoti va himoya jarayoni (maks.2,5 ball).

**Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash**

	<b>Baholash mezon</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 2 ball.
2	Erishilgan natijalarni maqsadga muvofiqligi	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 2 ball.
3	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat.	Taqdim etilayotgan axborot yetarli miqdorda, sifatli bo'lsa maks.2 ball.
4	Jadval va chizmalar	Jadval va chizmalarda bo'lsa maks.2 ball.
5	Turli manbalarga ko'rsatmalarni berilishi	Keng tarmoqli axborot manbalaridan foydalanilgan bo'lsa, maks.2 ball.
<b>Maks. ball:10</b>		

### Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rio etilishi (loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish yo'riqnomasiga qarang. <i>B. hisobot tayyorlash</i> )	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks.1ball.
2	Tanlangan mavzuni asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 1 ball.
3	Loyiha maqsadini belgilanishi	Aniq belgilangan, nima uchun u yaratilmoda, oxirgi natija qanday bo'ladi va kim uchun mo'ljallangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
4	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarini bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.5 ball.
5	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
6	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalarini umumiy holga keltirish.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari umumiy holga keltirilgan bo'lsa, maks. 0,5 ball.
7	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1 ball.
8	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	
<b>Maks. ball: 5</b>		

### Bajarilgan loyiha taqdimotini baholash

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish ( <i>Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga qarang</i> )	Yo'riqnoma izchilligi bo'lsa, maks. 0,5 ball.
2	Slaydlar miqdori	Slaydlar miqdori 8 va 14 ko'p bo'lmagan talabga javob bersa, maks. 0,5 ball.
3	Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari	Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari quyidagi talablarga muvofiq keladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;</li> <li>• oxirgi slayd axborot manbasiga</li> </ul>

		bag`ishlangan; • boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi, maks. 1 ball.
4	Texnik namoyish etish:	Slaydlar o`z-o`zidan ishlash tartibida namoyish ettirilsa, maks.0,5 ball.
<b>Maks. ball: 2,5</b>		

### Bajarilgan loyiha taqdimoti va himoyasini baholash

	<b>Baholash mezon</b>	<b>Baholash ko`rsatkichlari</b>
1	Og`zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; So`zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rio etishlari (7 – 15 min.); Taqdimot vaqtida boadabsizlik holatlariga yo`l qo`yilmasliklari. Maks. 0,5 ball;
2	Loyihaning himoyasi	Taqdimotda qatnashganlarda loyiha ularning qiziqishlarini uyg`otgan bo`lsa, maks. 1 ball.
3	Ishtirokchilar faolligi	Taqdimotda barcha guruh a`zolari ishtirok etgan bo`lsa, maks. 0,5 ball.
4	Savollarga javob berish	Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo`lsa, maks. 0,5 ball.
<b>Maks. ball: 2,5</b>		

### 3. Loyiha taqdimoti

#### 3.1. Og`zaki taqdimot qoidasi:

- Taqdimot o`zini taqdim etish bilan boshlanadi - loyiha ijrochilari bilan tanishtirish: «Men...».
- So`zga chiquvchilar belgilangan vaqtga rio etadilar. Taqdimotni umumiy davomiyligi: 7-10 daqiqadan kam emas va 15 daqiqadan ko`p emas.
- Taqdimot vaqtida boadabsiz holatlar yo`l qo`yilmaydi.

#### b. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo`yicha yo`riqnoma

1. Taqdimot quyidagi **tavsiflardan** iborat bo`lishi zarur:

1.1. Slaydlar *miqdori* (8-12).

1.2. *Slaydlarni mazmunli ko`rsatkichlari*:

(1) birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o`quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;

(2) oxirgi slayd axborot manbasiga bag`ishlangan;

(3) boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

2. Texnik namoyish etish:

Slaydlar o`z-o`zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.



### III. LOYIHALAR USULIGA ASOSLANGAN, O`QITISHNING TEXNOLOGIK XARITASI

O`qitish turi. Ish bosqichlari. Belgilangan vaqt	Faoliyat	
	O`qituvchi	Talaba
<b><i>Seminar №</i></b>		
<p><i>1. Tayyorgarlik bosqichi.</i></p> <p>1.1. O`quv motivasiyasi. Loyiha mavzusini tanlash</p> <p>1.2. Loyihada ishlash va topshiriqlarni bo`lish</p>	<p>Talabalarni loyiha faoliyati mohiyati va uni bo`lg`usi mutaxassislik mahoratiga ta`siri bilan tanishtiradi. Mavzularni taklif etadi, loyiha mazmuni to`g`risida ma`lumotlar beradi, ularni sohalarini ifodalaydi, ish turlarini ko`rsatadi, ularning natijalarini aytadi.</p> <p>3 kishidan iborat bo`lgan guruhlariga birlashish-larini va loyiha mavzusini tanlashni taklif etadi.</p>	<p>Guruhlarga birlashadilar. Muhokama qiladilar va mavzu bo`yicha umumiy xulosalarga keladilar.</p>
	<p>Axborot manbasini, uni yig`ish va tahlil qilish yo`llarini taklif etadi.</p>	<p>Muhokama qiladilar.</p>
<p><i>2. Loyiha faoliyatini rejalashtirish.</i></p>	<p>Vazifa va ish turlarini ishtirokchilar o`rtasida taqsimlab olishlarini taklif etadi. Muhokamada maslahatchi bo`lib faol ishtirok etadi.</p>	<p>Harakat rejasini ishlab chiqadilar: loyihani yo`nalishini va bajarish bosqichlarini aniqlaydilar, guruh a`zolari o`rtasida vazifalarni taqsmilaydilar, hamkorlikni shakllarini aniqlaydilar.</p>
<b>Auditoriyadan tashqari ish</b>		

<p><i>3 Loyihani bajarish</i></p>	<p>Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag`batlantiradi, kuzatadi, axborot manbasini izlashga yordam beradi. Faoliyatga qisman rahbarlik qiladi.</p>	<p>Ishtirokchilar o`zlarining vazifalariga muvofiq ishlarni bajaradilar.</p>
<p><i>4. Natijalarni rasmiylashtirish</i></p>	<p>Guruh ishlariga maslahat beradi, boshqaradi, ular faoliyatini rag`batlantiradi, kuzatadi.</p>	<p>Natijalarni belgilangan shaklda rasmiylashtiradilar. Loyiha taqdimotiga tayyorlanadilar.</p>

## V. KEYS

Mazkur keys oliy ta'limning- "Kasb-hunar fanlarini o'qitish uslubiyoti" (Iqtisodiyot) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

**Fanning nomi:** "IQTISODIY TA'IMOTLAR TARIXI"

**Mavzuning nomi** "*iqtisodchining axloqiy xususiyatlari*"

**Berilgan keysning maqsadi:** Pedagog mehnati faoliyatini baholash natijalari bo'yicha talabalar bilimni chuqurlashtirish.

**Mazkur keys institusional tizimning** real faoliyat asosida ishlab chiqilgan.

**Keysda ishlatilgan ma'lumotlar manbai** quyidagilardan iborat:

M.Hakimova Kasbiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya, 2008 y.

**Texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda keysning tavsifnomasi:**

Mazkur keys xona tadqiqotlari asosida syujetli toifasiga kiradi. Ushbu keys ma'lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilmagan bo'lib, keys-topshiriqqa mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan

Didaktik maqsadlarga ko'ra keys – tahlillarni o'rgatish va baholash hisoblanadi. Shusababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining yechimida algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan.

Rasmiylashtirish tartibi: elektron xolatda, terilgan.

**Mazkur keysdan** Ushbu keysni "Pedagogik menejment", "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", "Iqtisodiyot tarbiya nazariyasi" kabi fanlarni o'rganishda foydalanish mumkin.

## KIRISH

Barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada kuchayib, talab ortib bormoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'lim-tarbiya jarayoni qayta ko'rib chiqilib, uni rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning yaratilishi ta'limni tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi.

O'tish davrining eng asosiy xususiyatlaridan biri – bu jamiyatning ma'naviy jihatdan yanada yuqori pog'onaga ko'tarilishidir. Chunki o'tish davri birinchi galda jamiyatdan ma'naviy o'sishni talab etadi. Ma'naviy o'sish o'z navbatida fan-texnika, madaniyat, san'at hamda iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. SHuning uchun ham bugungi kunda ma'naviy fazilatlarini tarbiyalash masalasi o'ta dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Bunday natijaga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uyg'unligini ta'minlash, tarbiya jarayonining qonuniyatlarini chuqur o'rganish va bugungi kun talablariga javob bera oladigan barkamol yosh avlodni tarbiyalash usullarini tadqiq qilish lozim. Barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan bugungi kunda tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahoratiga bog'liqdir. Chunki tarbiya uzluksiz rivojlanib, o'zgarib boruvchi jarayon ekan, bu jarayon har bir tarbiyaviy vaziyatga ijodkorona yondashuvni talab etadi. SHunday ekan bo'lg'usi pedagoglarni tayyorlashda albatta quyidagilarga alohida ahamiyat berish lozimdir ya'ni:

- kasb ta'limi muassasalarida tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalariga;
- tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roliga;
- buyuk allomalarni tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalariga;
- tarbiya jarayonining tarbiyalanuvchilarni qiziqishlari, imkoniyatlari, talab va takliflariga;
- ta'lim muassasalari, oila, mahalla va jamoatchilikning xamkorligida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalarini to'g'ri talqin qilishga;
- yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularda kasb madaniyatini shakllantirishga.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, pedagoglar jamoasidan har bir bolaning tarbiyasi uchun yuksak mas'uliyatni, bolaga nisbatan bir xil talablar qo'yib, birgalikda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni taqozo etadi.

Keys muammosini yechimini topish jarayonida talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirish va **o'quv natijalarga erishish mumkin:**

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;

- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlil va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- konstruktiv fikr yuritishga o'rganish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- metod imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'limiy maqsadlarni aniqlash;
- metod tanlash jarayonida barcha omillarni hisobga olgan holda yagona optimal yechimni topish malakasini shakllantirish.

## **1. "IQTISODCHINING AXLOQIY XUSUSIYATLARI" MAVZUSINING MAZMUNI YUZASIDAN MA'LUMOT**

### **2. O'QUV GURUHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Ikkinchi kurs talabalarining soni 20 ta, ulardan yettasi qiz bolalar. Guruh a'zolarining 85 % a'lo va yaxshi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega. Guruh jamoa sifatida shakllanib bo'lgan va bir- birini juda yaxshi tushunadi. Guruh talabarlari inoq va hamkorlikda ishlashni yaxshi ko'radi. Guruhga faollik, qiziquvchanlik, ijodkorlik xususiyatlari xos.

### **3. O'QUV XONASINI TEXNIK VOSITALAR BILAN JIXOZLANGANLIK DARAJASI.**

### **4. TALABALARGA BERILADIGAN MULOHAZA UCHUN SAVOLLAR**

1. Ma'lum mavzuni o'rganish uchun metodni tanlash jarayonida qanday omillarni hisobga olish lozim?
2. Siz qanday metodlarni bilasiz?
3. Namoyish metodiga izoh bering.
4. Muammoli metodning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlang.
5. Axborot darsining avzalliklari va kamchiliklarini aniqlang.
6. Dars maqsadlari qanday belgilanadi?
7. Berilgan mavzuga aniq maqsadlarni belgilang.

### **5. Talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar**

#### **Keys muammosi**

“Axloqiy tarbiya” mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan ma'ruza darsini qaysi metoddan foydalangan holda o'qitish samarali natijaga erishish imkonini beradi.

#### **Keys vaziyati :**

#### **VAZIFALAR**

- Mavzuning o'ziga xos jihatlarini taxlil qilish.
- Matndagi ilmiy axborotning siqirligi va murakkablik darajasiga baho berish
- Darsning umumiy maqsadini aniqlang.
- Darsning aniq maqsadlarini ishlab chiqing
- Talabalar guruhini xususiyatlari aniqlang.
- Talabalar guruhini strukturasi qanday

- Metodlarni tahlil qiling.
- Metodlarning imkoniyatlarini aniqlang.

### **ECHISH ALGORITMI:**

1. Mavzu mazmunini taxli qilish va murakkablik darajasini aniqlash.
2. Talabalar guruhini xususiyatlarini o`rganish va tahlil qilish, o`quv xonasini jixozlanish darajasi va shart-sharoitlari bilan tanishish.
3. Mavzuni o`rganishdan maqsadni, pedagog vazifalari va o`quv natijalarini aniqlash.
4. Metodlarning tahlili, imkoniyatlarini o`rganish, berilgan jadvallarni to`ldirish va mavjud vaziyatga mos imkoniyatga ega bo`lgan metodni aniqlash.
5. "AVV" texnologiyasi asosida optimal metodni tanlash va asoslab berish.

### **Vaziyatni yechimini tahlil etish jadvali.**

"AVV"- alterantiva variantlar va imkoniyatlar.

№	Alternativalar	Variantlar	Imkoniyatlar
1	Informasion ma`ruza	A) Xikoya	
		B) Tushuntirish	
2	Muammoli ta`lim	A) Baxs-munozara	
		B) Muammoli vaziyatlar	
3	Namoyish	A) Illyustrasiya	
		B) Videousul	
<b>Xulosa:</b>			

### **Baholash mezonlari**

6. O`quv - uslubiy materiallar

**1. Talaba uchun tavsiyalar**

**2. Ta`lim berish usullarini tanlash**

**3. O`quv natijalarini aniqlash**

### **KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI**

#### **Metodlarga xarakteristika berish namunasi**

1. Axborot darsi

№	Informasion ma`ruzaning imkoniyatlari, yutuqlari	Informasion ma`ruzaning kamchiliklari
1	Qisqa vaqt ichida katta axborotni talabalarga	Talabalar passiv holatda mavzuni o`zlashtiradi.

	yetkazish mumkin	
2	Pedagogning tizimli va izchil faoliyatini ta`minlaydi.	Qisman tanish mavzularni o`rganish juda zerikarli bo`ladi.
3	Ko`p sonli talabalar bilan bir vaqtda ishlash imkonini beradi.	Samaradorlik darajasi past.
4	Iqtisodiy jihatdan kam mablag` talab etadi.	Pedagog va talaba orasida muloqat sust.
5		Talabalarda ijodiy fikrni rivojlantirmaydi.
6		Ijodkorlikni xush ko`ruvchi talabalarni zeriktiradi.

## 2. Muammoli ta`lim usuli

### **Optimal metodni tanlash» mavzusidagi keys – ta`lim texnologiyasining modeli**

<i>Vaqt: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni 25 ta</i>
<i>Dars shakli</i>	Malakani shakllantirishga qaratilgan seminar
<i>Seminar rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Keys bilan tanishuv.</li> <li>2. Mavzuning mazmunini taxlili.</li> <li>3. Gurux tavsifi bilan tanishish</li> <li>4. Metodlarning imkoniyatlariga baho berish.</li> <li>5. Aniq maqsadlarini belgilash.</li> <li>6. Muammoning yechimini topish va uni asoslash.</li> </ol>
<i>Ta`limiy maqsad:</i> Bo`lajak pedagoglarda ma`lum shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o`quv jarayonini tashkil etish, o`rganish lozim bo`lgan mavzu uchun eng qulay va samarali metodni tanlay olish malakasini shakllantirish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuning xarakterini aniqlash ishini tashkil etadi</li> <li>• Guruhning o`ziga xos jihatlarini o`rganishni tashkil etadi</li> <li>• Metodlarning imkoniyatlarini aniqlash faoliyatini tashkil etadi</li> <li>• Darsning ta`limiy maqsadlarini aniqlash faoliyatini tashkil etadi</li> <li>• Optimal metodni</li> </ul>	<i>O`quv natijalari</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuning mazmunini taxlil qiladi va uning murakkablik darajasini aniqlaydi.</li> <li>• Gurux tavsifi bilan tanishgan holda ta`limiy maqsadlarni aniqlaydi.</li> <li>• Tanlab olingan metodlarning imkoniyatlariga baho beradi.</li> <li>• Darsning ta`limiy maqsadlarini ishlab chiqadi.</li> <li>• Berilgan barcha omillarni hisobga olgan holda</li> </ul>

tanlash imkonini yaratadi	tanlangan mavzu uchun eng mos tushuvchi metodni belgilaydi.
<i>Ta`lim metodi</i>	Keys-stadi metodi
<i>Ta`lim vositalari</i>	O`UM, doska, keys, axborot materiallari
<i>Ta`lim shakli</i>	Frontal va individual
<i>SHart -sharoitlar</i>	Qulay sinf xonasi
<i>Monitoring</i>	Og`zaki javob, mustaqil taxlil va vaziyat yechimini topish

### O`quv mashg`ulotining texnologiya kartasi

Faoliyat bosqichlari	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Pedagog faoliyati</i>	<i>Talaba faoliyati</i>
1-bosqich kirish (10 daqiqa)	Mavzuni e`lon qiladi, maqsad va vazifalarni yoritadi va o`quv natijalari bilan tanishtiradi. (1- ilova). Ishlash lozim bo`lgan keysning pedagogik faolyaitdagi ahamiyatini yoritadi. ( 2 – ilova) Seminarni tashkil etuvchi bosqichlar ketma-ketligi bilan talabalarni tanishtiradi. Talabalarga keys materialini tarqatadi.	Eshitadilar va ilova bilan tanishadilar.  Tanishadilar
2- bosqich Asosiy qism ( 60 daqiqa)	2.1.Talabalar diqqatini muammoga, uni yechish uchun bajarish lozim bo`lgan vazifalarga va xarakterlar ketma-ketligiga jalb etadi. 2.2. Avval individual holda keys bilan tanishishni tashkil etadi, so`ngra talabalarni kichik guruhlarga ajratadi va har bir guruh uchun spiker tayinlaydi. Talabalarga har bir tanlangan metodning imkoniyatlarini jadval asosida taxlil qilish vazifasini yuklaydi ( 3-ilova) Gruh ichida muammoni tahlil etishni tashkil etadi. Taxliliy varaqni to`ldiradilar “AVV” texnologiyasi asosida (4- ilova) 2.3. Taqdimotning boshlanishini e`lon qiladi.  2.4.Muammoning yechimini taqdimotiga	Eshitadilar va tushunmaganlarini aniqlaydilar.  Individual holda matn bilan tanishgach, kichik guruhlarda ishlaydilar. Muammoni yechimini topadilar va yechim variantlarini tahlil qiladilar. (Taxliliy varaqada ko`rsatadilar) 2.3.Taqdimot qiladilar. Savollarga javob beradilar va boshqa guruhlarning muammoning



	tayyorlashning talablarini va baholash me'zonlarini e'lon qiladi.(5 – ilova) 2.5. Taqdimotdan so'ng savollar asosid baxs-munozarani tashkil etadi. ( 6 – ilova)	yechimi bo'yicha bergan javoblarini tahlil qiladilar. 2.4.Taqdimotga baho beradilar.
3-bosqich YAkunlash, tahlil va baholash (15 daqiqa)	3.1. Taqdimot davrida ilgari surilgan yechimlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi. 3.2.Guruhlarning ishini va har bir talabani faoliyatini alohida baholaydi. 3.3. Keysni yechish jarayonida qanday qiyinchiliklarga uchraganliklarini va bundan buyon qaysi yo'nalishda talabalar o'z ustida ishlashlari va kasbiy tayyorgarlik ko'rishlari yuzasidan maslahatlar beradi.	Eshitadilar va o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

## 6. O`quv - uslubiy materiallar

### 1.Talabalar uchun tavsiyalar

1. O'z oldingizda turgan masalaning yechimini topa olishga harakat qiling, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob berishga intiling, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch kelasiz, bu paytda guruh yordamiga tayaning.
2. Siz oldin egallagan bilimlaringizni yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olasiz.
3. Tanlagan muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirish o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga kelishi mumkin.
4. Siz amalda bajargan topshiriq natijalari bilan guruh a'zolarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o'rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.
5. Biror metodni tanlash uchun avvalambor mavzuning xarakterini o'rganing, uning muammoli elementlarini ajrating va uni murakkablik darajasini aniqlang.Mavzu bo'yicha talabalarda mavjud tasavvurlar hajmi haqida fikr yuriting. Mavzuning o'rganilganlik darajasiga va dolzarbligiga e'tibor qarating.
6. Guruh haqidagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida talabalarining bilim darajasiga alohida e'tibor bering, qiziqishlarini aniqlang, guruh tavsifnomasi bilan chuqur tanishib chiqing. Jamoada ruhiy-psixologik muhit yarating.
7. O'tiladigan darsning tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlarini, pedagog vazifalarini, o'quv natijalarini aniqlang.
8. Auditoriyaning texnik va ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganing.
9. Barcha omillarni tahlil etgan holda muammoning yechimini taqdim eting.

## **2. Muammoli ta'limning darajalari**

Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

*Muammoli ta'limning birinchi darajasi* – o'z holicha vujudga kelib qolgan muammolar bo'lib, turli dars tiplarida va turli vaziyatlarda surunkali holda vujudga keladi va o'z yechimini kutadi.

*Muammoli ta'limning ikkinchi darajasida* – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

*Muammoli ta'limning uchinchi darajasida* – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rta tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

*Muammoli ta'limning to'rtinchi darajasida* - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda talabalar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

## **2. O'quv natijalarini aniqlash**

O'quv natijalarini aniqlash jarayonida mavzuning o'zagiga e'tibor qarating, ta'rif va asosiy tushunchalarni tahlil etish, talabalarda zaruriy bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirishni maqsad qilib olish lozim.

## **Kirish**

Mazkur uslubiy O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida" gi Nizom, "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" fani bo'yicha Ishchi o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

« Iqtisodiy ta'limotlar tarixi » fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma bakalavriat bosqichi 5111000– Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) va 5111000-Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit) ta'lim yo'nalishlari 1-kurs talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o'ziga xosligi shundaki, o'quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o'qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o'quv rejada semestrlar bo'yicha belgilangan soatlar hajmiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

### **2.Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari**

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o'qish, ko'nikma va layoqatlari shakllanadi.

**Talaba mustaqil ishi** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrası professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan–semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda

o`zgarib, oshib borishi lozim. Ya`ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o`rganib borishi kerak.

“Iqtisodiy ta`limotlar tarixi” fani bo`yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;

- seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rib borish;

- belgilangan mavzular bo`yicha referat tayyorlash;

- I.A.Karimov asarlarini mustaqil o`rganish va konspektlashtirish;

- O`zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me`yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;

- testlar yechish;

- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo`yicha keyslar yechish;

- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko`rish;

- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to`garaklarida ishtirok etish;

- ko`rgazmali vositalar tayyorlash;

- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

- ilmiy maqola, tezislari va ma`ruza matnlarini tayyorlash;

- “talaba-o`qituvchi-kutubxona” kunida fan bo`yicha yangi o`quv adabiyotlari sharhini o`qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;

- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo`yicha nazariy, amaliy va statistik ma`lumotlarni yig`ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;

- belgilangan mavzular bo`yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;

- talabalar yotoqxonasiidagi ma`naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o`qish jarayonlarida ishtirok etish;

- fakul tativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;

- kafedralar va fakul tetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta`lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo`ysundirilganki, butun o`quv jarayoni to`lalgicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o`zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta`lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

**Mavzuni mustaqil o`zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o`quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o`zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e`tibor qaratish, asosiy

adabiyotlar va axborot manbalarini ko`rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o`quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o`zlashtirish qiyin bo`lsa, savollar paydo bo`lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o`qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o`zlashtirilgan mavzu bo`yicha tayyorlangan matn o`qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O`quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo`lgan "Iqtisodiy ta`limotlar tarixi" fani bo`yicha mustaqil ishlar ko`proq referatlar qo`rinishida bo`lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o`quv jarayonlaridan biri sifatida o`qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o`z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig`ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko`nikmalariga ega bo`ladi, o`rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o`rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog`laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo`yicha tayyorlangan seminar mashg`ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, "Iqtisodiy ta`limotlar tarixi"ni o`rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

**Referat** - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o`qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o`qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to`g`ri qo`yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko`nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

**Ko`rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o`zlashtirish uchun yordam beradigan ko`rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o`qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma`lum ko`rsatmalar, yo`l-yo`riqlar beriladi. Ko`rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo`yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

**Mavzu bo`yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.**

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo`yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo`lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo`ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o`qituvchi tomonidan talabaga testga qo`yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko`zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo`yicha yo`l-yo`riq beriladi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma`ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron-bir mavzu bo`yicha (mavzuni talabanning o`zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma`ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o`quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to`playdi.

**Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari** ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o`qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferentsiyasini tashkil etish orqali o`z ishini guruhning kasbiy yo`naltirilganligini, a`zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferentsiyani o`tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta`minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini bosqichma-bosqich o`tkazish maqsadga muvofiqdir. "Iqtisodiy ta`limotlar tarixi" fani bo`yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o`qitilayotgan barcha o`quv guruhlarida konferentsiyalarni o`tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma`ruzalarini fakul tet va fakul tetlararo konferentsiyaga taqdim etish va o`tkazish;

3-bosqich – fakul tetlararo konferentsiyada tanlab olingan eng yaxshi ma`ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferentsiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo`lgan konferentsiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma`ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

### **3.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari**

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo`yicha yo`riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko`rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya`ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta`minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e`tibor qaratish:

- talabanning o`qish bosqichi;
- muayyan fanning o`ziga xos xususiyati, o`zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;

- talabanning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;

- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasiga;

- talabanning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;

- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o`tish bilan shakl va hajm jihatidan o`zgarib borishiga;

- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabanning akademik o`zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

#### **4. Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo`lgan vazifalar**

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- zarur ma`lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar hamda me`yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o`quv va ilmiy adabiyotlar va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- ma`lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

#### **5. Talabalar mustaqil ishi bo`yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi**

Talabalar mustaqil ishi bo`yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo`ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo`llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo`yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o`tkaziladi. "Iqtisodiy ta`limotlar tarixi" fani bo`yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish yuzasidan hisobot shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Mavzu nomlari	Mashg`u- lot turi	So- at	Mustaqil ishi mavzusining mazmuni	Hisobot shakli
1.	Fan predmeti va o`rganish usullari. Qadimgi dunyo, feodal jamiyati iqtisodiy ta`limotlari.	Ma`ruza	2	Kadimgi Rim, Xitoy, Xindiston, Gretsiyadagi, Islom dinidagi iqtisodiy goyalar. IX-XI-asrlardagi, Amir Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy goyalar.	Referat
2.	Merkantilizm iqtisodiy ta`limoti.	Seminar	2	Merkantilizmning rivojlanish davrlari.	Referat
3.	Ilk klassik maktab vujudga kelishi davri ta`limotlari.	Seminar	2	Fiziokratlar maktabi, Frantsiya klassik maktabi	Konspekt

4.	A.Smit va D.Rikardo ta'limotlari.	Ma'ruza	2	J.B.Sey, Jeyms va Jon. Mill, T.R. Mal tus goyalari.	Referat
5.	Klassik iqtisodiy maktabga muxolif g'oyalarning vujudga kelishi.	Ma'ruza		Mayda ishlab chikarish nazariyalari, Germaniyadagi tarixiy(yangi va eng yangi tarixiy) maktab, markscha iqtisodiy goyalar	Referat
		Seminar	4		
6.	Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar	Ma'ruza	2	Marjinalizm : Avstriya, Kembrij Amerika Lozanna maktablari. Nomukammal bozor ta'limotlari.	Referat
		Seminar			
7.	Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining asosiy yo'nalishlari.	Ma'ruza	2	Institutsionalizm va Monetarizm va neoliberalizm, Gelbreyt ta'limotlari	Konspekt
		Seminar			
8.	Jon Meynard Keyns ta'limoti va keynschilik.	Ma'ruza		Ijtimoiy bozor xujaligi nazariyalari.	Konspekt
		Seminar	2		
9.	Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar.	Ma'ruza		Jaxonshumul iqtisodiy muammolarni xal etishga oid goyalar.	Konspekt
		Seminar	2		
10.	O'zbekistonda milliy bozor iqtisodiyoti shakllanishi va rivojlanishi.	Ma'ruza	2	Jahon moliyaviy inqirozi sabablari va uning O'zbekistonga ta'siri( I.A.Karimov asarlari asosida)	Referat
		Seminar	2		

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.

- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'quv jarayonining 1 va 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

### **6.Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi**

Mustaqil ishlarning bajarilishi "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**



1. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy g`oyalar.
2. Antik dunyo iqtisodiy qarashlari.
3. Arab va G`arbiy yevropa davlatlarida feodalizm davridagi iqtisodiy g`oyalar.
4. **IX-XV asrlarda O`rta Osiyodagi iqtisodiy fikrlar**
5. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchi nazariyotchisi
6. Smitning qiymatning mehnat nazariyasi
7. A.Smit va hozirgi zamon
8. **D.Rikardo sanoat tuntarishi davrining nazariyotchisi**
9. Avstriya maktabi va uning xususiyatlari
10. Kembridj maktabi A.Marshall ta`limoti
11. Marjinalizmning Amerika maktabidagi xususiyatlari
12. **Lozanna maktabining xususiyatlari**
13. Hozirgi zamon iqtisodiy ta`limotlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy xususiyatlari
14. Institutsionalizm yo`nalishi
15. Nomukammal bozor ta`limotlari
16. Monetarizm va neoliberalizm evolyutsiyasi
17. Ilk merkantilizm ta`limoti va uning namoyondalari.
18. Merkantilizmning “kameralistika” va “kol bertizm” ko`rinishidagi shakllari.
19. Rivojlangan merkantilizm.
20. Merkantilizm va hozirgi zamon.
21. XIX asr o`rtalaridagi namoyondalar: Senior, Bastiya, Mak-Kullox va Kerilarning iqtisodiy qarashlari
22. Germaniyada iqtisodiy kontseptsiyalarning shakllanishi (XIX asr o`rtalari); Germaniyadagi tarixiy maktab.
23. Markscha iqtisodiy g`oyalarning xususiyatlari va tarixiy taqdiri
24. Germaniyadagi yangi va eng yangi tarixiy maktab. Ularning iqtisodiy mazmuni
25. **Iqtisodiy tadqiqotlarda sotsialistik yo`nalish**
26. Jon Meynard Keynsning iqtisodiy ta`limoti va uning mohiyati
27. Keynschilik va yangi keynschilik iqtisodiy g`oyalarning xususiyatlari.
28. **Iqtisodiy jarayonlarda matematikaning qo`llanilishi va ekonometrika**
29. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga oid nazariyalar.
30. Jahonshumul iqtisodiy muammolar.
31. Hozirgi zamon iqtisodchilarining jahon iqtisodiyotiga oid g`oyalari.
32. Insoniy iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi.
33. Ijtimoiy bozor xo`jaligi nazariyalari
34. I.A.Karimov bozor iqtisodiyotiga o`tishning besh tamoyili va iqtisodiy strategiyasi to`g`risida.
35. O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tish davrining bosqichlari va asosiy vazifalari.
36. O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tishning dastlabki natijalari

## Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. 1997 yil 29 avgust. T.: “Adolat”, 1997.
2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 1997 yil 29 avgust. T.: “Adolat”, 1997.
3. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining “Oliy ta`lim muassalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to`g`risida”gi buyrug`i, 2009 yil 30 sentyabr , 217-son.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to`g`risida”gi buyrug`i.
5. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonli buyrug`iga 1-ilova. “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish” bo`yicha yo`riqnoma.
6. «Iqtisodiy ta`limotlar tarixi» fani bo`yicha namunaviy dastur. T., O`zR O va O`MTV, 2009.
7. «Iqtisodiy ta`limotlar tarixi» fani bo`yicha ishchi o`quv dasturi. T., TDIU, 2009.
8. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Darslik (*lotin yozuvida*). - T.: Moliya, 2006. – 320 b.
9. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Ma`ruzalar matni (*lotin yozuvida*). - T.:TDIU, 2009. – 136 b.
- 10.Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Darslik (*lotin yozuvida*). - T.: O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi, 2005. – 424 b.
- 11.Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Darslik (*kirill yozuvida*). - T.: Moliya, 2002. – 492 b.
- 12.Shodmonov Sh.Sh. G`afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi,ma`ruzalar matni, T.:Iqtisodiyot , 2009 , 324 b.

# GLOSSARIY

**Miloddan avvalgi (m.a.) IV ming yillik** - Sharqdagi dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo`ldi, ilk iqtisodiy qarashlar shakllandi.

**Xammurapi** (m.a. 1792-1750 yy.) - Babil (Vavilon) podshosi toshga o`yib yozilgan o`z qonunlarida quldorlik tuzumining xarakterli belgilarini aks ettirgan (282 ta). Bu yodgorlik Parijda Luvr muzeyida saqlanmoqda.

**Zardushtiylik** (Zoroastrizm, otashparastlik) - islomgacha O`rta Osiyo, Ozarbayjon va Eron xalqlarining dini. Bunda ayniqsa tabiatni va hayvonot dunyosini asrash va boshqa iqtisodiy masalalarga alohida urg`u berilgan.

«**Avesto**» - Zardushtiylikning muqaddas to`plami, oromiy yozuvida bitilgan. m.a. VII asrda Markaziy Osiyoda qadimgi davrdagi iqtisodiy hayot aks etgan. Mehnatga, chorvachilikka alohida e`tibor berilgan. Ko`p qismi yo`q bo`lgan, to`liq emas. Rus va o`zbek tillariga tarjima qilingan. Bu kitob 2700 yil avval yozilgan bo`lib, unda «ezgu fikr, ezgu so`z va ezgu amal» printsiplari ilgari suriladi.

«**Artxashastra**» - m.a. IV-III asrlarda Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy hayotni aks ettirgan. Ish haqi tushunchasi ish vaqti bilan ifodalangan.

**Konfutsiy** (Kun-TSzi, m.a. 551-479 yy.) - Xitoydagi konfutsiychilik iqtisodiy ta`limotining asoschisi. «Lun yu» suhbatlar va mulohazalar to`plamini yaratgan. «Xalqlar otasi» iborasining muallifi. Oz iste`mol qilib, ko`proq ishlashni targ`ib etgan. Odat bo`yicha boshqarish tarafdori (ota-bola; podsho-xalq, oila kabi bo`lishi kerak)

**Legistlar** - Xitoydagi (m.a.VI-III asrlar) iqtisodiy oqim. Konfutsiylikka qarshi. Boshqaruv qonunlar asosida bo`lish tarafdori. Don masalasini hal qilish bosh vazifa deb qaraladi. Dehqonlarni ro`yxat qilish, soliq tizimini tartibga solish tarafdorlari.

«**Guan-TSzi**» (m.a.IV asr) - Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar, unda xo`jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal berilgan.

**M.a. II ming yillik** - Farbda (Qadimgi Gretsiya - Yunoniston va Italiyada) quldorlik tuzumi yuzaga keldi. Quldorlik klassik shaklda amalga oshdi.

**Gomer** (m.a. XII-VII asrlar oralig`i) - «Iliada» va «Odisseya» asarlarida natural xo`jalik kontseptsiyalarini ilgari surgan.

**Solon** (taxm. m.a. 640G`635-559) - Yunoniston siyosiy arbobi, islohotlar o`tkazgan. Qullarni qarzga berishni man etgan (chet elliklar bundan mustasno).

**Perikl** (m.a. 490-429) - qadimgi yunon siyosiy arbobi. Qul ekspluatatsiyasini keng qo`llagan, lekin savdo va pul xo`jaligini ham rivojlantirgan. Afina eng rivojlangan davrda uni boshqargan.

**Ksenofont** (m.a. 430-335G`354) - yunon yozuvchisi va tarixchisi. Quldorlikni qo`llab-quvvatlagan. «Dehqonchilik barcha san`atlarning onasi va boquvchisi» degan iboraning muallifi. «Ekonomiya» (uy xo`jaligi) so`zini birinchi bo`lib ishlatgan. Mehnat taqsimotiga alohida urg`u bergan va uni bozor ko`lami bilan bog`lagan. Pulning almashuv va jamg`arish (ikki) funktsiyalarini tan olgan.

**Platon (Aflotun, m.a. 428G'427 - 348G'347)** - «Davlat» va «Qonunlar» asarlarining muallifi. Jamiyatni ish quroli - natural ishlab chiqarish deb qaragan, natural xo`jalikni qo`llagan, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bilgan.

**Aristotel (Arastu, m.a. 384-322)** - yirik yunon olimi, «Nikomaxov ahloqi» va «Siyosat» asarlarini yozgan. Aflotundan ta`lim olgan. Aleksandr Makedonskiyga tarbiyachilik qilgan. Qulchilikning printsiptial tarafdori bo`lgan. Qul - jonli (gapiruvchi) qurol, qul - tirik mulk, degan fikrda bo`lgan. Qiymatning dastlabki shaklini tahlil etgan: buyumdan ma`lum talabni qondirish va almashish uchun foydalanish mumkin, degan, natural xo`jalik (T-T), tovar (T-P-T) va pulning kapital shaklidagi aylanishini (P-T-P)

tahlil etgan. Tovar ishlab chiqarish uchun qo`llaniladigan harakatni qo`llab-quvvatlagan. P-T-P, P-P shaklini inkor etadi.

**Xrematistika** (xrema - mulk, egalik) - mulk orttirish san`ati, ya`ni foyda va boylikni pul shaklida to`plashga yo`naltirilgan faoliyat. Kapital qo`yish va jamg`arish san`atidir. Amaliyotda kam

qo`llaniladi. Aristotel tomonidan kiritilgan.

**Katon Starshiy** (m.a. 234-149) - Qadimgi Rimdagi qulchilikni himoya qilganlardan. Dehqonchilik to`g`risidagi asarida qishloq xo`jaligiga ko`proq e`tibor berishni taklif etadi, ko`proq sotish va kam olishni ma`qullaydi. Qullar mehnatidan ratsional foydalanishni taklif etadi (Villa xo`jaligi). Yaxshi ishlagan qulning sharoitini yaxshilash kerak, deydi, - lekin gunohkor qattiq jazolanishi kerak.

**Varron** (m.a. 116-27) va **Lyutsiy Kolumella** ( milodiy I asr) - Rim agronomlari. Qul xo`jaligini samarali tashkil etishga ahamiyat berdilar, dehqonchilik va chorvachilikni ham rivojlantirishni zarur deb bilganlar. Qul mehnatining samarasiz ekanligini tushungan va dehqonchilikni erkin kolonlarga berishni taklif etganlar.

**Aka-uka Grakslar, Tiberiy (m.a.162-133) va Gay (153-121)** - Rim davlatida yer islohotining rejasini tuzganlar. Har bir yer egasidan 125 ga (500 yuger) dan ortiq yerlar tortib olinib (oilaga 1000 yuger - 250 ga), boshqalarga 30 yugerdan bo`lib berish taklif etilgan. Mayda dehqon manfaatlari himoya qilingan. Islohotlar natija bergan. Ammo aka-ukalarning o`limidan keyin bu islohotlar bekor qilindi.

**Latifundiya** - yirik yer egaligi (pomest ye). Dastlab Qadimgi Rimda m.a. II asrda paydo bo`ldi, milodiy I asrda keng tarqaldi. Feodalizm davrida avj oldi. Prussiya va AQShda rivoj topdi. Inqiloblar tufayli tugatildi.

**Spartak** (m.a.71 halok bo`ldi) - qullar qo`zg`oloniga (m.a.73-71) rahbarlik qildi. Qo`zg`olon yengildi. Ammo qulchilik tuzumiga zarba berildi.

**Xristianlik (nazorolik)** - jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri, buddizm va islom bilan bir qatorda milodning I asrida Rim imperiyasining sharqiy provintsiyasi(Falastin)da mazlumlar va ezilganlar dini sifatida paydo bo`lgan,

muqaddas kitobi Injilda «Ishlamagan tishlamas» printsipli ilgari surilgan (havoriy apostol Pavelning fikri). 325 yildan Rim imperiyasining davlat dini, unda mulk, iqtisodiy tenglik, hamkorlik va boshqa g`oyalar ilgari suriladi.

V asrda Farbiy yevropada (Rim imperiyasining qulashi) qullik tugatilib, feodalistik munosabatlar tarkib topdi (V-XVI-XVII asrlar). Sharq mamlakatlarida feodalizmning shakllanishi III-VII asrlarda ro`y berdi. Bu davrdagi iqtisodiy g`oyalar tovar-pul munosabatlarining rivoji bilan bog`liq.

**Islom** - VII asrda (hijriy 622 yil) dastlab Arabistonda tarqalgan so`nggi muqaddas din. Islomning muqaddas kitobi *Qur`oni karimda* (arabchada *o`qish, qiroat* degani) Alloh taolo tarafidan shaxsiy mulk muqaddas deb e`lon qilingan, unga ko`z olaytirish katta gunoh deyilgan va sudxo`rlik harom qilingan, ortiqcha sarf-harajatlar qoralangan, ayniqsa «englar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmang» degan oyatlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

**Forobiy Abu Nasr ibn Muhammad** (870-950) - qomusiy olim, Arastuning izdoshi (Arastudan keyin ikkinchi muallim nomini olgan), xayoliy sotsializmning asoschilaridan, 160 dan ortiq asar yozgan, donishmand (ayni vaqtda diniy jamoaning boshlig`i bo`lgan), hukmdor, tasarruf etuvchi, «sahovatli yurt» haqidagi ta`limotni rivojlantirdi (fozil davlat tarafdori).

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037) - qomusiy olim, 280 dan ortiq asar yozgan, «Uy xo`jaligi», «Ruhshunoslik» va boshqa kitoblarda iqtisodiy qarashlari aks etgan.

**Beruniy Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad** (973-1048) - qomusiy olim, 150 dan ortiq asarlari mavjud, lekin iqtisodiy qarashlari to`liq o`rganilmagan. Mehnat boylikning asosi ekanligi to`g`risidagi fikrlari mavjud.

**Yusuf Xos Hojib Bolasog`uniy** (~1016-1018-?) - turk tilidagi ilk «**Qutadg`u bilig**» («*Saodatga yo`llovchi bilim*», 1069-70) asarida ajoyib iqtisodiy g`oyalarni bayon etgan (1990 yilda chop etildi). Ayniqsa, hunar-kasb o`rganish, savdo-sotiqning ahamiyatiga e`tibor berilgan. Kitobda «san`at, hunar - kishiga chiroy, turli-tuman hunarlarni o`rganmaslik tubanlik belgisi» (64-bet) ekanligi haqida fikrlar va mehnat taqsimoti g`oyalari bor. Davlat va iqtisodiyot masalalaridagi bog`lanishni yaxshi tushungan.

**Nizomulmulk** (1018-1092) - Saljuqiylar davlati vaziri sifatida «Siyosatnoma» asarini yozdi, unda soliq, davlat mablag`larining hisob-kitobi, iqto` (chek yer) to`g`risida qimmatli g`oyalar berilgan.

**Ibn Xaldun Abu Rahmon Abu Zayd** (1332-1406) - arab olimi, «Ibratli misollar kitobi» (1370)da iqtisodiy g`oyalari jamlangan. Uning fikricha, «jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar» jamoasidan iborat. Asarlarida moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch, mehnat unumdorligi, zaruriy va qo`shimcha mehnat, qiymat tushunchalari keltirilgan. 1401 yilda Amir Temur bilan uchrashgan. «Ijtimoiy fikr» jurnalining 1998 yil, 1-sonida lavha berilgan.

**Amir Temur** (1336-1405) - Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat asoschisi, uning olib borgan to`g`ri iqtisodiy siyosati tufayli mamlakat obod bo`ldi, ilm-fan ravnaq topdi. «Temur tuzuklari» kitobida bir qancha muhim

ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari berilgan. Masalan, soliq, maosh, byudjet to'g'risida qimmatli fikrlari bor. Yangi yerlar ochgan dehqon uch yilgacha soliqdan ozod qilingan, o'g'rilik, qalloblik, tovlamachilik qattiq jazolangan. Uning davrida Buyuk Ipak yo'li rivoj topgan, savdogarlar qaroqchilardan himoya qilingan, karvonsaroylar qurilgan. «Kam yegin, kam uxla, kam gapir» aqidasi amal qilgan.

**Ulug'bek Muhammad Tarag'ay** (1394-1449) - A.Temurning nabirasi, Shohruhning o'g'li, 1409-49 yy. Movarounnahrda podsholik qildi, ilm-fan, madaniyat rivojiga, mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo'shdi, 1428 y. Fulusiy pullar islohotini o'tkazib, chaqa pullar qadrini mustahkamladi, «Tamg'a» bojiga alohida e'tibor berdi, uning podsholik davrida mamlakatda ichki va tashqi savdo o'sdi.

**Alisher Navoiy** (1441-1501) - temuriylardan, shoir, davlat arbobi sifatida iqtisodiyot masalalariga katta e'tibor bergan. «Mahbub-ul-qulub» asarida dehqon, hunarmand va savdogarlar faoliyatiga alohida baho beradi, uning fikrlarida almashuv zarurati ko'rsatilgan, kapital tushunchasining elementlari bor.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1530) - Andijon, Qobul va Hindiston hukmdori, «Boburnoma», «Mubayyin» asarlarida soliq siyosati, masalan, zakot to'g'risida qimmatli g'oyalari berilgan. Eng muhimi, daromad oshgan sari soliqning kamayib borishining ahamiyati tushuntiriladi. Savdo va ayniqsa tashqi munosabatlarga katta e'tibor bergan.

**Tomas Mor** (1478-1535) - ingliz olimi. «Utopiya» (1516) asarida xayoliy sotsializm g'oyalari berilgan, «qo'ylar odamlarni yeb qo'ydi» iborasining muallifi (dehqonlarning o'z yerlaridan mahrum qilinishi). «Utopiya» so'zi yunoncha «u-» G'yo'qG' va «*topos*» G'joyG' so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni bu so'zning ma'nosi «o'zi yo'q joy»dir.

**Tommazo Campanella** (1568-1639) - ital yan iqtisodchisi, Italiyadagi og'ir iqtisodiy ahvolni ko'rgan. «Oftob shahri» (1602 yilda yozilib, 1632 yilda chop etilgan) kitobida umumiy mulkchilik, mehnat asosida xayoliy sotsializm g'oyalari rivojlantirilgan.

**Merkantilizm** - ital yancha so'z bo'lib, savdogar degani, feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalizm davridagi dastlabki bozor iqtisodiy maktabi; ilk merkantilizm (monetarizm) va rivojlangan merkantilizm davrlariga bo'linadi; boylikning asosi muomala (savdo)da yuzaga keladi, degan g'oya ilgari surilgan.

**Antuan Monkret yen** (1565-1621) - frantsiyalik iqtisodchi, birinchi bo'lib «siyosiy iqtisod» tushunchasini kiritgan, merkantilizmni, savdo rivojini qo'llagan, dvoryanlarning zeb-ziynatga berilishini qoralagan.

**Jan Batist Kol ber** (1619-1683) - Frantsiya qiroli Lyudovik XIV davrida moliya vaziri bo'lgan, merkantilizmni jon-jahdi bilan qo'llagan, uning davrida agrar sohaga e'tibor kamaygan, kol bertizm siyosatining muallifi. Bank, sanoat va savdo rivojiga hissa qo'shgan.

**Kameralistika** - merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g`oya tarafdorlari yirik feodallar xo`jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo`yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

**Jon Lou** (1671-1729) - asli shotlandiyalik, ammo ko`proq Frantsiyada ijod etgan. Merkantilizmning bir oqimini, ya`ni korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir, degan g`oyani ilgari surgan. Bank, aktsiya, obligatsiya va qimmatli qog`ozlar sotish yo`lini tutgan. Hozirgi «piramida» usulining muallifi. Oxir-oqibatda inqirozga uchradi (Moskvadagi «MMM» va boshqa shu kabi aktsioner jamiyatlarining ibtidosi). Banklarning ijobiy tomonini ko`ra bildi.

**XVII asrning o`rtalarida (1640-1660) Angliyada burjua inqilobi bo`lib o`tdi, feodalistik munosabatlar sinib, kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi.**

**Manufaktura** - ital yancha «qo`l mahsuloti» degani, mehnat taqsimoti, qo`l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperatsiyadan keyingi ikkinchi bosqich. XVI asrning o`rtalarida paydo bo`ldi, sanoat to`ntarilishiga, ya`ni fabrikaga zamin tayyorladi. A.Smit tomonidan eng mukammal korxonalar turi deb hisoblangan.

**Petti Vil yam** (1623-1687) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi, merkantilizmni inkor etgan, boylikning asosi ishlab chiqarishda, degan fikrni ilgari surgan, «mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir» degan iborani qo`llagan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarining almashuv qiymatini tan olgan. Statistika («Siyosiy arifmetika») faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchi sifatida qaradi.

**Buagil ber P yer** (1646-1714) - Frantsiya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi. Agrar sohaning rivojiga e`tibor berdi, kol bertizmga qarshi kurashdi, soliq tizimni isloh qilishni taklif etdi. Pulga «buyuk yovuzlik» deb qaradi. Qiymatning iste`mol shaklini tan oldi, savdo va sanoatni to`g`ri baholamadi. Erkin savdo, proporsional baholar tarafdori bo`ldi va erkin raqobatni qo`llab-quvvatladi.

**Fiziokratlar** - yunoncha «tabiat» va «hokimiyat» so`zlaridan tashkil topgan bo`lib Frantsiyadagi klassik siyosiy iqtisod namoyandalari F.Kene, A.R.Tyurgo va boshqalar fiziokratizmga asos soldilar. Tadqiqot mavzuini muomala sohasidan (merkantilizm) ishlab chiqarish sohasiga ko`chirdilar; erkin savdo tarafdorlari edilar. Fermerlar, qishloq xo`jaligi mamlakat ravnaqining asosi deb hisoblanadi.

**Kene Fransua** (1694-1774) - frantsiyalik fiziokratizm oqimining asoschisi, «Tabiiy tartib kontseptsiyasi», «Sof mahsulot» «Unumli mehnat» to`g`risidagi ta`limotni yaratdi. O`zining «Iqtisodiy jadval»ida takror ishlab chiqarishni va sinflarni tahlil etdi, kapitalga (doimiy va aylanma) izoh berdi. Almashuv ekvivalentligi ta`limotini ilgari surdi, unda boylik yaratilmasligini isbotladi. Boylik yaratishda tabiatning ishtirokini tan oldi.

**Fermer, fermer xo`jaligi** - xususiy yoki ijaraga (lendlordan) olingan yerda olib boriladigan sohibkorlik tipidagi xo`jalik. Kapitalistik fermerchilikda yollanma mehnatni jalb etish, oilaviy shakli esa aksariyat xo`jalik egasining (fermer va uning oilasi) kuchi bilan olib boriladi. Dastlab Angliyada XVII asrda vujudga

keldi. Hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Fiziokratlar qo'llab-quvvatlagan xo'jalik turi. Erkin savdo, xususiy mulk va mavjud tuzum tabiiy deb baholanadi.

**Tyurgo Ann Rober Jak** (1727-1781) - frantsiyalik, fiziokratizm g'oyasini rivojlantirdi. Sof bozor iqtisodiyoti tarafdori. Minimal ish haqini qo'llagan, jamiyatda (kapitalist va ishchilarni qo'shgan holda) beshta sinf (Keneda esa uchta) borligini aytdi.

**Smit Adam** (1723-1790) - Angliya klassik iqtisodiy maktabining buyuk nazariyotchisi, manufaktura davrining iqtisodchisi. Asosiy asari «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» (1776) bo'lib, unda hozirgi til bilan aytganda erkin bozor munosabatlari o'z aksini topgan. Unda kapitalistik iqtisodiyot, xususiy mulk ideal deb hisoblanadi. Mehnat taqsimoti (vaqtdan, malaka oshishidan, mashina qo'llashga imkon yaratishdan) uch yutuq berishini isbotlagan. Davlatning iqtisodga aralashuvi imkoni boricha kam bo'lishi kerak, deydi. Egoizm xususiyati jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi emas, degan xulosa chiqaradi. Xalq boyligi ishlayotgan odamlarning soniga va ularning mehnat unumdorligi darajasiga bog'liq deb o'ylagan. Manufakturani sanoatning eng yuksak cho'qqisi deb bilgan (bu fikr xato edi, chunki fabrika ustunroq). «Smit dogmasi» deb ataladigan xatoga yo'l qo'ygan.

**Gertsog Baklyu** - Adam Smit tarbiyachilik qilgan oila.

**Sanoat to'ntarilishi (inqilobi)** - Angliyada birinchi bor XVIII asr o'rtalarida qo'l kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) o'tish jarayoni (XIX asrning o'rtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rinni egallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

**Rikardo David** (1772-1823) - A.Smit ta'limotining buyuk davomchisi, sanoat to'ntarishi davrining iqtisodchisi. Mehnat taqsimotini korxonada doirasidan mamlakatlarga ham joriy etishni taklif etgan, nisbiy ustunlik, nisbiy chiqimlar ustunligi nazariyalariga asos solgan. Fabrika davrini to'g'ri tushungan, fritreyderlikni (erkin savdo) qo'llab-quvvatlagan.

**Proteksionizm** - lotincha, davlatning milliy iqtisodiyotini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

**Fritreyderlik** - inglizcha, erkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariga o'tgan davlatlar tashqi savdoda qo'llaydilar.

**Sismondi Sharl** (1773-1842) - Jenevada tug'ilgan, Frantsiyada yashagan, mayda ishlab chiqarish iqtisodining asoschisi, yirik kapitalistik ishlab chiqarishga qarshi chiqdi va buni «isbotlab berish»ga harakat qildi. Mamlakatdagi barcha illatlar yirik ishlab chiqarish tufayli deb hisoblagan, u kapitalizmni tan olmagan, davlat yo'li bilan yirik korxonalarni tugatishni taklif etgan. Klassik maktabga muholif.

**Prudon P yer Jozef** (1809-1865) - frantsiyalik mayda ishlab chiqarish iqtisodchisi va sotsiologi, mayda ishlab chiqarishni himoya qildi, «ishchi puli»



orqali mahsulot sotishni taklif etdi. Kapitalizmni isloh qilishni taklif etdi. P. pulga qarshi bo`lgan. Klassik maktabga muqobil fikrlar bildirgan.

**Rodbertus Karl Iogann** (1805-1875) - nemis iqtisodchisi, o`z iqtisodiy g`oyalarini «Sotsial xatlar» shaklida ilgari surdi, qo`shimcha qiymat, pul va renta bo`yicha mayda burjuacha qarashlar tarafdori. Vul gar qarash - «o`ta soddalashtirilgan», «soxtalashtirilgan» degan ma`nosi bor, g`ayriilmiy iqtisodiy nazariyalar majmui, asosiy namoyandalari Sey (1767-1832) va Mal tusdir (1766-1834). Ular kapitalizmni himoya qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning tashqi ko`rinishini tavsiflash va «xo`jako`rsin»ga klassifikatsiya qilish bilan chegaralanib, hodisaning mohiyatini tadqiq etmaydilar. Ularga faqat ayrim masalanigina olib, butun muammoni hal qilish xosdir. V.k. namoyandalari klassik iqtisodiy maktabni inkor etadilar.

**Apologetika** - biror g`oya yoki ta`limotni xato bo`lsa ham ko`r-ko`rona himoya qilish. Ma`lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

**Mill Jeyms** (1773-1836) - ingliz iqtisodchisi, ish haqini oshirish uchun kurashmaslik tarafdori, jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarining mehnatini ham tan olishni talab qilgan.

**Mak-Kullox Jon Ramsey** (1789-1864) - ingliz olimi, Maltusni qo`llagan, mehnat bilan birga kapital ham boylik yaratishda ishtirok etadi, degan fikrni ilgari surdi.

**Senior A.** (1790-1864) - ingliz siyosiy iqtisodi vakili, «So`nggi soat» va «Tiyilish» nazariyalarini ilgari surgan, unga ko`ra go`yoki ishchilar o`n bir yarim soat ish vaqtining faqat oxirgi bir soati davomidagina foyda keltirar ekanlar.

**Sey Jan Batist** (1767-1837) - frantsuz iqtisodchisi, klassik maktabga qarshi, «kompensatsiya» nazariyasini ilgari surgan, «Sey qonuni»ning («Bozorlar qonuni») muallifi, unga ko`ra taklif talabni avtomatik ravishda vujudga keltiradi, S. inqirozlarni inkor etgan, sinflar o`rtasidagi qarama-qarshilikni tan olmaydi («ular o`rtasida uyg`unlik bor», deydi). Proteksionizm o`rniga savdoni targ`ib qilgan. Ishlab chiqarishning uch omilini (kapital, ishchi kuchi va yer) ilgari surdi.

**Mal tus Tomas Robert** (1766-1834) - ingliz iqtisodchisi, «Nufus nazariyasi», «Tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni»ning muallifi. Uningcha aholi geometrik progressiya asosida, noz-ne`matlar esa arifmetik progressiya asosida o`sib boradi, oqibatda qashshoqlikning sababi aholi soniga bog`liq deb ko`rsatiladi. M. aholi sonining o`shishini cheklash tarafdori bo`lgan.

«Uchinchi shaxslar» - XIX asr boshlarida muomalaga kiritilgan tushuncha. Xo`jalik hayotini sinfiy tahlil qilish metodida qo`llaniladi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo`lgan tadbirkorlar va yollanma ishchilardan tashqari qatlam bo`lib, olimlar fikri bo`yicha ular mahsulotni yaratish va realizatsiya qilishga imkon beradi.

**Bastia F.** (1801-1850) - frantsuz iqtisodchisi, «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobi va g`oyasi, «manfaatlar uyg`unligi» va «xizmatlar» nazariyalarining muallifi.

**Keri Genri Charl z** (1793-1879) - amerikalik iqtisodchi, «Manfaatlar uygʻunligi» (1872) asarini yozgan. Shu gʻoyaning tarafdori boʻlgan, millatlar uygʻunligi gʻoyasini ilgari surdi, Rikardo va Mal tusga qarshi chiqdi. Erkin savdoni rad etdi, proteksionizm va qulchilikni qoʻlladi.

**Ekonometrika (Ekonometriya)** - iqtisodiy jarayonlarga matematik usullarni qoʻllash bilan bogʻliq iqtisodiy matematik yoʻnalish. XIX asrning boshlarida vujudga keldi va hozirgi kunda nazariya va amaliyotda keng qoʻllaniladi.

**Kurno Antuan Ogyusten** (1801-1877) - frantsiyalik matematik, birinchilardan boʻlib matematikani iqtisodiy jarayonlarga keng qoʻllash uslubini ishlab chiqdi. Ekonometrika yoʻnalishining asoschilaridan biri, «talablarning elastikligi» funktsiyasi va grafigini yaratdi.

**Iogann Genrix fon Tyunen** (1783-1850) - nemis olimi, ekonometrikada matematik modellashtirish boʻyicha yirik mutaxassis.

**Iqtisodiy taʼlimot, nazariya, qonun, kategoriya** - merkantilizm, fiziokratizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm - bu iqtisodiy taʼlimotlardir; «nufus», «soʻnggi soat», «uchinchi shaxslar», yuqori foydalilik, umumiy bandlik, qiymatning mehnat nazariyasi; qiymat, qoʻshimcha qiymat, talab va taklif qonunlari; tovar, mehnat taqsimoti, pul, narx, ish haqi, renta va boshqalar iqtisodiy kategoriyalardir.

**Kontsepsiya** (lotincha tushuncha, tizim degani) - maʼlum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy koʻzqarash; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh gʻoya; bu matn ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qoʻllaniladi. Masalan, tabiiy tartib kontsepsiyasi va boshqalar.

**Tarixiy maktab** - Germaniyada (vakillari: F.List, V.Rosher, B.Gil debrand, K.Knis) vujudga kelgan siyosiy iqtisod. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi oʻringa qoʻyiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor etilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

**Fridrix List** (1789-1846) - nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab asoschilaridan biri, uning taʼlimotiga koʻra, qiymat «millatning ruhi» tomonidan yaratiladi; F.L. taraqqiyotni besh bosqichga boʻladi: badaviylik, choʻponlik, dehqonchilik - manufaktura, dehqonchilik - manufaktura - savdo; urush va bosqinchiliklarning tarafdori boʻlgan, F.L. fashizmning iqtisodiy nazariyotchisidir.

**Rosher Vil gel m Georg** (1817-1894) - Germaniya tarixiy mni maqtabining faollaridan, iqtisodiy qonunlarning obʻektivligini rad etadi, iqtisodiyotni maʼnaviy fan deydi, sinfiy kurashning mavjudligini rad etadi, urushlar madhiyachisi, Sey gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlaydi.

**Knis Karl** (1821-1892) - nemis iqtisodchisi, uningcha, iqtisodiy qonunlar yoʻq va tabiiy qonunlar bor. K.K. xususiy mulk va kapitalizmni abadiy deb hisoblagan. Iqtisodiy siyosatga katta oʻrin bergan.

**Gil debrand Bruno** (1812-1878) - nemis iqtisodchisi, iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilishning o`z tarixiy usulini ilgari surdi (natura, pul, kredit), uningcha qiymat - foydalilikdir va xususiy mulk abadiydir.

**Sen-Simon Klod Anri** (1760-1825) - Frantsiya xayoliy sotsializmining vakili, ammo S.S. xususiy mulkni saqlab qolish taradori bo`lgan.

**Fur ye Fransua Mari Sharl** (1772-1837) - Frantsiya xayoliy sotsializmining vakili, kelajakni sinfsiz ko`rgan, uningcha jamiyat ishlab chiqarish birlashmalari - falangalardan iborat bo`ladi («Ish rohat bag`ishlashi zarur»).

**Ouen Robert** (1771-1858) - ingliz xayoliy sotsializmining vakili, kelajakda xususiy mulkni inkor etgan, barcha sog` odamlar uchun mehnat zarur deb hisoblab, «har kimdan qobiliyatiga yarasha va har kimga mehnatiga yarasha» printsiptini ilgari surgan.

**Marks Karl (1818-1883), Engel s Fridrix (1820-1895)** - ilmiy sotsializm nazariyasining asoschilari. Kapitalizmning o`rniga sotsializm kelishini bashorat etganlar. Xususiy mulkni inkor qilishgan. Umumxalq mulkini asosiy deb qarashgan (tarix bularni inkor etmoqda).

**XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari** - yangi tarixiy maktab va «sotsial yo`nalish» paydo bo`ldi. Uning vakillari G.Shmoller (1838-1917), L.Brentano (1844-1931) va K.Byuxerlardir (1847-1930).

«**Neoklassitsizm**», **Avstriya maktabi** - XIX asrning 70-yillarida paydo bo`ldi, uning asosiy maqsadi Marksning qiymatning mehnat nazariyasiga qarshi kurash edi. Vakillari: K.Menger (1840-1920), ye.Byom-Baverk (1851-1914), F.Vizer (1951-1926). Marjinalizm, eng yuqori naf, eng yuqori unumdorlik g`oyalari qo`llaniladi.

**Shmoller Gustav** (1838-1917) - nemis iqtisodchisi, yangi tarixiy maktabning asoschisi, siyosiy iqtisodni xalq xo`jaligi tarixi bilan bir deb qaradi, tarixiy formatsiyaga qarshi chiqdi, unga empirizm xos edi. Iqtisodiyotda odob-huquq omilini birinchi o`ringa qo`ygan.

**Brentano Lui** (1844-1931) - yangi tarixiy maktab vakili, kapitalizmni madh etgan, «Ijtimoiy inoqlik» tarafdori, «davlat sotsializmi» g`oyalarni ilgari surgan.

**Verner Zombart** (1863-1941) - yangi tarixiy maktabga yaqin turgan nemis iqtisodchisi, antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor etgan, kapitalizm tartibga solingan va rejali rivojlanib boradigan xo`jalik tarzi deb tasvirlanadi. Turli tizimlarni plyuralizm asosida yaqinlashtirish mumkin, deydi. V.Z. shovinizm pozitsiyalarida turgan va fashizm mafkurasining shakllanishiga ko`maklashgan.

**Menger Karl (1840-1921), Byom-Baverk yevgeniy (1851-1914), Vizer Fridrix (1851-1926)** - Avstriya maktabi vakillari, iste`mol ishlab chiqarishdan ustun qo`yilgan, tadqiqotning Robinzonada usuli keng qo`llanilgan, qadriyatlar (yuqori foydalilik) nazariyasi ilgari surilgan. Qiymat iste`mol qiymati bilan aynan bir xil deb talqin qilingan.

**Lenin (Ul yanov) Vladimir Il ich** (1870-1924) - marksizmni rivojlantirgan, imperializm to`g`risidagi ta`limotni yaratdi, Sovet davlatining asoschisi va rahbari, «Harbiy kommunizm», «Yangi iqtisodiy siyosat» muallifi, umrining oxirida sotsializmga yangicha qarash tarafdori bo`ldi. L. ning asosiy g`oyalari (umumxalq mulki, qat`iy rejalashtirish, sho`rolar tizimi) inqirozga uchradi.

**Ma`muriy-buyruqbozlik** (rejalashtirilgan bozor) - sobiq SSSR va «sotsialistik» deb atalgan davlatlarda amalga oshirilgan bozor turi, unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo`q, imperativ qat`iy reja hukmron, erkin raqobat inkor etiladi; qat`iy baholar qo`llanadi. Hayot bozorning bu turini inkor etmoqda.

**«Harbiy kommunizm» siyosati** (1918-1920) - Sovet davlatida qo`llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor etilgan, qat`iy taqsimot va to`la milliyashtirish hamda oziq-ovqat razverstkasi amalga oshirilgan, bir qancha sotsial sohalar tekin bo`lgan (transport, elektr energiyasi, kommunal xizmatlar). X.k. davrida mamlakat og`ir inqirozga uchradi.

**«Yangi iqtisodiy siyosat»** (Novaya ekonomicheskaya politika, «NEP») - Sovet davlatida 1921 yilda joriy etilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o`rin berilgan, denatsionalizatsiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o`rin berilgan va yagona oziq-ovqat solig`i joriy etilgan. Ya.i.s.dagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og`ir sanoat, bank, temir yo`l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo`lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928 yildan boshlab inkor etilib, ma`muriy-buyruqbozlikka o`tildi.

**Chayanov Aleksandr Vasil yevich** (1888-1937) - taniqli iqtisodchi, Rossiyada tashkiliy ishlab chiqarish maktabining asoschisi, dehqonni mehnat xo`jaligining asosi deb, oilaviy mehnat yacheykasini tashkil etgan (kollektivizatsiyaga qarshi); kooperatsiya va agrar sohalarida 200 ga yaqin asar yozgan, bosh asari «Xo`jalikning nokapitalistik sistemalari nazariyasi»dir. Ch. 1937 yilda repressiya qilinib, qatl etilgan. Ilmiy g`oyalari hozirda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Monopoliya - ishlab chiqarish va banklarning yiriklashuvi va markazlashuvi, sof raqobat yo`qoladi (nomukammal raqobat), monopol baho, foyda yuzaga keladi.

**Marjinalizm** - frantsuzcha «chegaraviy» ma`nosidagi so`zdan olingan, XIX asrning 70-yillari Jevons, Menger, Val raslar tomonidan ochilgan iqtisodiyotning metodologik printsiplaridan biri, iqtisodiy hodisalarni tahlil etishda eng chekka ko`rsatkichlarga suyanadi. Iste`molni ishlab chiqarishdan ustun qo`yadi. Qiymatning mehnat nazariyasi inkor etiladi. Avstriya maktabi vakillari tomonidan qo`llanilgan. XIX asrning o`rtalarida frantsuz iqtisodchisi Kurno (1821-1877), nemis iqtisodchilari Tyunen (1783-1850), Gossen (1810-1858) birinchi bo`lib marjinal tahlilni iqtisodiy nazariyaga joriy etishga uringan. Uning kategoriyalari: qimmat, eng yuqori, chegaralangan naf, noyoblik, ishlab chiqarishning eng yuqori unumdorligi va boshqalar.

**Kembridj maktabi (Angliya)**- asosiy vakili Al fred Marshall (1842-1924), «qiymatsiz baho» nazariyasini ilgari surdi, bahoga «eng yuqori naf» va ishlab chiqarish chiqimlari ta`sir qiladi, degan. Marksning «qiymatning mehnat nazariyasi»ga qarshi. «Siyosiy iqtisod»ni «Ekonomiks» bilan almashtirdi. Asosiy asari «Iqtisodiyot printsiplari» (1890), 3 jildidan iborat, rus tiliga o`girilgan.

**Lozanna maktabi** - L.Val ras va V.Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda ekonometrika usullarini keng qo`llash tufayli paydo bo`lgan.

**Amerika maktabi Jon Beyts Klark** (1847-1938) - Amerika maktabi vakillaridan, AQSh va Kolumbiya universitetlari professori, Amerika maktabi asoschisi, Amerika iqtisodiy uyushmasini tuzish (1885) tashabbuskorlaridan biri. Psixologik va ma`naviy omillar hal qiluvchi deb qaralgan. Avstriya maktabi printsiplariga qo`shilgan. «Mehnat va kapitalning pasayib boruvchi unumdorligi» qonunini kashf etgan. Marjinalizm g`oyalarini rivojlantirgan.

**Bozor iqtisodiyoti** - tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisodiyot. Uzoq tarixga ega bo`lib, sahibkorlarning erkinligi va raqobatni taqozo etadi. Qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonuni B.i.ga xos ob`ektiv qonunlardir. Bozor esa sotuvchi bilan xaridor o`rtasida tovarni pulga ayirboshlash munosabatidir.

**Bozor munosabatlarining shakllanishi** - ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to`g`ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., «Ekonomiks», M.,1992, 12-bet).

**Hozirgi zamon iqtisodiy ta`limotlarining uch asosiy yo`nalishi mavjud:** 1. Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institutsional.

**Institutsionalizm** - lotincha «urf-odat», «muassasa», «ko`rsatma», ya`ni ayrim institutlar (oilalar, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya. XX asrning 20-30-yillarida AQShda keng tarqaldi. T.Veblen (1857-1920), J.R.Kommons (1862-1945), U.K.Mitchell (1874-1948), J.Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir, keyingilari esa Klark, Berli, G.Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gel breyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr) ob`ektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini inkor etadilar.

Buyuk depressiya - 1929-1933 yy. va hatto 1940 yilgacha AQSh va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

**Keyns Jon Meynard** (1883-1946) - ingliz iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi, 1929-1933 yillarda Buyuk inqirozni tahlil etib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta`minlash maqsadida davlatni kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishiga asoslangan nazariyasini yaratdi. Milliy daromad, kapital mablag`, ish bilan bandlik, iste`mol, jamg`arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida e`tibor berdi. «Boshqariladigan kapitalizm»ning tarafdori bo`ldi, turli yo`nalishlari mavjud. A.Marshallning do`sti, marksizmning ashaddiy dushmani, «aralash iqtisodiyot»ning otasi va «Iqtisodiy jurnal»ning muharriri. Asosiy asari

«Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936). *Mul tiplikator* formulasini taklif etgan, investitsiyalarning o`shishi, bandlik va daromadlarning o`shishi o`rtasidagi nisbatni ko`rsatgan, masalan, AQSh uchun o`sha davrda bu ko`rsatkich 2.5 bo`lgan, ya`ni investitsiya qilingan 1 dollar 2.5 dollar daromad keltirgan.

Likvidlik - moddiy ne`matlar va boshqa resurslarning tez pulga aylana olish qobiliyati; korxonani o`z majburiyatlarini o`z vaqtida to`lay olish qobiliyati balansning aktiv punktlarini pulga aylantirish.

**Keynschilik** - J.M.Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo`nalish, uch oqimi mavjud: 1. O`ng oqim - o`ta reaksiya oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan; 2. Liberal oqim - monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim, bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o`rin berilgan. Frantsiyada «dirijizm» (dirijer so`zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan; 3. Yangi keynschilik, keyinroq ortodoks keynschilik - J.M.Keynsning qoidalari to`la qabul qilingan holda A.Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to`ldiriladi. A.Xansen va K.Klark mul tiplikator printsiplarini *akselerator* printsipli bilan to`ldirdilar, indutsirlangan investitsiya tushunchasini kiritdilar. *Imperativ* (zaruriy) va *Indikativ* (taklif majburiy emas) rejalashtirishlardan foydalanish mumkinligi aytiladi (Frantsiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari frantsiyalik G.Ardan, G.Mendes-Frans, F.Perru, S.Xarrislardir. Yangi keynschilik o`rniga postkeynschilik vujudga keldi, uning vakillari J.Robinson, N.Kaldor, P.Sraffa (Angliya), L.Eyxner, .Vayntraub (AQSh); bu oqimda o`shish va taqsimot markaziy deb hisoblanadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif etiladi.

Mul tiplikator - ko`paytiruvchi; iqtisodiyot ta`limotlarida ma`lum bog`lanishlarni o`rganishda, mul tiplikatsiya effekti bor joylarda qo`llaniladi. Masalan, Keyns ta`limoti bo`yicha qo`yilgan investitsiya va daromadlar o`rtasidagi bog`lanishni ko`rsatuvchi koeffitsient.

Akselerator-mul tiplikatorga teskari bo`lgan koeffitsient bo`lib, milliy daromad o`shishining investitsiya o`sviga ta`sirini ko`rsatadi (neokeynschilar qo`llagan).

**Yangi klassik (neoklassik) yo`nalish** - Farb iqtisodiy adabiyotida «Yangi klassik ekonomiks» deb ataladi va bu yo`nalish asosida marjinalizm g`oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A.Marshall (1842-1894) nomi bilan bog`liq. Shu davrda «Siyosiy iqtisod» o`rniga mafkurasiz «Ekonomiks» matni paydo bo`ldi. Unda sof erkin bozor iqtisodiyoti targ`ib etiladi, davlatning roli imkoni boricha kam bo`lmog`i kerak. Bu yo`nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari mavjud. Amerika monetarizmi - M.Fridman (1912, AQSh) o`zining «Kapitalizm va erkinlik» (1960) kitobida «erkin ishbilarmonlik»ni himoya qiladi. «Ozodlik yo`lida qurbon berish»ni va «tabiiy ishsizlik»ni qo`llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to`g`ri pul siyosati bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafdori. Bu oqim g`oyalari Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida qo`llanilmoqda.

«Marshall xochi» - talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko`rsatadi; kesishgan nuqta ularning muvozanatini hamda turg`un bahoni ko`rsatadi.

**Fridman Milton** (1912, N yu York) - *iste`mol: pulning tarixi va nazariyasi* sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976 yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. Uning pul to`g`risidagi g`oyalari (monetarizm) AQShda R.Reygan, Buyuk Britaniyada M.Tetcher iqtisodiy siyosatida qo`llanilgan.

**Samuel son Pol** (1915, AQSh) -ko`p marta qayta nashr etilgan «Ekonomiks» (1948) darsligini yaratdi (rus tiliga ham ag`darilgan), 1970 yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo`shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. «Aralash iqtisodiyot»ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo`yicha, taraqqiyotning «to`rt g`ildiragi» asoschisi.

**Neoliberalizm** - neoklassikaning bir oqimi, klassik iqtisodiy maktabni va keynschilikni birga qo`llash tarafdori, bunda davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi taklif etiladi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881-1973), F. fon Xayek (1899-1992) bo`lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Sotsialistik (imperativ) rejalashtirishga qat`iy qarshi, chunki bu rejalangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv tsivilizatsiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo`lgan. Neoliberalizm g`oyalari asosida «Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti» yuzaga keladi, uning asoschilari - nemis olimlari V.Rebke (1899-1966), V.Oyken (1891-1950), L.Erxard (1897-1977)lardir. Bu kontseptsiya GFR va Shvetsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g`oyalari mustaqil O`zbekiston iqtisodiyotida qo`llanilmoqda. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: erkin baholarning zarurligi; erkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo`jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo`naltirilgan rivojini ta`minlash. N. nafaqat ma`muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmning erkin raqobatlariga asoslangan davridan ham qat`iyan farq qiladi. Mustaqil O`zbekistonda undan ijobiy foydalanilmoqda.

**Lukas R.I.** - neoliberalizmning tarafdori, «Ratsional kutilmalar» nazariyasi uchun 1995 yilda Nobel mukofoti sovrindori. Ijtimoiy-institutsional yo`nalish evolyutsiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neoundustrial) jamiyat sari boradigan konvergentsiya nazariyalarida (Gelbreyt, P.Sorokin - AQSh, Raymon, Aron - Frantsiya, Tinbergen - Niderlandiya) kapitalizm va sotsializmning ilg`or tomonlarini olish va amalda qo`llash taklif etiladi.

«**Xalq kapitalizmi**» nazariyasi - kapitalizm transformatsiyasi (o`zgarishi) bilan bog`liq, go`yoki hozirgi kapitalizm «eski kapitalizm»dan keskin farq qiladi, ilgari illatlar yo`qolgan. X.k.ning vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt... «Kapitalning demokratizatsiyalashuvi» («Mulk diffuziyasi») yo`li bilan aholining barcha qismi mulkka egalik qiladi (aktsionerlik jamiyatlari).

**Konvergensiya nazariyasi** - bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o`rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go`yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g`oya yotadi. Asosiy vakillari: U.Rostou, J.Gelbreyt (1908), Ya.Tinbergen (1903).

**Ekonometrika kontseptsiyalari** - iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan kontseptsiyalar. Asosiy vakillari L.Val ras, V.Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U.Mitchell, E.Barone, M.Panteleoni. 1910 yilda pol shalik iqtisodchi P.Chompa «Ekonometriya» («Ekonometrika») matnini qo`llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R.Frishi kiritgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta`limot yo`nalishlarida qo`llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V.Leont yev ham bu kontseptsiyalardan (1906) o`zining «chiqim - chiqarish» uslubida foydalangan (U 1973 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo`ldi). 60-70-yillarda bu yo`nalish sobiq SSSR, xususan O`zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassisleri tomonidan iqtisodiy modellashtirish va algoritmlash bo`yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

**Jahon xo`jaligi** - qadimdan vujudga kelgan, ammo XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo`jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** - butun jahon xo`jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo`lib uning zarurligini D.Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A.Smit), jahon xo`jaligida ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya`ni ayrim mamlakatlarning ma`lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

**Jahon iqtisodiyoti nazariyalari** - jahon bozorida mahsulot, valyuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o`rganuvchi nazariyalar. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi tipikdir (E.Xeksher, B.Olin, P.Samuel son); «Mahsulot hayoti tsikli» nazariyasi (G.Xufbauer, R.Vernon, M.Pozner); Monopolistik raqobat nazariyasi (E.X.Chemberlin) va boshqalar.

**Absolyut (mutlaq) afzallik printsiplari** - A. Smit tomonidan ilgari surilgan g`oya bo`lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

**Nisbiy afzallik printsiplari** - D. Rikardo tomonidan izohlab berilgan printsiplari bo`lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarning afzalligini ko`rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo`llaniladi.

**Insoniy rivojlanish kontseptsiyasi** - BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo`lishi ko`zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog`lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o`ringa qo`yiladi (ayrim



davlatlar kambag'al bo'lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda «ijtimoiy rivojlanish indeksi» (IRI) bilan o'lchanadi.

**Nokapitalistik (kapitalizmni chetlab) rivojlanish kontseptsiyasi** - ilgari qoloq bo'lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to'la bosib o'tmagan mamlakatlar uchun tavsiya etilgan rivojlanish yo'li. Bir qancha mamlakatlar shu yo'ldan borib, sotsializm quryapmiz, deb o'ylagan. Hayot buni inkor etdi.

**O'tish davri** - bu yerda ma'muriy-buyruqbozlik (imperativ rejalashtirilgan) iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish davri. O'z davrida sotsiolistik deb atalgan mamlakatlarning, xususan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davri.

**Iqtisodiy rivojlanishning «o'zbek modeli»** - 1991 yil 1 sentyabrdan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan Respublikamizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **I.A.Karimov** tomonidan ilgari surilgan, uning besh tamoyili mavjud: *1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning har qanday mafkuradan xoli bo'lishi. 2. Davlat bosh islohotchi. 3. Qonunning hamma narsadan ustun turishi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat. 5. Bozorga bosqichma-bosqich, tadrijiy (evolyutsion) yo'l bilan borish.*

# ADABIYOLAR RO`YXATI

## I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O`zbekiston, 2010. – 121 b.
2. O`zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Xususiy korxonalar to`g`risida”gi Qonuni. -O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. № 3 - T.: Adolat, 2004. – 7-9 b.

## II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

3. “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” : O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi PF-4191-son Farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami – 9 son – 2010- 9 mart.
4. “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo`yicha tashkiliy chora-tadbirlari to`g`risida: O`zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so`zi. -2009. - № 238. – mo dekabr . – 1 b.
5. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 26.01.2009 y. N PQ-1046
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi” Farmoni// Xalq so`zi, 2005 , 15 iyun.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan xisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida” Farmoni// Xalq so`zi, 2005,15 iyun.
8. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish. T.: Xalq so`zi gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, 13 (5687)-soni.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda “O`zbekiston Respublikasining 2008 yil asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to`g`risidagi PQ-744-sonli qarori.
10. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 27 dekabrda “O`zbekiston Respublikasining 2009 yil asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to`g`risidagi PQ-1024-sonli qarori.
11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 24 dekabrda “O`zbekiston Respublikasining 2010 yil asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to`g`risidagi PQ-1245-sonli qarori.
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda “O`zbekiston Respublikasining 2011 yil asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to`g`risidagi PQ-1449-sonli qarori.
13. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda “O`zbekiston Respublikasining 2012 yil asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari” to`g`risidagi PQ-1675-sonli qarori.

### **III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O`zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me`yoriy hujjatlari**

14. O merax po dal neyshemu razvitiyu i modernizatsii predpriyatiy tekstil noy promo`shlennosti i rasshireniyu proizvodstva otechestvenno`x neprodovol stvenno`x potrebitel skix tovarov na 2009-2011 godo`: Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan ot 20 avgusta 2009 goda № 236 //Sobranie zakonodatel stva Respubliki Uzbekistan – 2009. - № 34. – 372.

15. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to`g`risida Qarori//O`zbekiston Respublikasi hukumati qonunlar to`plami, 1999 54 – son, 1999 dekabr. – T.:Uzbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20 b. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida NIZOM. 1999 yil 5 fevral . – T.:O`zbekiston, 1999.- 92 b.

### **IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

16. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir G`I.A.Karimov. – Toshkent: «O`zbekiston», 2010. – 34-50 b.

17. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari G`-T.: O`zbekiston, 2009.-56 b.

18. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. –T.: O`zbekiston, 2005. – 136 b.

19. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo`lishi darkor. Xalq so`zi, 2006 yil 25 fevral.

20. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so`zi, 2006 yil 11 fevral.

### **V. Darsliklar.**

21. Razzoqov A.A., Toshmatov Sh.X., O`rmonov N.T. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Darslik (*lotin yozuvida*). - T.: Iqtisod-moliya, 2007. –320 bet.

22. Razzoqov A. O`rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g`oyalari. O`quv qo`llanma. - T.: TDIU, 2009. - 270 bet.

23. Shodmonov Sh.Sh., Fafurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.

24. V. Avtonomova i dr.. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Uchebnoe posobie. G`Pod redaktsii.– M.: INFRA-M, 2009. – 784 str.

25. M.V. Konotopova. Ekonomicheskaya istoriya mira: V 6 t. G` pod red.– M.: KNORUS, T. 1-2008; – 496 str; T. 2. - 528 str; T. 3– 512 str; T. 4– 384 str; T. 5. – 352; T. 6-384 str.

26. Shodmonov Sh.Sh., Fafurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010 – 726 b

27. Shodmonov Sh.Sh., G`afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010. – 646 b.

28. Kamaev V.D., Il chikov M.Z. Ekonomicheskaya teoriya. Kratkiy kurs: ucheb. M.: KNORUS, 2010. – 384s.

29. Nureeva, R.M. Natsional naya ekonomika: ucheb. M.: INFRA – M, 2010. – 655s.
30. Ekonomicheskaya teoriya G' pod.red. Dobro'nina A.I., Trasevicha L.S. ucheb. SPb.: Piter, 2010. – 560s.
31. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika – 1,2: ucheb G' pod.obh.red. Juravleva G.P. M.: Dashkov i K, 2009. – 934s.
32. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika – 1,2. Metaekonomika. Ekonomika transformatsiy: ucheb. pod.obh.red. Juravleva. G.P. – M.: Dashkov i K, 2009. – 920s.
33. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. – 480 b.
34. Ekonomicheskaya teoriya.: Uchebnik. G'I.K.Stankovskaya, I.A.Strelets. 3-e izd., ispr. – M.: «Eksmo», 2009. – 448 s.
35. Ekonomika.: Uchebnik. G'Samuelson Pol E., Nordxaus Vil yam D. 18-e izd.: Per s angl. – M.: OOO «I.D.Vil yams», 2009. – 1360 s.
36. Ekonomiks: printsipo', problemo' i politika: Uchebnik. G'Makkonnel K.R., Bryu S.L. 17-izd. - M.: INFRA-M, 2009. – 916 s.
37. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika-1,2: Uchebnik. G'Pod obh. red. Zasl'kjenogo deyatelya nauku RF, G.P.Juravlevoy. – 4-e izd., ispr. i dop. – M.: «Dashkov i K», 2008. – 934 s.
38. Ekonomicheskaya teoriya.: Uchebnik. G'S.S.Nosova. 2-e izd., ster. – M.: «KRONUS», 2008. – 800 s.
39. Ekonomicheskaya razvitiya: modeli stanovleniya ro'nochnoy ekonomika: Uchebnik. G'R.M.Nureev. 2-e izd., pererab i dop.. – M.: «NORMA», 2008. – 640 s.
40. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik (*lotin yozuvida*). - T. "Iqtisod-moliya", 2007. –320 b.

## 6. O`quv qo`llanmalar.

41. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo`lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 yanvarda bo`lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma`ruzalarini o`rganish bo'yicha o`quv-uslubiy majmua Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.Fafurov, -T.: Iqtisodiyot, 2010.-340 b.
42. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o`rganish bo'yicha o`quv qo`llanma. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.Fafurov, B.K. To`xliiev. -T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
43. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Fafurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007.

44. Bekmurodov A.Sh., Fafurov U.V. O`zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo`nalishlar. O`quv qo`llanma. T.: TDIU, 2007.
45. Shodmonov Sh., Fafurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma`ruzalar matni. – T.: TDIU, 2008.
46. Shodmonov Sh., Fafurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007.
47. Shodmonov Sh., Fafurov U. Iqtisodiyot asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007.
48. Shodmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii. - T.: Yangi asr avlodi. 2004.
49. Shodmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii. - T.: Yangi asr avlodi. 2004.
50. T.: TDIU bosmaxonasi. 2007. Shodmonov Sh, Minovarova G va Xalilov M. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo`yicha o`quv uslubiy majmuasi. "Iqtisodiy ta`limdagi o`qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2007 , 277 b.
51. Shodmonov Sh va Minovarova G."Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo`yicha o`quv uslubiy ta`lim texnologiyasi. "Iqtisodiy ta`limdagi o`qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2007 , 323 b.
52. Samuel son Pol E., Nordxaus Vil yam D. Ekonomika, 18-e izd.: Per s angl. – M.: OOO «I.D. Vil yams», 2009. – 1360 s.
53. Ekonomicheskaya teoriya: Noveyshie techeniya Zapada. Uchebnoe posobie. – M.: INFRA-M, 2009. – 416 str.
54. Suto`rin S.F, i dr. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uchebnoe posobie. – M.: Eksmo, 2010. – 368 str.
55. Xolopov A.V. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. Uchebnoe posobie. – M.: Eksmo, 2009. – 464 str.
56. Vexi. Ekonomicheskoy mo`сли (B yukenen-Samuel son) Ekonomika blagosostoyaniya i obhestvenno`y vo`bor. T.4. – S-P.burg, 2004. – 568 str.
57. Razzoqov A.A., Toshmatov Sh.X., O`rmonov N.T. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. Ma`ruzalar matni (*lotin yozuvida*). - T.: TDIU, 2007. - 256 bet.
58. Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarno`y kurs: ucheb.posob. M.: KNORUS, 2010. – 510s.
59. Gukas yan G.M. Ekonomicheskaya teoriya:klyuchovo`e voproso`: ucheb.posob. M.: INFRA-M, 2010 – 224s.
60. Ekonomicheskaya teoriya: Noveyshie techeniya Zapada: G`Xudokormov A.G. - M.: INFRA-M, 2009. – 416s.
61. Istoriya ekonomicheskix uchuniy. uchebnoe posobie. G`Pod. red. V. Avtonomova, O. Ananina, N. Makashevoy. - M.: INFRA-M, 2009. – 784 s.
62. Ekonomicheskaya teoriya: Ekspress kurs: ucheb. pos. G` kol. avtorov; pod. red. Gryaznovoy A.G. i dr. 4-e izd., ster. - M.: KNORUS, 2008. 608 s.
63. Ekonomicheskaya teoriya: Ekspress kurs: ucheb. pos. G` kol. avtorov; pod. red. Gryaznovoy A.G. i dr. 4-e izd., ster. - M.: KNORUS, 2008. 608 s.
64. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo`raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Moliya. 2002.

65. Sovremennaya ekonomicheskaya teoriya: problemo' razrabotki i prepodavaniya. G' Pod red. Xubieva K.A. - M.: Ekonomicheskii fakul tet MGU, TEIS, 2002.

66. Shastitko A.E. Novaya institutsional naya ekonomicheskaya teoriya. M.: Ekonomicheskii fakul tet MGU, TEIS, 2002.

67. Razvitie otrasley sotsial noy sfero' v perexodnoy ekonomike. G' Pod red. ye. N. Shiltsova, P. N. Pomanova. - Ekonomicheskii fakul tet MGU, TEIS. 2001.

68. Kurs ekonomicheskoy teorii: Obhie osnovo' ekonomicheskoy teorii. Mikroekonomika. Makroekonomika. Osново' natsional noy ekonomiki: Uchebnoe posobie G' Pod red. d.e.n., prof. A.V. Sidorovicha. - M.: «Delo i Servis», 2001.

69. Mihkevits A.A. Sbornik zadaniy po ekonomike. V.3-x knigax. Kn. 1. Zadachnik po mikroekonomike s resheniyami. - M.: Vita-Press, 2001.

### **VII. Statistika to`plamlari ma`lumotlari**

70. Investitsii respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2009. - 148 s

71. Promo'shlennost respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskii sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2007. - 156 s.

72. Sel skoe xozyaystvo Uzbekistana 2009. Statisticheskii sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2009. - 160 s

### **VIII. Internet saytlari**

73. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi Samarali iqtisodiy siyosat markazi. O`zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh, T.: 2009.

74. O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi. O`zbekiston Respublikasining 2008 yil statistik axborotnomasi, T., 2009.

75. Ekonomika Uzbekistana. Analiticheskii obzor za 2008 god. TSentr effektivnoy ekonomicheskoy politiki. T., 2009.

76. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining rasmiy sayti.

77. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) - O`zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

78. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) - O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

79. [www.economy.com](http://www.economy.com) - AQShning Pensil vaniya shtatidagi Economy.com, Inc. korporatsiyasi veb-sayti.

80. [www.internetindicators.com](http://www.internetindicators.com) - Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.

81. [www.economyworld.com](http://www.economyworld.com) - [Photius Coutsoukis](#) and [Information Technology Associates](#) (Axborot Texnologiyalari Assotsiatsiyasi) veb sayti.

82. [www.economyworld.org](http://www.economyworld.org) - [Photius Coutsoukis](#) and [Information Technology Associates](#) (Axborot Texnologiyalari Assotsiatsiyasi) veb sayti.